Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi
“Adabiyot nazariyasi” fanidan o`quv-uslubiy majmua
(1-курслар учун)

Annotatsiya

Adabiyot nazariyasi fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni II semestrda o'rganishadi.

Adabiyot nazariyasi fanining asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adbiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, talabalarning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish sanaladi.

Faning bosh vazifasi talabalarga adabiyotshunoslikning turli masalalarini tahlil etish, mustaqil fikrlash, "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Badiiy tahlil asoslari", "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kabi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

Kirish

Davlat ta’lim standartiga ko’ra oliy ta’limning “Filologiya” ta’lim sohasida o’qitiladigan “Adabiyot nazariyasi” fani dasturi adabiyotshunoslikda zarur bo’ladigan adabiyot tarixi, badiiy tahlil, talqin, adabiy tanqiddan boshlang’ich tushunchalarni o’z ichiga olgan bo’limlardan tashkil topgan.

Adabiyot nazariyasi fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o’rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

“Adabiyot nazariyasi” fanini o’qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, proyektor, elektron doska va shu kabi texnik vositalardan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo’yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Internet tarmog’idagi adabiyot va adabiyotshunoslikka oid rasmiy elektron kutubxonalar, ijodkorlarning shaxsiy veb-sahifalariga murojaat qilinadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so’z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o’tkaziladi.

Tuzuvchilar: G.Umurova - tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, **N. Rahmatullaev -** tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchi:

Umurov H.I. - Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Fanning ishchi o'quv dasturi "Tarjima nazariyasi va amaliyoti " kafedrasining 2015yil 26 avgustdagi 1-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ Turdiyeva N.YO.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2015yil ___avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____Bo`riyev H.

Kelishildi: O'quv uslubiy bo`lim boshlig'i

_____ Xoliqov M.B..

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Ro’yxatga olindi: “TASDIQLAYMAN”

O’quv ishlari bo’yicha prorektor

№ _____ _____

2015 y. “___” _____ “___”_____ 2015y.

ADABIYOT NAZARIYASI
FANINING
ISHCHI O’QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta’lim yo’nalishi: 5120200 – tarjima nazariyasi va amaliyoti(tillar bo`yicha)

Samarqand – 2015

Kirish

Davlat ta'lim standartiga ko'ra oliy ta'limning "Filologiya" ta'lim sohasida o'qitiladigan "Adabiyot nazariyasi" fani dasturi adabiyotshunoslikda zarur bo'ladigan adabiyot tarixi, badiiy tahlil, talqin, adabiy tanqiddan boshlang'ich tushunchalarni o'z ichiga olgan bo'limlardan tashkil topgan.

Adabiyot nazariyasi fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Adabiyot nazariyasi fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni II semestrda o'rganishadi.

Adabiyot nazariyasi fanining asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adbiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, talabalarning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish sanaladi.

Faning bosh vazifasi talabalarga adabiyotshunoslikning turli masalalarini tahlil etish, mustaqil fikrlash, "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Badiiy tahlil asoslari", "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kabi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar

Talabalar adabiyot nazariyasini o'rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishlari lozim:

- Badiiy matnni tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho bera olishi;
- adabiy hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'zlashtira olishi;
- badiiy tafakkur va dunyoqarash haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- mustaqil va zamonaviy fikrlashi, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatini yuksaltirishi;
- badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko'nikmalarini shakllantirishi;
- syujet, kompozisiya, fabula, konflikt kabi badiiy asar tuzilishi bilan bog'liq masalalar haqida nazariy bilimga ega bo'lishi.
- badiiy asarni yaxlit tizim sifatida tahlilga tortish kompetensiyalariga ega bo'lishi.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Mazkur fan adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, san'at sosiologiyasi, psixologiya, falsafa fanlarida o'rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan.

Bu dasturni amalda bilishlari uchun talabalar universitetgacha bo'lgan elementar adabiyot, adabiyot qoidalari kabi fanlardan yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

Adabiyot nazariyasi "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Badiiy tahlil asoslari" va boshqa fanlarni o'rganishda ko'prik vazifasini o'taydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va

pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni o'zaro bahs, savol-javob tarzida qiziqarli tashkil kilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqotga, ilmiy izlanishga chorlash.

"Adabiyot nazariyasi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan xolda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Ta'lim oluvchining xatti-harakatlarini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyat va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ochiqlik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimning obyektiv qarama-qarshiligi hamda uni hal etishda dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni, mustaqil ijodiy faoliyatni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitish usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruhda ishlash.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotlari chog'ida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlarini baholash.

"Adabiyot nazariyasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, proyektor, elektron doska va shu kabi texnik vositalardan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Internet tarmog'idagi adabiyot va adabiyotshunoslikka oid rasmiy elektron kutubxonalar, ijodkorlarning shaxsiy veb-sahifalariga murojaat qilinadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

“Adabiyot nazariyasi” fanidan mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi:

Mavzuning tartib raqami	Mavzuning nomi	Ajratilgan o’quv soatlari
Ma’ruza mashg’ulotlari		
1-mavzu	Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni	2 soat
2-mavzu	San’atning turlari. Adabiyot – so’z san’ati	2 soat
3-mavzu	San’atkor ideali	2 soat
4-mavzu	Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik	2 soat
5-mavzu	Badiiy obraz tushuchasi	2 soat
6-mavzu	Poetik obraz xususiyatlari	2soat
7-mavzu	Badiiy asarda mazmun va shakl birligi	2soat
8-mavzu	Badiiy asarda mazmun va shakl birligi	2 soat
9-mavzu	Badiiy asarda g’oya	2 soat
Jami:		**18 soat**
Seminar mashg’ulotlari		
1-mavzu	Adabiyotshunoslik – fan	2 soat
2-mavzu	Badiiy obraz	2soat
3-mavzu	Obraz, personaj, xarakter, tip	2soat
4-mavzu	Badiiy asarda mazmun va shakl dialektikasi	2 soat
5-mavzu	Adabiyotshunoslik metodlari haqida tushuncha	2 soat
6-mavzu	Badiiy asar syujeti	2 soat
7-mavzu	Badiiy asar kompozisiyasi	2 soat
8-mavzu	Badiiy asar tili	2 soat
9- mavzu	Badiiy asar pafosi	2soat
10-mavzu	Adabiyotda milliylik va uminsoniylik.	2soat
Jami:		**20soat**
Hammasi:		**38 soat**

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) fan mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo’yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar to’la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo’yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo’layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o’zgarishlar, ilmiy-badiiy tafakkurdagi evrilishlar va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so’ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

“Adabiyot nazariyasi” fani bo’yicha ma’ruza mashg’ulotlarining kalendar tematik rejasi

№	Mavzular	Ma’ruza soatlari	O’tiladigan muddat	Qo`llanadigan ped.texnologiya
1	Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni	2	mart,2016y, 1-hafta	
2	San’atning turlari. Adabiyot – so’z san’ati	2	mart,2016y, 2-hafta	
3	San’atkor ideali	2	mart,2016y, 3-hafta	
4	Adabiyotda milliylik va uminsoniylik	2	mart,2016y, 4-hafta	
5	Badiiy obraz tushunchasi	2	aprel,2016y, 1-hafta	
6	Poetik obraz xususiyatlari	2	aprel,2016y, 2-hafta	
7	Badiiy asarda mazmun va shakl birligi	2	aprel,2016y, 3-hafta	
8	Badiiy asarda mazmun va shakl birligi	2	aprel,2016y, 4-hafta	
9	Badiiy asarda g’oya	2	may,2016y, 1-hafta	
	Jami:	18		

Ma’ruza mashg’ulotlari

1-mavzu: Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni.

San'atning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, turlari. "Adabiyot" arabcha so'zidan olingani. Adabiyot nazariyasi tor ma'noda badiiy ijod qonuniyatlarini o'rganadigan fan ekani. Badiiy adabiyot san'at turlaridan biri sifatida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim. Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, algoritm, munozara, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10; Q14; Q27.

2-mavzu: San'atning turlari. Adabiyot – so'z san'ati.
Raqs, haykaltaroshlik, musiqa, rassomlik, kino haqida ma'lumot. Rassom chiziq va buyoqlar orqali, raqqosa ritmik harakat, mimika orqali ma'lum hayotiy manzarani gavdalantirishi.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blis-so'rov, zig-zag usuli, munozara, BBB, Insert, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q26.

3-mavzu: San'atkor ideali.
Idealning bosh belgisi – vatanpararlik. Estetik idealga mos kelgan hodisa-go'zallik. Buyuklik, tubanlik, hajviyona, fojeona vaboshqa estetik kategoriyalar. Go'zallik qoidalariga rioya qilish. Go'zallik tushunchasining nisbiy ekani. Adabiyotning insonni ulug'lab, go'zallikni madh etishi.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Integrativ, munozara, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q15.

4-mavzu: Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik.
Milliylikka xos xususiyatlar. Umuminsoniylik mohiyati. Adabiyot buyuk milliy-ma'naviy boylik sifatida.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ajurali arra, bumerang, usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q21.

5-mavzu: Badiiy obraz tushunchasi
Obraz tasnifi. Obrazda umumiylik va xususiylik. Prototip masalasi.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blits, usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q25.

6-mavzu: Poetik obraz xususiyatlari.. Insonining hayot haqidagi idealini san'at orqali ifoda etishi. San'atda voqyelik badiiy obrazlar orqali ifoda qilinishi. Obrazlilik san'atning bosh belgi ekani. Obraz va detal. Obraz va so'z.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blits, usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*
Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q25.

7-mavzu: Badiiy asarda mazmun va shakl birligi.

Shakl va mazmun haqida tushuncha. Ularning birligi. G'oya va mavzu rang-barangligi. Adabiyotning bosh tasvir predmeti inson ekani.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Bumerang", "Klaster", "Blis-so'rov", "Fikrlash xaritasi" "Ajurali arra", "Veyer", Charxpalak, B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q23.

8-mavzu: Badiiy asarda mazmun va shakl birligi.

Badiiy asarda mavzu. Bosh mavzu va kichik mavzu. Mavzuning mohiyati. Mavzuning aktualligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ma'ruza, namoyish etish, savol-javob, "Bumerang", "Klaster", "Blis-so'rov", "Fikrlash xaritasi" "Ajurali arra", "Veyer", Charxpalak, B.B.B jadvali, kichik guruhlarda ishlash metodlari.

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q23.

9-mavzu: Badiiy asarda g'oya.

Badiiy va ijtimoiy g'oya. Obe'ktiv g'oya. Mavzu va g'oya munosabatlari. Shakl keng ma'nodagi obrazlar strukturasi ekani. Syujet va kompozisiya. Syujet tiplari. Xronotop tushunchasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Namoyish etish, savol-javob, "Klaster", "Blis-so'rov", Charxpalak, kichik guruhlarda ishlash metodlari.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q22.

"Adabiyot nazariyasi" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

№	Mavzular	Soatlar	O'tiladigan muddat	Qo`llanadigan ped.texnologiya
1	Adabiyotshunoslik fan sifatida.	2	mart.2015,2-hafta	
2	Obrazlilik va badiiy obraz	2	mart.2016,3-hafta	
3	Badiiy obraz, personaj, xarakter, tip	2	mart.2016,4-hafta	
4	Badiiy asarda mazmun va shakl dialektikasi	2	aprel.2016,1-hafta	
5	Adabiyotshunoslik metodlari haqida tushuncha	2	aprel.2016,2-hafta	

6	Badiiy asar syujeti	2	aprel.2016,3-hafta	
7	Badiiy asar kompozisiyasi	2	aprel.2016,4-hafta	
8	Badiiy asar tili	2	may.2016,1-hafta	
9	Badiiy asar pafosi	2	may.2016,2-hafta	
10	Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik.	2	may.2016,2-hafta	

	Jami:	20		

Seminar mashg'ulotlarning

tavsiya etiladigan mavzulari

1-mavzu:Adabiyotshunoslik fan sifatida.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyot – hayotning badiiy in'ikosi. Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Boburning adabiyotshunoslikka doir asarlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

Adabiyotlar: A4; Q5; Q7; Q11; Q12; Q14.

2-mavzu:Obrazlilik va badiiy obraz.

Obrazlilik. Badiiylik. Badiiy obrazning asosiy xususiyatlari. Obraz, personaj, xarakter, tip. Obraz yaratish yo'llari. Obrazlar tasnifi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A3; Q6; Q7; Q10; Q12; Q11.

3-mavzu: Badiiy obraz, personaj, xarakter, tip. Obraz yaratish yo'llari. Obrazlar tasnifi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A3; Q6; Q7; Q10; Q12; Q11.

4-mavzu:Badiiy asarda mazmun va shakl dialektikasi.

Mazmun haqida tushuncha. Shakl haqida tushuncha. Mazmun va shakl birligi. Mavzu va g'oya.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, pinbord.*

Adabiyotlar: A2; Q5; Q7; Q11; Q9; Q13.

5-mavzu:Adabiyotshunoslik metodlari haqida tushuncha.

Metodlar tasnifi. Biografik metod. Sosiologik metod. Formal metod. Struktural, psixologik, lingvistik, qiyosiy-tarixiy metodlar. Germenevtika va metodologiya.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A4; Q5; Q7; Q11; Q12; Q14.

6-mavzu:Badiiy asar syujeti.

Syujetning ikki alomati. Asar syujetida konfliktning ahamiyati. Konflikt ko'rinishlari: ijtimoiy konflikt, ruhiy, maishiy konflikt kabi. Ichki ruhiy konflikt (ichki kolliziya). Syujet va kompozisiya munosabati. Makon va zamon.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A4; Q5; Q7; Q11; Q12; Q18.

7-mavzu:Badiiy asar kompozisiyasi.

Kompozisiya haqida tushuncha. Kompozisiya tamoyillari, vositalari. Syujet va kompozisiya munosabati. Kompozision hikoya qilish usullari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi, pinbord, paradokslar.*

Adabiyotlar: A4; Q5; Q7; Q11; Q12; Q21.

8-mavzu:Badiiy asar tili.

Badiiy, adabiy, umumxalq tili. Muallif tili, (dialog, monolog, "ong oqimi"). Ta'rif, tavsif, tasvir.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, keys-stadi, paradokslar.*

Adabiyotlar: A5; Q6; Q8; Q9; Q13; Q15.

9-mavzu: Badiiy asar pafosi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A5; A6; A7;.

10-mavzu: Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik.

Milliylikka xos xususiyatlar. Umuminsoniylik mohiyati. Adabiyot buyuk milliy-ma'naviy boylik sifatida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari**:** *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Ajurali arra, bumerang, usuli, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; Q6; Q7 Q8; Q9; Q10; Q14; Q21.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

"Adabiyot nazariyasi" bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchining ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

№	Vazifa mazmuni	Maqsadi	Nazorat turi	Ijro snakli	vaqti	soat
1.	Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sifatida.	**Nazariy materialni mustahkamlash**	**Savol, javob**	**O`quv va badiiy matnni o`qish, konspekt yozish, modul tizimiga kiritish**	**mart 3hafta**	**6**
2.	San'at turlari: farqlanishdagi tamoyillar. Badiiylik mezonlari	**Nazariy materialni mustahkamlash, bilimni sinovdan o`tkazish**	**Savol, Javob**	**Mavzularni o'zlashtirish**	**mart 4hafta**	**6**
3.	Badiiy obraz va obrazlilik. Obraz, xarakter, tip: asoslari, umumiylik va o'ziga xosliklar. . .	**Nazariy materialni mustahkamlash**	**Savol, Javob**	**Adabiyotni o`qish va tahlil qilish**	**aprel 1,2 haftalar**	**8**
4.	Badiiy adabiyotda uminsoniylik, milliylik va individuallik masalasi.	**Nazariy materialni mustahkamlash**	**Savol, javob**	**Adabiyotni o`qish va tahlil qilish**	**aprel 3-4 haftalar**	**6**
	Jami					**26**

Dasturning informasion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi;

- amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, "ish o'yini" va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

"Adabiyot nazariyasi" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

"Adabiyot nazariyasi" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Adabiyot nazariyasi" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o’quv fani bo’yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo’yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: , 100O V R

bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy o’quv yuklamasi (soatlarda);

O’ -fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo’yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to’plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo’yicha 55bal va undan yuqori balni to’plagan talaba fanni o’zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo’yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo’l qo’yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo’yicha to’plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to’plagan ballari yig’indisiga teng.

ON va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o’tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o’tkaziladi.

JN va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to’plagan va uzrli sabablarga ko’ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so’nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo’lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo’yicha to’plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo’lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo’yicha to’plagan ballari yig’indisi 55 baldan kam bo’lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo’lsa, fan bo’yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko’ra rektor buyrug’i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo’lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko’rib chiqib, shu kunning o’zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o’rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o’tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o’quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo’limi tomonidan nazorat qilinadi.

Adabiyot nazariyasi fanidan reytingli baholash mezoni

Ta’lim yo’nalishi: Tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo'yicha)

O’quv shakli: kunduzgi, Kurs: I Semestr: 2

2 - s e m e s t r : 1 J O R I Y								
Ajratilgan amaliy va M/T soat :	Darslar soni:	Ajratilgan ball :	Kunlik belgi-langan ball :	Darsga kelmagan talaba uchun:	0-55 % uchun: 0-5 b	56-70% uchun: 5,5-7	71-85 % uchun: 7,5-8,5	86-100 % uchun 9- 10b
10 soat	5 ta dars	10-5,5 ball	0,6-1.1 ball	0 ball	0-0.5 ball	0.6-0.7 ball	0,8-0.9 ball	1-1.1 ball
M/T 12 soat	2 ta mavzu	10-5,5 ball	1.3-2.5 ball	0 ball	0-1.2 ball	1.3-1.7 ball	1.8-2 ball	2.25-2.5 ball
2 - J O R I Y								

10 soat	5 ta dars	10-5,5 ball	0,55-1 ball	0 ball	0-0.5 ball	0.55-0.7 ball	0,75-0.85 ball	0.9-1 ball
M/T 14 soat	2ta mavzu	10-5,5 ball	1.3-2.5 ball	0 ball	0-1.2 ball	1.3-1.7 ball	1.8-2 ball	2.25-2.5 ball

Bir semestrda bitta fandan ikkita joriy nazorat olinadi. Har bir joriy minimal 11 ball, maksimal 20 ball miqdorida baholanadi. Belgilangan ballar teng ikkiga bo'linadi. Joriyning 10 bali seminarlar davomida, qolgan 10 bali mustaqil ta'lim topshirish orqali to'planadi. Talaba ikkita joriy umumlashgan holda minimal 22 maksimal 40 ballni tashqil etadi

Adabiyot nazariyasi fanidan talabalarning joriy baholari talaba har bir darsda qatnashganiga va har darsdagi faolligiga ko'ra joriyning 5,5 dan 10 gacha bo'lagan ballarni to'playdi. Darslar davomida talabalar tarjima badiiy bo'yoqdorligiga doir ma'lumotlarni olish va seminarlarda javob berishiga ko'ra baholanadi. Darsga kelmagan talaba shu kungi darsni qayta o'zlashtish orqali ball oladi.

Talabalar mustaqil ta'lim mavzulari soniga ko'ra har bir mavzuga yuqorida belgilangan birlik asosida joriyning 5,5-10 ballarni to'plashadi.

Talabalar JN dan to`playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball	JB-1	JB-2	JAMI
1.	Darslarga qatnashganlik va o`zlashtirish darajasi. Amaliy mashgulotlardagi faolligi.	9.5	10 x 0.5	9 x 0.5	9.5
2.	Mustaqil ta`lim topshiriqlarning o`z vaqtida va sifatli bajarilishi.	11.5	10 x 0.7	9 x 0. 5	11.5
3.	Mavzular bo`yucha uy vazifalarini bajarilish va o`zlashtirish darajasi.	9.5	10 x 0.5	9 x 0.5	9.5
4.	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	9.5	10 x 0.5	9 x 0.5	9.5
	Jami ball	40	20	20	40

Talabalar ON dan to`playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball	ON	Jami
1.	Berilgan savol va uning mohiyatini talaba to`liq tushunsa.	10	10 x 1.0	10
2.	Berilayotgan javobning mantiqiyliq va stilistik bogliqlik mavjud bo`lsa. Imloviy xatolarning uo`qligi.	10	10 x 1.0	10
3.	Talabada fan bo`yicha to`liq tasavvur mavjud bo`lsa. Talaba berilgan savolni javobini to`liq ochib bera olsa	10	10 x 1.0	10
	Jami ball	30	30	30

Oraliq nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan, u holda oraliq nazorat 30 ballik “Uozma ish” vapiantlari asosida o`tkaziladi.

Yakuniy baholash

№	Baholash mezonlari	Ajratilgan ball	YAB	Jami
1.	Berilgan savol va uning mohiyatini talaba to`liq tushunsa.	10	10 x 1.0	10
2.	Berilayotgan javobning mantiqiyliq va stilistik bogliqlik mavjud bo`lsa. Imloviy xatolarning uo`qligi.	10	10 x 1.0	10
3.	Talabada fan bo`yicha to`liq tasavvur mavjud bo`lsa. Talaba berilgan savolni javobini to`liq ochib bera olsa	10	10 x 1.0	10
	Jami ball	30	30	30
	Hammasi: 40+30+30 =	100	100	100

Uakuniy “Yozma ish” shaklida belgilangan, u holda uakuniy 30 ballik “Yozma ish” vapiantlari asosida o`tkaziladi.

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko’p variantli usulda o’tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 1 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo’yicha tayanch so’z va iboralar asosida tuzilgan bo’lib, fanning barcha mavzularini o’z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

MA’RUZA MASHG’ULOTLAR

1-MAVZU	ADABIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

AXBOROTLI MA’RUZA TA’LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O’quv mashg’uloti shakli	**Axborotli ma’ruza**
O’quv mashg’uloti rejasi	**Reja:** **1. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti.** **2. Adabiyot nazariyasi fanining mazmuni.** **3. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.**
O’quv mashg’uloti maqsadi: “Adabiyot nazariyasi” yuzasidan o’quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko’nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga adabiyot va uning keng, tor ma’nolari haqida ma’lumotlarni tizimlashtirish; -Tazkira bo’yicha badiiy asarlardan aniqlash va ularni tahlil qilish; - Adabiyot nazariyasining predmeti va ob’ekti aniqlanadi, yangi ma’lumotlar xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O’quv faoliyati natijalari:** Adabiyotning keng va tor ma’nolari kabi tushunchalarni hosil qilishadi Tazkira bo’yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Adabiyotning tarkibiy qismlari xususida xulosalar chiqarishadi
Ta’lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta’limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

AXBOROTLI MA`RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni. Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z fikrlarini beradilar

	savollar orqali aniqlanadi: 1. “Adabiyot” atamasining mazmuni 2. Uning qo’llanilishi 3. Tor ma’noda adabiyot deganda nimani tushunasiz? 4. Keng ma’noda adabiyot deganda nimani tushunasiz? 2.2.Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg’ulotda yechiladigan muammoga “olib kiriladi” va uni ifodalaydi: 1. Adabiyotning ma’rifiy-estetik ahamiyati nimadan iborat? 2. Adabiyot nazariyasining ob’ekti nima? 3. Adabiyot nazariyasining predmeti va vazifalarini aniqlang. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo’lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo’llarini izlashni tashkillashtirishga o’tadi, ya’ni talabalarga “Adabiyotshunoslikkka kirisk” fani yuzasidan chuqur ma’lumot beradi. Mashg’ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar ko’rgazmali materiallardan foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo’linadi, taqdimot uchun qog’ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish “yechimlar daraxti” tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma’lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko’chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi	Kichik muammoni yechish bo’yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Yechimlar daraxti” tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo’yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e’tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari	Misol
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Tazkira deb nimaga aytiladi?	a)Qayd etish; b) yozib olish; s) yod olish; d) a va b javoblar to'g'ri
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	O'zbek adabiyotidagi birinchi tazkiralarni aniqlang?	a)Davlatshohning "Tazkiratsh shuaro"; b) navoiyning "Majolisun-nafois" s) Navoiyning "Majmuatush shuaro" d) barcha javoblar to'g'ri
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Qaysi tazkiraning bir bobi to'liq shoir Husayn Bayqaroga bag'ishlangan?	a)Davlatshohning "Tazkiratsh shuaro"; b) Navoiyning "Majolisun-nafois" s) Navoiyning "Majmuatush shuaro" d) barcha javoblar to'g'ri
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

1-mavzu. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti va mazmuni (2 soat)

Reja:

1. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti.
2. Adabiyot nazariyasi fanining mazmuni.
3. Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch so`z va iborlar: *Fanning predmeti, adabiyotshunoslik, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badia.*

Adabiyot nazariyasi fanining predmeti. Fanning predmeti deyilganda o'sha fan nimani o'rganishi nazarda tutiladi. Har qanday fan alohida fan tarmog'i bo'lishi uchun o'zining o'rganish sohasiga ega bo'lishi lozim. Adabiyot nazariyasi fanining nomidanoq uning o'rganish sohasi adabiyot ekanligi ochiq-oshkor ko'rinib turadi. "Adabiyot" o'zi arabcha "adab" so'zining ko'plik shakli bo'lib, u keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda qo'llanilganda "adabiyot" so'zi o'qishga mo'ljallab yozilgan va chop qilingan barcha asarlarni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay, "adabiyot" so'zi(termini) tor ma'noda ham juda faol ishlatiladi va bunda so'z san'atiga daxldor bo'lgan asarlar - badiiy adabiyot tushuniladi. Mazkur istilohning ayni shu tarzda(tor va keng ma'nolarda) qo'llanilishi rus va boshqa bir qator tillarda ishlatiluvchi "literatura" so'ziga o'xshashdir. Zero, bu termin ham

"litera"("harf") so'zidan olingan bo'lib, keng ma'noda umuman chop etilgan mahsulotni, tor ma'noda badiiy adabiyotni anglatadi. Biz mutaxassis sifatida "adabiyot" so'zining tor ma'nosini ishlatamiz va bunda badiiy adabiyotni nazarda tutamiz.

Demak, adabiyot nazariyasining o'rganish sohasi badiiy adabiyot ekan. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini har jihatdan va atroflicha o'rganadi. Adabiyotshunoslikning predmeti bo'lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko'lami juda keng. Ularning bir qismi umumestetik(badiiy san'at sohalarining barchasiga xos) muammolar sirasiga kirsa, boshqa bir qismi sof adabiyotshunoslik muammolari sanaladi. Deylik, badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator muammolar umumestetik xarakterga ega. San'atning barcha turlariga taalluqli bu muammolarni adabiyotshunoslik badiiy adabiyot nuqtai nazaridan, badiiy adabiyot bilan bog'lagan holda va uning misolida o'rganadi. Badiiy adabiyotning mohiyati, uning rivojlanish omillari va qonuniyatlari, badiiy(adabiy) asar tabiati, uning tuzilishi, badiiy(poetik) til xususiyatlari, adabiy tur va janrlar kabi qator masalalar borki, ular sof adabiyotshunoslik muammolari sanalishi mumkin.

Adabiyotshunoslik bu muammolarni nima maqsadda o'rganadi? Umuman, ularni o'rganishga zarurat bormi? Axir, adabiyotshunoslikdan bexabar bo'lgan holda ham badiiy asarni o'qib zavqlanish yoxud go'zal asarlar yaratish mumkin emasmi? Bir qarashda bu savollarning yuzaga kelishi tabiiy va asoslidek, adabiyotshunoslikning badiiy adabiyotni o'rganishdan maqsadi o'rganishning o'zidek ko'rinishi mumkin. Aslida esa bu xil savollarning yuzaga kelishi adabiyotshunoslik ilmining ahamiyatini tushunmaganlikdan, uning vazifalari va rolini tasavvur qila olmaganlikdandir. Zero, umumiy nazar tashlashdayoq adabiyotshunoslik ilmining ikki jihatdan — badiiy adabiyotning rivojlanishi va badiiy did tarbiyasi jihatlaridan ahamiyatli ekanligi ko'rinadi. Ya'ni, aslida adabiyotshunoslik fani yutuqlari ijodkorlarga ham, o'quvchi ommaga ham kerak. Aytaylik, adabiyotshunoslik badiiy asarni tahlil qilib, uning jozibasini ta'minlayotgan, badiiy ta'sir, ifodaviylik va tasviriylikni oshirayotgan unsurlarni, muallifning muayyan badiiy samaraga erishishini ta'minlayotgan usul va vositalarni ochib beradi(e'tiborda tutingki, bu ishni adabiyotshunoslik necha asrlar davomida bajarib keladi). Ya'niki, adabiyotshunoslik badiiy so'z san'ati yutuqlarini ochib beradi va umumlashtiradi. Endi adabiyotshunoslikdan ozmi-ko'pmi xabari bo'lgan odamning va undan mutlaqo xabarsiz odamning badiiy ijodga qo'l urgani yoki badiiy asar mutolaasiga kirishganini tasavvur qiling. Ulardan qaysi birining harakati ko'proq samara beradi? Tabiiyki, adabiyotshunoslikdan xabardor kishining harakatlari samaraliroq bo'ladi, chunki u "qaytadan velosiped kashf etish"dan qutuladi. Albatta, bunda kishining iqtidor darajasi, tug'ma iste'dodi ham katta ahamiyatga molik. Biroq, birinchidan, o'sha tug'ma iste'dod degan narsa ham genlar bilan bog'liq, ya'niki, undagi iste'dod ajdodlari to'plagan bilimu tajribalarning qaymog'idir. Ikkinchi tomondan, tug'ma iste'dodlar barmoq bilan sanarli, shunday ekan, adabiyotshunoslik ommaning badiiy didini tarbiyalashda ham, badiiy tafakkur rivojida ham sezilarli ahamiyat kasb etaveradi.

Yuqoridagilarni xulosalab aytish mumkinki, badiiy adabiyotga taalluqli muammolarni atroflicha va chuqur ilmiy o'rganish — adabiyotshunoslikning vazifasi; chiqargan ilmiy xulosa va umumlashmalari orqali badiiy adabiyot taraqqiysi, badiiy tafakkur rivojiga xizmat qilish, badiiy did tarbiyasiga ta'sir o'tkazish uning maqsadidir.

Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi kabi masalalarni umumiy tarzda o'rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. Adabiyot nazariyasi adabiyot tarixi va adabiy tanqid materiallarni umumlashtirsa, bu ikkisi o'z faoliyatida adabiyot nazariyasi ochgan qonuniyatlar, u ishlab chiqqan ilmiy tushunchalar tizimiga tayanadi. Shu tariqa adabiyotshunoslikning har uchala asosiy sohalari bir-biri bilan bog'lanadi, yaxlit bir tizim - adabiyotshunoslik ilmini tashkil qiladi.

Mumtoz Sharq adabiyotshunosligida, jumladan o'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining bir qator masalalari ancha keng o'rganilgan. Keng o'rganilgan masalalar sirasiga ilmi aruz(A.Navoiy, Bobur), ilmi qofiya, ilmi badia(A.Husayniy) kabilarni kiritish mumkin. Ko'rib turganimizdek, bu masalalar adabiyotshunoslikning bir qismi - poetika doirasi bilan cheklangan edi. Sharqda "muallimi soniy" deb ulug'lanuvchi Forobiy esa yunon faylasufi Arastu ta'sirida va bevosita uning asarlarini sharhlash jarayonida badiiy adabiyot spesifikasi (mohiyati) masalalariga e'tibor qilgan edi. Biroq mumtoz adabiyotshunoslikda ham adabiyot nazariyasi muayyan bir tizim holiga kelmagan, tadbiqiy harakterdagi hodisa edi. O'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasining alohida tarmoq sifatida shakllanishi ham XX asrda amalga oshdi. O'zbek adabiyotshunosligining ilk nazariyotchilari sifatida A.Fitrat, A.Sa'diylarni ko'rsatish mumkin. Adabiyotshunosligimizning keyingi taraqqiyoti davomida I.Sulton, N.Shukurov, L.Qayumov, B.Sarimsoqov, B.Nazarov kabi qator nazariyotchi olimlarning tadqiqotlari adabiy-nazariy tafakkur rivojiga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi.

Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Bugungi kun kishisining tafakkur darajasi, insoniyat tomonidan to'plangan bilimlar ko'lami benihoya kengaygan. qadimda fanlar o'zaro ajralmagan, xususan, adabiyotshunoslik ham falsafa ichidagi bir hodisa edi. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti, inson tafakkurining rivoji davomida turli fanlar alohida mustaqil fanlar sifatida ajralib chiqdi. Biroq bu ajralishni tamomila maxdudlashish deb tushunmaslik lozim. Chunki adabiyotshunoslik, fanning barcha mustaqil tarmoqlari singari, boshqa fanlar bilan aloqada yashaydi, rivojlanadi. Bu xil aloqa davomida adabiyotshunoslik boshqa fanlardan nimalarnidir oladi, ularga nimalarnidir beradi.

Adabiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida gapirganda, avvalo, uning tilshunoslik bilan aloqasi xususida to'xtalish lozim. Badiiy adabiyotning materiali so'z, adabiy asar esa so'zlardan tarkib topuvchi matndir. Badiiy matn esa, ravshanki, til qonuniyatlari asosida tarkib topadi. Til qonuniyatlarini bilishlik matnning qurilishi, tagma'nolari, ishlatilgan stilistik figuralarning estetik qimmati haqida fikr yuritishda juda muhim. Odatda badiiy matn tilini o'rganishga qaratilgan ishlarni adabiyotshunoslik va tilshunoslik chegarasidagi ishlar deb qaraladi. Biroq

bunda biz chegarani aniq olishimiz kerak. Gap shundaki, adabiyotshunoslik tilshunoslik yutuqlariga tayanib tasvir vositalarining estetik tomonlarini o'rgansa, tilshunoslik til qonuniyatlarini o'rganishni o'ziga maqsad qiladi. Ya'ni, tilshunos uchun badiiy matn material bo'lsa, adabiyotshunos uchun maqsad sanaladi.

Tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik aloqalari yana bir jihatdan muhim. Tilshunoslik kishilar orasidagi muloqot vositasi bo'lgan tilni o'rgansa, adabiyotshunoslik ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqot vositasi bo'lgan badiiy asarni o'rganadi. Muloqot qonuniyatlarining mushtarakligi esa adabiyotshunoslikning qator muammolarini til qonuniyatlari bilan qiyosan o'rganish va o'rgatish imkoniyatini ochadi. Adabiyotshunos o'z faoliyatida badiiy nutq shakllari, ritmi, intonasiya, she'r sintaksisi, ekspressivlikni oshiruvchi vositalar kabi qator tushunchalarga duch keladiki, bularning tilshunoslik ilmidagi talqinini bilgan adabiyotshunos izlanishlari albatta samaraliroq bo'ladi. Keyini davr adabiyotshunosligida paydo bo'lgan "struktural adabiyotshunoslik", "badiiy asarga semiotik yondashuv" kabi tushunchalar bevosita tilshunoslik yutuqlari asosida yuzaga kelgandir.

Adabiyotshunoslikning tarix fani bilan juda uzviy aloqasi bor. Ma'lum bir davr adabiyoti yoki o'tmishda yaratilgan konkret asarni tadqiq etayotgan adabiyot tarixchisi o'sha davr ijtimoiy —tarixiy hodisalarini o'rganmog'i shart, aks holda u o'rganilayotgan davr adabiyotida kuzatilgan hodisalar mohiyatini ham, tahlil qilinayotgan asarning mohiyatini ham to'la anglay olmaydi. Adabiyotshunoslik san'atning umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi estetika fani bilan ham mustahkam aloqadadir. So'z san'ati sifatida badiiy adabiyot san'atning umumiy qonuniyatlari asosida yashashi, uning boshqa san'at turlari bilan aloqada ekanligi adabiyotshunosdan estetika fani yutuqlaridan xabardor bo'lishni taqozo qiladi.

Adabiyotshunoslikning falsafa fani bilan aloqasi haqida gapirganda, avvalo, yirik san'atkorlarning hammasi ham o'ziga xos faylasuf ekanligi, yirik badiiy asarlarda muallifning olamu odam haqidagi qarashlari tizimi (badiiy konsepsiya) - badiiy falsafasi ifodalanishini e'tiborda tutish lozim. Dunyoqarashi muayyan falsafiy ta'limot ta'sirida shakllangan ijodkor asarlarining mazmun-mohiyatini anglash uchun adabiyotshunos o'sha falsafa asoslaridan xabardor bo'lmog'i lozimdir. Aytaylik, islom falsafasi asoslarini, tasavvuf falsafasini bilmasdan turib mumtoz adabiyot tarixini o'rganish, undagi ko'plab asarlarni talqin qilish maholdir. Yoki, masalan, XX asr yevropa adabiyoti namunalarini o'rganganda freydizm, ekzistensializm kabi ta'limotlardan xabardor bo'lish talab qilinadi.

Adabiyotshunoslik psixologiya fani bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Badiiy asarda tasvirlangan inson ruhiyatini anglash, badiiy ijod psixologiyasi, badiiy asarni qabul qilish jarayonining ruhiy mexanizmlarini yaxshi tasavvur qilish uchun adabiyotshunosga psixologiya fanining yutuqlari juda katta yordam beradi. Ayni paytda, badiiy adabiyot psixologiya faniga ilmiy tadqiqotlar uchun boy material beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, adabiyotshunoslik boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Chinakam adabiyotshunos bo'lib yetishish, uning yutuqlaridan boxabar bo'lish va ortda qolmaslik uchun sizdan atroflicha keng bilim egasi bo'lishlik talab etiladi.

MA’RUZA MASHG’ULOTLAR

2-MAVZU	Adabiyot – so’z san’ati

AXBOROTLI MA’RUZA TA’LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O’quv mashg’uloti shakli	**Axborotli ma’ruza**
O’quv mashg’uloti rejasi	REJA: 1. Adabiyot – ijtimoiy ong shakli. 2. Badiiy adabiyotning polifunksionalligi.
O’quv mashg’uloti maqsadi: “Adabiyotshunoslik ” yuzasidan o’quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko’nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga adabiyot va uning keng, tor ma’nolari haqida ma’lumotlarni tizimlashtirish; -Tazkira bo’yicha badiiy asarlardan aniqlash va ularni tahlil qilish; - Adabiyotning tarkibiy qismlari aniqlanadi,yangi ma’lumotlar xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O’quv faoliyati natijalari:** Adabiyotning keng va tor ma’nolari kabi tushunchalarni hosil qilishadi Tazkira bo’yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Adabiyotning tarkibiy qismlari xususida xulosalar chiqarishadi
Ta’lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta’limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: **San’atning turlari. Adabiyot – so’z san’ati.** Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar

II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. Raqs, haykaltaroshlik, musiqa, rassomlik, kino haqida ma'lumot. 2. Rassom chiziq va buyoqlar orqali, raqqosa ritmik harakat, mimika orqali ma'lum hayotiy manzarani gavdalantirishi. Adabiyot – so'z san'ati. 3. "Adabiyot" atamasining mazmuni 4. Tor ma'noda adabiyot deganda nimani tushunasiz? 5. Keng ma'noda adabiyot deganda nimani tushunasiz? 2.2.Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: 4. Adabiyotning ma'rifiy-estetik ahamiyati nimadan iborat? 5. Adabiyotshunoslikning ob'ekti nima? 6. Adabiyotshunoslikning predmeti va vazifalarini aniqlang. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Adabiyotshunoslikkka kirisk" fani yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Adabiyotsgunoslikning ob'ekti, tarkibiy qismlari va qo'shimcha sohalari haqida ma'lumot beradi. Mashg'ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo'linadi, taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish "yechimlar daraxti" tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma "Yechimlar daraxti" tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar

	ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi	
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish		a)Qayd etish; b) yozib olish; s) yod olish; d) a va b javoblar to'g'ri
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)		a)Davlatshohning "Tazkiratsh shuaro"; b) navoiyning "Majolisun-nafois" s) Navoiyning "Majmuatush shuaro" d) barcha javoblar to'g'ri
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)		a)Davlatshohning "Tazkiratsh shuaro"; b) Navoiyning "Majolisun-nafois" s) Navoiyning "Majmuatush shuaro" d) barcha javoblar to'g'ri
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

2-mavzu. Adabiyot – so'z san'ati
(2 soat)

REJA:

1. Adabiyot – ijtimoiy ong shakli.
2. Badiiy adabiyotning polifunksionalligi.

Tayanch so`z va iboralar: adabiyotshunoslik obyekti, adabiyot – so'z san'ati, badiiylik, xalq og'zaki ijodi (folklor), yozma adabiyot, adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, Sharq adabiyotshunosligi, Forobiy, Aristotelning «Poetika» asari, «Mezonul avzon» («Vaznlar o'lchovi»), «Majolisun nafois» («Go'zallar majlisi»), «Muxtasar».

XX asr boshlarida ulug' yurtdoshimiz Cho'lpon "Adabiyot nadir?" degan savolni o'rtaga tashlagan va shu nomli maqolasida unga baholi qudrat javob izlagan

edi. Asrimizning o’rtalarida ulug’ fransuz yozuvchisi va adabiyotshunosi J.P.Sartr ham huddi shu nomli maqola bilan chiqqan hamda shu savolga o’zicha javob bergan edi. Agar biz diqqat bilan kuzatsak, insoniyat ongini tanigandan beri ushbu savol u yoki bu tarzda muntazam qo’yilib kelishiga guvoh bo’lamiz. Qizig’i shundaki, bu savolga har bir davr o’zicha javob beradi, boz ustiga, bir davrda yashayotgan odamlarning javoblari-da bir-biridan jiddiy farqlanadi. Tugal va uzil-kesil javob berilishi mumkin bo’lmagan "adabiyot nadir?" savolining hozirgi kunda ham kun tartibida turgani tabiiy. Bugungi kunda mazkur savol tegrasidagi bahslar "adabiyot san’atmi yoki ong sohasimi", "adabiyot ijtimoiy bo’lishi kerakmi yoki yo’qmi", "adabiyot ommaviy bo’lishi kerakmi yoki elitarmi" kabi asosiy masalalarni o’z ichiga oladi.

Biz o’zimiz bilishni istagan narsa haqida tugal hukm chiqarishga moyilmiz, oxirigacha tugal anglab bo’lmaydigan, oxirigacha muayyan ta’rifu qoidalar asosida tushuntirib bo’lmaydigan murakkab hodisalar mavjudligini tan olgimiz kelmaydi. Holbuki, mavjud narsa-hodisalarning aksariyati, jumladan, adabiyot ham, ana shunday murakkab, ziddiyatli tomonlarni o’zida jam etgan hodisa sanalishi kerak. Yuqorida qo’yilgan savollardan birinchisiga – "adabiyot san’atmi yoki ong sohasimi" degan masalaga to’xtalsak, bu narsa ancha ravshan ko’rinadi.

Keyingi yillarda sho’ro davrida o’ta yalang’och ijtimoiylashgan adabiyotga, uni ommani kommunistik ruhda tarbiyalash va sh.k. maqsadlarga bo’ysundirish amaliyotiga aks ta’sir tarzida adabiyotni "sof san’at" sifatida tushunish, unda faqat san’at hodisasinigina ko’rish tamoyili kuzatiladi. Holbuki, adabiyotda faqat vositani ko’rishlik qanchalik xato bo’lsa, unda "sof san’at"nigina ko’rish ham shunchalik xatodir. "Sof san’at" tarafdorlari adabiyotning ijtimoiy ong sohasi ekanligini inkor qiladilar, juda insof qilganlari adabiyotning bu jihatiga e’tiborsizroq, ko’z yumib qaraydilar. Biz aql va hisni bir-biriga ko’pincha zid qo’yamiz, holbuki, bu narsa vujudimizda aql va hisning bir paytda mavjud bo’lishiga, ikkisining birlikda inson ruhiyatini tashkil etishiga halaqit bermaydi. Bas, nega endi inson ruhiy faoliyatining mahsuli bo’lgan adabiyot ularning ikkisini o’zida jam qilolmas ekan?!

Bu masalani badiiy ijod tabiatidan kelib chiqib tushunish va tushuntirish o’ng’ayroq ko’rinadi. Adabiyotning ilk namunalari sanaladigan asotir(mif)larni, afsonalarni esga olaylik. Axir, "Avesto"dagi rivoyatlar yoxud qadim yunon yoki misr afsonalari tabiatni, insonning paydo bo’lishi, uning o’limi sirlari va sh.k. muammolarni bilishga intilish natijasi emasmi? Albatta, hozirgi insonning tafakkur darajasi ham, adabiyot va san’atning rivojlanish darajasi ham ulardan ko’z ilg’amas darajada uzoqlashdi. Lekin badiiy ijodga turtki beradigan birlamchi omil hamon bilish ehtiyoji bo’lib qoldi. To’g’ri, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda doim ham ijodkor bilishga intilayotgani asotirlardagi kabi ravshan sezilmasligi mumkin, lekin uning yaratilishiga bevosita mana shu ehtiyoj turtki bergan. Deylik, bir ijodkorni jamiyatning mavjud holati yoki rivojlanish tamoyillarini bilish(ko’proq romanlarda), boshqa birovini o’zni anglash orqali Haqni tanish(tasavvuf she’riyati), tag’in birini qalbidagi kechinmalarini(ya’ni, o’zini) anglash va shunga o’xshash umumiy nomi BILISh ataluvchi ehtiyoj ijodga undaydi. Faqat shunisi borki, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda bilish ehtiyojining ravshan sezilmasligi ijodkor tarafidan anglangan narsaning asarda boshqacha yo’sinlarda ifodalanishi bilan izohlanishi mumkin. Deylik, ijodkor o’zi anchadan beri yecholmay kelayotgan, o’zi anglashga

intilayotgan masalaning yechimini tabiat manzarasida, hayotdagi biron bir holatda, hodisa va sh.k.larda ko'rishi, ya'ni, o'sha narsada hikmat ko'rishi-da mumkin. Ijodkor o'z asarida o'sha narsani (manzara, holat, hodisa va sh.k.) aks ettirishning o'zi bilanoq ehtiyojni qondiradi.

Qatag'on davrida insonning qadrsizlangani, butun boshli jamiyatning totalitar tuzum oldidagi ojizligiyu kishilarning o'zgalar fojiasiga tomoshabin bo'lib turgani haqida o'ylagan va azob chekkan A.Qahhor "O'g'ri"da tasvirlangan voqyeada, mustabid tuzum sharoitidagi ijodkor qismatini Oybek "Na'matak"dagi manzarada ko'rgan bo'lsa ne ajab?! Aytmoqchimizki, shu asarlarni yaratish bilan har ikki ijodkor ruhiyatida paydo bo'lgan bilish ehtiyoji qondirildi. Zero, ijod onlarida har ikkisi ham o'zini o'ylatgan masalani **o'zicha** hal qildi, muayyan bir to'xtamga keldi. Albatta, bu asarlarni har birimiz o'zimizcha tushunamiz, sababki, biz ulardagi obrazlar tilini o'zimizcha mantiq tiliga ko'chiramiz — anglaymiz. Biroq bu narsa asarning yaratilishiga turtki bo'lgan bilish ehtiyojining genetik jihatdan ijtimoiy harakterga egaligini inkor qilolmaydi. Badiiy ijodga turtki beruvchi bilish ehtiyojining turli sath va navdagi ijtimoiy munosabatlar asosida vujudga kelishi badiiy asarning, demakki, badiiy adabiyotning ham genetik jihatdan ijtimoiy xarakterga egaligidan dalolatdir. Boshqa bir muhim tomoni shuki, har ikki adib o'zlari yaratgan badiiy obrazlar vositasida bilibgina qolmadi, ikkisi ham o'zining orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini — bir so'z bilan aytganda — o'z idealidan kelib chiqqan hissiy munosabatini (va shu yo'sin bilvosita o'z idealini) ifodaladi. Biroq hissiy munosabatni yoki badiiy bilish jarayonida anglangan haqiqatni ochiqdan-ochiq ifodalash shart emas. Boz ustiga, hissiy munosabatning ochiqdan-ochiq ifodalanishi "nasihatgo'ylik", anglangan haqiqatning ochiqdan-ochiq ifodalanishi «aqllilik» tomon tortib ketishi mumkin. Shuning uchun, masalan, "O'g'ri"da A.Qahhor "xolis kuzatuvchi" mavqyeida turadi: qalbini jumbushga solgan voqyeaning, holatning suratini chizish bilan kifoyalanadi. Mahorat bilan tasvirlangan holat tasavvurida jonlangan onlarda (hikoyani o'qish jarayonida) o'quvchi adibning (ijod onlaridagi) his-tuyg'ularini qalbdan kechiradi. Biroq yozuvchi ijod onlarida qay muammoni badiiy idrok etishga intilgani doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Buning hyech bir ajablanarli joyi ham yo'q: badiiy asar arifmetik, fizik va yo boshqa sh.k. masala emaski, unda konkret shartlar ko'rsatib qo'yilsa. Shunga qaramay, matnda doim ham aks etmagani holda ham **bilish ehtiyoji** badiiy ijodga turtki beruvchi asosiy omil bo'lib qolaveradi.

Misolga olingan har ikki asarda ham bir narsaning mohiyati boshqa narsa orqali anglanayotganiga shohid bo'layotirmiz. Har ikki ijodkor ham o'zlarini o'ylatgan muammolarni anglash uchun hayotga aynan taqlid qilgani, hayotdan nusxa ko'chirgani yo'q. Zero, bir narsaning mohiyatini ikkinchi narsada ko'rish uchun aqlning o'zi kamlik qiladi, buning uchun ijodkorda avvalo san'atkorona nigoh, san'atkorga xos "qalb ko'zi" bo'lishi lozim. Ya'niki, adabiyotdagi bilish fandagidek rasional bilishgina emas, unda aql bilan barobar his, sezgi (intuisiya) kabi unsurlar ishtiroki ham kattadir (shuning uchun ham aqlli odamlarning bari ham san'atkor bo'lavermaydi, bo'lolmaydi). Sirasi, atrofdagi narsa-hodisalarda ayricha hikmat ko'rishga qobil, kuzatuvchan, zukko kishilar ham oz emas. Biroq ularning hammasini ham san'atkor demaymiz, nari borsa «shoirtabiat», «zukko» deya ta'riflaymiz. Ulardan farqli o'laroq, san'atkor narsaning mohiyatini ochuvchi boshqa narsani ko'ribgina qolmaydi, uni o'zining tuyg'u-fikrlarini ifodalashga muvofiq tarzda qayta

yaratadi (odatga ko'ra buni "tasvirlaydi" degan mohiyatga nomuvofiq so'z bilan ataladi) va mana shu qayta yaratish jarayoni IJODdir. Ruhning alohida va betakror holati bo'lmish ijod onlarida san'atkorga o'zi izlagan mohiyat ayon bo'ladi, ya'ni, bilish ehtiyoji faqat ijod jarayonidagina qondiriladi. San'atkorning ijod onlaridagi holati, uning zo'riqib ishlayotgan ongiyu jumbush urgan qalbi esa asar matnida muhrlanadi. Modomiki badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisa, faqat bunda bilishning san'atga xos yo'lidan boriladi. Bungacha aytilganlarga tayanib, adabiyot ikkiyoqlama hodisa, u san'atga ham, ijtimoiy ongga ham birdek aloqadordir degan xulosaga kelish mumkin.

Adabiy bahslarda tez-tez ko'tarilib turgan "adabiyot ijtimoiy bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi" masalasi ham sho'ro davri adabiy siyosati ta'sirida yuzaga keldi, o'tkirlashdi. Adabiyotning ijtimoiy ekanligini inkor qilish ma'qul bo'lmaganidek, uning individual-shaxsiy hodisa ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Bu da'vo faqat murosa ilinjida, bahsda oraliqni — eng havfsiz mavqyeni egallash ilinjida emas. Mazkur savolga javob berish uchun biz adabiyotning predmeti masalasiga to'xtalishimiz zarur.

Adabiyotshunoslikka oid asarlarda, darsliklarda "badiiy adabiyotning predmeti — inson" deb ko'rsatiladi. Biroq mazkur fikrni tor tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki adabiyot insonni alohida(izolyasiya qilingan holda) emas, balki jamiyat, tabiat(bir so'z bilan aytganda — borliq) bilan uzviy aloqada o'rganadi. Zero, insonning o'zini ulardan holi, izolyasiya qilingan holda tasavvur etib bo'lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Modomiki adabiyotning predmeti ham, uning yaratuvchisi ham inson ekan, adabiyotning ijtimoiy bo'lmasligi mumkin emas. Nima uchun asar yoziladi, nima uchun ijodkor asarni yozishga kirishadi? Axir kundalik turmushda duch kelgan odamlar, hodisalar uning qalb qozonida, aql-idrokida qaynamadimi, uni yozmasa bo'lmaydigan holatga keltirib, qo'liga qalam olishga majbur qilmadimi? Demak, genetik jihatdan hohlasak-hohlamasak adabiyot ijtimoiy hodisa ekan. Biroq yaratilishi jihatidan, dunyoga nuqtai nazar, o'sha dunyo tufayli paydo bo'lgan hissiyotlar, fikrlar nuqtai nazaridan tom ma'noda shaxsiy hodisadir.

Ma'lum bo'ladiki, badiiy asarda ijtimoiylik va shaxsiylik qorishiq holda zuhur qilar ekan, faqat bu o'rinda ijtimoiylik va shaxsiylik nisbati har bir konkret asarda turlicha bo'lishini, turlicha zuhur qilishini e'tiborda tutish lozim bo'ladi. Deylik, ijtimoiylik darajasi epik va lirik asarlarda jiddiy farqlanadi, ba'zan lirik asarda ijtimoiylikdan asar ham yo'qday ko'rinadi. Ayrimlar, xususan "sof san'at" tarafdorlari ayni shu holni mutlaqlashtirmoqchi bo'ladilar, she'riyat faqat ko'ngil ishi bo'lishi kerak degan gaplar eshitiladi. Xo'sh, insonning ko'nglidagi tuyg'ular, iztirobu quvonchlarning o'zi kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy emasmi? Misol tariqasida lirik qahramonning muayyan bir holati, kayfiyatigina qalamga olingan bir she'rni olib ko'raylik:

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g'amgin nayning navosi,
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?
Barglar orasiga tinmasdan sira,
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.

Bilmayman qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag'lub bahodirning nayzasi misol,
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega o'chdi qalbim safosi.
Nima ham qilardim, na ilojim bor,
Bahor kunlarida kuzning havosi.

Ko'rib turganimizdek, she'rda tabiat manzarasi tasvirlanadi va shu asosda mahzunlik kayfiyati ifodalanadi. Biroq, "bahor kunlarida kuz nafasining esish"idan kelgan mahzunlik — obraz, mana shu holatning yuzaga kelish sabablari o'zgacha bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Mazkur she'r 1967 yilda yaratilgan edi. Nechun endi A.Oripov bahor kunlaridagi kuz havosi haqida gapiradi? Gap shundaki, she'r yozilgan payt 50-yillar oxiridan jamiyat hayotida kuzatilgan uyg'onish, nisbiy erkinlikning 60-yillar o'rtalaridan qaytadan bo'g'ila boshlagan davriga to'g'ri keladi. A.Oripov jamiyatning bir a'zosi sifatida, erkka tashna ijodkor sifatida bu holdan iztirob chekadi, azoblanadi. Xassos shoir o'zini qiynagan DARD suratini tabiat manzarasida ko'radi, "bahor kunlaridagi kuz havosi"dan kelgan iztirobini, alamu o'kinchini ifodalaydi. Jamiyatning ko'zi ochiq a'zolarini iztirobga solgan bu ijtimoiy dard shoirning shaxsiy dardiga aylangan, dardning shaxsiylanish darajasi shunchalarki, biz she'rni "ko'ngil she'riyati" deyishga-da, uni "sof san'at" namunasi sifatida baholashga-da moyilmiz.

Ijtimoiy dard ijodkorning shaxsiy dardiga aylanmasa, ijodkor o'sha dardni chinakamiga qalbidan kechirmasa, biz yuqorida aytgan "yalang'och ijtimoiylashuv" yuzaga keladi. Sho'ro davri adabiyotining eng katta fojiasi ham shu edi. Totalitar tuzum barchaning birdek o'ylashini taqozo etgandiki, bu narsa jamiyatda shaxs maqomining susayishi, jumladan, ijodkor shaxsining yemirilishiga olib keldi. Natijada ko'plab asarlarda ijtimoiy dard ijodkorning qalb qozonida obdon qaynamasdan, faqat rasmiy mafkuraning badiiylashtirilgan ifodasi bo'lmish shiorbozlikka to'la she'rlar, hayotni rasmiy mafkura ko'zi bilan ko'ruvchi, tasvirlovchi va baholovchi(garchi "sosialistik realizm" namunasi sanalsa-da, realizmdan tamomila yiroq) epik asarlar yaratildi. Bu narsa adabiyotning tussizlashuviga, ijodiylikning inqiroz topishiga olib keldi. Adabiyotdagi tussizlikning boisi shuki, sho'ro adabiyotidagi (ayniqsa, 30-60 yillardagi) ko'plab asarlarda ijtimoiylik bo'lgani holda ijodkor shaxsi yo'qolgan, natijada ular bir-biridan shakliy xususiyatlari bilangina farqlanadigan, go'yo rang-barang qog'ozlarga o'rab berilgan bitta matohga aylanib qolgandi. Albatta, chinakam iste'dod bunday bo'g'iq sharoitga ko'nikolmaydi, isyon qiladi. Shu bois ham hatto mustabid tuzum zug'umi kuchaygan davrlarda ham katta iste'dodlarning asarlaridagi ayrim o'rinlarida ijodiy "men" bo'y ko'rsatib, asarga jonlilik baxsh etib turadi.

60-yillardan boshlab esa adabiyotimizda ijodiy "men"ning isyoni kuchliroq namoyon bo'la boshladi, dunyoni o'zicha tushunish va baholashga intilish boshlandi. Shunga qaramay, bular adabiyotimizning umumiy holatini, "havosi"ni belgilay olmas, zero, rasmiy mafkura rag'bati bilan kuchaygan "yalang'och ijtimoiylik" bir

tushovga aylanib qolgan va dadil olg'a bosishga imkon bermasdi. Tabiiyki, bularni e'tiborga olgan holda ko'pchilikning adabiyotdagi ijtimoiylikdan bezganlik kayfiyatini tushunsa bo'ladi, biroq mafkura tazyiqi bilan "yalang'ochlangan ijtimoiylik"ni deb adabiyotning tabiatiga xos bo'lgan ijtimoiylikni inkor qilish to'g'ri bo'lmaydi.

Yaqin yillardagi va qisman hozirda ham bahslarga sabab bo'lib turgan masalalardan yana biri "adabiyot qanday bo'lishi kerak?" degan savol tegrasida aylanadi. Mazkur bahsda tomonlarning biri "adabiyot ommaviy bo'lishi kerak" degan fikrni, ikkinchisi "adabiyot xos kishilarga mo'ljallangan (elitar) bo'lishi kerak" degan fikrni oldinga suradilar. Ikkinchi tomonning ommaviylikka qarshi turgani adabiyotning jo'nlashuvidan norozilik bilan, birinchi tomonning xoslargagina mo'ljallangan adabiyotga qarshiligi bu holda adabiyotning jamiyatdagi ahamiyati susayadi deb hisoblashi bilan izohlanadi. Bir qarashda bu bahs nihoyasizdek, uni hal qilib bo'lmaydigandek ko'rinishi mumkin. Biroq, unutmaslik kerakki, muammoning yechimi bahs bir tomonga hal bo'lganidagina topiladi deyishlik xato, ko'p hollarda bahsning yechimi murosada bo'ladi. Zikr etilgan bahsning yechimi ham, bizningcha, murosadadir. Shu o'rinda murosaning foydasiga ayrim fikrlarni qayd etib o'tish joiz.

Birinchisi. Hammaga ayonki, badiiy adabiyotni iste'dodlar yaratadi. Iste'dod esa ommadan ko'ra tiyranroq qalb ko'ziga egaligi, tafakkur darajasining undan yuqoriroq ekani bilan farqlanadi. Baski, chinakam iste'dod yaratgan asarning darajasi ham ommadan yuqoriroq bo'lmog'i tabiiy va shunday bo'lishi kerak ham. Ikkinchi tomondan, shu adabiy-madaniy zaminda yetishgan iste'dodning ommadan qo'z ilg'amas darajada uzoqlab ketishi ham mahol, shu bois ham "atayin ommaga moslab yozish" degan da'vo yo yolg'on, yo iste'dodsizlikni xaspo'shlash uchun bahonadan boshqa narsa emas. Demak, bahsdan chiqadigan birinchi xulosani "bizga chinakam iste'dodlar, iste'dod bilan yozilgan asarlar kerak" tarzida ifodalash mumkin.

Ikkinchisi. Badiiy asar juda murakkab hodisa, konkret asarni hammaning birdek tushunishi, birdek suyushi va unga birdek qimmat berishi mumkin emas. Aytaylik, o'quvchi bir paytlar o'qiganda deyarli e'tiborini tortmagan she'r vaqtiki kelib uni yondirib yuborishi hech gap emas. Shuningdek, shu o'quvchining yuragiga o't yoqqan she'rga boshqa o'quvchi mutlaqo e'tiborsiz qarashi-da mumkin. Nihoyat, badiiy asar tubsiz ummon misoli, yuzasida yurgan nari borsa mavjlaru jozib qudratni ko'rar, biroq uning tubida olam-olam sir-sinoatlar yashirin, uning tubida-da butun boshli bir hayot kechadi. Kimdir bu ummonning yuzasidagina yuradi, kimdir sayozroq, kimdir chuqurroq sho'ng'iydi, baski, iste'dod bilan yaratilgan badiiy asar bir paytning o'zida turli toifalarga — ham ommaga, ham xoslarga mo'ljallangan bo'ladi. Demak, iste'dod bilan yozilgan asardan hammaga tushunarli bo'lishlikni talab qilish talab qiluvchidagi didning darajasini ko'rsatadi, xolos.

Uchinchisi. Kishilarda didning turlicha ekanligi fakt, bu hol bilan faqat murosa qilish mumkin xolos. Besh qo'l barobar emas, kimdir chuqur ruhiy tasvirga boy asarni, kimdir intellektual jihatdan yuksak asarni, kimdir ko'ngil ochar asarni, kimdir detektiv, kimdir jangari asarlarni suyadi. Xohlasak xohlamasak, adabiyot maydonida ham raqobat bor. Agarki hozir yengil-yelpi asarlarga qiziqish kuchaymoqda ekan, bu yuksak didli adabiyotning aybi. Demak, bahslashish emas, jizzakilik qilish, ommaning didsizlashayotganidan zorlanish emas — chinakam adabiyotni, badiiyati yuksak asarlarni yaratmoq kerak.

Badiiy adabiyot – inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan "mehnat faoliyati", "ruhiy faoliyat", "estetik faoliyat" kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o'zi "aqliy", "hissiy", "ruhoniy" faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlamalikka yo'l qo'yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish predmetning mohiyatini jo'nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi.

Yuqorida biz badiiy adabiyot haqida, uning tevaragidagi bahslar xususida so'z yuritdik. Keyingi fasllarda badiiy adabiyot mohiyati haqida kengroq to'xtalamiz. Biroq shuni unutmangki, biz sizga uning mohiyatini anglashga yo'nalish beramiz, tabiiyki, resept emas. Ya'ni, mohiyat haqida tasavvurga ega bo'lgach, siz bu xil bahslarda o'z mavqyeingizni o'zingiz, mustaqil ravishda belgilashingiz kerak bo'ladi.

«Adabiyotshunoslik» so'zi ham ikki qismdan iborat bo'lib, u «adabiyot bilan shug'ullanish», «adabiyotni o'rganish» ma'nosini anglatadi. Bundan ayon bo'ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir. Har bir fan singari adabiyotshunoslik ham adabiyotning mohiyati, uning paydo bo'lish asoslari, rivojlanish tamoyillarini o'rganadi. Bu fan adabiy - badiiy asarlarning tuzilishi, tarkibi, adabiy - tarixiy jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qiladi. Adabiyotshunoslik adabiyotning ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta'siri, adabiyotning boshqa fan, soha, tarmoqlar bilan aloqadorligini aniqlash bilan shugullanadi. Adabiyotshunoslikning bundan boshqa vazifalari ham ko'p. Shu boisdan adabiyotshunoslik nima ekanligini aniq, lo'nda ta'riflash oson, jo'n ish emas. Aslida ham murakkab hodisalarni, ayniqsa, ular nomoddiy bo'lsa, sodda, barchani birday qanoatlantiradigan tarzda ta'riflab bo'lmaydi. Chunki har qanday muqammal ta'rif - tavsif ham ularning mohiyatini to'la - to'kis ifoda etolmaydi.

Adabiyotshunoslikning o'rganadigan manbasi adabiy - badiiy asarlar va ular yaratilgan sharoit, muhitdir. Bundan ayonlashadiki, adabiyotshunoslik juda ko'p fan, sohalar, xususan, tarix bilan o'zviy bog'liq holda ish tutadi. Ayni choqda barcha fanlar turli tarmoq, bo'limlarga ajralgani singari adabiyotshunoslik ham muayyan tarkibiy qismlarga bo'linadi. Bular: «adabiyot tarixi», «adabiy tanqid», «adabiyot nazariyasi», «matnshunoslik»dir. Ularning har biri adabiyot hodisalarini ma'lum bir yo'nalish, nuqtai nazar asosida o'rganadi. Barchasining bosh obyekti esa adabiy - badiiy asarlar sanaladi.

Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan «Adabiyot tarixi» adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o'rganadi. Adabiyot tarixi har bir adabiy hodisani mavjud ijtimoiy - siyosiy voqyelik bilan bog'liq holda talqin qiladi. Qiyoslash orqali davrlar adabiyoti orasidagi o'zgarishlarni aniqlaydi. Milliy adabiyotlar o'rtasidagi farq - tafovutlarni ko'rsatadi. Adabiyotda ro'y bergan o'zgarishlarni muayyan belgi-xususiyatlariga ko'ra davrlashtiradi. Albatta, adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini davrlarga ajratish nisbiy bo'ladi. Adabiyot tarixini davrlashtirish, avvalo, adabiyot hodisalariga qanday nuqtai nazardan yondashishga bog'liq. Adabiyot tarixida adabiyot janrlarida ro'y bergan yangilanishlar, ijodkorlarning hayot hodisalari va

inson obrazini yaratishda qanday uslub, unsurlar qo'llagani ham aniqlanadi. Chunki adabiyot tarixi adabiy janrlar, adabiy uslublar tarixidir.

Adabiyotshunoslikning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblangan «adabiyot nazariyasi» adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog'liqlikni, so'z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'lik holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo'nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o'rganadi. Shuningdek u adabiyotni inson ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining bir ko'rinishi sifatida tahlil qiladi. Zotan, adabiyotning xaqiqiy namunalarida insonning qalbi, tafakkuri akslangan va ular boshqalarga ta'sir eta oladigan quvvatga ega bo'ladi.

Adabiyotshunoslikning uchinchi tarkibiy qismi hisoblangan «adabiy tanqid» joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning g'oyaviy - estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo'layotgan o'zgarish, yo'nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta'siri haqida fikr bildiradi. Joriy adabiyot hodisalari xususida mulohaza bildiruvchi adabiyotchi mutaxassis - munaqqid kitobxon va yozuvchi, shoir o'rtasida o'ziga xos vositachi, xakam vazifasini bajaradi. Munaqqidning keng tafakkur bilan mulohaza yurita bilishi adabiyot ravnaqi va o'quvchilar ommasi did - saviyasining yo'qolishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Munaqqidlar faoliyati jamiyatda ijtimoiy fikrning faollashishiga samarali ta'sir ko'rsatgan asosiy omillardan biri bo'lganini tasdiqiovchi dalillar tarixda talaygina.

Qadim Sharqda she'rshunoslik badiiy asar (doston, g'azal, ruboiy, tuyuq va xokazo) darajasida qadrlangan. Aytish mumkinki, Sharq adabiyotshunosligi asosan she'rshunoslikdan iborat bo'lgan. She'rni tushunish, tahlil qilish, sharxlash kishilarning intellektuallik darajasini belgilaydigan o'ziga xos mezon hisoblangan. Shuning uchun o'z zamonining barcha peshqadam ijodkorlari she'rshunoslikka doir maxsus bir asar yaratishga harakat qilishgan. Jaxon tibbiyot fani tarixida yuksak o'rin tutgan Abu Ali ibn Sinodek mutafakkirning «Mu'tasamush - shuaro» («Shoirlar panohgohi») asarini yozgani ham aynan shundan dalolat beradi. Yoki Alisher Navoiy, Bobur singari siymolarning «Xamsa», «Xazoyinul maoniy», «Boburnoma»yu yuzlab go'zal g'azal, tuyuqlar yaratish bilan kifoyalanmasdan, «Mezonul avzon» («Vaznlar o'lchovi»), «Majoliso'n nafois» («Go'zallar majlisi»), «Muxtasar»dek asar bitgani, ularning aruz she'r tizimini g'oyat nuktadonlik bilan tadqiq qilgani Sharqda azaldan she'rshunoslikning g'oyat e'tiborli bo'lganini tasdiqlaydi. Forobiy Aristotelning «Poetika»sini sharhlab, eramizdan avval yashagan bu donishmand o'zining she'r satrlari haqidagi mulohazalarini to'la bayon qilishga ulgurmagan, der ekan, u she'r san'ati haqida shunday deydi: «Bu san'at biror maqsadni amalga oshirayotgan paytda yo'ldan chiqib ketmaslikka yordam beruvchi va inson xayolini qog'ozda namoyon etuvchi san'atdir. She'rning olti xili bor. Shundan uchtasi yaxshi va uchtasi yomon xildir. Yaxshilaridan biri shuki, inson uning yorhamida aqliy quvvatini mukammallashtiradi, san'atga olib boruvchi fikri oydinlashadi, yaxshi ishlarga, fazilatli bo'lishga ilxomlanadi, xasislik yomon va qabih ishlardan saqlanadi. Ikkinchi yaxshi xili kishining ruhiy sezgilarini yuksaltiradi, haddan tashqari ehtiyotkorlikdan xoli qiladi, izzat - nafsni saqlaydi, g'azablanishdan,

yomon ishlardan ehtiyot bo'lishga yordam beradi. Uchinchisi, ana shu yuqorida qayd etilgan yaxshi hislatlarni namoyon etishga yordam beradi»

Har bir fanning obyekti bo'lgani singari adabiyotshunoslikning ham o'z o'rganish manbasi bor bo'lib, bu - badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng noyob ne'matlaridan biridir. Ijtimoiy ong shaklaridan biri hisoblangan badiiy adabiyotning og'zaki va yozma shaklari mavjuddir. Ularning har ikkalasi uchun ham bosh obyekt inson va uning o'ziga xos dunyosidir.

Yozuvchi, shoir mavjud voqelikni go'yo harakatlanayotganday ko'rsatadi. Ularning ko'zga dabdurustdan tashlanavermaydigan jihatlari haqida fikr bildiradi. Hodisani xuddi ayni choqda bo'layotgandek jonli holatda gavdalantirishga intiladi. Buning uchun xilma - xil qiyos, chog'lantirish, tashbeh, o'xshatishlarni qo'llaydi. Ular badiiy adabiyotning muhim asoslaridir. Xo'sh, badiiylikning o'zi nima?

Badiiylik hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, o'nda tasavvur o'yg'otadigan qilib tasvirlashdir. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisadir. Badiiyliksiz san'at yo'qdir. San'atning mavjudligi, mohiyati uning badiiyligidadir. Shuning uchun badiiylikni san'atning tashqi ko'rinishi, shakli sifatida qarash asossizdir. Badiiylik shakl va mazmun mutanosibligi tufayli ta'sirchanlik kasb etadi. Adabiyotning badiiyligini ta'minlaydigan eng birinchi omil uning tilidir. Chunki adabiyot so'z san'atidir. Tasviriy san'at asarlariga ranglarning yorqinligi, ularning o'z o'rnida qo'llanishi joziba baxsh etsa, adabiy asarni so'z nafosatli qiladi. Adabiy asarda hayotning kundalik odatiy hodisalari so'z tufayli yorqin, hayajonlantiradigan bo'lib ko'rinadi.

Adabiyotshunoslikning asosiy obyekti sanalgan badiiy adabiyotning ikki shakli: xalq og'zaki ijodi (folklor) va yozma adabiyotni biridan birini past yoki baland qo'yib bo'lmaydi. Chunki har ikkisi ham so'z san'atidir. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ham, yozma adabiyot asarlarida ham hodisalar ta'sirchan, badiiy gavdalantiriladi. Ijtimoiy - ma'naviy, tarixiy taraqqiyot tufayli yozma adabiyot qanchalik ravnaqqa erishgan bo'lmasin, u folklor asarlari o'rnini egallay olmaydi. Folklor - yozma adabiyotning paydo bo'lishi, shaklanishi va rivojlanishini ta'minlagan poydevor sanaladi. XX asr adabiyotida yangi yo'nalishlar yuzaga kelishiga ham qadimiy folklor mif(asotir)lari asos bo'lgan. Umuman, yozma adabiyotni yangi timsol, yangi obrazlar bilan boyitib borishga folklor asarlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun lotin amerikalik adib Xorxe Luis Borxes «Adabiyotning boshi ham, oxiri ham mifdan iboratdir», deydiki, mif, bu – folklordir.

Adabiyotshunoslikning asosiy obyekti bo'lgan xalq og'zaki ijodi asarlari va yozma adabiyot nima? Xalq donishmandligi, hayotiy tajribasini mujassam etgan maqollar, topqirlik, zukqolikni taqozo etadigan topishmoqlar, kishilarning qahramonligi, jasurligi, el-yurt manfaati uchun fidoiyligini ta'sirchan voqyealarda aks ettiruvchi dostonlar, orzu-havas, quvonch-shodlik to'yg'ularini satrlarga singdirgan qo'shiqlar xalq og'zaki ijodi asarlari sanalsa, «O'tgan kunlar» (A.Qodiriy)ga o'xshagan romanlar, «Oq kema» (Ch.Aytmatov) singari qissalar, «O'g'ri» (A. Qahhor) kabi hikoyalar, «Bahor» (A.Oripov) kabi she'rlar yozma adabiyot namunalaridir. Folklor uchun ham, yozma adabiyot asarlari uchun ham mushtarak narsa - ularning hayot hodisalari va inson dunyosini obrazli ifoda etishidir. Obrazlilik adabiyotning har ikki shaklini umumlashtirib turuvchi bosh xususiyatdir. Folklor bilan yozma adabiyot asarlari orasidagi eng muhim farq - biri og'zaki shaklda,

ikkinchisi esa yozma tarzda vujudga kelishidadir. Shuningdek maqol, ertak, topishmoq, qo'shiq singari folklor asarlarning muallifi kim ekani, ularning qachon, qayerda yaratilgani noma'lum bo'ladi. «Alpomish», «Manas» singari jahon madaniyati durdonalari sanalgan xalq dostonlarini ilk bora kim ijro etgani aniq emas. Buni aniqlashtirishga urinish ham o'rinsiz. Folklor asarlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning variantliligidir. G'azal, ruboiy, tuyuq, roman, qissa, hikoya singari yozma adabiyot asarlari esa biror bir muallif tomonidan yaratiladi. O'sha asar uning nomi bilan bog'lanadi. Chunki bu asarning yaratuvchisi, kashfiyotchisi uning muallifi sanaladi.

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

3-MAVZU	SAN'ATKOR IDEALI

AXBOROTLI MA'RUZA TA'LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O'quv mashg'uloti shakli	**Axborotli ma'ruza**
O'quv mashg'uloti rejasi	**R e ja** 1. Mafkura va dunyoqarash. 2. Individual borliq va umuminsoniy qadriyatlar. 3. Estetik idealda umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi. 4. Ijtimoiy dardning shaxsiylanishi.
O'quv mashg'uloti maqsadi: "San'atkor ideali " yuzasidan o'quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga adabiyot va uning asosiy,qo'shimcha sohalari haqida ma'lumotlarni tizimlashtirish; -Asosiy sohasi bo'yicha badiiy asarlardan aniqlash va ularni tahlil qilish; - Adabiyotning tarkibiy qismlari aniqlanadi,yangi ma'lumotlar xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O'quv faoliyati natijalari:** Adabiyotning asosiy,qo'shimcha sohalari kabi tushunchalarni hosil qilishadi Asosiy sohasi bo'yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Adabiyotning tarkibiy qismlari xususida xulosalar chiqarishadi
Ta'lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar

Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: **San’atkor ideali.** Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. San’atkor ideali nima? 2. Uning namoyon bo’lishi. 3. Estetik ideal deganda nimani tushunasiz? 4.Keng ma’noda adabiyot deganda nimani tushunasiz? 2.2.Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg’ulotda yechiladigan muammoga “olib kiriladi” va uni ifodalaydi: 1. Idealning bosh belgisi – vatanpararlik. 2. Estetik idealga mos kelgan hodisa-go’zallik. 3. Buyuklik, tubanlik, hajviyona, fojeona vaboshqa estetik kategoriyalar. 4. Go’zallik qoidalariga rioya qilish. Go’zallik tushunchasining nisbiy ekani. 5. Adabiyotning insonni ulug’lab, go’zallikni madh etishi. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo’lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo’llarini izlashni tashkillashtirishga o’tadi, ya’ni talabalarga “Adabiyotshunoslikkka kirisk” fani yuzasidan chuqur ma’lumot beradi. Adabiyotsgunoslikning ob’ekti, tarkibiy qismlari va qo’shimcha sohalari haqida ma’lumot beradi. Mashg’ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar ko’rgazmali materiallardan	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo’yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Yechimlar daraxti” tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar.

	foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo'linadi, taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish "yechimlar daraxti" tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi.	
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Badiiy asrning mazmuni necha qismlarni o'z ichiga oladi?	a)3 ta; b) 4 ta; s) 5 ta; d) 6 ta
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	Badiiy asarning mazmuni bu -	a)unda ifoda etilgan g'oyalar; b) tasvir etlgan hayotiy material; s) badiiylikning asosiy sifati; d) barcha javoblar to'g'ri
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Mazmunning qaysi qismida "Adabiyot haqiqat sohasidir" deyilgan?	a)mazmunning salmoqdorligida; b)mazmunning haqqoniyligida; s) mazmunnig universalligida; d) mazmunning originalligida
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

3-mavzu: San'atkor ideali

(2 soat)

R e ja

1. **Mafkura va dunyoqarash.**
2. **Individual borliq va umuminsoniy qadriyatlar.**
3. **Estetik idealda umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi.**
4. **Ijtimoiy dardning shaxsiylanishi.**

TAYANCH IBORALAR

Mafkura, dunyoqarash, individual borliq, umuminsoniy qadriyatlar, estetik idealda umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi, ijtimoiy dardning shaxsiylanishi

Jamiyatda yashayotgan shaxs (jumladan, ijodkor ham) ma'lum bir ijtimoiy guruh vakili, demak, o'zining muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan qarashlari, orzu-intilishlariga egaki, bular shu guruhning qarashlari, orzu-intilishlariga ko'p jihatdan mos. Shunga qaramay, ijodkor birinchi galda shaxs, shu bois ham asar mazmunida shaxsiylangan ijtimoiylik aks etadi, shaxsiylik va ijtimoiylik uyg'un mujassamlashadi. Aksincha yo'ldan borilsa, ya'ni, ijodkor shaxsi ijtimoiylikda singib yo'qolsa - ijodiylik yo'qoladi, bu holda ijod ham, badiiyat hodisasi ham mavjud emas. Negaki, bu holda yozuvchi voqyelikni tayyor qoliplar asosida ko'radi, o'sha qoliplar asosida tasvirlaydi va baholaydi - sxematizm yuzaga keladi. Sirasi, kompyuter texnikasi yuksak rivojlangan bizning zamonamizda, ehtimol, bunday sxematik asarni dasturiy jihatdan yaxshi ta'minlangan kompyuter ham yozishi mumkin. Sho'ro davri adabiyotining fojiasi ayni shunda – ijodkor shaxsining ijtimoiylikda singib yo'qolib ketganida edi.

Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog'liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari, g'oyalarini tushunamiz. Badiiy asarda akslangan badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko'rilgan ijodiy qayta ishlangan va g'oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, har bir inson dunyoni o'zicha ko'radi, uni o'zicha idrok qiladi va o'zicha baholaydi. Qizig'i shundaki, hammamiz ham o'zimiz ko'rgan voqelikni real voqelik deb tushunamiz, holbuki, bu – voqelikning ongimizdagi biz ko'rolgan va idrok etolgan aksi, xolos, ya'ni, individual borliqdir. Shunday ekan, bir joyda, bir davrda yashab turgan ikki inson ongidagi voqelikning aksi bir xil bo'lolmaydi. Buning yorqin misoli sifatida "Kecha va kunduz" bilan "Qutlug' qon" romanlarini olib ko'rishimiz mumkin. Ikkala muallif bir davrda yashagani, bir davrni qalamga olgani holda, har ikki romanda akslangan badiiy voqyelik bir-biridan tubdan farq qiladi. Sababi, har ikki adibning asarida ham individual borliq – ularning ongida akslangan voqyelikning badiiy modeli o'z aksini topgan. Voqelikning ijodkor ongida qay tarzda akslanishi bevosita uning dunyoqarashiga bog'liqdir. Tasavvur qilingki, ikkinchi jahon urushi voqealarini ikki qarama-qarshi tomon vakillari bo'lmish yozuvchilar aks ettirdi. Bu holda ulardan biri, masalan, Berlinda o'z jonini xavfga qo'yib tank ostidan nemis qizalog'ini qutqargan sho'ro askarini bo'rttirib ko'rsatishi, ikkinchisi esa vujudi intiqom olovida yongan, yovuzlikka yovuzlik bilan javob berishga jazm qilgan sho'ro askarini bo'rttirishi mumikn. Holbuki, urushda unisi ham, bunisi ham sodir bo'lgan bo'lishi mumkinligini hech kim inkor qilolmaydi. Ko'ramizki, voqelikning qaysi jihatlarini ko'rish,

qaysilarini bo’rttirgan holda uning mohiyati sifatida taqdim qilish ijodkor dunyoqarashi bilan bog’liq ekan.

Haqiqiy san’atkor qaysi ijtimoiy guruhga mansubligidan, qanday ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishidan qat’iy nazar, u yaratgan badiiy asarda umuminsoniy qadriyatlar ustivorlik qiladi. Shu bois ham chinakam badiiy asarda ijodkor har vaqt ezgulik, go’zallik, adolat, insoniylik kabi mangu qadriyatlar tomonida turadi. Umuminsoniy qadriyatlarga zid g’oyalarni o’ziga singdirgan asarning chinakam badiiy qimmatga ega bo’lishi mumkin emas. Zero, bunday asar o’quvchini o’zidan itaradi (ilon tanasi qancha go’zal ranglar jilosiga ega bo’lmasin, odamni o’ziga jalb qilish o’rniga o’zidan itaradi). Ko’ramizki, badiiy adabiyot va san’atdagi go’zallik ma’naviyatdan ayro holda yashay olmaydi, badiiyat estetik kategoriyagina emas, ma’lum ma’noda etik kategoriya ham sanaladi.

Kishilik jamiyati turli qarashlarga ega bo’lgan kishilardan tarkib topganidek, turli mafkuraga ega guruhlardan ham tashkil topadi. Bu mafkuralarning har biri konkret ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ko’zda tutadi. Mavjud mafkuralar ichida kishilik jamiyati taraqqiyotiga xizmat qiladiganlari bilan bir qatorda buning ziddiga ishlaydiganlari ham bo’ladi. Shunday ekan, san’at va adabiyot bu mafkuralarning faqat umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqlarinigina o’ziga singdiradi. Deylik, XX asr vabosi sanalmish fashizm mafkurasi insoniyat dushmani ekanligi hammaga ayon, shu bois ham haqiqiy san’at asarlarida bu mafkura o’zining aksini topmaydi, topganlari esa tor doiralar uchungina bo’lib qoladi. Fashistlar Germaniyasidan chinakam iste’dodlarning chiqib ketgani, boshqa yurtlarda umr kechirgani ham buning yorqin dalilidir. Yovuzlik bilan oshno tutingan mafkura insoniyatga, baski, san’atga yot hodisadir. Xalqimizning tinchini buzayotgan, yurtimizning taraqqiy sari, chin ma’nodagi xurlik va farovonlik sari yo’lida to’g’anoq bo’lishga intilayotgan diniy ekstremistlarda ham mafkura bor, biroq bu mafkura umuminsoniy qadriyatlarga ziddir. Zero, o’zgalarning umriga zomin bo’lish, erkini bo’g’ish evaziga bo’lsa-da maqsadga yetishni oqlagan mafkura insoniylikdan butkul yiroq tushadi. San’atning injaligini ko’ringki, umuminsoniy qadriyatlarga zid mafkuraning badiiyat bobida biror arzigulik mahsul berishi mahol – bunday mafkura badiiy qadriyatlar yaratishga ojizdir.

Adabiyot va mafkura munosabati qanday bo’lishini quyidagicha izohlash mumkin: ijodkor muayyan mafkuraga moyil bo’lgani holda uning estetik ideali umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan, demakki, bu idealda ko’hna zamonlardan beri ajdodlarimiz intilib yashayotgan ezgu maqsadlar quyuqlashgan ifodasini topgan. Muayyan mafkura ko’zlagan maqsad ancha yaqin, unga ma’lum (cheklangan, yaqin kelajakdagi) vaqtda yetishiladi. Ya’ni, agar asar konkret mafkuranigina targ’ib etishga xizmat qilgudek bo’lsa, uning umri o’sha maqsadga yetilgunga qadar bo’ladi xolos. Holbuki, chinakam badiiy asar mangulikka bo’ylashmog’i lozim, u vaqt e’tibori bilan chegaralangan maqsadlar doirasida qolib ketolmaydi.

Yuqoridagilardan ko’rinadiki, ijodkorning mafkuraga munosabati erkin bo’lmog’i lozim, ya’ni, u muayyan mafkura doirasida shaxsligini namoyon eta bilmog’i zarurdir. Ikkinchi tomondan, estetik idealda konkret mafkuraga nisbatan umuminsoniy qadriyatlar salmoqliroq bo’lishi lozim, shundagina badiiy asar o’tkinchi hodisa bo’lib qolmaydi, davrga nisbatan daxlsiz bo’lib qoladi. Zero, asar mazmunining u yaratilgan konkret ijtimoiy-siyosiy holatga qaratilgan aktual qatlami

vaqt o’tishi bilan baribir tushib qoladi, asarni yuzada tutib qoladigan tub estetik qatlam esa umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohangdir. Mafkura – jamiyatning muayyan yo’nalishda izchil rivojlanishida, uning kuchlarini birlashtirib, aniq maqsad sari yo’naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham mustaqillikka erishgan O’zbeksiton sharoitida milliy mafkurani ishlab chiqish va ommalashtirish masalasi davlat siyosati maqomidagi tadbir, kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylanadi. Zero, milliy mafkura O’zbekistonning buyuk kelajagini yaratish, dunyo sahnasida buyuk ajdodlarimiz va buyuk kelajagimizga munosib o’rinni egallashimizda hal qiluvchi omillardan biridir. Shunday ekan, milliy mafkurani ishlab chiqish va ommalashtirish ishida faol qatnashishga badiiy adabiyot ham burchlidir. Taassufki, sho’ro davrida kommunistik mafkuraga xizmat qilgan ijodkorlar va ular yaratgan asarlar taqdiridan o’zicha saboq chiqargan ayrim kishilarda adabiyot va mafkura munosabati masalasida biryoqlama xulosalar paydo bo’lib ulgurdi. Natijada ayrimlar "adabiyot mafkuradan holi bo’lishi kerak", "adabiyot mafkuraga xizmat qilmasligi kerak" qabilidagi sirtdan jozibali va to’g’ridek ko’rinadigan, haqiqatda esa xato fikrlarni oldinga suradilar. Bizningcha, bu xil fikrlarning paydo bo’lishiga sabab shuki, ular mafkura va adabiyot munosabatining "sovetcha" ko’rinishidan boshqacha munosabat, to’g’ri asosdagi munosabat mavjud bo’lishi mumkinligini tasavvur qilolmaydilar. Holbuki, adabiyot bilan mafkura orasida tabiiy, hech bir zo’rlashsiz – ijodkorning o’z qarashlari, vijdon amri bilan bog’liq munosabat ham bo’lishi mumkin. Yuqorida aytganimizdek, mafkura jamiyatni maqsadga safarbar etadi. Xo’sh, bugungi kunda ishlab chiqilayotgan milliy mafkura qanday maqsadni ko’zlaydi? Ma’lumingizki, bu mafkura bizni Buyuk O’zbekistonni yaratish maqsadiga boshlaydi. O’sha qurilajak buyuk kelajakda insonning erkin, hur va farovon yashashi, o’zidagi aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlarni to’la ro’yobga chiqarishi, komillik sari intilishiga sharoit yaratiladi. Zero, siyosiyroq tilda O’zbekistonni iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlangan huquqiy demokratik davlatga aylantiramiz degani, sodda tilga aylantirilsa shunday jarang topadi. Xo’sh, bu maqsad qaysi jihatlari bilan kishini qoniqtirmasligi mumkin? Yoki qaysi jihatlari bilan u badiiy adabiyot va san’atning chin mohiyati bo’lmish umuminsoniy qadriyatlarga, ezgulik, insonparvarlik tamoyillariga zid ekan? Bizningcha, jamiyatimiz ko’zlayotgan maqsad hech bir san’atkorni vijdoniga, idealiga zid borishga majbur qilmaydi. Aksincha, bular o’zini chinakam san’atkor va shu yurt farzandi deb bilgan har bir ijodkorning ideali bo’lishga arzigulik emasmi?! Shunday, bugungi kunda jamiyatimiz, uning ilg’or vakillari ko’zlagan maqsad umuminsoniy qadriyatlarga, ezgulik va insonparvarlik tamoyillariga har jihatdan mosdir. Shu bois ham biz milliy mafkurani shakllantirish va ommalashtirish ishida badiiy adabiyot faol bo’lishi kerak, bunga u burchli, deya baralla aytamiz.

Masalaning ikkinchi muhim tomoni – adabiyot shu burchni qay yo’sin o’tashi. Adabiyotni mafkuradan holi ko’rishni istovchilar, bizningcha, ayni shu masalada to’g’ri tasavvurga ega emaslar. Nazarimizda, ular "xizmat qilish" bilan "yugurdaklik qilish", "shotirlik qilish" tushunchalarini farqlay bilmaydilar. Endi o’rtaga bir savol tashlaylik: sho’ro davrida o’zini kommunistik mafkura xizmatchisi deb bilgan ijodkorlar haqiqatan ham mafkuraga xizmat qilganmi yoki o’sha mafkura soyasida davru davron surgan nomenklaturaga yugurdaklik qilganmi? Bu savolga javob berish uchun ijodkor bilan mafkura munosabati qanday bo’lmog’i lozim, degan masalani

oydinlashtirib olaylik. Avvalo, chinakam san'atkor jamiyatning ilg'orida bo'lishi zarur va tabiiy ham, chunki u ideal qo'ynida yashaydi. Ayni paytda, san'atkorning ideali g'oyibdan kelgan narsa emas: u, bir tomondan, asrlardan beri ajdodlar sinovidan o'tib kelgan o'lmas qadriyatlarni, ikkinchi tomondan, o'sha san'atkor yashayotgan muhit sharoitida yetilgan eng ilg'or orzu-intilishlarni o'zida mujassam etadi. Aytmoqchimizki, san'atkorning estetik idealiga o'z davrining ilg'or ijtimoiy maqsadi ham singib ketadi. Faqat bir sharti borki, o'sha ijtimoiy maqsad san'atkor uchun shu darajada shaxsiylanib ketishi zarurki, endi u o'sha maqsadga o'z-o'zining maqsadi deb qarasin – ijtimoiylik va shaxsiylik chegaralari yo'q bo'lib ketsin. Mana shu shartni uddalagan ijodkor endi hech kimning xizmatchisi emas, aniqrog'i, u endi o'z idealining xizmatchisi, xolos. Istiqlolning otashin kuychisi Cho'lponni eslang. O'z davrining eng ilg'or ijtimoiy maqsadi – yurt ozodligi Cho'lpon ongida shu darajada shaxsiylandiki, endi u shoirning shaxsiy dardiga, orzusiga, hayotining mazmuniga – IDEALIga aylandi. Shu bois ham mustabid boltasi ostida turib istiqlol ruhida she'rlar bitishga Cho'lponni birov majbur qilgan emas, ERK mafkurasini yurtdoshlar diliga singdirishga intilgan shoir birovga xizmat qilishni o'ylamagan.

Davrining ilg'or ijtimoiy maqsadini estetik idealiga singdirgan san'atkor voqyelikni o'sha ideal nuqtai nazaridan baholaydi. Baski, u mavjud voqyelikdagi o'sha maqsadga muvofiq jihatlarni ma'qullagani holda nomuvofiqlarini qoralaydi. Faqat shu holdagina uni mafkuraga xizmat qildi deyish mumkin bo'ladi. Aksincha holda, agar ijodkor mafkuraning ko'r-ko'rona targ'ibotchisi bo'lsa, mavjud voqyelikni ideal nuqtai nazaridan xolisona badiiy tadqiq qilish va g'oyaviy-hissiy baholash o'rniga faqat voizlikni kasb qilsa, qilar ishi mafkurani madh etishu o'z nazdida uning himoyachisiga aylanib qolsa - bilingki, u mafkuraning foydasi emas, aksincha, zarariga ishlayotgan bo'lib chiqadi. Deylik, istiqlol dardini o'z vaqtida Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriylar yonib kuylagan edilar, ularning yurt ozodligi mavzusidagi asarlari chinakam dardning mahsuli ediki, shu bois ham ular yurak qoni bilan bitilgan. O'quvchini to'lqinlantiradigan yuksak tushunchalar haqida asar yaratish uchun kishida ma'naviy huquq bo'lmog'i kerak, bu huquqni esa ijtimoiy dardning chinakamiga shaxsiylanganligigina berishi mumkin. Zero, buyuklarimiz guldek hayotini garovga qo'yib, yurak qoni bilan yozgan VATAN, ERK, OZODLIK kabi mazularda yengil-yelpi, chinakamiga hissiy idrok qilinmagan o'y-fikrlar, kechinmalarni yozish oq qog'oz oldida ham, o'quvchilar oldida ham gunohdan o'zga emas.

Unutmaslik kerakki, milliy mafkuraga xizmat qilish degani istiqlol, vatan va h. haqidagina yozish degani emas. Chinakam san'atkor nima haqida yozishidan qat'iy nazar, — u ma'naviy muammolarni badiiy tadqiq etadimi, o'zining qalb qa'rlariga nigoh tashlaydimi, ishq-muhabbat haqida yozadimi... - o'zi badiiy tasvir va tadqiq predmeti sifatida olgan narsani umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik, insoniylik nuqtai nazarlaridan yoritar va baholar ekan, u milliy mafkuramizning shakllanishiga, mustahkamlanishiga, jamiyat a'zolari shuuriga singishiga xizmat qilayotgan bo'ladi. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiyatimizning shakllanayotgan mafkurasi umuminsoniy qadriyatlarga har jihatdan muvofiqdir.

Adabiyotning spetsifikasi adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasining eng muhim murakkab masalasidir. U adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasiga oid turli asarlarda turlicha yoritiladi. Ba'zilarda qiralari kyeng, ba'zilari esa juda tor ma'noda

talqin etiladi. Ammo bu asarlarning hammasida adabiyotning spetsifikasiga doir masalalar doirasi tilga olinadi.

Adabiyotning spetsifikasi munosabati bilan tilga olinadigan xususiyatlarning eng birinchisi - insonshunoslikdir. Har bir badiiy asarni o'qigandan keyin zehnimizda asarda tasvir etilgan kishilarning obrazi qoladi. A.Navoiy dostonlarini o'qib Farhod, SHirin, Layli, Majnun, Iskandar, Bahrom obrazlarini eslab qolamiz. G'ofir, Jamila, Onyegin, Otabyek, Kumush, Ra'no, Anvar, Yo'lchi, Gamlyet, Lir, YAgo, Otyellolarga o'xshash ko'p kishilarning tasviri bizning ongimizda badiiy adabiyot o'qishning dastlabki va eng natijasi bo'lib saqlanadi.

Yozuvchi har bir davr va konkret tarixiy sharoitning mahsuloti bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi. ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz - insonning ozmi ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davrda va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir. Badiiy adabiyotda tasvir etilgan inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma'lum davr va muhit kishisining eng muhim va xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan. Shu sababli obrazlilik badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Yozuvchi badiiy adabiyot inson obrazini va hayot manzarasini eng muhim xarakteri xususiyatlarini tasvirlab berish uchun to'qimaga murojaat qiladi. Badiiy adabiyotning mazmuni hayotdagi hodisalarning jo'n nusxasi emas, balki hayotiy hodisalarga suyanib, ularni sotsial va estetik ideal nuqtai nazaridan baholab turib, san'atkorning fantaziyasi vositasi bilan yangidan yaratilgan, to'qib chiqarilgan hayot manzarasidir. Har bir yangi asar yozuvchi xayolida hayotiy tasavvurlardan paydo bo'ladi. Badiiy to'qima yozuvchiga hayotni tasodifiy narsalardan tozalab, uning mohiyati haqida eng to'g'ri tasavvur berishga qo'maklashadi. Hayotiy materiallarni bunday tozalash, hayotiy hodisalarni, tasodiflarni emas, qonuniyatlarni badiiy tasvirlashga intilish, tipiklashtirish deyiladi. Hayotning tipiklashgan tasviri hayot haqida eng chukur eng to'g'ri tasavvur beradi.

Nihoyat, badiiy adabiyotning yana bir spetsifik xususiyati - unda so'zning alohida ahamiyatga egaligidir. Hayot haqidagi tasavvurlarni rassom bo'yoq va chiziqlar, kompozitor tovushlarning uzun-qisqaligi, past-balandligi, raqqosa harakatlar orqali ifoda etilgani sababli so'z badiiy adabiyotning asosiy materiali hisoblanadi. Shunday qilib insonshunoslik, obrazlilik, to'qimaning muhimligi, tasvirning tipiklashganligi va so'zning alohida roli badiiy adabiyot spetsifikasining juda muhim ma'lumotlaridir. Lekin bu sharoitlarni hisobga olish bilan adabiyotning spetsifikasini tushunish vazifasi to'la ado etilgan bo'lmaydi. Negaki, ularning hammasi adabiyotning shakliga, ya'ni hayotiy in'ikos etishning usullariga oiddir, vaholanki adabiyotning spetsifikasi faqat hayotni in'ikos ettirishning shakllari problemasi emas, Belinskiy adabiyotning xususiyatlarini gapirganda undagi badiylik bilan birga yana 2 jihatni qayd etgani sira tasodifiy emas. Bularning biri ommaviylik, ya'ni jamiyatning fikrini bir markazga to'plash va yana jamiyatga qaytarib berish: ikkinchi adabiyot asarlarni butun xalq tomonidan emas, balki shu xalq ruhini ifoda etishga qodir konkret shaxslar tomonidan yaratilishidir. Buyuk nazariyachi adabiyotning uchinchi xususiyati-badiylik ekani haqida gapiradi.

Adabiyot spetsifikasini to'g'ri va to'la tushunish uchun Belinskiyning ana shu ta'rifiga qaytish kerak, chunki unda adabiyot spetsifikasi uch tomonlama ochib beriladi: adabiyot o'z vazifalari mazmuni shakli jihatidan spetsifik xususiyatlarga egadir. Bu spetsifik xususiyatlarning jami adabiyotning jamiyat hayotidagi rolini ta'min etadi. Adabiyot spetsifikasini ana shu uch tomondan ko'zdan kechirish orqaligina badiiy so'z san'atining spetsifikasi haqida to'la va to'g'ri tasavvur hosil qilish mumkin. avvaldan shuni qayd etish kerakki biz Belinskiyning "adabiyotning spetsifikasi - badiiylikdir", - degan fikriga suyanamiz. Ko'pincha adabiyotshunoslar "adabiyotning spetsifikasi obrazlilikdir", - dyeb hisoblaydilar. Bu tor talqindir, chunki obrazlilik umumiy inson tafakkurining xususiyatidir. Badiiylik obrazlilikdan kengroqdir. Badiiylik - san'atning hamma turlarini shu jumladan adabiyotning eng muhim spetsifik xususiyatidir. Badiiylik tushunchasiga obrazlilik kiradi, lyekin badiiylik faqatgina obrazlilikdan iborat emas. Adabiyotni badiiy qilgan narsa faqat obrazlilik bo'lmay, balki uning vazifalari mazmuni va shakliga taaluqli ko'pgina xususiyatlardir.

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

4-MAVZU	ADABIYOTDA MILLIYLIK VA UMINSONIYLIK

AXBOROTLI MA'RUZA TA'LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O'quv mashg'uloti shakli	**Axborotli ma'ruza**
O'quv mashg'uloti rejasi	1. Adabiyotda milliylik va uminsoniylik. 2. Hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy metodlari
O'quv mashg'uloti maqsadi: "Adabiyotshunoslik - fan" yuzasidan o'quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga adabiyot va uning keng, tor ma'nolari haqida ma'lumotlarni tizimlashtirish; -Umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha badiiy asarlardagi tushunchalarni aniqlash va ularni tahlil qilish; - yangi ma'lumotlar xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O'quv faoliyati natijalari:** Adabiyotning keng va tor ma'nolari kabi tushunchalarni hosil qilishadi badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Umuminsoniylki mohiyati xususida xulosalar chiqarishadi
Ta'lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so'rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari	**Faoliyat mazmuni**

va vaqti	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	Maqsad: Adabiyotda milliylik va uminsoniylik. Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. Milliylikka xos xususiyatlar. 2. Umuminsoniylik mohiyati. 3. Adabiyot buyuk milliy-ma’naviy boylik sifatida. 2.2.Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg’ulotda yechiladigan muammoga “olib kiriladi” va uni ifodalaydi: 1. Milliylikka xos xususiyatlar. 2. Umuminsoniylik mohiyati. 3. Adabiyot buyuk milliy-ma’naviy boylik sifatida. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo’lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo’llarini izlashni tashkillashtirishga o’tadi, ya’ni talabalarga “Adabiyotshunoslikkka kirisk” fani yuzasidan chuqur ma’lumot beradi. Adabiyotsgunoslikning ob’ekti, tarkibiy qismlari va qo’shimcha sohalari haqida ma’lumot beradi. Mashg’ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar ko’rgazmali materiallardan foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo’linadi, taqdimot uchun qog’ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish “yechimlar daraxti” tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma’lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo’yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Yechimlar daraxti” tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy xulosani beradilar, daftarga yozadilar

	tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi	
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

4-mavzu: Adabiyotda milliylik va umuminsoniylik (2 soat)

R e j a

1. **Adabiyotda milliylik va uminsoniylik.**
2. **Hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy metodlari**

Tayanch tushunchalar: San'at, psixoanalitik metod, intuitivizm, formalizm metodi, Strukturalizm metodi.

Estetik faoliyat inson hayotining barcha nuqtalarida o'zini namoyon qiladi: kundalik turmushda, mehnatda, istirohatda va h. Aytaylik, hovlisiga gulu rayxon o'tqazayotgan ayol, o'ziga oro berayotgan qiz, daraxtlarga shakl berayotgan bog'bon, tabiat manzarasidan zavqlanayotgan sayyoh, o'sha manzarani chizayotgan rassom ... — bularning barida estetik faoliyat unsurlari u yoki bu darajada mavjud. Biroq ular bir-biridan farqlanadi. Aytaylik, agar piyola go'zallik qonunlari asosida kechgan mehnat faoliyati mahsuli bo'lsa, haykal go'zallik qonunlari asosida kechgan ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli. Anglashiladiki, estetik faoliyat tushunchasi badiiy ijod, badiiylik tushunchalaridan keng ekan, zero, badiiy ijod estetik faoliyatning bir ko'rinishi sifatida mavjuddir. Biz mutaxassis sifatida ko'proq tor ma'nodagi "san'at" tushunchasi bilan ish ko'ramiz.

Tor ma'noda qo'llanilgan "san'at" so'zi badiiy san'atlarni ko'zda tutadi. Badiiy san'atlar deganda biz musiqa, raqs, rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, teatr, kino kabi san'at turlarini tushunamiz. Modomiki san'atni turlarga ajratar ekanmiz, bu turlarni umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar bo'lishi lozim. Sanalgan san'at turlarini umumlashtiruvchi jihat obrazlilik, ya'ni, ularning bari badiiy obraz vositasida fikrlaydi. Farqlovchi jihatlarga kelsak, bu narsa, birinchi navbatda, obrazni yaratish materialida ko'rinadi: musiqa ohanglar, rassomlik ranglar, raqs plastik harakatlar, haykaltaroshlik qotgan plastika vositasida obraz yaratadi. Badiiy adabiyot esa so'z vositasida obraz yaratadi va shu bois ham so'z san'ati deb yuritiladi. So'z universal bilish vositasi bo'lganidek, universal ifoda vositasi hamdir: har qanday fikriy faoliyat va hisning ifodasi so'z vositasida amalga oshadi, amalga osha oladi. So'z bilan ish ko'rgani uchun ham badiiy adabiyot boshqa san'at turlari orasida tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan alohida o'rin va mavqye kasb etadi. Biz ko'pincha "rangtasvir tili", "kino tili" kabi tushunchalarga duch kelamiz. Negaki, boshqa san'at turlarining tili badiiy adabiyot tiliga o'girilishi mumkin, boz ustiga, biz boshqa san'at turlariga mansub asarlarni-da so'z vositasida aqliy va hissiy

mushohada qilamiz, "singiramiz". San’at turlarining ichida ifodaviy va tasviriy san’at turlarini farqlanadi. Bir xil san’at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa - ifoda san’ati, kompozitor ohanglar orqali kechinmalarini ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi. Musiqani tinglarkan, o’sha kayfiyat asosida har bir tinglovchi o’ziga xos bir manzarani, holatni ko’z oldiga keltiradi. Ya’ni, kompozitor muayyan obraz ta’sirida tug’ilgan kechinmalarni ifodaladi — obrazning o’zini tasvirlamadi, tinglovchi esa kechinmalar asosida o’sha obrazni o’zi tasavvur etadi. Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san’at turlari sanaladiki, bunda o’zgacharoq holga duch kelamiz. Bu jarayonni tubandagicha tasavvur qilishimiz mumkin: biror manzara, holat musavvir qalbini jumbushga keltirdi, ko’nglida muayyan kechinmalar buhronini qo’zg’adi — musavvir o’zini hayratga solgan, zavqlantirgan, ko’nglida kechinmalar qo’zg’agan o’sha manzarani rangtasvirda muhrlaydi — rangtasvir bizda-da o’sha yoki o’shanga yaqin his-tuyg’ularni uyg’otadi, kayfiyatni hosil qiladi. Badiiy adabiyotga shu jihatdan nazar solsak, uning qorishiq hodisa sifatida namoyon bo’lishi ko’rinadi: deylik, epik asarlarni olsak, ularda tasviriylik xususiyati ustunligini, lirik asarlarda esa ifodaviylik yetakchilik qilishini kuzatamiz.

San’at turlari orasidagi farq yana ularning resepiyent (o’quvchi, tinglovchi, tomoshabin) tomonidan qabul qilinishidagi o’ziga xoslikda ham ko’rinadi. Masalan, rassom chizgan peyzajni qabul qilish jarayoni bilan epik asardagi so’z bilan tasvirlangan peyzajni qabul qilishdagi farqni olaylik. Rangtasvir asarini yaxlit holda ko’ramiz: ya’ni, uni avvaliga butunicha ko’ramiz, keyin butundan qismga (detallarga qarab) boramiz. Badiiy adabiyotdagi peyzajni qabul qilishda esa, aksincha, qismdan butunga qarab boriladi: avvaliga detallar bilan tartibi bilan tanishamizda, oxirida ko’z oldimizda yaxlit manzara hosil bo’ladi. Ayrim san’at turlariga mansub asarlarini resipiyent bevosita qabul qilsa, boshqalarning qabul qilinishi uchun o’rtada vositachi — ijrochining bo’lishi talab etiladi. Masalan, musiqa asarini olaylik. Musiqa asarining yaratuvchisi (kompozitor), asarning o’zi(notalar bilan ifodalangan matn), ijrochisi va eshituvchi bor. Ko’rinib turibdiki, kompozitor tinglovchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi, zero, ijro etilayotgan kuyda qisman ijrochining-da talqini qo’shilgan. Bu jihatdan badiiy adabiyotning ustunligi shundaki, o’quvchi badiiy informasiyani bevosita(asarning o’zi orqali) qabul qiladi, o’quvchining ruhiy faolligi yuqori darajada bo’ladi. Turli san’at turlariga mansub asarlarning yaratilishi jarayoni bilan bog’liq farqlarga ham to’xtalish lozim. Masalan, badiiy adabiyot yozuvchining individual ijodiy faoliyati mahsuli bo’lsa, kino kollektiv ijod mahsuli sifatida yaraladi. Kino asarining yaratilishida ssenariy muallifi, sahnalashtiruvchi rassom, kompozitor, aktyor kabilarning ijodiy mehnati borki, ularning bari bir fokusga — rejissyor nigohiga jamlanadi. Mavjud san’at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchilik mavqyeida turadi. Bu xil mavqyening asosi shuki, badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo’lmish so’z bilan ish ko’radi. Biz yuqorida badiiy adabiyot "tili"ga barcha san’at turlari "tili"ni o’girish mumkin, dedik. Biroq, agar bu fikrni mutlaqlashtirilgan holda tushunadigan bo’lsak, unda boshqa san’at turlarining paydo bo’lishi asossiz, keraksiz bo’lur edi. Holbuki, rangtasvir darajasidagi tasviriylikka, musiqa darajasidagi ifodaviylikka adabiyotning erishmog’i dushvordir. Shunga qaramay, badiiy tafakkur so’z asosiga qurilgani sababidan ham badiiy adabiyot belgilovchi san’at turi sanaladi: boshqa san’at turlari yaratuvchi obrazlar

so’z san’atida yaratilgan obrazlar kontekstida qabul qilinadi. Keyingi yillarda "ko’rish"ga asoslangan badiiy informasiyaning o’rni kuchaysa ham, so’z o’zining yetakchi mavqyeini saqlab qoldi va shu bois ham badiiy adabiyot hamon san’atning belgilovchi turi bo’lib turibdi.

Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatganidek, boshqa san’at turlari ham badiiy adabiyot taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Ya’ni, adabiyot boshqa san’at turlari bilan aloqada yashaydi va rivojlanadi. Masalan, o’zbek milliy teatrining rivojlanishi o’zbek badiiy prozasining tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirgani, nasriy asarlar strukturasini o’zgartirgani shubhasizdir. Zamonaviy nasriy asarlarda "sahnaviylik"ning kuchaygani, dialoglarning tobora keng o’rin olib borishi hamda tasvirda "obyektivlik"ka intilishning ortgani teatr san’atining rivoji bilan bog’liqdir. Zero, teatr san’ati milliy badiiy tafakkurni boyitdi: nosirlarimiz "dialog" vositasida qahramonlar ruhiyatini ochish, hayotiy holatning ruhiy asoslarini ko’rsatish kabi yangi badiiy imkoniyatlarni o’zlashtirdilar. Ikkinchi tomondan, o’quvchilar shu xil nasriy asarlarni qabul qilishga tayyorlandilar, epik nasriy asar voqyealarini "chetdan" kuzatish(xuddi sahna asarini tomosha qilayotgandek) orqali estetik zavq olish, asar mazmun-mohiyatini tushunish ko’nikmalarini hosil qildilar. Boshqa bir misol tariqasida musiqani olaylik.

Milliy turmush tarzining, hayot ritmining o’zgarishi barobari milliy musiqamiz ritmida ham o’zgarishlar sodir bo’ldiki, bu o’zgarishlar she’riyatda ham kuzatiladi. Milliy rangtasvir san’atining, xususan, undagi portret va peyzaj janrlarining rivoji va milliy nasrimizdagi peyzaj, portret tasviridagi o’zgarishlar, shuningdek, peyzaj she’rlar haqida ham yuqoridagicha fikrlarni aytish mumkin bo’ladi. Bulardan ko’rinadiki, badiiy adabiyotning tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengayishi va takomilida uning boshqa san’at turlari bilan aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham hozirgi adabiyotda nafaqat adabiy turlar orasidagi sintezlashuv, balki boshqa san’at turlari bilan sintezlashuv hollarini ham kuzatish mumkin. Misol tariqasida X.Davronning tubandagi she’rini olaylik:

Ro’mol o’rab ko’chaga chiqdi,
ro’molini yechdi ko’chada
va sochlari birdan shovullab
oqib ketdi yelkalaridan.
Juda go’zal ayol edi u
qalandardek ergashdi hilol.

Bu she’r o’quvchisining ko’z oldida tasvir birma-bir, xuddi kino kadrlaridek namoyon bo’ladi. Ya’ni, she’rning qabul qilinishida kino asarini qabul qilishga yaqinlik, demakki, uning ifoda yo’sinida kino "tili"ga yaqinlik bor. Demak, badiiy adabiyotga qotib qolgan hodisa sifatida ham, mutlaqo mustaqil hodisa sifatida ham qaramaslik kerak. Shundagina bugungi adabiyotdagi o’zgarishlarni his qilish va ularni "xazm" qila olish mumkin bo’ladi. Aks holda mutaxassis sifatida ham, kitobxon sifatida ham cheklanib qolish, adabiy hodisalarni o’tmish "toshi" bilangina o’lchaydigan bo’lib qolishimiz mumkin.

Xulosa shuki, chinakam adabiyotshunos bo’lmoq uchun, birinchidan, san’atning barcha turlaridan zavqlana biladigan xassos qalbga, ikkinchi tomondan, undagi o’zgarishlarni ziyraklik bilan ilg’ashu tahlil qilishga qobil teran aqlga ega bo’lmoq lozim.

Psixoanalitik metod. E.Freyd, I.Neyfelpd, I.D.Yermonovlar adabiyotni ehtiroslarga boy bo'lgan holatlarni ko'rsatib berish adabiyotning asosi deb biladilar. Badiiy adabiyotdan xuddi shunday holatlarni qidirishni targ'ib qilishdi. Badiiy adabiyotda erotik motiv va mavzularning o'rni, mye'yorini bilish zarur. Ortiqcha bunday holatlarni tasvirlash inson tarbiyaisga, insonlarning didiga adabiyotni ahloqiy-estetik funktsiyasiga salbiy ta'sir etish mumkin.

Ayniqsa, o'zbek adabiyotida bunday holatlarni me'yoriy tasvirlanishi talab etiladi. Xalqimizning milliy, diniy xususiyatlari ham sira bunday holatlarga to'g'ri kelmaydi.

Intuitivizm - filosofiyada idealistik oqim bo'lib, bu oqim imperializm davridagi burjua filosofiyasida katta ta'sirga ega bo'ldi. Etikada 20-asrdagi burjua etikasining yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu yo'nalish etikadagi hozirgi zamon formalizmiga asos soldi. U dastlab Angliyada, 50-yillarda AQSH da tarqaldi. A.Byergyeon, B.Krocha, YU.UAyxenvalpd, A.M.Yevlakovlar kabi olimlarr hayotni tiyran, sinchiklab - intuitsiyaga xos o'rganish bu metodning asosini tashkil etishini ta'kidlashgan.

YA'ni intuitsiya - (lot.-sinchiklab qarash) avval mantiqiy muhokama qilmasdan, haqiqatni bevosita payqash qobiliyati Marksdan ilgarigi filosofiyada intuitsiya biluvchilik faoliyatining alohida formasi deb qaralgan.

Masalan, SHarq filosofiyasida Intuitsiyani payg'ambarlarga xos bo'lgan maxsus bilim usuli sifatida talqin etilib, u ilg'or mutaffakirlar Farobiy, Beruniylar tomonidan tanqid qilingan. Intuitsiyaga haqiqatni ochishning birdan-bir va yagona yo'li deb qarash mumkin.

Badiiy ijodni ongsiz jarayon deb bilish, ushbu metod asoschilarining asosiy printsiplari bo'ldi. Ijodda onglilikni, tafakkur va tajribaning rolini inkor etadi. Ijod jarayonini o'rganish, bugungi kundagi adabiyotshunoslikning asosiy metodi sanalgan.

Formalizm metodi.

G.Zampyer, A.Rigallarning formalizmga qo'shgan hissalari katta. bordir. Formalizm o'z nomi bilan badiiy adabiyotni o'rganishda faqat formaga e'tibor byeradi. Badiiy asarni o'rganishda ayrim ramziy obrazlarni izohlash bilan cheklanadi. Formalistlar har qanday nazariy kriteriylarni inkor etadilar. Qo'pincha ular asarning yechimini analiz qilish, tasvir vositalarini ta'kidlash, ta'riflash bilan cheklanadilar.

Strukturalizm yaqinda kelib chiqqan ijodiy metod bo'lib, ular badiiy asarning strukturasini undagi tovushlar tarkibi, miqdori, joylashish o'rni, tartibi bilan mashg'ul bo'ladilar.

Strukturalizm ma'lum darajada adabiyotning ayrim qonuniyatlarini ochib beradi. Strukturalizmning asosiy etakchilari R.Bart, TS.Psoderov, R.YAkobson, YU.Lotmonlar bu metodning qator ijobiy xususiyatlarini ko'rsatib berishgan. Strukturalizm formalizmning texnika va kibernyetikaga oid hozirgi kirinishi ekanligi e'tirof etishgan.

Ilmiy tushunchalar va badiiy vositalarni matematik vositalar bilan aniq sistemalashtirishga urinishi zarurligi bugungi adabiyotshunoslik fanining ehtiyojiga aylanib bormoqda. Fan tehnika taraqqiyotini hozirgi bosqichda adabiyotshunoslikning ayrim masalalarini tadqiqi qilishda komppyuter hamda matematik vositalar imkoniyatlaridan foydalanish va uni amalga oshirish ushbu metodni asosiy funktsyaisi hisoblanadi. Bu metodning adabiyotshunoslik fanini taraqqiy etishida xizmatlari katta.

MA’RUZA MASHG’ULOTLAR

5 -MAVZU	POETIK OBRAZ TUSHUNCHASI

AXBOROTLI MA’RUZA TA’LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	Talabalar soni 50 ta
O’quv mashg’uloti shakli	**Axborotli ma’ruza**
O’quv mashg’uloti rejasi	1. Obraz va uning turlari: a) realistik obrazlar; b) romantik obrazlar; s) xayoliy - fantastik obrazlar; d) majoziy (simvolik) obrazlar; f) allegorik obraz; j) xarakter, personaj va qahramon tushunchalari; k) badiiy to’qima. 2. badiiy vositalar;
O’quv mashg’uloti maqsadi: “Badiiy obraz” yuzasidan o’quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko’nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga badiiy obraz, uning keng va tor ma’nolari adabiyotda tutgan o’rni to’g’risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish; -badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish; - Badiiy obraz tasnifi haqida ma’lumotga ega bo’lishadi, badiiy asarlarda bu talablar qanday ifoda etilganligi xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O’quv faoliyati natijalari:** Badiiy obraz kabi tushunchalarni hosil qilishadi Badiiy obraz turlari bo’yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Badiiy obraz tasnifi xususida xulosalar chiqarishadi
Ta’lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta’limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Poetik obraz tushunchasi. Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, obraz tushunchalarini hosil qilish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi (№ 1-ilova) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z

	izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. Obraz tasnifi. Obrazda umumiylik va xususiylik. Prototip masalasi. 2. Obraz va detal. Obraz va so'z. 3. Obraz deganda nimani tushunasiz? 4. Uning qo'llanilishi 5. Tor ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 6. Keng ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: 1.Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari: a)obrazning umumlashmaligi; b)obrazning konkretligi va individuallgi; s)badiiy obraz tuzilishida to'qimaning o'rni; d)badiiy obrazning estetik ta'sirchaligi 2.Obraz-personaj-xarakter –tip 3.Obraz yaratish yo'llari: a)Jamlash yo'li bilan; b)Prototip asosida 4.Obrazlar tasnifi: a)Romantik obrazlar; b)Xayoliy-fantastik obrazlar; s)Afsonaviy obrazlar; d)Simvolik obrazlar; y)Mifologik obrazlar. 5.Adabiy turlar va janrlar taqozosiga ko'ra: a)lirik; b)epik; s)dramatik. 6.Asar to'qimasida tutgan o'rniga ko'ra: a)bosh; b)yordamchi. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Adabiyotshunoslikkka kirisk" fani yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Adabiyotsgunoslikning ob'ekti, tarkibiy qismlari va qo'shimcha sohalari haqida ma'lumot beradi. Mashg'ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar (№2 ilova), ko'rgazmali materiallardan (№ 3 ilova) foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo'linadi, taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish "yechimlar daraxti"	fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma "Yechimlar daraxti" tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar

	tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlsngsnligini ma'lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi.	
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq (№ 4 ilova)	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Obrazlilik bu -	a)san'atning asosiy xususiyati ; b) hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli; s) hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos usuli; d) barcha javoblar to'g'ri
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	Obrazlilik tushunchasining asosiy o'zagi nima?	a)badiiy obraz; b) hayot; s) tabiat; d) to'g'ri javob yo'q
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Obrazlilik nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?	a)adabiy ijodning mohiyatini; b) umumiy xususiyatlarni; s) badiiy tilni; d) barcha javoblar to'g'ri
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

5- mavzu : Poetik obraz tushunchasi

REJA:

1. Obraz va uning turlari: a) realistik obrazlar; b) romantik obrazlar; s) xayoliy - fantastik obrazlar; d) majoziy (simvolik) obrazlar; f) allegorik obraz; j) xarakter, personaj va qahramon tushunchalari; k) badiiy to'qima.
2. badiiy vositalar;

Tayanch iboralar: Obraz, badiiy obraz, obraz turlari, xarakter, realistik obrazlar. romantik obrazlar. xayoliy-fantastik obrazlar, majoziy(simvolik) obrazlar.

Badiiy obraz nima? Bu savolga javob berishdan avval «obraz» so'zining nima ekanligini bilish lozim. Bu so'zning o'zaga «raz» (chiziq) bo'lib, o'ndan «razit» (chizmoq, o'ymoq), o'ndan «obrazit» (chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu «obrazit» so'zidan «obraz» atamasi vujudga kelgan. Bu so'z «umuman olingan tasvir» ma'nosini bildiradi.

San'at va adabiyotdagi obrazning ilm - fandagi obrazdan ko'ra ta'sirchan bo'lishining asosiy sababi o'nda voqyea - hodisalar ijodkorning aql - tafakkuri, qalb quvvati bilan boyitilganidadir. San'atkor ularga o'z his - tuyg'ulari, hissiyotlari bilan jilo beradi. Haykaltarosh oddiy xarsang tosh, yogochni chizib, yo'nib, o'yib shakl beradi, ya'ni obraz yaratadi. Musavvir borliq hodisalarining dabdurustdan sezish, payqash mushkul bo'lgan qirralarini ta'sirchan bo'yoq, rang, chizgilar vositasida xuddi jonliday, harakatlanayotganday namoyon etishga intiladi.

Shoir, yozuvchi esa so'z vositasida voqelikning yorqin manzarasini yaratishga harakat qiladi. Kishilarni turli vaziyatlarda so'zlatadi. Ularning holat, ko'rinishlaridagi eng e'tiborli jihatlarini gavdalantiradi, kungkida kyechayotgan o'y, xayolidagi manzaralarni ma'lum qiladi. So'z shoir, yozuvchining badiiylik yaratishdagi asosiy quroli sanaladi.

Endi bevosita badiiy obraz nima ekanligini sharhlaydigan bo'lsak avvalo, adabiy asarda (umuman, san'atning barcha turlarida) tasirlangan inson, narsa-buyum, hodisalarning barchasi obraz deb yuritiladi. Chunki ularning har biri hodisaning ma'lum bir qirrasi, jihatini o'zida namoyon etib, voqelikni to'la tasavvur etish imkonini beradi. Biroq «obraz» terminini, avvalo, insonga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki san'at va adabiyot asarlarida hayotning har qanday ko'rinishlarini ko'rsatishdan ko'zda to'tilgan maqsad avvalo insondir. Haqiqatan ham san'at va adabiyotda tabiat hodisalari, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami aks ettirilganida ham inson nazarda to'tiladi. Kishilarning hayoti, manfaati e'tiborda turadi.

San'at va adabiyotda obraz deyilganda inson nazarda to'tilar ekan, demak u ijodkorning maqsad, muddaosini ifoda etuvchi kishi tasviri bo'ladi. Yozuvchi, shoir, rassom, haykaltarosh bu kishini o'z hayotiy kuzatishlari, tajribasi, xayoli quvvati bilan yaratadi. V. Belinskiy san'at va adabiyotda obraz deyilganda inson e'tiborga olinishini ta'kidlar ekan, «Tabiat san'atning timsolidir, lekin o'ndagi eng oliy predmet esa albatta inson hisoblanmog'i kyerak», deydi. Chunki inson san'at va adabiyotning asosiy ta'sir vositasi ekanligi haqiqatdir. Jumladan, asosiy qahramonlari hayvonlar bo'lgan masallarda ham odamlarning harakat - holatlari ramz (simiol)lantiriladi.

Shuningdek, badiiy obraz deyilganda inson bilan birgalikaa ijodkor qo'llagan ifodalar, ko'chma ma'no beruvchi so'z, iboralar ham tushuniladi.

Badiiy obraz terminini asarda qo'llangan badiiy vositalar (o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabi)ga nisbatan ham ishlatish mumkin. Shuningdek muayyan davrga xos manzaralarni qabariq, ta'sirchan holda gavdalantirishga nisbatan ham «bu asarda davrning o'ziga xos obrazi gavdalantirilgan» deyish ham mumkin. Bundan anglashiladiki, badiiy obrazning ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, obrazda hodisalarning muhim xususiyatlari umumlashtirilgan bo'ladi. Ikkinchidan, o'nda muayyan aniqlik (yaqqa hodisa, alohida bir odam) akslangan bo'ladi. Demak obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir. Ayon bo'ladiki, badiiy obraz borliq hodisalarining shunchaki nusxasi emas. Badiiy obraz, avvalo, ijodkorning kashfiyoti, uning ijodiy mehnati maxsulidir. Ijodkor obraz yaratish uchun o'zicha izlanadi. Uning bu ishiga chetdan yorham ko'rsatib yoki hashar qilib bo'lmaydi. Badiiy obraz yaratish har bir ijodkorning o'z ishi. U bu ish jarayonida o'z xayoloti, aql-tafakkuriga tayanadi. U o'zicha nimalarnidir to'qiydi, xayolida turli-tuman manzaralar chizadi.

Badiiy asarning ta'sirchan, jozibali chiqishini ta'minlash uchun har bir ijodkor, albatta, badiiy to'qimadan foydalanadi. Badiiy to'qima obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o'ylab topishdir. Badiiy to'qima obrazning qiyofasini yorqin etganidek asardagi voqealarning qiziqarliligini ta'minlaydigan asos, poydevor hamdir. Chunki badiiy to'qima ijodkorga mavjud voqelikni aslidagidan ko'ra keskinroq, shiddatliroq, qiziqarlirok ko'rsatish imkonini beradi.

Badiiy to'qima yolg'on, uydirma bo'lsa-da, u o'quvchini ishontirishi, ta'sirlantirishi, o'ylantirishi kerak. Shunday bo'lishi shart. Badiiy to'qima hayotning odatdagi mantig'iga muvofiq kelish-kelmasligidan qat'iy nazar, u qahramon qiyofasini yorqinlashtirsa, o'quvchining tasavvuriga qandaydir yangiliklar olib kirsa, bu - ijodkorning yutug'idir. Barcha san'at asarlarini barkamol qilgan hodisa, avvalo, badiiy to'qimadir. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar»i ham, Abdulla Qahhorning «O'g'ri», «Bemor»i ham, Abdulla Oripovning she'rlari ham badiiy to'qima asosida yaratilgan asarlardir. Ularda adiblar badiiy to'qima asosida mavjud hayotning ta'sirchan manzaralarini ko'rsatishgan. Badiiy to'qima asosida ta'sirchan badiiy obrazlar yaratadigan ijodkorning muayyan maqsad - muddaosi bo'ladi. U qahramonlari qiyofasi, fe'l - atvorini ham, davr hodisalarini ham o'z maqsadiga muvofiq ko'rsatishga harakat qiladi.

Adabiyotda inson obrazini yaratish tarixini kuzatadigan bo'lsak mavjud harslik va qo'llanmalarda ta'kidlanganidek quyidagi turdagi badiiy obrazlar yaratilganiga guvoh bo'lamiz:

1. Realistik obrazlar.
2. Romantik obrazlar.
3. Xayoliy-fantastik obrazlar,
4. Majoziy(simvolik) obrazlar.

Xarakter - xususiyatlari, xatti - harakatlari hayotdagi kishilarga mos keladigan obrazlar realistik obrazlar deb yuritiladi. Abdulla Qahhorning «O'g'ri», «Bemor», «Sinchalak» asarlaridagi qahramonlar realistik obrazlar sanaladi. Muqimiyning «Tanobchilar» satirasidagi Sultonali, Hakimjon obrazlari ham realistik obrazlar

hisoblanadi. Chunki real hayotning o'zida Qobil bobo, amin, ellikboshi, Sotiboldi, Qalandarov, Saida va «Tanobchilar» qahramonlari singari kishilar mavjud. Ularning fe'l - atvori, xatti - harakati ayni shu asarlarda ko'rsatilganiga muvofiq keladi.

Romantik obrazlar ijodkorlarning orzu - xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu - umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida o'z kunglidagi orzularini gavdalantiradi. Shuning uchun Farhod obrazi hamma zamonlarda ham barchani havaslantirib keladi. Chin shaxzodasining intilishlarida kishilarning orzulari ifodalangan. Biroq uning ayrim xatti - harakatlari real hayotga aslo muvofiq kelmaydi. Alisher Navoiy o'z sevgan qahramonini fazilatlar jamuljami sifatida ko'rsatadi. Masalan, Farhod uchun turli kasb - hunarlarni o'rganish asosiy muddao emas. Uning asosiy maqsadi ishqqa erishish, kungil qo'ygani Shirin visoliga etishdir. Ammo u tog'u toshlar orasida mashaqaat bilan ariq qaziyotganlarini ko'rganida:

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqami ketgumdir oxir-

deb ariq qaziyotganlarga ko'maqiashishga tushib ketadi, aslida u Shirinni ko'rish, unga ahvolini bayon etish uchun ketayotgan bo'ladi. Biroq qiynalib mehnat qilayotganlar oldidan befarq o'tib ketolmaydi. Chunki u faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin, manfaatnarast emas. Farhod - boshqalar manfaatini o'z manfaatidan hamisha usto'n qo'ya biladigan haqiqiy inson. Farhod singari kishilar esa hayotda juda kam bo'ladi. Hayotda hamma ko'proq o'zini o'ylaydi. Biroq ko'ngil to'rida turadigan «kimdir» bu xudbinlik uchun hammani iztirobga solib, azoblab turadi.

Xayoliy-fantastik obrazlar romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ham ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy - fantastik obrazlar mo'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaqiaridagi qahramonlarni xayoliy - fantastik obrazlar deyish mumkin. Masalan, «Alpomish» dostonida xalqning ideal qahramoni ko'rsatilgan. Doston bosh qahramoni Alpomish hamisha dushmanlaridan g'olib keladi. U har qanday mashaqqatlarni engib o'tadi. Alpomish - o'tda yonmas, suvda cho'kmas qahramon. O'ni dushmanlari makru hiyla bilan zindonga solganlarida ham o'ldirolmaydilar.

Xayoliy - fantastik obrazlar folklordagina emas, yozma adabiyotda ham mavjud. Xususan, hozir fantastik asarlarga qiziqish juda kuchli. Fantastik asarlardagi obrazlar kishilarning tasavvo'rini boyitadi.

Barcha xalqlar adabiyotidagi fantastika aslida ertaqiardan boshlangan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Bizning asrimizda fantast yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlarni ham ma'lum ma'noda zamonamiz ertaqiari deyish mumkin. Gerbert Uells, Ayzek Azimov kabi fantast adiblar asarlari juda mashhur. Hojiakbar Shayxov, Tohir Malik kabi o'zbek yozuvchilari ham qator e'tiborli fantastik asarlar yaratgan.

Majoziy obrazlar muayyan narsa - hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so'fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori, ramzi sanaladi.

Majoziy obrazlar adabiyotda keng qo'llanilib kelinadi. Ular hodisalarning ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi.

Allegorik, ya'ni kinoyaviy obrazlar ham majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l - atvoridagi kamchilik illatlar ko'rsatiladi. Hamzaning «Toshbaqa va chayon», A.Krelovning «Bo'ri va qo'zichoq» masallarida odamlarning fe'l - atvorlari gavdalantirilgan. Shunday ekan, romantik, realistik xayoliy - fantastik majoziy qahramonlar deb atash ham mumkin. Obraz va qahramon istilohlari ayni o'rinda bir - biriga teng keladi. Umuman, obraz - qahramonda ko'pchilik kishilarga xos xarakter-xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi.

Obraz-qahramon haqidagi mulohazalar o'z-o'zidan xarakter tushunchasi bilan boglanadi. Xarakter nima?

Xarakter o'z xatti - harakatlari, maqsad, intilishlari, o'y - kyechinmalari, dunyoqarashi, fe'l - atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo'la olmaydi. Asardagi etakchi qahramon har jihatdan faol bo'lsa, o'zining barcha jihatlari bilan yorqin ko'rinib tursagina u badiiy xarakter bo'la oladi. Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ham bir necha qahramon bor. Biroq ulardan faqat Qobil bobo obrazinigina badiiy xarakter deyish mumkin. Qobil boboning xotini, ellikboshi, amin, pristav, tilmoch va boshqalar voqealarning oddiy ishtirokchilaridir. Badiiy asardagi bunday kishilar obrazi personajlar deb ataladi. Har qanday qahramon badiiy xarakter sanalmagani singari, har qanday personaj ham badiiy xarakter bo'lolmaydi. Demak badiiy xarakter asarning yorqin qiyofasi, o'ziga xos pasportidir. Ammo asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko'tarilgan qahramonlar, ijobiy, salbiy qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

Ma`ruzaga ilovalar

Ilova 1

BADIIY OBRAZ





Ilova 2

OBRAZ YARATISH YO'llARI

JAMLASH YO"LI BILAN OBRAZ YARATISH

- Insonlarning ruhiyatini puxta o'rganib, ularning eng muhim belgilarini, tipik xususiyatlarini saralab, tanlab, umumlashtirish

PROTOTIP ASOSIDA OBRAZ YARATISH

- Badiiy obrazni yuzaga keltirishda negiz,asos,o'zak,bosh yo'nalsh,nuqta poydevor sifatida xizmat qiluvchi real shaxs

Ilova 3

Adabiy turlar va janrlar taqozosiga ko'ra obraz turlari



Ilova 4

Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlar tasnifi



REALISTIK- hayot haqiqatiga monand obraz. U jonli odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi

ROMANTIK – hayotda aynan bo'lmagan, ammo bo'lishi orzu qilingan – mo'jizakor kuch-quvvat egasi bo'lgan, ko'tarinki ruh bilan yaratilgan obraz

XAYOLIY-FANTASTIK – haddan tashqari bo'rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan obraz

AFSONAVIY – butunlay xayoliy obraz bo'lib, ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatlarga ega obraz

SIMVOLIK – predmetlar, o'simliklar, narsalar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtiruvchi obraz

MIFOLOGIK – mifologiya (afsona) asosida yaratilgan asotiriy obraz

Ilova 5



Ilova 6

BADIIY OBRAZNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

UMUMLASHMALIGI
KONKRETLIGI VA INDIVIDUALLIGI
BADIIY OBRAZNING ASOSIY XUSUSIYATLRI
OBRAZ TUZILISHIDA TO'QIMA
ESTETIK TA'SIRCHANLIGI

MA’RUZA MASHG’ULOTLAR

6 -MAVZU	POETIK OBRAZ XUSUSIYATLARI

AXBOROTLI MA’RUZA TA’LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O’quv mashg’uloti shakli	**Axborotli ma’ruza**
O’quv mashg’uloti rejasi	1. Obrazli tafakkur (obrazlilik) san’atning spesifik xususiyati sifatida. 2. Badiiy obraz xususiyatlari. 3. Inson obrazi va uni yaratish vositalari. 4. Badiiy obraz turlari.
O’quv mashg’uloti maqsadi: “Badiiy obraz” yuzasidan o’quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko’nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga badiiy obraz, uning keng va tor ma’nolari adabiyotda tutgan o’rni to’g’risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish; -badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish; - Badiiy obraz tasnifi haqida ma’lumotga ega bo’lishadi, badiiy asarlarda bu talablar qanday ifoda etilganligi xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O’quv faoliyati natijalari:** Badiiy obraz kabi tushunchalarni hosil qilishadi Badiiy obraz turlari bo’yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Badiiy obraz tasnifi xususida xulosalar chiqarishadi
Ta’lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta’limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Poetik obraz xususiyatlari. Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, obraz tushunchalarini hosil qilish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi (№ 1-ilova) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z

	izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi: 1. Obraz tasnifi. Obrazda umumiylik va xususiylik. Prototip masalasi. 2. Obraz va detal. Obraz va so'z. 3. Obraz deganda nimani tushunasiz? 4. Uning qo'llanilishi 5. Tor ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 6. Keng ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 2.2. Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: 1.Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari: a)obrazning umumlashmaligi; b)obrazning konkretligi va individuallgi; s)badiiy obraz tuzilishida to'qimaning o'rni; d)badiiy obrazning estetik ta'sirchaligi 2.Obraz-personaj-xarakter –tip 3.Obraz yaratish yo'llari: a)Jamlash yo'li bilan; b)Prototip asosida 4.Obrazlar tasnifi: a)Romantik obrazlar; b)Xayoliy-fantastik obrazlar; s)Afsonaviy obrazlar; d)Simvolik obrazlar; y)Mifologik obrazlar. 5.Adabiy turlar va janrlar taqozosiga ko'ra: a)lirik; b)epik; s)dramatik. 6.Asar to'qimasida tutgan o'rniga ko'ra: a)bosh; b)yordamchi. Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Adabiyotshunoslikkka kirisk" fani yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Adabiyotsgunoslikning ob'ekti, tarkibiy qismlari va qo'shimcha sohalari haqida ma'lumot beradi. Mashg'ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar (№2 ilova), ko'rgazmali materiallardan (№ 3 ilova) foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo'linadi, taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish "yechimlar daraxti"	fikrlarini beradilar Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma "Yechimlar daraxti" tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar

	tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlsngsnligini ma'lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi.	
III-Bosqish. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq (№ 4 ilova)	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Obrazlilik bu -	a)san'atning asosiy xususiyati ; b) hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli; s) hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos usuli; d) barcha javoblar to'g'ri
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	Obrazlilik tushunchasining asosiy o'zagi nima?	a)badiiy obraz; b) hayot; s) tabiat; d) to'g'ri javob yo'q
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Obrazlilik nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?	a)adabiy ijodning mohiyatini; b) umumiy xususiyatlarni; s) badiiy tilni; d) barcha javoblar to'g'ri
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

6- mavzu: Poetik obraz xususiyatlari
(2 soat)

REJA:

1. **Obrazli tafakkur (obrazlilik) san'atning spesifik xususiyati sifatida.**

2. **Badiiy obraz xususiyatlari.**
3. **Inson obrazi va uni yaratish vositalari.**
4. **Badiiy obraz turlari.**

Tayanch tushunchalar:

Obraz, badiiy obraz, badiiy obraz spesifikasi, individuallashtirlgan, umumlashma, rasional va emosional birlik, metaforiklik, ko'p ma'nolilik, badiiy obraz turlari: realistik obrazlar, romantik obrazlar, xayoliy - fantastik obrazlar, majoziy(simvolik) obrazlar, badiiy vositalar, xarakter, personajlar, qahramonlar, allegorik obraz, ijobiy, salbiy qahramonlar, badiiy to'qima.

San'atning obraz vositasida fikrlashi uning spesifik, ya'ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi "obrazli tafakkur" deb yuritiladi.

Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Bundagi farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fan va badiiy adabiyotni qiyoslab ko'rish mumkin. Misol uchun, bir xil masala yuzasidan fikr yuritayotgan olim va shoirni olib ko'raylik. A.Oripovning "Ayol" she'ri hammangizga tanish, unda ikkinchi jahon urushida eridan yosh beva qolgan, umrini farzandiga bag'ishlagani holda sadoqat bilan yashagan ayol haqida so'z boradi. Shoir ko'z oldimizda konkret ayolni, uning foje taqdirini gavdalantirish orqali umuman urush haqida, uning oqibatlari haqida, og'ir damlarda sinaluvchi insoniy hislar haqida mushohada yuritadi. Xo'p, xuddi shu she'rdagi masala xususida, masalan, tarixchi olim qanday fikr yuritadi: "Ikkinchi jahon urushi janggohlariga ...-, ...-yillarda tug'ilgan yigitlar to'la safarbar etildi. Urush harakatlarida sho'ro hukumati insonni tejash yo'lidan bormadi, janggohlarda ... nafar jangchi halok bo'ldi. Buning natijasida urushdan so'ng jamiyatda erkak va ayollar nisbatida nomutanosiblik yuzaga keldi, demografik vaziyat tanglashdi. Ko'plab ayollar yolg'iz umrguzaronlik qilishga mahkum bo'ldi. Jamiyatda "yolg'iz ayol" toifasi yuzaga keldi". Ko'rib turganimizdek, olim shoirdan tamomila farqli yo'ldan boradi, uni umumlashtirilgan faktlargina qiziqtiradi. Olim konkret inson taqdiri haqida emas, undan o'zini chetlashtirgan (abstraktlashgan) holda umumlashmalar, tushunchalar asosida fikr yuritadi. Ma'lum bo'ldiki, mohiyat e'tibori bilan shoir va olimni o'ylantirayotgan muammo bitta. Biroq, shoir bitta konkret ayol taqdirini badiiy tasvirlash (obrazini yaratish) orqali umumlashmaga boradi, baski, obraz uning uchun fikrlash shakli, usuli bo'lib qoladi. Ya'ni, olim ko'plab faktlarni (konkret hodisalar, insonlar v.h.) o'rganib, ularning umumiy xususiyatlari asosida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarsa, san'atkor konkret faktni individual tasvirlash orqali umumlashmaga intiladi.

"Obraz" termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi

farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz "obraz" deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.

Badiiy obraz borliqning(undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun musavvir ijodiga murojaat qilaylik. Musavvir yaratgan peyzaj – tabiat manzarasi tasviri bilan "natura" – asarga asos bo'lgan real manzara orasida juda katta tashqi o'xshashlikni topishimiz va, hatto, "xuddi o'zi-ya" deya hayratlanishimiz mumkin. Ehtimol, kim uchundir bu nav hayrat musavvir ijodiga berilgan yuksak baho bo'lib ko'rinar, aslida esa bu xil baho san'atni tushunmasligimizdan dalolat, xolos. Ya'ni, biz musavvir ayricha bo'rttirgan bo'yoqlarni, uning kechinmalariga "hamohang" ranglar jilosini, bizning nazarimizda ahamiyatsiz ko'ringani uchun e'tibor bermaganimiz, biroq muallif nazarida muhim bo'lgani uchun bo'rttiribroq berilgan chizgini, naturada bo'lsa-da asarda aksini topmagan yoki bo'lmasa-da asarda aks ettirilgan jajji detalni, ... ilg'ay olmagan bo'lib chiqamiz. Boshqacha aytsak, obrazdagi obyektiv ibtidoni ko'rganimiz holda, undagi subyektiv ibtidoni — asarga singdirib yuborilgan muallifni, muallif qalbini ko'ra olmadik. Modomiki badiiy obrazda faqat obyektiv ibtidonigina ko'rar ekanmiz, demak, asarni ko'rmagan — badiiyat hodisasidan chetda qolgan bo'lib chiqamiz. Zero, badiiyat ijod va resepsiya (o'qish, tomosha qilish, tinglash) jarayonlaridagina mavjuddir. Bundan ko'rinadiki, haqiqatda badiiy obrazning materiali real voqelikgina emas, ijodkor shaxsiyati hamdir. Shu vajdan ham bir xil mavzuni qalamga olgan ikki yozuvchi, bitta narsaning suratini chizgan ikki rassom tomonidan yaratilgan obrazlar bir xil bo'lmaydi, bo'lolmaydi.

Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so'z ketganda, birinchi galda, uning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. Yuqorida, obrazli va abstrakt tafakkur haqida fikr yuritganimizda, bunga qisqacha to'xtalib o'tdik. Gap shundaki, abstrakt tafakkur narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga, obrazli tafakkur esa individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi. Deylik, fan umuman odam haqida (masalan, biolog umuman odamning fiziologik xususiyatlari haqida) so'z yuritishi mumkin, biroq san'at hech vaqt umuman odam obrazini yarata olmaydi. Shu ma'noda konkretlilik — badiiy obrazning muhim spesifik xususiyatlaridan biri sanaladi. Shu o'rinda yana A.Oripovning "Ayol" she'riga qaytsak. Hech shubhasiz, she'rdagi ayol obrazi o'zida katta badiiy umumlashmani tashiydi va shu bilan birga u o'quvchi ko'z o'ngida konkret bir inson sifatida gavdalanadi. San'atkor umumlashmaga obrazning individual xususiyatlarini bo'rttirish orqali erishadi. Masalan, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning amin huzuriga kelganini eslang. Yozuvchi amin haqida: "og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi", "chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi" qabilidagi individual belgilarni bo'rttiradi. Ayni shu individual belgilarning bo'rttirilishi

hisobiga adib katta badiiy umumlashmaga erishadi: zamona amaldorlariga xos bo'lgan qo'l ostidagi fuqaroning taqdiriga befarqlikni ko'rsatadi. Ya'ni, amin obrazi ko'z oldimizda individual xususiyatlariga ega bo'lgan konkret inson sifatida gavdalanadi, ayni shu individuallashtirish hisobiga obraz umumlashmalilik kasb etadi. Ko'rinadiki, shu tariqa badiiy obrazda bir paytning o'zida bir-biriga zid ikki jihat (individuallik va umumiylik) uyg'un tajassumini topadi. Badiiy obraz o'zida aql va hisni uyg'un birlashtiradiki, shu bois uni rasional va emosional birlik sifatida tushuniladi. Badiiy obrazdagi rasional jihat shuki, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, Cho'lponni Turkistonning tarixiy taraqqiyoti masalalari, yurtining ertasi haqidagi o'ylar tashvishlantirgan. O'zini qiynagan muammolarni Cho'lpon "Kecha" romanidagi qator obrazlar vositasida badiiy tadqiq etadi, asardagi obrazlar tizimi vositasida o'zining badiiy fikri(tugal bir qarash, tizim holidagi xulosa — konsepsiya)ni shakllantiradi va ayni shu obrazlar orqali o'zi anglagan haqiqatni badiiy fikr(konsepsiya) tarzida ifoda etadi. Ayni paytda, asarda yaratilgan obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o'z aksini topgan. Ijodkorning hissiy munosabati badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunining o'quvchiga etkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, obrazlar tizimidagi har bir konkret obrazning hissiy tonalligi turlicha bo'lib, bu narsa birinchi galda muallifning ijodiy niyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "Kecha" romanining boshlanishidayoq Cho'lpon Zebiga bir turli, Razzoq so'figa yana bir turli, Akbaraliga esa boshqa bir turli munosabatda bo'ladi. Voqyealar rivojlanib borgani sari muallifning ularga hissiy munosabatida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Aytaylik, adibning asar boshlanishidagi Zebiga nisbatan shaydolik to'la mehri susayib boradi (adib xarakter mohiyatini xolis idrok etib boradi), Razzoq so'figa yoki Akbaraliga nisbatan mazaxli nafrat qisman achinishga aylanib boradi(adib ularning taqdiridagi fojelikni kashf etadi). Ya'ni, adibning o'zi xarakter mohiyatiga kirgani sari qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatida o'zgarish yuzaga keladi. Hissiy munosabatdagi o'zgarish o'qish jarayonida kitobxonga ham o'tadi va ayni shu narsa uning asar mazmunini adib istaganidek tushunishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'rinadiki, badiiy obrazdagi rasional va emosional jihatlarning uyg'unligi asar badiiy konsepsiyasini shakllantirilishida ham, ifodalanishida ham birdek muhim ahamiyatga ega ekan.

Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning metaforikligi sanaladi. Bu o'rinda "metaforiklik"ni keng ma'noda tushunish, uni "o'xshashlik"ning o'zi bilangina bog'lab qo'ymaslik lozim. Ya'ni, "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqyelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko'rinib turgan tashqi o'xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. San'atkor biz uchun kutilmagan ichki o'xshashlikni inkishof etadiki, natijada o'sha biz bilgan narsa-hodisa ko'z oldimizda butkul yangicha bir tarzda suratlanadi, o'zining bizga noayon qirralarini namoyon etadi. Masalan, musavvir ijodi haqida, rangtasvir san'atining o'ziga xosligi haqida hammamiz ham ma'lum bir tasavvurga egamiz. Shoir (X.Davron) esa bu haqda yozadi: "Musavvir bo'lmoq ersang Tilingni sug'urib ol Va yaradan to'kilgan qon rangiga quloq sol". Albatta, rangtasvirda ranglar "gapirishi" hammamizga ma'lum, biroq ayni shu fikrning "gapirayotgan qon rangi"

obrazi orqali berilishi — kashfiyot, metaforik fikrlash natijasi va xuddi shu narsa bizni hayratga soladi, shuurimizda muqim o'rinlashadi. Mohiyatga qaragan san'atkor qobig'iga o'ralib yashayotgan odam bilan sassiq ko'lmakdagi tilla baliqcha yoxud o'zida cheksiz kuch qudrat sezgani holda maqsaddan mosuvo yashayotgan odam bilan bemaqsad uchib yurgan burgut orasida(A.Oripov), turg'unlikning biqiq muhitida yashayotgan ziyoli bilan bir izdan beto'xtov yurayotgan tramvay(A.A'zam) yoxud qatag'on sharoitida ijod qilayotgan shoir bilan vahshiy qoyalar orasida quyoshga oppoq gul uzatgancha nafis chayqalayotgan na'matak(Oybek) orasida o'xshashliklar topadi, birining mohiyatini ikkinchisi orqali ochib beradi. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, obrazli tafakkurda yuksak darajadagi assosiativlik kuzatiladi.

Ma'lumki, asssosiativlik umuman inson tafakkuriga xos narsa. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi hamono u bilan bog'liq assosiasiyalar ham uyg'onadi. Masalan, "qish" deyilishi bilan xayolimizda assosiativ tarzda "qor", "sovuq", "po'stin", "chana" kabi u bilan bog'liq tushunchalar uyg'onadi. Obrazli tafakkurni yuksak darajada assosiativ deyishimizning sababi shundaki, reallikda ko'rilgan bir narsa san'atkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin. Shu bois ham san'atkor yuqoridagicha o'xshashliklarni topadi va uni badiiy obrazda aks etiradiki, natijada o'sha obraz ham yuksak darajadagi assosiativlik kasb etadi. Badiiy obraz yakma'no bo'lolmaydi, ko'p ma'nolilik uning tabiatiga xos yana bir muhim xususiyatdir. Badiiy obrazning ko'p ma'noliligi, avvalo, uning assosiativligi bilan bog'liq holda izohlanadi. Buni, ayniqsa, assosiativlik darajasi yuqori bo'lgan ramziy obrazlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, Oybekning mashhur "Na'matak" she'rini olaylik. Undagi tabiat manzarasini obraz deb olsak, tabiiyki, uning birinchi ma'nosi tabiat manzarasining o'zi. Holbuki, shoir o'z vaqtida shu manzarada assosiativ ravishda istibdod tuzumi sharoitidagi ijodkor taqdirini ko'rgan va shu ma'noni obrazda ifodalagan. Ayni paytda, mazkur obrazning ma'no ko'lami shularning o'zi bilangina cheklanmaydi: o'quvchi o'z hayotiy tajribasi, she'rni o'qish paytidagi ruhiy holati bilan bog'liq ravishda bu obrazda tamomila boshqa mazmunni, o'z mazmunini ham topishi mumkin bo'ladi. Aytish kerakki, ko'p ma'nolilik nafaqat ramziy, balki tom ma'nodagi realistik obrazlarga ham xosdir. Faqat bunda endi ko'p ma'nolilikning yuzaga kelish mexanizmi o'zgacharoq. Gap shundaki, san'atkor badiiy obraz orqali ifodalamoqchi bo'lgan fikrni oxirigacha tugal aytmaydi (ya'ni, kitobxon og'ziga chaynab solib qo'ymaydi), obrazning ayrim chizgilarini punktirlar (uzuk-uzuk chiziqlar) bilan tortadi. Ya'ni, san'atkor obrazda ma'lum imkoniyatlar yaratadi-da, ularni ro'yobga chiqarishni o'quvchiga qoldiradi. Bu xil imkoniyatlar, ayniqsa, "obyektiv tasvir" yo'sinidan borilgan, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqyeida turgan asarlarda kuchli namoyon bo'ladi. Garchi asarda tasvirlangan narsa bitta bo'lsa-da, o'quvchilarning ijodiy tasavvur imkoniyatlari, dunyoqarashi farqliligidan konkret obraz ularning ongida turlicha akslanadi, turli xulosalarga olib keladi. Shu bois ham o'quvchilar tasavvurida minglab Otabegu Kumushlar, Qobil boboyu Saidalar, Zebiyu Miryoqublar yashaydi. Badiiy obrazga xos ayni shu xususiyat tufayli ham asarni turli davrlarda turlicha uqish, uning zamiridan yangi-yangi ma'nolarni ochish imkoni yaratiladiki, ayni shu xususiyat chinakam san'at asarini boqiylikka daxldor etadi.

Adabiyotshunoslikda "badiiy obraz" atamasi ham keng, ham tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda "badiiy obraz" deganda borliqning san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi(jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o’zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo’ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo’lishi tabiiy hamdir. Mazkur fikrni obrazlar tizimidagi darajalanish yaqqol ko’zga tashlanadigan katta epik asarlar misolida tushunish va tushuntirish qulayroq. Bu xil asarlarda boshqa (narsa-buyumlar, jonivorlar, hodisalar va sh.k.) obrazlarning bari inson obrazini yorqinroq tasvirlashga, chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. To’g’ri, ayrim asarlar borki, ularda inson obrazi yaratilgan emas: masallar, hayvonlar haqidagi ertaklar yoki asarlar, peyzaj lirikasi va b. Biroq ularda ham yo majoziy ravishda inson, inson hayoti haqida so’z boradi(masallar, hayvonlar haqida ertaklar), yo inson qalbi suratlanadi(peyzaj lirikasi).

Badiiy adabiyotda inson obrazini to’laqonli yaratish, uni o’quvchi ko’z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi. Obrazga bevosita yozuvchining o’zi tomonidan berilgan ta’rif "muallif xarakteristikasi" deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe’l-atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Odatda muallif xarakteristikasi asarning boshlanish qismlarida yoxud konkret obraz asarga kirib kelgan o’rinlarda beriladi. Muallif xarakteristikasi o’quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlarini, gap-so’zlarini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Personajning so’z bilan chizilgan tashqi qiyofasi - portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Portret, avvalo, presonajning o’quvchi ko’z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko’maklashadi. Ikkinchi tomondan, badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo’ladi. Ya’ni, yozuvchi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi. Yozuvchi personaj qiyofasini ancha mufassal chizishi (A.Qodiriy yaratgan Kumush, Ra’no portretlari) yoki uning qiyofasiga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalanishi ham mumkin. Chunki portret — vosita, demak, uning qanday bo’lishi ko’proq muallif niyati, yozuvchining o’ziga xos tasvir uslubi, personajning asarda tutgan mavqyei kabilar bilan bog’liqdir. Masalan, Cho’lpon sevimli qahramoni Zebining qiyofasini chizmagan. Adib ko’proq personajning siyratini chizadi, uning xatti-harakatlarini jonli tasvirlaydi, gap-so’zlaridagi jonli ohangni ifodalashga intiladi, xullas, har bir o’quvchining o’z Zebisini tasavvur etib olishiga imkon yaratadi. Natijada qahramon qiyofasini chizmaslikning o’zi o’ziga xos badiiy usulga aylanadiki, uning yordamida adib o’quvchini qahramoniga "yaqinlashtiradi". Ko’ramizki, qahramon qiyofasining qanday va qay darajada chizilishi belgili emas, bu o’rinda portretning(yoki portret detallarining) inson obrazini to’laqonli yaratish va o’quvchining tasavvur eta olishi uchun yetarli bo’lishi asosiy mezondir.

Badiiy asarda to’laqonli inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri badiiy psixologizm sanaladi. Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so’zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushuniladi va u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul,

vositalarni o’z ichiga oladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o’y-kechinmalari, his-tuyg’ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan (o’ziniki bo’lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so’zlari, yuz-ko’z ifodalari(mimikasi), undagi fiziologik o’zgarishlarni ko’rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko’rinishi bir-birini to’ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o’rni bilan unumli foydalanadi. Shuningdek, personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan yoki boshqa biror narsa obrazidan foydalanishi mumkin bo’ladi. Masalan, "O’tgan kunlar" romanida A.Qodiriy Kumushning turmushga berilish xabarini eshitgan Otabek ruhiyatini "Xo’ja Ma’oz" qabriston tasviri orqali tasvirlasa, uning Kumush hijronida yashagan paytlardagi ruhiy holatini "Navo" kuyining sharhida umumlashtirib ifodalaydi.

Adabiy asarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan yana biri personaj nutqidir. Zamonaviy nasrda dialog salmog’ining ortishi barobari personaj nutqining obraz yaratishdagi mavqei ham kuchaydi. Mohir yozuvchi personaj nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyati haqida o’quvchiga ko’p narsalarni yetkaza oladi. Aytish kerakki, dialoglarda personaj nutqi muallifning qisqa, lo’nda sharhlari bilan ta’minlanadi. Yuqorida aytganimiz personajning yuz-ko’z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o’zgarishlar haqida ma’lumot beruvchi detallar dialogda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ular personaj nutqini "eshitish" va uning xatti-harakatini "ko’rib turish" imkonini — sahnaviylik effektini yaratadi, ya’ni, inson obrazining to’laqonli, jonli chiqishini ta’minlaydi.

Adabiyotshunoslikda inson obrazi bilan bog’liq holda badiiy obrazning yana bir muhim xususiyati — uning o’z xarakter mantiqidan kelib chiqqan holda harakatlanishiga alohida diqqat qilinadi. Ehtimol sizning ham duch kelganingiz bordir: ba’zan kitobxonlar asarni muhokama qilarkan "falon qahramon o’lmaganda yaxshi bo’lardi" yoki "falon bilan fiston qahramon bir-biriga yetishsa yaxshi bo’lardi" qabilida fikr yuritishadi, hatto shu xil istaklarni bildirib mualliflarga xat yozganlari ham bor. Bu — badiiyatni, ijod jarayonini yuzaki, jo’n tushunish natijasi. Gap shundaki, badiiy obraz yozuvchining quli emas, u o’zining xaraketr mantiqiga muvofiq harakat qiladi. Albatta, asar personajlari xarakteriga xos asosiy xususiyatlar(parametrlari)ni avval boshda yozuvchining o’zi belgilaydi. Keyin, asar voqealari rivoji davomida to’la shakllangan va mustahkamlangan xarakter endi muallif diktatini qabul qilmaydi, o’z boshicha harakatlanadi. Adabiyot tarixida buni tasdiqlaydigan ko’plab misollar bor. Aytaylik, Kumushning o’limi sahnasini yozib bo’lgach, A.Qodiriy kuyib yig’laganligini eslaydilar. Agar ixtiyor adibning o’zidagina bo’lganida Kumushni chin dildan suygan A.Qodiriy asariga boshqacha yechim topmasmidi?! Yoki "Kecha"ning boshlanishidayoq Razzoq so’figa nisbatan nafratini yashirmagan Cho’lpon suyukli qahramoni Zebi fojiasining asosiy sababchisini boshqacharoq harakatlantirmasmidi?! Ehtimol, ijod jarayonida har ikki ulug’ adibimiz dilida shu xil istak kechgan bo’lishi mumkin, biroq ularning ikkisi ham xarakter mantiqiga, badiiy haqiqatga zid bormaydilar. Va shu bois ham ular yaratgan betakror obrazlar adabiyotimizning nodir namunalari bo’lib qoldi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar tasnifi masalasida turlichalik mavjud bo'lib, hali bu masalada tugal to'xtamga kelinmagan. Shunday bo'lsa-da, adabiy asarlardagi obrazlarni keng qamragan holda ularni turli jihatlardan guruhlovchi M.Epshteynning quyidagi tasnifiga ko'p jihatdan qo'shilish mumkin. Mazkur tasnifga ko'ra badiiy obrazlar quyidagi jihatlardan tasnif etiladi: 1) predmetlilik darajasiga ko'ra; 2) badiiy umumlashtirish darajasiga ko'ra; 3) ifoda va tasvir qatlamlari munosabatiga ko'ra.

Obrazning predmetlilik darajasi deyilganda o'sha obraz tasvirlayotgan narsaning ko'lami nazarda tutiladi. Bu jihatdan badiiy reallik to'rtta satxdan tarkib topadi: 1) detal obrazlar; 2) voqyea-hodisalar obrazi; 3) xarakter va sharoit; 4) dunyo va taqdir obrazi (badiiy reallik). Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj) o'zlarining statik holatdaligi bilan farqlanadi. Detal obrazlardan badiiy reallikning ikkinchi qatlami — ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi o'sib chiqadi. Uchinchi qatlamni shu harakat ortida turib uni yurgizib turgan "xarakter va sharoit" tashkil qiladi. Xarakter va sharoit oldingilarini birlashtirgan holda "dunyo va taqdir" obrazini yuzaga keltiradi. Ayon bo'ldiki, badiiy reallik go'yo g'ishtchalar singari butunni tashkil qilishga xizmat qiluvchi unsurlardan tashkil topadi va bu unsurlar o'zaro predmetlilik darajasi, tasvir ko'lami jihatidan farqlanadi.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra ham badiiy obrazning qator ko'rinishlari — individual obraz, xarakter, tipik obraz kabilar ajratiladi. Biroq, aytish kerakki, ularning orasidagi farq doim ham yaqqol ko'zga tashlanavermaydi, ya'ni, bu xil bo'linishda muayyan darajada shartlilik saqlanib qoladi. Individual obraz deyilganda o'zigagina xos bo'lgan fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi obrazlar tushuniladi (mas.,"O'tmishdan ertaklar"dagi Babar, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidagi Roqiya bibi). Xarakter deganda esa muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim, xarakterli umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan obraz nazarda tutiladi. Tipik obraz deyilganda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida namoyon etgan obraz nazarda tutiladi.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra yana badiiy obrazning motiv, topos, arxetip deb yuritiluvchi ko'rinishlari ham ajratiladi. Yuqorida ko'rib o'tganimiz individual, xarakter va tipik obrazlar bir asar doirasi bilan cheklansa, keyingi uchalasi adabiy-madaniy an'anaga ko'ra muayyan turg'un shaklga aylanib, asardan asarga ko'chib yurish xususiyatiga ega.

Motiv(motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Masalan, Cho'lpon ijodi uchun "yo'l" obrazi motiv sanalishi mumkin. Ayni shu obraz uning ham she'riy, ham nasriy asarlarida tez-tez takrorlanadi. Yoki Cho'lpon ijodiga xos bo'lgan "yulduz", "yo'lchi" motivlari 20-30-yillar she'riyatida, xususan, A.Fitrat, Oybek va U.Nosir asarlarida ham uchraydi.

Topos motivga nisbatan kengrok tushuncha bo'lib, u umuman milliy madaniyatda, katta bir adabiy davr mobaynida takrorlanuvchi obraz sanaladi. Shu jihatdan, o'zbek mumtoz she'riyatidagi payg'ambarlar obrazlari, gul va bulbul, sham va parvona kabi qator takrorlanuvchi obrazlar topos sanalishi mumkin.

Arxetip deyilganda inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema"lar, konstruksiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin bo'ladi. Arxetip konstruksiya va sxemalardan o'ziga xos "syujet va syujet holatlari" jamg'armasi hosil bo'ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi. Masalan, "bulbul - gul - chaqirtikanak».

MA'RUZA MASHG'ULOTLAR

7-8-MAVZU	BADIIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI

AXBOROT MA'RUZA TA'LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O'quv mashg'uloti shakli	**Axborotli ma'ruza**
O'quv mashg'uloti rejasi	1. Shakl va mazmun tushunchalari haqida. 2. Badiiy asarda shakl va mazmun birligi. 3. Shakl va mazmung o'zaro muvofiqligi badiiyatning muhim sharti sifatida. 4. Shakl va mazmun unsurlari tasnifi masalasi.
O'quv mashg'uloti maqsadi: "Badiiy asarda mazmun va g'oya birligi" yuzasidan o'quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga mazmun va shakl, mavzu va g'oya to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish; -Mazmun va shakl, mavzu va g'oya bo'yicha badiiy asarlardan aniqlash va ularni tahlil qilish; - Badiiy asarlarda mavzu va g'oya yaxlitligi aniqlanadi, ularni baholaydi, badiiy asarlarda bu talablar qanday ifoda etilganligi xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O'quv faoliyati natijalari:** Mazmun va shakl, mavzu va g'oya kabi tushunchalarni hosil qilishadi Mazmun va shakl, mavzu va g'oya bo'yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Badiiy asarlarda mavzu va g'oya yaxlitligi xususida xulosalar chiqarishadi
Ta'lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so'rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA'RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta'lim beruvchi	**Ta'lim oluvchi**
I-bosqich o'quv mashg'ulotiga	**1.1.Mavzu:** Badiiy asarda mazmun va shakl birligi.	Tinglaydi, yozib oladi, savollarga mustaqil javob

kirish (10 daqiqa)	**Maqsadi:** Shakl va mazmun haqida tushuncha. Ularning birligi. G'oya va mavzu rang-barangligi. Adabiyotning bosh tasvir predmeti inson ekani. Badiiy asarda mavzu. Bosh mavzu va kichik mavzu. Mavzuning mohiyati. Mavzuning aktualligi.yuzasidan o'quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko'nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k. 1.2. "Badiiy asarda mazmun va shakl birligi" yuzasidan talabalar bilimini suhbat shaklida aqliy hujum bilan faollashtiradi (1-ilova) Shu tariqa faollashgan guruhda mashg'ulot bo'yicha talabalar egallagan bilimlar o'zlashtirish darajasi, yetarliligi aniqlanadi	beradi
II-bosqich Asosiy qism	2.1. Talabalar diqqatiga "Badiiy asarda mazmun va shakl birligi" to'grisida muammoli topshiriqlarni yetkazadi (2-ilova) 2.2. Ta'lim beruvchi muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi (kichik guruhlarga bo'ladi): guruhlarga kichik so'ngra murakkabroq savollar berib, muhokamasini tashkil etadi. Shu tariqa keying muammolarga o'tiladi. 2.3. Ta'lim beruvchi guruhni kichik 3 ta guruhga ajratadi. "Badiiy asarda mazmun va g'oya birligi"ga oid muammoli topshiriqlarni yechish vazifasini qo'yadi. Tarqatma materiallar, uslubiy tarqatmalar, baholash mezonlari, ko'rsatkichlarini tarqatadi (3 ilova) Taqdimotga zarur qog'oz, marketlar beradi. Aqliy hujum qoidalarini eslatib, guruhlarga ish boshlanganini e'lon qiladi. 2.4. "Badiiy asarda mazmun va g'oya birligi" bag'ishlangan taqdimot boshlanadi, guruhlar chiqishini ta'lim beruvchi boshqaradi. Oid savollr mazmunan, asosli, manbalarga tayanganliklariga e'tibor qaratadi. Talabalar hamkorligida javoblar adolatli baholanadi. "yechimlar daraxti" tasviri muhokama etiladi. 2.5. Ta'lim beruvchi taqdimotni odilona yakunlaydi yutuq, kamchiliklarni ko'rsatadi. Muammoni yaxshi yechimlarini yozib olishni tavsiya etadi.	Savolarga javob beradilar Muammo yechimi bo'yicha mustaqil fikrlarini bildiradilar Muammoni yechish bo'yicha mustaqil fikrlar bildiradilar, xulosalar chiqaradilar Muhokama etadilar, bahsli muhokama bo'ladi Yakuniy xulosa muhokamasida qatnashadilar, tinglaydilar, yozib oladilar
III-bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. "Badiiy asarda mazmun va shakl birligi"ga oid yakuniy xulosalarni beradi.	

	3.2. Mustaqil ish uchun “Badiiy asarda mazmun va shakl birligi” mavzusida klaster usulida topshiriqni bajarib kelish topshiriladi	

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko’zatilayotgan natija BMK o’zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko’rsatkichlari**	**Misol**
I. O’quvchilikka oid / tanish bo’yicha harakatlanish	Adabiyot necha xususiyatga ega?	a) 2 ta; b) 3 ta; b) s) 4 ta; d) 6 ta
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o’xshashlikka bo’yicha harakatlanish)	Adabiyotning asosiy ich xuxusiyatini aniqlang	a)ommaviylik; b) este’dod egalari tomonidan yaratilishi; s) badiiylik; d) barcha javoblar to’g’ri
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	“Adabiyot – hayotning unda obrazlar orqali in’ikos etish” – adabiyotning asosiy xisusiyatlaridan qaysi biriga taaluqli?	a)ommaviylik; b) este’dod egalari tomonidan yaratilishi; s) badiiylik; d) to’g’ri javob yo’q
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma’noli to’g’ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o’tkazilmaydi	

7-8--mavzu. Badiiy asarda mazmun va shakl birligi
(4 soat)

REJA:

1. **Shakl va mazmun tushunchalari haqida.**
2. **Badiiy asarda shakl va mazmun birligi.**
3. **Shakl va mazmung o’zaro muvofiqligi badiiyatning muhim sharti sifatida.**
4. **Shakl va mazmun unsurlari tasnifi masalasi.**

]

‘Tayanch tushunchalar:

Shakl, mazmun, badiiy asar shakli, badiiy asar mazmuni, mazmunning shaklni belgilashi, shaklning nisbiy mustaqilligi, shaklning konservativligi, mazmunning originallikka intilishi, shakl va mazmun unsurlari tasnifi.

Voqyelikda mavjud narsalarning bari o’zining tashqi ko’rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmun) ega. Shu bois ham "shakl" va "mazmun" kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo’lib, ular voqyelikni

(narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi. Abstraksiya deyishimizning boisi shuki, shakl va mazmun qabilidagi bo'linish shartli, negaki, ular – yaxlit bir narsada har vaqt birlikda mavjud bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan ikki tomon. Zero, shakl narsaning biz bevosita ko'rib turgan, his qilayotgan tomoni bo'lsa, ayni shu shakl bizga o'sha narsaning nima ekanligini – mazmun-mohiyatini anglatadi. Masalan, qarshimizda stul turgan bo'lsa, biz uning shaklini ko'rib "stul", ya'ni, "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" deb aytamiz. Stulga xos bo'lgan tashqi ko'rinish uning shakli bo'lsa, mazmuni shu shakl ifodalayotgan "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" ekanligidir. Ko'ramizki, shakl mazmunni ifodalaydi, mazmun muayyan shakldagina reallashadi, mavjud bo'la oladi. Aytaylik, o'sha stulning shaklini parokanda qilsak – qismlarga ajratib yuborsak, shaklning yo'qolishi bilan mazmun ham yo'qoladi, zero, endi narsaning o'zi ham mavjud emas. Demak, mazmun muayyan shakldagina yashaydi, shaklsiz mazmun bo'lmaganidek, mazmunsiz shakl ham mavjud emas.

Shakl va mazmun munosabati haqida so'z borganda, mazmunning yetakchiligi, uning shaklni belgilash xususiyati haqida aytiladi. Darhaqiqat, ikkilamchi tabiat (inson tomonidan yaratilgan narsalar)ga nazar solinsa, buni yaqqol ko'rish mumkin bo'ladi. Misol uchun yana o'sha stulni olaylik. Yuqorida ko'rganimiz "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" degan mazmun yasalajak buyumning parametrlarini belgilaydi: balandligi, kengligi, suyanchiqqa ega bo'lishi, o'tirg'ichning old tomoni biroz ko'tarilgan bo'lishi va h. Ya'ni, bu o'rinda shaklning mazmunga muvofiq bo'lishi talab qilinadi. Tasavvur qilingki: usta stulning oyoqlarini bir yarim metrdan qilib yasadi va natijada o'tirg'ich kishining yelkasi barobar turibdi; yoki o'tirg'ichning kattaligi shapaloqdek bo'lsin... Albatta, har ikki holda ham shaklning mazmunga nomuvofiqligi yuzaga keladi va buyum o'zining qimmatini yo'qotadi. Mazmun o'zgarishga, yangilanishga moyil bo'lgani holda, shakl konservativlik xususiyatiga ega, ya'ni, o'zgaruvchanlikka u qadar moyil emas, shakldagi o'zgarishlar juda sekin kechadi. Aytaylik, "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" degan mazmunga "bolalarning" aniqlovchisi qo'shilsa, shakl parametrlari o'zgaradi, stul kichikroq yasaladi. Endi unga "go'daklarning" aniqlovchisini qo'shsak, shaklga yana biror bir qo'shimcha, masalan, go'dakni yiqilib tushishdan saqlovchi old to'siq qo'shiladi. Biroq, shunisi borki, barcha hollarda ham "o'tirish uchun mo'ljallangan moslama" o'zining asosiy shakl ko'rsatkichlarini saqlab qoladi. Boshqa har qanday narsa singari, badiiy asar ham shakl va mazmunning yaxlit birligidir. Shuning uchun "badiiy shakl", "badiiy mazmun" degan tushunchalarni ishlatganimizda ularning atigi ilmiy abstraksiyalar ekanligini unutmasligimiz kerak. Ya'ni, biz yaxlit butunlik — badiiy asarni atroflicha tahlil qilish, bu ishni osonlashtirish maqsadidagina shu xil shartli bo'lishga yo'l qo'yamiz. Aslida esa shakl mazmunsiz, mazmun shaklsiz mavjud emasdir. Zero, badiiy shakl badiiy mazmunning biz qabul qilayotgan mavjudligi bo'lsa, mazmun o'sha shaklning ichki ma'nosi, mag'zidir.

Badiiy asarda shakl va mazmun o'zaro dialektik aloqada bo'lib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-biriga o'tadi. Badiiy shakl bilan badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yetakchiroq mavqyega ega bo'lib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir. San'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo'lg'usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog'i, bo'lg'usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi. Masalan, jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish, u haqdagi

hukmini badiiy konsepsiya tarzida shakllantirish va ifodalash maqsadini ko'zlagan ijodkor roman shaklini tanlaydi. Chunki ayni shu shakl ijodiy niyatda ko'zda tutilgan mazmunga har jihatdan muvofiq keladi va o'sha niyatning ijrosi uchun imkon beradi. Shu bilan birga, badiiy shakl nisbiy mustaqillikka ega hamdir. Ma'lumki, har bir davr adabiyotida qo'llanilib kelayotgan, o'quvchi omma uchun tushunarli bo'lgan va o'zining nisbatan turg'un ko'rsatkichlariga ega bo'lgan shakllar mavjud. Shunga ko'ra, san'atkor ifodalashni ko'zda tutgan mazmunni o'sha shakllar doirasiga sig'dirishga intiladi. Masalan, sahna uchun asar yozayotgan ijodkor uni pardalarga, ko'rinishlarga bo'ladi, syujet voqyealarini ijro vaqtiga sig'diradi, dialoglarni sahna ijrosi uchun mos holga keltiradi, ularni remarkalar bilan ta'minlaydi va h.

Shakl konservativroq hodisa bo'lganligidan uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Mazmun esa o'zgaruvchanlikka moyil hodisa bo'lib, har bir badiiy asar mazmunan o'zicha originaldir. Sababi, o'sha asarni yaratgan ijodkor — individ, u dunyoni o'zicha ko'radi va baholaydi. Shunga ko'ra, hatto oshkor taqlidiy ruhdagi asar ham mazmunan original (originallik bu o'rinda ijobiy ma'noda emas, balki, umuman o'ziga xoslik, boshqalarga aynan o'xshamaydigan degan ma'noda tushuniladi) sanaladi. Masalan, hikoya shakli badiiy adabiyotda o'zining asosiy shakliy xususiyatlarini saqlagan holda uzoq vaqtlardan beri mavjud. Va ayni shu shakl doirasida minglab yozuvchilar ifodalagan turfa badiiy mazmunlarning sanog'iga yetib bo'lmaydi. Albatta, har bir hikoyaning shaklida ham muayyan o'ziga xosliklar bo'ladi, biroq hikoyaga xos asosiy shakliy belgilar saqlanib qolaveradi.

Mazmunning shaklga o'tish hodisasi genetik asosga egadir. Buni muayyan turg'un janrlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, "g'azal" janri dastlab paydo bo'lganida mazmun hodisasi edi. Uning mazmun hodisasi bo'lganligi so'zning lug'aviy ma'nosi bilan izohlanishi mumkin. Ya'ni, so'z ma'nosidan kelib chiqsak, "ayollarga xushomad, muhabbat" mazmunidagi she'riy asar g'azal deyilgan. Keyincha, g'azal o'z mazmuniga mos eng muvofiq shaklga ega bo'lgach, u shakl hodisasiga – turg'un she'riy janrga aylandi. Xuddi shu gapni "novella"ga nisbatan ham aytish mumkin. Italyancha "yangilik" so'zidan olingan "novella" dastlab janr, ya'ni shakl hodisasi bo'lmay, mazmun hodisasi edi. Novella deyilganda jonli qiziqish uyg'otuvchi hodisadan xabar beruvchi asar tushunilgan. Ayni paytda, novella o'ziga xos shakl xususiyatlariga ham ega bo'lgan: qisqalik, syujet o'tkirligi va b. Keyincha novellaga xos shakliy xususiyatlar muqimlashib, o'ziga xos shakl – novella janri yuzaga keladi. Shuningdek, shakl va mazmunning bir-biriga o'tishini bir asar doirasida ham ko'rish mumkin. Bunda endi badiiy asarning "sistema" ekani, har qanday sistema quyi va yuqori darajadagi strukturaviy bo'laklardan iborat ekanligidan kelib chiqamiz. Masalan, til obrazga nisbatan shakl, obraz tilga nisbatan mazmun; obraz ayni paytda badiiy mazmunni ifodalash shakli. Yoki badiiy obrazning predmetlilik darajasiga ko'ra turlari (detal – fabula – xarakter va sharoit – dunyo obrazi) ham shaklning mazmunga, mazmunning shaklga o'tishiga misol bo'la oladi.

Badiiy asar qimmatini belgilashda mazmun va shaklning uyg'un muvofiqligi eng muhim mezonlardan sanaladi. Badiiyat go'zal shaklda ifodalangan aktual, umuminsoniy qadriyatlarga mos mazmunni taqozo qiladi. Adabiyotshunos badiiy asarni tahlil qilarkan uning diqqat markazida shakl yoki mazmun turishi mumkin. Lekin asosan shaklga e'tiborni qaratgani holda ham adabiyotshunos shaklning mazmun jihatlarini nazardan soqit qilolmaydi; asarning mazmun jihatini

tekshirayotgan olim ham o'sha mazmunning muayyan shaklda ifodalanayotganini unutmasligi shart qilinadi. Modomiki badiiy asarda shakl va mazmun uyg'un birikar ekan, shaklni badiiyat, mazmunni g'oyaviylik (bunda ham, albatta, shartlilik bor) hodisasi sifatida tushunib, har ikkisiga birdek e'tibor berish zarur. Adabiyotshunoslikda mazkur qoidadan chekinilgan hollar ham bo'lgan, albatta. Shaklning nisbiy mustaqilligini mutlaqlashtirib, uni badiiyatning bosh mezoni sifatida qaraganlarni formalistlar deb yuritiladi. Formalizm ko'rinishlari XIX asr oxiri XX asr boshlaridan bir qator adabiy oqimlarda namoyon bo'ladi. Xususan, badiiy adabiyot tarixidagi futurizm, imajinizm, dadaizm, avangardizm kabi oqimlar badiiyatni faqat shaklda ko'rib, turli yangi shakllar ixtirosiga o'tdilar. Biroq ularning ixtirolari "shakl — shakl uchun" shiori ostida kechib, mazmundan ko'pincha ayro tushgani uchun-da samarasiz yakun topdi. O'z vaqtida ayni shu xil qarashlarni yoqlagan, ularni nazariy jihatdan asoslamoqchi bo'lgan adabiyotshunoslarning ishlari ham badiiy asar tabiatiga nomuvofiq bo'lgani bois biryoqlamaligicha qoldi. Ayni paytda, formalistlarning badiiy asar shaklini o'rganishga ayricha e'tibor qilganlari adabiyotshunoslikda izsiz ketdi, deyish ham insofdan emas. Ular badiiy asar shakliga xos ko'p jihatlarni: badiiy til, uslub, she'r tuzilishi, she'r kompozisiyasi, ritm, metr, syujet qurilishi, badiiy asar kompozisiyasi kabi adabiyotshunoslikning muhim masalalarini maxsus va chuqur tadqiq etdilar. Xususan, rus formal maktabining V.Shklovskiy, V.Jirmunskiy, Yu.To'nyanov, G.Vinokur, B.Eyxenbaum kabi namoyandalari amalga oshirgan tadqiqotlar adabiyotshunoslik rivojida muhim ahamiyatga molikdir.

Shuningdek, adabiyotshunoslikda badiiy asarning shakliga ko'z yumib, uning qimmatini mazmundan kelib chiqibgina baholashga urinishlar ham bo'lgan. Xususan, 20-yillar sho'ro adabiyotshunosligida maydonga kelgan "vulgar sosiologizm" tarafdorlari faoliyatida badiiy asarni faqat g'oyaviy mazmunidan, sinfiy mohiyatidan kelib chiqib baholash amaliyoti kuzatiladi. Badiiy adabiyotga bu xil yondashuv uni san'at hodisasi ekanligini inkor qilish, uni mafkura quroliga aylantirishning qo'pol ko'rinishi edi. Qo'pol deyishimizning boisi shuki, garchi sovet adabiyotshunosligi vulgar sosiologizmga o'z vaqtida keskin zarba bergan bo'lsa-da, uning o'zi ham bir oyog'i bilan shu mavqyeda turar, ya'ni, mohiyatan badiiy adabiyotga shu xil yondashuvning "yumshoq" varianti edi. Sho'ro davrida yangi tuzumni, kommunistlar partiyasini, proletariat dohiysini ulug'lagan badiiy jihatdan nochor asarlarning rag'batlantirilib, chinakam badiiyat hodisasi sanaladigan asarlarning e'tibordan chetda qolgani, eng yomoni, tazyiq ostiga olingani buning yorqin dalilidir.

Ko'rinadiki, badiiy asarni o'rganishga jazm etgan adabiyotshunos, avvalo, uning tabiatidan kelib chiqishi, asarning shakl va mazmun jihatlarini birlikda olib tekshirishi zarur ekan. Tabiiyki, badiiy asarni o'rganayotgan adabiyotshunos uning qaysidir bir jihatini diqqat markaziga qo'yishi mumkin. Biroq shunda ham, masalan, asar shakli haqida fikr yuritayotgan tadqiqotchi uning mazmunni uyushtirish va ifodalash, ta'sirdorligiyu badiiy jozibasini oshirishdagi ahamiyatini; mazmun haqida fikr yuritganda uning shaklga qay darajada muvofiqligini nazardan qochirmasligi lozim bo'ladi.

Badiiy asarda shakl va mazmunning o'zaro bog'liqligi shunchalarki, adabiyotshunoslikda shakl va mazmun komponentlarini tasnif qilishda hali hanuz bir xillik yo'q. Adabiyotshunoslikda "shakl" va "mazmun" kategoriya sifatida XYIII asr

oxiri XIX asr boshlaridan o'rganilishiga qaramay, hali bu masalaning tugal hal etilmaganligi shakl va mazmunga bo'lishdagi shartlilikni yaqqol ko'rsatib turadi. Adabiyotshunoslikka oid asarlarni ko'zdan kechirsangiz, ularda shakl va mazmun komponentlari tasnifi masalasida, qaysi unsurlarni shaklga, qaysilarini mazmunga daxldor deyish masalasida turlichalik mavjudligiga guvoh bo'lasiz. Biz quyida bunga ayrim misollarni keltirib o'tamiz:

1) tema, problema, ideya — mazmun unsurlari; syujet, kompozisiya, til, ritm, obrazlar sistemasi — shakl unsurlari (Shepilova);

2) tema, ideya, xarakter — mazmun mazmun unsurlari; syujet, kompozisiya, til — shakl shakl unsurlari (L.Timofeyev);

3) tema, ideya — mazmun unsurlari; obraz, syujet, kompozisiya, ritm, til — shakl unsurlari (V.Gulyayev, G.Abramovich);

4) tema, g'oya — mazmun unsurlari; obraz — ham shakl, ham mazmun hodisasi; til, badiiy tasvir vositalari, konflikt, kompozisiya, tur, janr, she'r tuzilishi — shakl unsurlari (T.Boboyev);

5) uslub, janr, kompozisiya, til, ritm - shakl unsurlari; tema, fabula, konflikt, xarakterlar, badiiy g'oya, tendensiya — mazmun unsurlari; syujet ham shakl, ham mazmun hodisasi(V.Kojinov);

6) syujet — shakl ham mazmun unsuri; tema, fabula, obrazlar sistemasi, konflikt — ichki shakl; kompozisiya - tashqi shakl; g'oyaviy mazmun — mazmun;

Bu tasniflarning hammasida ham asosli va bahsli o'rinlarning borligi ularning shartliligidan kelib chiqadi. Biz ishimizni osonlashtirish uchun kursimiz davomida tubandagicha tasnifga tayanishni ma'qul ko'ramiz: problema, tema, tendensiya, g'oya — mazmun unsurlari; til, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozisiya, ritm — shakl unsurlari.

Ilova 1

MAZMUN VA SHAKL, MAVZU VA G'OYA



MA’RUZA MASHG’ULOTLAR

9 -MAVZU	BADIIY ASARDA G’OYA

AXBOROT MA’RUZA TA’LIM BERISHNING TEXNOLOGIYASI MODELI

Baqt: 80 minut	**Talabalar soni 50 ta**
O’quv mashg’uloti shakli	**Axborotli ma’ruza**
O’quv mashg’uloti rejasi	1. Oqilona hayot va san’atkor 2. Badiiy tema va uning asosiy xususiyatlari 3. Badiiy g’oya va uning tema bilan yaxlitligi
O’quv mashg’uloti maqsadi: “Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi” yuzasidan o’quvchilar tushunchalarini orttirish, ularga yangi bilimlarni berib, yangi bilimlar asosida ko’nikmalar hosil qilish, mavzu yuzasidan talabalarning axloqiy normalarini tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar: -Talabalarga badiiy syujet to’g’risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish; -Badiiy asarlarda syujetning ahamiyatini aniqlash va ularni tahlil qilish; - Badiiy asarlarda syujetnin o’rni aniqlanadi, ularni baholaydi, badiiy asarlarda bu talablar qanday ifoda etilganligi xulosalanadi va mavzu yuzasidan xulosalar chiqariladi	**O’quv faoliyati natijalari:** Badiiy syujet tushunchasini hosil qilishadi Badiiy suyet unsyrlari bo’yicha badiiy asarlardan misollar keltirishadi va tahlil etiladi Badiiy asarlarda syujet xususida xulosalar chiqarishadi
Ta’lim usullari	Muammoli usul, aqliy hujum. Bahsli munozara, suhbat
Ta’limni tashkillashtirish shakli	Jamoayiy, guruhli, individual
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, elektron darsliklar, badiiy kitoblar
Ta’lim berish sharoiti	Maxsus jihozlangan xona
Monitoring ba baholash	Tezkor so’rov, qisqa mazmunli test

MUAMMOLI MA’RUZANING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	Ta’lim beruvchi	**Ta’lim oluvchi**
I-bosqich. O’quv mashg’ulotiga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzu: Badiiy asarda g’oya. Maqsad: Mavzu haqida talabaga ma’lumot berish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta’sir etish, milliy istiqlol g’oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg’ulotni muammoli ma’ruza ekanligi haqida ma’lumot berish	Talabalar tinglaydilar, yozib oladilar
II-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1.Talabalar bilimini aqliy hujum orqali faollashtiradi (№ 1-ilova) Bilimlarni faollashtirish jarayonida o’quv muammosini yechish bo’yicha izlanuvchanlik faoliyatida faol eshtirok etishlari uchun talabalar bilimini savollar orqali aniqlanadi:	Savollarga javob beradilar Muammoni yechish bo’yicha o’z fikrlarini beradilar

	1. Badiiy va ijtimoiy g'oya. Obe'ktiv g'oya. Mavzu va g'oya munosabatlari. 2. Shakl keng ma'nodagi obrazlar strukturasi ekani. 3. Syujet va kompozisiya. Syujet tiplari. Xronotop tushunchasi. 4.G'oya tushunchasi to'g'risida ma'lumot 5. Tematika deganda nimani tushunasiz? 6. "Dahshat" hioyasining mazmuni va shakli haqida ma'lumot bering 2.2.Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg'ulotda yechiladigan muammoga "olib kiriladi" va uni ifodalaydi: 1.Syujet haqida nimalarni bilasiz? 2. Lirikada syujet tushunchasini aniqlang? 3.Syujetning ikki alomati haqida ma'lumot bering? 4.Suyet unsurlari to'g'risida 5. Syujet tiplari haqida 6. Fabula va syujet Uni yechishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birga yuqoridagi savollarni tahlil qiladi, ularda paydo bo'lgan qiyinchilikni aniqlaydi. 2.3.Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi, ya'ni talabalarga "Badiiy syujet" mavzusi yuzasidan chuqur ma'lumot beradi. Syujet atamasining ma'nosi, uning qo'llanilishi, syujetning ikki alomati, syujet unsurlari haqida chuqur bilim beriladi. Mashg'ulotni tashkillashtirish uchun yordamchi savol va xulosalar (№2 ilova), ko'rgazmali materiallardan (№ 3 ilova) foydalaniladi. 2.4. Talabalarni kichik guruhlarga bo'linadi, taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, muammoni yechish "yechimlar daraxti" tasvirlashni beradi. Guruhlarda ish boshlsngsnligini ma'lum qiladi. 2.5. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlarda chiqishlarini boshqaradi. Taqdomot yakunlaydi, eng yaxshi muammoni yechishning tuzilmaviy-mantiqiy chizmasini daftarga ko'chirib olishni aytadi va yakuniy xulosani qiladi.	Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruhlarga tuzilmaviy-mantiqiy chizma "Yechimlar daraxti" tasvirlaydilar Guruh vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy [ulosani beradilar, daftarga yozadilar.
III-Bosqish. Yakuniy (10	3.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy	Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar

daqiqa)	faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2.Mustaqil ish uchun topshiriq (№ 4 ilova)	

TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Sujetning tarkibiy qismlarini aniqlang	a)5 ta; b) 6 ta; s) 7 ta; d) 8 ta
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	Sujetning qaysi tarkibiy qismi "tugun asosida maydonga kelib, sujetda o'z rivojini topgan konflikning hal etilishi, xarakterlar kurashining yakunlanishidir"?	a)ekspozitsiya; b) voqealar rivoji; s) kulminatsiya; d) yechim
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan voqealar rivoji bu -	a)suyet va konflikning boshlanishidan avval keladigan muqaddimadir; b) tugun va konflikning asta-sekin ochilishi; s) koflik va sujet rivojining o'tkirlasha borishi; d) to'g'ri javob yo'q
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

9-mavzu. Badiiy asarda g'oya
(2 soat)

Reja:

4. Oqilona hayot va san'atkor
5. Badiiy tema va uning asosiy xususiyatlari
6. Badiiy g'oya va uning tema bilan yaxlitligi

Tayanch tushunchalar

Tema. Tema ta'rifi. Adabiy asardagi bosh va yordamchi temalar. Tematika. Problematika. G'oyaviy-emosionallik. Bosh g'oya va yordamchi g'oyalar. Tema va g'oya – yaxlit hodisa.

Badiiy adabiyot – insonshunoslik ekan, demak, inson hayoti, uning kechinmalari, ehtiroslari, munosabatlari – hamma faoliyati badiiy asarning “tepib turgan yuragi, uning qoni va joni, uning shu’lasi va quyoshi”(V.Belinskiy)dir. “Butun olam, barcha ranglar, buyoqlar va ohanglar, tabiat va hayotning barcha shakllari poeziya (adabiyot – h.U) hodisasi bo’lishi mumkin. Lekin u hodisalar zamirida nima yashiringan, ularning mavjudlik sababi qayerda va ular bizni nimasi bilan maftun etadi – masalaning mohiyati shunda”[1] ekan, uni ijodkor qanday hal qiladi?

“Masalan, qiynoqni, qatlni, mastlikda yuvindi chuqurga yiqilib tushgan odamning bebaxt o’limini juda natural tarzda tasvirlab berish mumkin, lekin bu tasvirlarning hammasi dilni xira qiladigan darajada xunuk va mazmunsiz bo’ladi, negaki, ularda hyech qanday oqilona fikr, hyech qanday oqilona maqsad bo’lmaydi. Ammo mo’yqalam egasi insonning haqiqat yo’lida kaltaklanishini tabiiy ko’rsatsa, uning qiyofasida bardoshning jismoniy iztirobi ustidan g’alabasini ifodalaydigan bo’lsa, u holda manzaradagi tabiiylik kuchaygan sayin manzara go’zalroq va badiiyroq bo’ladi, chunki oqilona maqsad va oqilona fikr yaqqolroq ko’rinadi. Nimaiki voqye bo’lsa, oqilonadir va nimaiki oqilona bo’lsa, u voqyedir: bu-ulug’ haqiqat; biroq voqyelikdagi hamma narsa ham oqilona emas. San’atkor uchun esa, faqat oqilona voqyelik darkor. Lekin san’atkor uning quli emas, bunyodkori. San’atkor uning izidan bormaydi, balki unga o’z idealini singdiradi va shunga ko’ra qayta yaratadi[2].

Tema (gr. thema-asosiga qo’yilgan narsa) yoki **mavzu** (arabcha, aynan tema ma’nosini beradi; biz ikkalasidan ham foydalanamiz)-ijodkor tomonidan tanlab olingan va hayotning muayyan muammolarini umumiylashtirgan voqealar tasviri, ana shu akslangan hayot (voqea)ko’rinishlarining mag’zini chaqish(fikriy tadqiqot va tahlil) va uni g’oyaviy-emosional tarzda baholashdir. Ya’ni, ijodkor bir vaqtning o’zida uchta vazifani, bir-biriga bog’langan va chatishgan tarzdagi yaxlit maqsadni ko’zlab ish ko’radi:

1. Xalq va davrning milliy ko’rinishlari doimo aniq, tarixan konkretdir va har bir asarda ana shu ko’rinishlar ichidan tanlab olingan voqealar doirasi tasvirlanadi, bu-tematikadir.

Jumladan, “O’tgan kunlar”da XIX asrning ikkinchi yarmidagi Turkistondagi hayot aks etgan bo’lsa, “Uch ildiz” (P.Kodirov)da O’zbekistondagi XX asrning 60-yillaridagi talabalar hayoti bilan bog’liq voqealar tasvirlangan.

2. Badiiy asarda aks etgan ijtimoiy xarakterlarni yozuvchi tomonidan (g’oyaviy-badiiy) anglash (mag’zini chaqish), bu - problematika (gr. problema-oldinga tashlangan narsa, hayotning boshqa tomonlaridan ajratib olingan)dir. Jumladan, “Sudxo’rning o’limi”da Sadriddin Ayniy-sudxo’rlik va xasislikka ajratib tasvirlasa, “Qutlug’ qon”da o’zbekning o’z-o’zini anglashi va erk, ozodlik uchun kurashini Oybek bo’rttirib tasvirlaydi. Ajratib, bo’rttirib tasvirlangan qirralarda asarning g’oyaviy muammosi mujassamlashadi.

---

[1] В.Белинский. Адабий орзулар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, 104-105-бетлар.
[2] Шу асар, 103-бет.

3. Tasvirlangan ijtimoiy xarakterga yozuvchining g'oyaviy-emosional munosabati (muayyan xarakterni sevishi, ardoqlashi, e'zozlashi yoki ma'lum xarakterni qoralashi, rad etishi, undan g'azablanishi; aniq bir xarakterni bir vaqtni o'zida ba'zida ma'qullashi, ba'zida ayblashi va h.)

Jumladan, "O'tgan kunlar"da Abdulla Qodiriy Kumushni sevib tasvirlasa, Jannat kampirni qoralab tasvirlaydi. Zaynabni dam oqlasa, dam yomonlaydi.

G'oyaviy mazmunning bu atributlari birlashadi va ayni paytda, asar qismlarini butunlikka olib keladi. Chunki badiiy asrning g'oyasi-mazmuning turli tomonlarining yaxlitlashuvidan yuzaga keladi-bu yozuvchining obrazli, emosional, umumlashtirilgan fikridirki, ko'rganingizdek, u xarakterlarni tanlashdan, anglashdan, baholashdan kelib chiqadi.

Rusning buyuk yozuvchisi Maksim Gorkiy temaning ana shu ahamiyatidan kelib chiqib, uni **adabiyotning ikkinchi unsuri (elementi)** deb ataydi va uni shunday ta'riflaydi: "**Tema avtor tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergan, ammo hozircha avtor tasavvurida hali to'la-to'kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib, avtorda ishlashga mayl uyg'otadigan g'oyadir**". Ushbu ta'rifdan ham ma'lum bo'layaptiki, tema va g'oya – birbutun, yuqorida ko'rganimiz mazmun va shakl kabi (tema g'oyaning ichida, g'oya mazmunning ichida yashaydi) yaxlit hodisadir.

Adabiyotshunoslikdagi fikrlarni umumlashtirsak, badiiy asar temalarini uchga ajratish mumkin:

1. **Adabiy mavzular**. Insoniyatga xos bo'lgan barcha fazilatu qusurlar(sevgi-muhabbat, mehr-oqibat, vafo-sadoqat, shodlik va quvonch, g'am va qayg'u, qasos, rashk, o'lim, saxiylik va baxillik, baxtu baxtiyorlik, matonat va shijoat, mehrli tabassumu yolqin nigoh, ehtiros, sog'inch, chanqoqlik va jo'shqinlik va h.) adabiy mavzulardir. Shu sababdan Oskar Uayld "Dorion Greyning portreti"("Jahon adabiyot", yanvar, 2000)asarida topib aytadi: "Fikr va so'z san'atkor uchun san'at vositasidir. Illat va fazilat – uning ijodi uchun materialdir". Bu xulosa hamma davr adabiyotlari uchun tegishlidir.

2. **Tarixiy mavzular**. Tarixda, o'tmish (moziy)dan tasvir predmetiga material tanlash va shu asosda zamondoshlarning diqqatini qiziqtirgan eng zarur muammolarga javob izlash – bosh xususiyat kasb etadi. Jumladan, "Navoiy"(Oybek), "Yulduzli tunlar. Bobur"(P.Qodirov), "Ulug'bek xazinasi"(O.Yoqubov) – uzoq tariximizni yoritsa, "O'tgan kunlar"(A.Qodiriy), "Kecha va kunduz"(Cho'lpon), "Qutlug' qon"(Oybek) – yaqin o'tmishimizni gavdalantiradi.

3. **Zamonaviy mavzular**. Bugungi zamondan, aniq bosqich – istiqlol davri kishilarining hayotini tasvirlash va shu orqali hayotdan dars berish – zamonaviy mavzularga xos bosh xususiyatdir. Bugun Istiqlol talabiga monand komil kishilarni – fikrlovchi, tadbirkor, el-yurt uchun kuyub, yonib yashovchi, adolat va haq uchun kurashuvchi qahramonlarni tasvirlash, ularning murakkab obrazlarini yaratish – zamonaviy mavzularning kashfiyotlari bilan bog'liq.

Mavzular qanday atalishidan qat'iy nazar hammasining asosida zamondoshlarning ko'nglini band etgan muhim masalalarga javob izlash va javobda insoniylashgan umumbashariy dolzarb g'oyalar targ'ib qilinishi talab etiladi.

Adabiy asar hayotni keng va chuqur, barcha tomonlari bilan tasvirlar ekan, unda asosiy tema va yordamchi temalar bo'lishini taqoza etadi.

Jumladan, "O'tgan kunlar" romanining asosiy temasi XIX asrning ikkinchi yarmidagi hayot ko'rinishlarini tasvirlash bo'lsa, aynan ana shu mavzuning turli qirralarini ochuvchi yordamchi temalar ham ko'p: Otabek va homid o'rtasidagi (yangilik va eskilikning)kurashi, Kumush va Zaynab orasidagi kundoshlik, ota-ona va o'g'il orzulari orasidagi qarama-qarshilik, qipchoqlar va qora- chopon(o'zbek)lar o'rtasidagi qirg'in va h. Bularning hammasi bosh temaning mohiyatini isbotlashga, bo'rttirishga, ta'sirchanligini ta'minlashga, birgina so'z bilan aytganda, bosh temani yoritishga bevosita va bilvosita xizmat qiladilar.

Badiiy asar muyyan bir mavzuni tasvirlar ekan, bevosita shu mavzuning haqiqatini kashf qilish bilan ko'pning diqqatini e'tibordan chetda qolayotgan muammoga qaratadi (Masalan, "O'tgan kunlar"da birinchi bor kundoshlikning fojiasi yaqqol va bo'rttirib gavdalantirilgach, kundoshlikni qoralovchilar va "oladigan xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xotung'a muvofiquttab' (tabga mos, munosib) bo'lsin" talabini yoqlovchilar keskin ko'payib ketgan). Demak, yozuvchi doimo aniq maqsadni ko'zlab, "odilona hayotning yoqlovchisi, sudyasi bo'lib ish ko'radi. Yozuvchining maqsadi, orzusi, haqiqati, adolati... hammavaqt asar qahramonlariga taqsimlanadi, ular qalbiga joylashtiriladi. Va qahramonlarning o'zaro munosabatlaridan, harakatlaridan, qalb tug'yonlari tasviridan jonlanadi, jilolanadi, yaxlitlashadi va birbutun go'zalligi (mukammalligi) bilan kitobxonni harakatga soladi. **Bu badiiy asar "hujayralari"dan sizib chiquvchi qon, qon tufayli faoliyat ko'rsatayotgan jon, jon tufayli tirik bo'lgan ruh - badiiy g'oyadir**.

Demak, g'oya ijodkorning qalamga olinayotgan voqyelikka munosabatidir. Mavzu esa aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi, yig'indisi, ya'ni badiiy asar uchun tayanch bo'lgan asosiy fikr va maqsad ob'ektidir.

Yana bir mulohaza. "Gap roman yoki qissa mavzuining nechog'li muhimligi yoki dolzarbligida emas, balki shu muhim va dolzarb mavzuni yoritishda yozuvchining badiiy salohiyati, mahoratida ekan-da?.." degan ritorik tushuncha ko'p gapiriladi. Lekin shu salohiyat, mahorat qanday qilib voqye bo'lishi yechilmaydi.

Aslida, chiroqning shishasini – mavzu desak, shu mavzuni kerakli narsaga aylantirayotgan, uning ardog'ida yonayotgan pilikka – uning yorug'lik nuriga, shu nurning toza yolqiniga bog'liq. Pilik notekis bo'lsa, zaruriy ishlov berilmagan bo'lsa – uning yonishidan shisha darrov qorayadi, natijada yorug'lik nurining ta'sir doirasi kamayadi, yorug'lik darajasi xiralashadi. Xuddi shunday, mavzu g'oyani asraganidek, uning yonishiga imkon tug'dirganidek, g'oya mavzuni yorqin qilib (xiralashtirmasdan) yoritishi lozim. Ana shundagina, ya'ni ular bir-biriga jon berib va jon olib, birlashib, yaxlit bir mazmunni ifoda qilganlaridagina – poetik ahamiyat kasb etadilar; jonlanadilar, muhitni va odamlarni kerakli nur bilan yoritadilar. Ana shu holatni bunyod etish – salohiyatdir, badiiy mahoratdir.

Ijodkor – voqelik – fikr-maqsad – munosabat. O'z-o'zidan ayonki, bular bir-biri bilan mustahkam bog'langan zanjirlardir. Ma'lumki, voqyelik haqidagi fikr o'z-o'zidan tug'ilmaydi, u kuzatish, tahlil qilish, o'rganish asosida paydo bo'ladi. bu jarayonda – tabiiyki . nimadir inkor qilinadi, nimadir ma'qullanadi. Nimanidir ma'qullash yoki inkor qilish esa, albatta, munosabatni taqozo etadi. Chunki munosabat bo'lmasa tasdiqlash, ma'qullash ham, rad qilish, qoralash ham bo'lmaydi. Ijodkorning oddiygina, novdagi bargni tasvirlashi yoki unda hosil bo'layotgan kurtakni madh etishi ham o'ziga xos munosabatdir. Ya'ni bu tabiatning muayyan bir hodisasiga qarash va u orqali o'quvchida ma'lum bir kayfiyat uyg'otishdir."(A.Ulug'ov, 26-bet).

Bu fikrlarning yaqqol misolini ko'raylik. hamid Olimjon 1937 yil bahorida Qozog'istonda bo'lib, qozoq xalqining hayoti bilan tanishadi. hasan Qayg'i, Jambul kabi oqinlar ijodini o'rganadi, ularning xalq qalbida yashayotganini ko'radi. O'z umrini ham sarhisob qiladi. Orzu-umidlarga, boqiy xayollarga to'lib-toshadi. Martning oxirlarida Toshkentga keladi va ertalab uyg'onganida ishxona derazasi oldida bir to'p o'rik chaman bo'lib, oppoq gullagan. Ko'ngildagi o'y-orzulari ham o'rikdan turtki olib ochila boshlaydi, uning xabari qog'ozga to'kiladi:

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Bu xabarni eshitgan o'quvchida ham turli-tuman fikrlar uyg'onadi. Lekin shoir nima demoqchi? O'rik gullari-hayotning navbahori, navbahorning ilk elchisi shoir qalbidagi qaysi kechinmalarni yuzaga chiqarar ekan? Bu kechinma, hissiyot, fikrlar oqimi sizu bizni o'ziga oshno qilarmikan? Shoir his-tuyg'ulari bizning kechinmalarimizni ham uyg'ota olarmikan? hayajonga sola bilarmikan? hayot ritmini so'z va obrazlarning harakati orqali ifodalay olarmikan? Bu emosionallikni, romantikani, ularning turfa ranglarini bo'yi-basti bilan ko'rsatib, qalblarimizga zarur bo'lgan estetik "ozuqani" bera bilarmikan?

Novdalarni bezab g'unchalar

Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini.

har bahorda shu bo'lar takror,

har bahor ham shunday o'tadi.

Qancha tirishsam ham u beor

Yellar meni aldab ketadi.

Ko'rinyaptiki, o'rikning gullashi shoir qalbidagi kechinmalarni uyg'otdi: har bahor o'rik gullarning mazasini shabboda olib ketadi. Bu yil shunday takrorlanyapti. Inson umri ham shunga o'xshash emasmi? Eng zavqqa, kuchga, shodlikka to'lganingda-gullaganingda hayoting rishtalari gul kabi sochilmasmikin?..

Mayli deyman va qilmayman g'ash

Xayolimni gulga o'rayman

har bahorga chiqqanda yakkash

Baxtim bormi deya so'rayman.

O'rik novdalarini bezagan g'unchalar-gul hayotining bahori ekan, lirik qahramon hayotining bahori nima? Bu-baxt. Baxtli hayot. Lekin u bormi, mangu barqarormi?

"Ana shu tarzda gulning toti to'g'risidagi fikrlar baxt haqidagi o'ylar bilan uyg'unlashadi. Gulning toti, lirik qahramonning baxti-she'r g'oyasi ana shu ikki qalbning uchrashgani va uchqun sochgan nuqtasida ochiladi" (N.Karimov). "Baxtim bormi?" degan so'roq lirik qahramonni o'ylatsa, "ikkinchidan, o'quvchining ongida qandaydir savol alomatini ham, ya'ni "bundan keyin nima bo'ladi?" degan qiziqishni, masalaga faol munosabatni ham uyg'otadi. Shoir o'z o'quvchisida shunday tuyg'uni uyg'otib olgandan keyingina, bu esa poetik mahoratning "sir"laridan biridir, baxtli hayot bahorini ifoda etuvchi yaxlit fikrlarni misralarga tizib tashlaydi" (S.Azimov):

Yuzlarimni silab-siypalab,

Baxting bor deb esadi yellar

Etgan kabi go'yo bir talab

Baxting bor deb qushlar chiyillar.

hamma narsa meni qarshilar,

har bir kurtak menga so'ylar roz

Men yurganda bog'larga to'lar

Faqat baxtni maqtagan ovoz:

"Mana senga olam-olam gul

Etagingga siqqanicha ol.

Bunda tole har narsadan mo'l,

To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hyech gul ko'rmay

O'tganlarning haqqi ham senda

har bahorni yig'lab qarshilab

Ketganlarning haqqi ham senda...”

Demak, lirik qahramon baxtining borligini yellar ham, qushlar ham, har bir kurtak ham, baxt ovozi ham iymon keltiradi, tasdiqlaydi. “Baxti mangu barqaror el”, “har gulistonda bahor mangu” bo’lgan Vatan ulug’lanadi.

O’quvchi qalbida ana shu oliyjanob tushunchalar, ana shu bir olam hislar ko’chgandan so’ng, “har narsadan baxt mo’l o’lka”ga sodiq farzandligidan sevinch to’lgach, shoir she’rini tugatadi:

Derazamning oldida bir tup
O’rik oppoq bo’lib gulladi...

ha, “she’r ko’ngillarga nur olib kirgani yaxshi, g’ashlik va najotsizlik tuyg’usin emas”(E.Vohidov). Baxt va baxt haqidagi orzu-inson kamoloti uchun zarur omil ekan, uni kuylagan ham mangu tirikdir.

Ko’rinadiki, asarning g’oyasi (tema kabi) asar mazmunida – undagi umumlashma, emosional, obrazli fikrda ifodalanadi. U ham bosh g’oya va yordamchi g’oyalardan iborat bo’ladi. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmi “tariximizning eng kirlik, qora kunlari” - “O’tgan kunlar”ning bosh g’oyasi bo’lsa, Otabek-Kumush-Zaynab o’rtasidagi muhabbat-kundoshlik tufayli fojiaga olib borishi-yana bir yordamchi g’oyadir.

Qorachopon va qipchoqlar qirg’ini – feodal jamiyatini inqirozga olib borishi – yana bir yordamchi g’oyadir. Mamlakat markazlashgan bir davlat tomonidan idora qilinganda, urush va qirg’inlar, talon va tarojlarni yo’qotish mumkinligi ham – yordamchi g’oyalardan biridir...

Yordamchi g’oyalarning hammasi ham oxir-oqibat bosh g’oyaga kelib tutashadi va bosh g’oyaning isbotiga, daliliga, birbutunligiga, ta’sirchanligiga xizmat qiladi. Eng asosiysi, asar hujayralariga sochilgan fikrlarning rivojini bir o’zanga soladi, shoshqin va toshqin, zavqli va yaratuvchan, betakror va tinimsiz mavj uruvchi, o’zigagina xos va olamlarga tegishli bo’lgan insoniyatning komillik tomon harakatiga yangicha mazmun beruvchi daryoni vujudga keltiradi; buning yaratuvchisi ham, boshqaruvchisi ham yozuvchi-san’atkordir, yozuvchi qalbidagi nurdir, aqlidagi-bilimdir, talantidagi qudratdir.

Ilova 1

SYUJET HAQIDA TUSHUNCHA

Ilova 2

EKSPOZITSIYA TURLARI



Ilova 3

SYUJET UNSURLARI



Ilova 4

SYUJET TIPLARI



TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Ko'zatilayotgan natija BMK o'zlashtirish darajasi	**Tekshiruvning mazmunli ko'rsatkichlari**	**Misol**
I. O'quvchilikka oid / tanish bo'yicha harakatlanish	Quyidagi asarlardan qaysi birida asar to'qimasida syujetning asosiy unsurlaridan tashqari prolog va epiloglar ham berilgan?	a)"Qo'shchinor chiroqlari"da; b) "Qutlug' qon"da; s) "Ravshan va Zulxumor"da; d) barcha javoblar to'g'ri
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (mazmunan o'xshashlikka bo'yicha harakatlanish)	Qaysi asar syujeti: ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim tartibida tuzilgan?	a)"Qo'shchinor chiroqlari"da; b) "Qutlug' qon"da; s) "Ravshan va Zulxumor"da; d) barcha javoblar to'g'ri
III. Ijodiy fikrlovchilikka oid (evristik harakatlarni tanlash)	Qaysi asar syujeti: tugun, ekspozitsiya, voqea rivoji, kulminasiya, yechim asosidan iborat?	a)"Qo'shchinor chiroqlari"da; b) "Qutlug' qon"da; s) "Ravshan va Zulxumor"da; d) barcha javoblar to'g'ri
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	Topshiriqni yechish bir ma'noli to'g'ri javobni nazarda tutgani sababli, ushbu darajada test nazorati o'tkazilmaydi	

Ilova 5

KOMPOZITSIYA TAMOYILLARI



Ilova 6



ASAR SARLAVHASI – badiiy asar arxitektonikasini tashkil qiluvchi unsur
EPIGRAF – adabiy asar sarlavhasidan so'ng yoki uning qismi yoxud bobining boshlanishida yozib qo'yilgan ko'chirma, ibora, maqol, matal, xalq qo'shig'idan parcha
LIRIK KIRISH (CHEKINISH, XOTIMA) – muallif asarda tasvirlayotgan voqealar, muammolar va kishilar haqidagi alohida fikr-mulohazalari va kechinmalarini tasvirlovchi lirik usul
QISTIRMA EPIZOD – asar mazmunini kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi yoki zarur g'oyani ta'kidlashga yordam beradigan qo'shimcha voqea
PEYZAJ – tabiat lavhalari orqali qahramonlarning kayfiyati va holatiga uyg'unlik
UY-JOY, JIHOZ, BUYUMLAR – adabiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar bevosita harakat qiladigan maydon
QOLIPLASH – badiiy asarda mustaqil voqealarni ma'lum bir voqea doirasiga solib tasvirlash usuli

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-MAVZU	ADABIYOTSHUNOSLIK - FAN

1.1. AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

MASHG'ULOT VAQTI – 2 soat	***Talabalar soni*: 25 ta**
MASHG'ULOT SHAKLI	**Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha amaliy mashg'ulot**
AMALIY MASHG'ULOT REJASI	1. Adabiyotshunoslik - badiiy adabiyot haqidagi fan 2. Badiiy adabiyot va uni o'rganishning ma'rifiy va estetik ahamiyati 3. Adabiyotshunoslikning ob'ekti (predmeti) va vazifalari 4. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari 5. Adabiyotshunoslikning qo'shimcha sohalari 6. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi
O'QUV MASHG'ULOTINING MAQSADI: Adabiyotshnoslikka kirish fani yuzasidan ma'lumot berish, talabalarni fan yuzasidan yangiliklar bilan tanishtirish, fan yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
PEDAGOGIK VAZIFALAR:	*O'QUV FAOLIYATI NATIJALARI:*
- adabiyotshunoslik haqida umumiy tushunchalar bilan tanishtiradi; - badiiy obrazga doir masalalar yoritiladi; - badiiy syujet va kompozitsiya xususiyatlari yuzasidan tahlillar xususida so'zlanadi; - badiiy adabiyotning boshqa fanlar bilan aloqasi va ularning tarkibiy tuzulmalari tushunturiladi; - adabiyotshunoslikning asosiy va qo'shimcha sohalarihaqida xulosalar tuziladi	- adabiyotshunoslik haqida umumiy tushunchalar bilan tanishadilar; - badiiy obrazga doir masalalar xususida ma'lumotga ega bo'ladilar; - badiiy syujet va kompozitsiya xususiyatlari yuzasidan tahlillar xususida fikr-mulohazalar yuritishadi; - badiiy adabiyotning boshqa fanlar bilan aloqasi va ularning tarkibiy tuzulmalari tushunchalarga ega bo'ladilar; - adabiyotshunoslikning asosiy va qo'shimcha sohalarihaqida xulosalarga ega bo'ladilar.
O'qitish usullari	Interfaol uslubi, savol-javob, muammolarmi yechish
O'qitish shakllari	Mashg'ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash
O'qitish vositalari	uslubiy ko'rsatmalar, proretkor
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlanganlik guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ayditoriya
Monitoring va baholash	Mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	***Faoliyat mazmuni***	
	Ta'lim beruvchi	***Ta'lim oluvchilar***

Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Mavzu bo'yicha tayanch konspektlar ishlab chiqadi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqadi. Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqlarni tayyorlaydi (1-ilova). Ekspert guruhlar faoliyat natijlarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi *(10 daqiqa)*	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qildai va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi *(3-ilova).* 1.3. Faoliyat kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi *(2-ilova).* 1.4. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspyektlarni tarqatadi. 1.5. Ekspyert guruhlar faoliyati natijalarini baholash myezonlarini e'lon qiladi.	Tinglaydilar. Savolni muhokama qilib, ularga javob beradi.
2. Asosiy bosqich *(60 daqiqa)*	2.1. Talabalarni to'rtta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotning o'tkazilish tartibini yana eslatadi. O'quv mashg'uloti «o'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish», ya'ni hamkorlikda o'rganish printsipi asosida o'tkazilishini aytadi *(Zigzag. 4-ilova).* 2.2. Guruhlarga ekspyert varaqlarini, shu bilan birga, har bir talabaga gyeomyetrik shakl tarqatadi va faoliyatlarini tashkil qiladi (gyeomyetrik shakllarni vaqtincha bir joyga ko'yishlarini, vakti kyelganda ulardan foydalanishlarini aytadi) *(5-ilova).* Guruhlarda ishni tashkil kiladi. (matnni o'rganib, muhokama kilishga 15 daqiqa byeradi). 2.3. Doira shaklini olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol va to'rtburchak olganlar 3-stol atrofiga o'tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to'plangan talabalar o'z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushuntiradi. O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi (15 dakika). Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, maslahatlar byeradi. 2.4. Talabalarni o'zlarini dastlabki joylariga, stol atrofiga kyelib o'tirishlarini aytadi. 2.5. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan 3 nafardan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun xar bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo'naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh byeradi	Kichik guruhlarga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydilar. Matnlarini o'qib, savollarga javob topadi. Ma'lumotni muhokama kilib, fikr almashib, sistyemalashtiradi. Format kog'oziga sxema tarzida tushiradi, taqdimot uchun matyeriallar tayyorlaydilar. Faoliyat natijasini taqdimot qiladilar.

	va tuzatishlar kiritadi. 2.6. Har bir gurux taqdimoti oxirida ekspyert savollari bo'yicha xulosalar qiladi.	
3–YAkuniy bosqich *(15 daqiqa)*	3.1.Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladi. 3.2.O'quv mashg'ulotini natijalarini sharhlaydi, guruhlar faoliyati bahosini e'lon qiladi. 3.3. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa byeradi: (1) amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kyelish; (2) nazorat savollariga og'zaki javob byerish (4-ilova) (*6-ilova*).	Tinglaydilar.

1-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashing.
Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'I lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

2-ilova

Guruhlar faoliyatini baholash myezonlari

Guruhlar	*Ma'lumotning to'liqligi (1,0)*	*Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilshi (0,5)*	*Taqdimotning ko'rgazmali byerilishi (0,5)*	*Umumiy ball*
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O'zaro baholash natijalari					Jami
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		

3-ilova

Tezkor so'rov uchun savol va topshiriqlar:

1. "Adabiyot" atamasining mazmuni va qo'llanilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Badiiy adabiyotni o'rganishning ma'rifiy va estetik ahamiyati nimada?
3. Adabiyotshunoslik ob'ekti haqida ma'lumot bering.
4. Adabiyotshunoslikning vazifalari nimalardan iborat?
5. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering?
6. Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari deganda nimani tushunasiz?

4-ilova

«Zigzag» texnikasi

O'zaro o'qitish yagona tamoyilga asoslangandir: o'quv guruhi kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh a'zosi o'rganilayotgan mavzuning ma'lum sohasi bo'yicha ekspyert bo'ladi va boshqalarga o'rgatadi.

Har bir guruhning asosiy maqsadi: har bir talaba mavzuni to'liq o'zlashtirishi kyerak.



1bosqich:Mustaqil ish.Mustaqil o'rganishlari uchun guruh ichida o'quv materialini taqsimlash.

2-bosqich: Ekspertlar uchrashuvi. Ekspert guruhlarida o'quv materialini hamkorlikda o'rganib chiqish va o'zgalarni o'rgatishga tayyorlanish.

3-bosqich: O'zaro bir-birini o'rgatish. O'zaro o'rgatish, egallagan bilimlarni o'zaro nazorat qilish va baholash

5-ilova

Ekspert varag'i №1

Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari

1. Adabiy tanqid va tarixining mazmunini va mohiyatini tushuntiring.

2. Adabiyot nazariyasi haqida ma'lumot bering.

Ekspert varag'i №2

Adabiyotshunoslikning qo'shicha sohalari haqida nimalarni bilasiz?

1. Adabiy matnshunoslik adabiyotning qaysi sohasini 'rganadi?

2. Adabiy manbashunoslik haqida ma'lumo bering.

3. Bibliografiya haqida nimalarni bilasiz?

Ekspert varag'i №3

Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida nimalarni bilasiz?

1. Pedagogika fani bilan aloqasi.

2. Tarix fani bilan aloqasining mazmuni va mohiyatini yoriting.

3. Etika-estetika fanlari va adabiyot.

6-ilova

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogika fani bilan aloqasi.
3. Tarix fani bilan aloqasining mazmuni va mohiyatini yoriting.
4. Etika-estetika fanlari va adabiyot.
5. Adabiyotshunoslikning qo'shicha sohalari haqida nimalarni bilasiz?
6. Adabiy matnshunoslik adabiyotning qaysi sohasini 'rganadi?
7. Adabiy manbashunoslik haqida ma'lumo bering.
8. Bibliografiya haqida nimalarni bilasiz?
9. Adabiyotshunoslikning asosiy sohalari
10. Adabiy tanqid va tarixining mazmunini va mohiyatini tushuntiring.
11. Adabiyot nazariyasi haqida a'lumot bering

AMALIY MASHG'ULOTLAR

2-MAVZU	BADIIY OBRAZ. OBRAZ-PERSONAJ-XARAKTER –TIP

O'QITISHNING KEYS-TEXNOLOGIYASI

Mavzu	**Badiiy obraz**
Vaqt: 160 minutlik dars uchun	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot (vaziyatli holatning yechimini aniqlash) (keys-stadi)
Mashg'ulot rejasi	Quyidagi savollar muhokamasi: 1. Obraz deganda nimani tushunasiz? 2. Uning qo'llanilishi 3. Tor ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 4. Keng ma'noda obraz deganda nimani tushunasiz? 5. Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari: a)obrazning umumlashmaligi; b)obrazning konkretligi va individuallgi; s)badiiy obraz tuzilishida to'qimaning o'rni; d)badiiy obrazning estetik ta'sirchaligi 6. Obraz-personaj-xarakter –tip 2.Kyesni kichik guruhlarda yechish, natijalar asosida taqdimot qilish. 3.Guruhlarning ishlsh faoliyati va maqsadga erishganliganlik natijalarini baholash va xulosa chiqarish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, obraz tushunchalarini hosil qilish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va h.k.	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari
- badiiy obraz haqida umumiy tushunchalar bilan tanishtiradi; - badiiy obrazga doir masalalar yoritiladi; - badiiy obrazning xususiyatlari	- badiiy obraz haqidagi tushunchalarni aytib beradilar; - badiiy obrazning xususiatiga doir fikrlarni tahlil qiladilar va mazmunini yoritadilar; - badiiy obraz yuzasidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qiladilar;

yuzasidan qayd etilgan kamchiliklar tahlili beriladi; - badiiy obrazning personaj, xarakter, tipdan farqli jihatlari va ularning tarkibiy tuzulmalari tushunturiladi; - badiiy obraz bo'yicha xulosalar tuziladi	- badiiy obrazning xarakter, tip, personajdan farqini aytib o'tadilar va parchalar asosida tahlil qiladilar; - badiiy obraz yuzasidan xulosalar tuzadilar
O'qitish usullari	Kyes-stadi uslubi, savol-javob, muammolarmi yechish
O'qitish shakllari	Mashg'ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash
O'qitish vositalari	Kyes, uslubiy ko'rsatmalar, proretkor
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlanganlik guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ayditoriya
Monitoring va baholash	Mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi

3.3.O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARETASI

Ish bosqichlari	**Faoliyat mazmuni**	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlovchi bosqich	1.Kyes bilan yaqindan tanishish maqsadida kyesga bog'liq ma'lumotlarni talabalarga tarqatadi. 2.Kyesni yechish talabalar kasbiy mahoratiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta 'kidlaydi. 3.Uslubiy ko'rsatmalarga izoh beradi	Kyes bilan tanishadilar Tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganadilar Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar
1-bosqich Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.O'quv mashg'uloti **mavzusi**: **BADIIY OBRAZ** **Maqsad:** Mavzu haqida talabaga ma'lumot berish, obraz tushunchalarini hosil qilish, uning bilim malakasini oshirish, adabiyot orqali talabaning ruhiyatiga ta'sir etish, milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va h.k. Mashg'ulotni muammoli ma'ruza ekanligi haqida ma'lumot berish **O'quv faoliyati natijalari:** - badiiy obraz haqidagi tushunchalarni aytib beradilar; - badiiy obrazning xususiatiga doir fikrlarni tahlil qiladilar va mazmunini yoritadilar; - badiiy obraz yuzasidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qiladilar; - badiiy obrazning xarakter, tip, personajdan farqini aytib o'tadilar va parchalar asosida tahlil qiladilar; - badiiy obraz yuzasidan xulosalar tuzadilar **Dars rejasi:** 1. Obraz deganda nimani tushunasiz? 2. Uning qo'llanilishi	Tinglaydilar Mavzuning nomi va uning rejasini yozib oladilar Tanishadilar Savollarga javob beradilar

	3. Tor ma’noda obraz deganda nimani tushunasiz? 4. Keng ma’noda obraz deganda nimani tushunasiz? 5. Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari: a)obrazning umumlashmaligi; b)obrazning konkretligi va individuallgi; s)badiiy obraz tuzilishida to’qimaning o’rni; d)badiiy obrazning estetik ta’sirchaligi 6. Obraz-personaj-xarakter –tip 1.2. Kyes maqsadi va uning kasbiy bilimlarini oshirishga ta’sirini aniqlaydi. 1.3.Talabalarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. 1.4. Blits-so’rov usulida talabalar bilimlari jonlantiriladi:	
2-bosqich. Asosiy qism. (60 daqiqa)	2.1.Kyesda keltirilgan topshiriqlar muhokamasini tashkil qiladi. Kyes bilan ishlash qiodalarini yana bir bor eslatadi. Muammo, vazifalar va ularni hal qiliah algoritmiga e’tiborini qaratadi. 2.2. Talabalarni 2 kichik guruhga bo’ladi 2.3. Kyes bilan mustaqil ishlash natijalari muhokamasini kichik guruhlarda tashkil qiladi. 2.4. Tahlil varag’ini yozma ravishda tayyorlashni tavsiya qiladi 2.5. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi	Topshiriqlarni muhokama qiladilar, holatni mustaqil tahlil qiladilar 2 kichik guruhga bo’linadilar Guruhlarda ishlaydilar
	2.6.Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. Keysni hal qilish ishlari natijalarini bo’yicha guruhlar vakillarini taqdimotga chiqaradi Taqdimot davomida guruh vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi. 2.7. Topshiriqlar yechimini guruhlararo baholanishini tashkil qiladi. 2.8. Har bir guruhning ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va o’zaro baholanadi	Guruhlarga birgalikdagi tahliliy ishlarni bajaradilar Natijalarni taqdimot uchun tayyorlaydilar
3- bosqich. Yakunlovchi bosqich. (5 daqiqa)	3.1.Yakunlovchi xulosalar qiladi 3.2.Har bir ishtirokchi hisob-kitob ishlarini to’g’ri va aniq bajargani, ma’ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobiga olinadi 3.3.Yechimlari izohlaydi 3.4.Yana bir bor kyesning maqsadi va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta’sirini bildiradi	Tinglaydilar O’z fikrlarini bildiradilar

1-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashing.
Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'I lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

2-ilova

Guruhlar faoliyatini baholash myezonlari

Guruhlar	*Ma'lumotning to'liqligi (1,0)*	*Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilshi (0,5)*	*Taqdimotning ko'rgazmali byerilishi (0,5)*	*Umumiy ball*
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar gaoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O'zaro baholash natijalari					Jami
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		

3-ilova

Tezkor so'rov uchun savol va topshiriqlar:

1. obraz deganda nimani tushunasiz?
2. Obrazlilikning obrazdan farqi?
3. Mimesis haqida ma'lumot bering.
4. Obraz ataasini birinchi bo'lib adabiyotda kim qo'llaydi?
5. Obraz yaratish yo'llari haqida ma'lumot bering?
6. Obrazlar tasnifi deganda nimani tushunasiz?

4-ilova

O'QUV – VIZUAL MATERIALLAR

1. Obraz va obrazlilik haqida tushuncha

1-slayd

OBRAZLILIK – sana'tning asosiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli va usuli, uning "tili" va shu bilan birga hayo hodisalari ustidan chiqargan "hukmi". Adabiy ijodning mohiyatini, umumiy xususiyatlarni: adabiy qahramon, badiiy til, tabiat, biyumlar, jismlar, narsalar, hayvonot dunyosi tasviri va hokazolarni o'z ichiga qamrab oladi.

OBRAZ – san'at asaridagi inson tasviri. Obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni Arestotelning estetik qarashlaridayoq uchratish mumkin. Aristotel "Poeziya san'ati haqida" nomli asarida "obraz" atamasi o'rnida "mimesis" iborasini ishlatgan. "Memisis" – taqlid demakdir.

2-slayd

Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari

- Badiiy obrazning umumlshmaligi. "Qutlug' qon" asaridagi Mirzakarimboy obrazi misol bo'la oladi.
- Badiiy obrazning konkretligi va individualligi. "Sinchalak" asaridagi Arslonbek Qalandarov obrazi misol bo'la oladi
- Badiiy obraz tuzilishida to'qima. "Navoiy" romanidagi Dildor, Zayniddin, Tug'onbek va boshqalar misol bo'la oladi.
- Badiiy obrazning estetik ta'sirchanligi. "Shaytanat" asaridagi asadbek. Elchin, zaynab va boshqa obrazlar misol bo'la oladi
- YUQORIDAGI XUSUSIYATLARGA O'ZLARINGIZ HAM BITTADAN MISOL TOPING???

3-slayd

OBRAZ – XARAKTER – PERSONAJ - TIP

OBRAZ – asarda qatnashuvchi barcha odamlar hayoti tasviri

XARAKTER – asarda iroda yo'nalishi va individual ruhiy xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi, asar syujetida "katta yuk" tashuvchi saxs

TIP – ijtimoiy guruh yoxud sinfning muhim xususiyatlarini ifodalovchi – davrning katta umumlashmasi bo'la oladigan xarakter

PERSONAJ – obraz atamasiga sinonim bo'la oladigan tushuncha

YUQORIDAGI TUSHUNCHALARGA BITTADAN BADIIY ASARDAN MISOLLAR KELTIRING???

4-slayd

XARAKTER MOHIYATINI ANIQLAYDIGAN IKKI ASOSIY XUSUSIYAT

Shaxs iroda yo'nalishini ko'rsatuvchi narsa xarakterni belgilaydi

Xulq-atvorni belgilaydigan individual ruhiy belgilar: mardlik, qo'rqoqlik, insoflilik, insofsizlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik kabilar.

5-slayd

OBRAZ YARATISH YO'LLARI

- Jamlash yo'li bilan obraz yaratish – "O'tkan kunlar" asaridagi Otabek, Kumush obrazlari
- Prototip asosida badiiy obraz yaratish – "Zaynab va Omon" asaridagi Zaynab, Omon obrazlari
- OBRAZ YARATISH USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA BADIIY ASARLARDAN MISOLLAR KELTIRING

6-slayd

Adabiy turlar va janrlar taqozsiga ko'ra obraz turlari

- LIRIK OBRAZ – lirik asarlardai obraz
- EPIK OBRAZ – epik asarlardagi obraz
- DARAMATIK OBRAZ – dramatik asarlardai obrazlar
- YUQORIDAGI OBRAZ TURLARIGA BADIIY ASARLARDAN MISOLLAR KELTIRING???

7-slayd

Ijodiy metod taqozosiga ko'ra obrazlar tasnifi

- REALISTIK OBRAZ – "Mahrobdan chayon" romanidagi Anvar, Ra'no va boshqa obrazlar
- ROMANTIK OBRAZLAR – "XAMSA" dagi Farhod, Dilorom, Layli, majnun kabi obrazlar
- XAYOLIY-FANTASTIK OBRAZLAR – xalq ertaklaridagi jin, ajina, dev kabi obrazlar
- AFSONAVIY OBRAZLAR – Go'ro'g'li, Alpomish kabi obrazlar
- SIMVOLIK OBRAZLAR (allegorik) – kabutar, gul, bulbul kabi obrazlar
- MIFOLOGIK OBRAZLAR – Ikar, Dedal, Prometey, Jamshid kabi obrazlar

FSMU texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.
(S) – Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.
(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlili qilishi, ularni qay darajada egallaganini baholashga ish madaniyatiga o'rgatadi.

Iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va hayot sifatini yaxshilash borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar

F	Fikringizni bayon eting
S	Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating
M	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
U	Fikringizni umumlashtiring.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

4-MAVZU	BADIIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL DIALEKTIKASI

1.1. AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

MASHG'ULOT VAQTI – 2 soat	***Talabalar soni*: 25 ta**
MASHG'ULOT SHAKLI	**Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha amaliy mashg'ulot**
AMALIY MASHG'ULOT REJASI	1.Mazmun haqida tushuncha 2.Shakl haqida tushuncha 3.Mazmun va shakl birligi 4.Mavzu haqida tushuncha 5.G'oya haqida tushuncha 6.Mavzu va g'oya rang-barangligi, yaxlitligi 7.Tematika
O'QUV MASHG'ULOTINING MAQSADI: Mavzu yuzasidan ma'lumot berish, talabalarni mavzu yuzasidan yangiliklar bilan tanishtirish, fan yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
PEDAGOGIK VAZIFALAR:	*O'QUV FAOLIYATI NATIJALARI:*
- Mazmun haqida umumiy tushunchalar bilan tanishtiradi; - Shaklga doir masalalar yoritiladi; - g'oya haqida ma'lumot beriladi; - Mavzu yuzasidan xulosalar tuziladi	- Mazmun haqida umumiy tushunchalar bilan tanishadilar; - Shaklga doir masalalar yoritishadi; - g'oya haqida ma'lumot olishadi; - Mavzu yuzasidan xulosalar tuzilashadi
O'qitish usullari	Interfaol uslubi, savol-javob, muammolarmi yechish
O'qitish shakllari	Mashg'ulotda frontal va individual ishlash, guruhlarda ishlash
O'qitish vositalari	uslubiy ko'rsatmalar, proretkor
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlanganlik guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan ayditoriya
Monitoring va baholash	Mustaqil o'rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	***Faoliyat mazmuni***	
	Ta'lim beruvchi	***Ta'lim oluvchilar***
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Mavzu bo'yicha tayanch konspektlar ishlab chiqadi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga erishishni ta'minlovchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqadi. Kichik guruhlarda samarali faoliyatni ta'minlash uchun yozma yo'riqlarni tayyorlaydi (1-ilova).	

	Ekspert guruhlar faoliyat natijlarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova).	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi *(10 daqiqa)*	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qildai va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi *(3-ilova).* 1.3. Faoliyat kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi *(2-ilova).* 1.4. Qo'shimcha ma'lumotlar aks etgan tayanch konspyektlarni tarqatadi. 1.5. Ekspyert guruhlar faoliyati natijalarini baholash myezonlarini e'lon qiladi.	Tinglaydilar. Savolni muhokama qilib, ularga javob beradi.
2. Asosiy bosqich *(60 daqiqa)*	2.1. Talabalarni to'rtta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulotning o'tkazilish tartibini yana eslatadi. O'quv mashg'uloti «o'zi o'rganib, o'zgaga o'rgatish», ya'ni hamkorlikda o'rganish printsipi asosida o'tkazilishini aytadi. 2.2. Guruhlarga ekspyert varaqlarini, shu bilan birga, har bir talabaga gyeomyetrik shakl tarqatadi va faoliyatlarini tashkil qiladi (gyeomyetrik shakllarni vaqtincha bir joyga ko'yishlarini, vakti kyelganda ulardan foydalanishlarini aytadi) . Guruhlarda ishni tashkil kiladi. (matnni o'rganib, muhokama kilishga 15 daqiqa byeradi). 2.3. Doira shaklini olgan talabalar 1-stol, uchburchak shaklini olganlar 2-stol va to'rtburchak olganlar 3-stol atrofiga o'tirishlarini aytadi. Har xil guruhlardan to'plangan talabalar o'z savollarini boshqa talabalarga yoritishini tushuntiradi. O'zaro o'rgatish jarayoni boshlanadi (15 daqiqa). Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, maslahatlar byeradi. 2.4. Talabalarni o'zlarini dastlabki joylariga, stol atrofiga kyelib o'tirishlarini aytadi. 2.5. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruhdan 3 nafardan talaba chiqib, faoliyat natijalarini taqdim qilishlarini aytadi. Taqdimot uchun xar bir guruhga 8 daqiqadan vaqt ajratadi. Yo'naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh byeradi va tuzatishlar kiritadi. 2.6. Har bir gurux taqdimoti oxirida ekspyert savollari bo'yicha xulosalar qiladi.	Kichik guruhlarga bo'linadilar. Topshiriq bo'yicha faoliyat boshlaydilar. Matnlarini o'qib, savollarga javob topadi. Ma'lumotni muhokama kilib, fikr almashib, sistyemalashtiradi. Format kog'oziga sxema tarzida tushiradi, taqdimot uchun matyeriallar tayyorlaydilar. Faoliyat natijasini taqdimot qiladilar.

3–YAkuniy bosqich *(15 daqiqa)*	3.1.Mavzu yuzasidan umumiy xulosalar qiladi. 3.2.O'quv mashg'ulotini natijalarini sharhlaydi, guruhlar faoliyati bahosini e'lon qiladi. 3.3. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa byeradi: (1) amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kyelish; (2) nazorat savollariga og'zaki javob byerish (4-ilova) (*6-ilova*).	Tinglaydilar.

1-ilova

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashing.
Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'I lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

2-ilova

Guruhlar faoliyatini baholash myezonlari

Guruhlar	*Ma'lumotning to'liqligi (1,0)*	*Ma'lumot mazmunining aniq tushuntirilshi (0,5)*	*Taqdimotning ko'rgazmali byerilishi (0,5)*	*Umumiy ball*
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				
4-guruh				

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O'zaro baholash natijalari					Jami
	1	2	3	4		
1	*					
2		*				
3			*			
4				*		

3-ilova

Tezkor so'rov uchun savol va topshiriqlar:

1. Mazmun haqida tushuncha bering?
2. Shakl haqida tushuncha bering?
3. Mavzu haqida tushuncha bering.
4. G'oya haqida tushuncha bering

O'QUV – VIZUAL MATERIALLAR
MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI

1-slayd

Badiiy sarda mazmun shakl dialektik aloqada bo'ladi: biri ikkinchisiga va ikkinchisi birinchisiga o'tib turadi. Hatto shunday ham bo'ladiki, asarning ma'lum bir unsure ham mazmun, ham shakl vazifasini o'tashi mumkin.

Badiiy asarda mazmun va shakl dialektik birlikda va bir-biriga o'tuvchi hodisa sifatida o'rganiladi. Shakl mazmunning tashqi ko'rinishi bo'lib, unga go'zallik bag'ishlaydi, ayni choqda, mazmun ham biror shaklda namoyon bo'ladi.

2-slayd

MAZMUN VA SHAKL, MAVZU VA G'OYA MUTANOSIBLIGI

MAZMUN – san'at asarida aks ettirilgan hayot parchasidir. Voqelik, ijtimoiy turmush muammolari san'at asarining mazmunini, mohiyatini tashkil qiladi. San'at asarida voqelik ujidkorning nuqtai nazari, ya'ni dunyoqarashi taqozosiga ko'ra tasvirlanadi. Shu sababli, ijodkor dunyoqarashi, san'at asarining mazmunida o'z ifodasini topadi. unda chuqur iz qoldiradi.

SHAKL – til, vadiiy tasvir vositalari, konflikt, kompozitsiya, adabiy tur, janr, she'r tuzilishi kabilar hisoblanadi.

MAVZU – badiiy asarda falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va boshqa muammolarni qo'yish hamda yoritishga xizmat qilgan, shu asarning hayotiy asosini tashkil etgan voqea-hodisalar doirasi.

G'OYA – asarda qo'yilgan va yoritilgan masalalarning mohiyatidan, xarakterlar talqinidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa.

TEMATIKA – badiiy asarning asosiy va yetakchi mavzui bilan birga, unga tobe bo'lgan boshqa kichik mavzularni ham o'z ichiga qamrab, asarda g'oyaviy-badiiy bir butunlikni tashkil etadi.

3-slayd

Mazmun va shakl, mavzu va g’oya birligi “O’tkan kunlar” asari misolida

Mazmun	XIX asarning eng kir, qora kunlarini tasvirlanishi
Shakl	Roman janrida yozilganligi
Mavzu	Xonliklar davri ijtimoiy hayotining aks ettirilishi
G’oya	Hayotiy, haqqoniy va umuminsoniy ahamiyatga molik masalaning yoritilganligi
Tematika	Otabek va Kumush sevgisi orqali ijtimoiy hayot, kundoshlik oqibatlari, xalq xo’zg’olonlari, xonliklar davri fojialarining ifoda etilganligi

AMALIY MASHG'ULOTLAR

5-MAVZU	ADABIYOTSHUNOSLIK METODLARI HAQIDA TUSHUNCHA

1.1. AMALIY MASHG'ULOTDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI
1.2.

MASHG'ULOT VAQTI – 4 soat	***Talabalar soni*: 25 ta**
MASHG'ULOT SHAKLI	**Bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha amaliy mashg'ulot**
AMALIY MASHG'ULOT REJASI	1. Metodlar tasnifi. 2. Biografik metod. 3. Sosiologik metod. 4. Formal metod. 5. Struktural, psixologik, lingvistik, qiyosiy-tarixiy metodlar. 6. Germenevtika va metodologiya.
O'QUV MASHG'ULOTINING MAQSADI: Mavzu yuzasidan ma'lumot berish, talabalarni mavzu yuzasidan yangiliklar bilan tanishtirish, fan yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.	
PEDAGOGIK VAZIFALAR:	*O'QUV FAOLIYATI NATIJALARI:*
			«Epilog» so'zining ma'nosini toping?	So'nggi so'z	Dastlabki holat	Oldingi so'z	Muqaddima
			Syujetning asosiy elementlarini aniqlang?	Ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminasiya, yechim	Qistirma epizod, lirik kechinma, epik holat	Prolog, ekspozisiya, epigraf, kompozitsiya markazi	Ekspozitsiya, epilog, sarlavha, tasvir me'yori
			Badiiy asar kompozitsiyasini qanday tushunasiz?	Asarning tuzilishi, qurilishi	Asar qahramonlarining joylashish tartibi	Syujetni fabula talablariga muvofiq o'zgartirish	Badiiy asardagi obrazliliknі yuzaga chiqaruvchi bosh unsur
			Tipik sharoit deganda nimani tushunasiz?	Sharoit – inson harakat qiladigan muhitni.	Hayotdagi kishilarning yashash sharoitini.	Har qanday ijtimoiy sharoitni.	Tabiat va jamiyatdagi uzluksiz harakatni.
			Tendensiozlik nima?	Asar temasining falsafiy, axloqiy qiymati.	Badiiy g'oyaning haqqoniyligi.	Tabiat va jamiyat haqidagi tasavvur	Yozuvchi ijodiga xos estetik prinsiplar.
			Tursunboyning oshxona devoridagi besh panjasining izi («Ufq») qaysi detalga kiradi?	Predmet detal.	Nutqiy detal.	Ramziy detal.	Peyzaj detal.

			Anor (A.Qahhorning «Anor» hikoyasi), ro'molcha (Shekspirning «Otella»si) detalining turini aniqlang?	Predmet detal.	Nutqiy detal.	Ramziy detal.	Peyzaj detal.
			Qaysi adabiyotda tabiat ilohiylashtirilgan?	Qadimgi Yunon adabiyotida.	Qadimgi turk adabiyotida.	Qadimgi misr poeziyasida.	Qadimgi fors she'riyatida.
			Qadimgi Sharqda yaratilgan Qayumars, Jamshid, Mitra, «Ming bir kecha» dagi va «Farhod va Shirin» dostonidagi devlar – qaysi obrazlarga misol bo'la oladi?	Mifologik obrazlar.	Afsonaviy obrazlar.	Simvolik obrazlarga.	Romantik obrazlar.
			Otabek, Mutal, Usta Olim, Oybodoq, Oftob oyim («O'tgan kunlar»)larning qay biri bosh obraz sanaladi?	Otabek.	Mutal.	Oybodoq.	Oftob oyim.
			Keng ma'nodagi obraz tushunchasini toping?	Hayot va tabiat manzaralarining konkretlashtirib tasvirlanishiga aytiladi.	O'simlik va jonivorlarning umumlashtirilgan kartinasi tushuniladi.	Individual shaxs sifatida tasvirlanayotgan tasavvur anglashiladi.	Badiiy asarda aks etgan voqeliknin g yaxlit bo'lagi anglashiladi.
			Tipiklikning ikki turi mavjud. Ular qaysilar?	Minglab kishilarga xos xususiyatlarni, yakka hodisadagi hal etuvchi va doimiy alomatlarni umumlashtirish.	Realistik va romantik tiplarni ko'rsatish.	Xarakter va sharoit mantiqlarini tipiklashtirish.	Satirik va yumoristik obrazlarni umulashtirish.
			«Badiiy adabiyot - insonshunoslikdir» ta'rifining egasi kim?	Gorkiy.	Chernishevskiy.	Belinskiy.	Gegel.
			Ridf so`zining ma'nosi	Otga mingashish	Sakrab o`tish	Buralmoq	Yukni ortish
			Sodda vaznda yozilgan she'rdagi misralar bo`g`inlarning umumiy miqdori jihatidan qanday	Bir–biriga teng	Biri ikkinchisidan ortiq	Ko`pincha xar hil bo`g`inlar	Ikkinchisi birinchisidan ortiq

			bo`ladi?				
			Bosh turoq misraning qayirida ko`proq kelishi mumkin?	Misra yoxud baytning oxirida	Misra yoxud baytning boshida	Misra yoxud baytning o`rtasida	Misra yoxud baytning oxiri va boshida
2			Portret atamasi badiiy asarda necha ma’noda qo`llanadi?	Ikki ma’noda	Bir ma’noda	To`rt ma’noda	Uch ma’noda
			Kompozitsion vositalarga nimalar kiradi?	Asar syujetidan tashqari unsurlar	Asar syujetining tarkibiy qismlari	San’at asarida personajlar tasviri	Tasviriy me’yorlar
			She’rning tezis qismi qaysi bandlarni o`z ichiga oladi?	Birinchi band	Ikkinchi band	Uchinchi band	To`rtinchi band
			Kechiktirilgan ekspozitsiyaga qaysi asar misol bo`la oladi?	A. Qahhor “Sinchalak”	O`. Umarbekov “Fotima va Zuhra”	L. Bo`rixon “Jazirama dagi odamlar”	Sh. Bo`tayev “Shox”
			Ekspozitsiya bu?	Tushuntirish	Qiyoslash	Ochib berish	Teskari
			Dramaturgiyaning “joni” va “asosi”…	Konflikt va to`qnashuv	Harakat va tasvir	Hayot va xarakter	Manzara va so`z
			Syujetning ikki alomati (tendensiya) berilgan javoblarni toping. 1. Xarakter qirralari namoyon bo`ladigan voqealar majmui. 2. Hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar majmui. 3. Barcha asarlarda ham tasvirni xarakterga bo`ysindiruvchi voqealar	1,2	1,4	3,4	2,3

			majmui. 4. Simpatiya va antipatiyalar majmui.				
			“Qutlug` qon” romani syujeti qanday syujet?	Ko`p qirrali syujet	Oddiy syujet	Murakkab syujet	Ko`p tarmoqli syujet
			Retrospektev syujet nima?	Orqaga qaytib hikoya qilish	Voqelikdan oldinga o`tib hikoya qilish	Real voqelikni hikoya qilish	Hammasi to`g`ri.

ADABIYOT NAZARIYASI FANIDAN UMUMIY TEST SAVOLLARI

1. Adabiyotshunoslik fanining ob’ekti nimalardan iborat?
a) Buyuk yozuvchilarning fikrlari, adabiy tanqid, adabiyot tarixi.
b) Yozuvchilarning asarlari, o’tmish adabiy jarayon.
c) So’z san’ati, adabiyotning janrlari.
d) Ijtimoiy hayot, adabiyot taraqqiyoti.
e) Tarixiy sharoit bilan birlikda olingan adabiy mahsulot va uning yaratilish jarayoni.
2. «Adabiyot» atamasining tor ma’nosini aniqlang?
a) Kitoblar, broshyuralar, maqolalar.
b) Qishloq xo’jaligi, texnika, meditsina, siyosatga doir asarlar jami.
b) «Adabiyotshunoslikka kirish», «Adabiyot nazariyasi»ga o’xshash darsliklar.
c) «Mezon-ul avzon», «Muhokamat ul lug’atayin» tipidagi asarlar.
d) Badiiy asarlar.
3. «Literatura» terminini kim ilmiy asoslagan va maxsus ma’noda qo’llagan?
a) Aristotel.
b) Bualo.
c) Didro.
d) M.Gorkiy.
e) V.Belinskiy.
6. Adabiyotshunoslikning qo’shimcha sohalarini aniqlang?
a) Tazkirachilik, memuarshunoslik.
b) Tanqidchilik, tarixshunoslik.
c) Estetika, etika, pedagogika.
d) Tilshunoslik, odobshunoslik, aruzshunoslik.
e) Manbashunoslik, kitobshunoslik, matnshunoslik.
7. Adabiy tanqidning o’ziga xos xususiyatlarini toping?
a) Turli davrlarda yaratilgan va birinchi manba hisoblangan asarlarni o’rganadi.
b) Turli xil yangi asarlarning tematik va xronologik ro’yxatini tuzadi, tahlil qiladi. c) Adabiyotning mohiyati, vazifalari va taraqqiyotini o’rganadi.
d) Turli metodlar va oqimlar, turlar va janrlarni, nazariy qoidalarni o’rganadi.

e) Adabiy jarayonning yangi asarlarini, muhim muammolarini hozirgi kunning ijtimoiy-siyosiy talablari asosida tahlil qiladi, kitobxon va asar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.

8. Hamid Sulaymon, Solih Mutallibov, Porso Shamsiyev, Yusuf Sultonov, Vahob Ro'zimatov kabi olimlarning qaysi sohadagi xizmatlari kattadir?

a) O'zbek adabiyoti tarixida.
b) O'zbek adabiy tanqidida.
c) Adabiyot bibliografiyasini yaratishda.
d) Adabiyot nazariyasi va metodologiyasida.
e) Tekstologiya fanida.

9. Atributsiya fani nimani o'rganadi?

a) Folklor asarlarini yaratilish tarixini.
b) Asarning asl nusxasini tiklashni.
c) Asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlashni.
d) O'rganilishi zarur bo'lgan adabiy matnlarni aniqlaydi.
e) Avtori noma'lum asarning muallifini, yozilgan joyi va vaqtini aniqlashni.

10. «Adabiyotshunoslikka kirish» darsliklari avtorlarini aniqlang?

a) N.Mallayev, V.Abdullayev, G'. Karimov.
b) I.Sultonov, X.Doniyorov, Mirzayev.
c) O.Sharafiddinov, U.Normatov, V.Rahmonov.
d) A.Zunnunova, B. Valixo'jayev, I.Mirzayev.
e) N.Shukurov, N.Xotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudov, T.Boboyev.

11. Ijtimoiy ongga nimalar kiradi?

a) Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish.
b) B.Ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelgan munosabatlar.
c) Hayot, ob'ektiv borliq, ijtimoiy turmush.
d) Jamiyatning moddiy hayoti.
e) Qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, axloq, din, falsafa, adabiyot va sh .k.

12. San'atning turlarini aniqlang?

a) Ximiya, fizika, matematika.
b) Tarix, falsafa, axloq.
c) Mexanika, biologiya, anatomiya,
d) Huquq, pedagogika, psixologiya.
e) Arxitektura, muzika, kino.

14. Adabiyotning bosh predmeti nima?

a) Ijtimoiy hayot.
b) Tabiat.
c) Xudolar, hayvonot dunyosi.
d) Buyumlar, jismlar, narsalar.
e) Inson.

15. Adabiyotning vazifasi nima?

a) Voqelikni o'rganish.
b) Hayotiy munosabatlarni tasvirlash.
c) Mehnatni ulug'lash.
d) Odamni zavqlantirish.
e) Insonni tarbiyalash.

16. «Obraz – to'qima yordamida yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni choqda konkret manzarasidir» ta'rifi kimniki?

a) I.Sultonniki.
b) T.Boboyevniki.
c) N.Shukurovniki.
d) F.Golovechenkoniki.
e) L.Timofeyevniki.

17. Obrazning asosiy xususiyatlarini aniqlang?

a) Tasvir, nusxa, vosita, san'at, shaxslar.

b) Badiiy til, predmet, adabiy qahramon, lirik qahramon.
c) Peyzaj, interyer tasviri, hayot tasviri, tip.
d) Adabiy fakt, hayot haqiqati, prototip, xarakter.
e) Umumlashmalik, individuallik, badiiy to'qima, emotsionallik.

18. Badiiy xarakter nima?

a) Asarda bir ikki «yilt» etib ko'rinadigan qahramon.
b) Asarda qatnashuvchi barcha odamlar tasviri.
c) Asardagi qahramonning xususiyati, belgisi.
d) O'ziga xos psixologik belgilarga ega obraz.
e) Ma'lum iroda yo'nalishiga va individual psixologik xususiyatlariga ega bo'lgan, asarda katta «nagruzka» tashuvchi shaxs obrazi.

19. «Tip» terminining ma'nosini toping?

a) Xususiyat, belgi.
b) Ilk, dastlabki, boshlang'ich.
c) Ma'shuqa, oshiq, ramz.
d) Predmet, mazmun.
e) Iz, nusxa, namuna, tamg'a.

20. Kalvak Mahzum («Kalvak Maxzumning xotira daftaridan»), Qori Ishkanba («Sudxorning o'limi»), Mulla Dilkash («Hiylai sha'riy») kabilar obrazlarning qaysi turiga mansub?

a) Romantik obrazlar.
b) Afsonaviy obrazlarga.
c) Simvolik obrazlarga.
d) Komik-yumoristik obrazlarga.
e) Satirik obrazlar.

21. Farhod, Shirin, Bahrom, Dilorom, Layli, Majnun, Iskandar («Xamsa») obrazlarining turini aniqlang?

a) Xayoliy – fantastik obrazlar.
b) Mifologik obrazlar.
c) Realistik obrazlar.
d) Lirik obrazlar.
e) Romantik obrazlar.

23. Shoir bilan tarixchini solishtirib, shoirni toping?

a) Haqiqatdan bo'lib o'tgan narsalar haqida yozadi.
b) Xususiy narsalar haqida hikoya qiladi.
c) Tarixni, turmushni, hayotni aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatadi.
d) Inson hayotining muayyan bir sohasini o'rganadi.
e) Bo'lishi mumkin bo'lgan hayotni, insonni yaxlit va jonli tasvirlaydi.

24. «Badiiy adabiyot - insonshunoslikdir» ta'rifining egasi kim?

a) Aristotel.
b) Gegel.
c) Belinskiy.
d) Chernishevskiy.
e) Gorkiy.

25. Obrazlilik nima?

a) Tasvirning haqqoniyligi, faktning aniqligi.
b) Haqiqattan bo'lib o'tgan narsalarni akslantirish.
c) Syujet va kompozitsiyaning mukammalligi.
d) Yuksak insoniy fazilatlarni ulug'lash.
e) Hayotni, insonni kishi zavq qiladigan darajada jonli qilib tasvirlash.

26. Tipiklikning ikki turi mavjud. Ular qaysilar?

a) Ijobiy va salbiy qahramonlarni tipiklashtirish.
b) Satirik va yumoristik obrazlarni umulashtirish.
c) Xarakter va sharoit mantiqlarini tipiklashtirish.
d) Realistik va romantik tiplarni ko'rsatish.

e) Minglab kishilarga xos xususiyatlarni, yakka hodisadagi hal etuvchi va doimiy alomatlarni umumlashtirish.

27. Keng ma'nodagi obraz tushunchasini toping?

a) Individual shaxs sifatida tasvirlanayotgan tasavvur anglashiladi.
b) O'simlik va jonivorlarning umumlashtirilgan kartinasi tushuniladi.
c) Hayot va tabiat manzaralarining konkretlashtirib tasvirlanishiga aytiladi.
d) Yozuvchi yoki personaj qo'llangan ayrim ifodalar, obrazli so'zlar nazarda tutiladi.
e) Badiiy asarda aks etgan voqelikning yaxlit bo'lagi anglashiladi.

28. Tor ma'nodagi obraz tushunchasini aniqlang?

a) Asarda aks ettirilgan voqelikning yaxlit bo'lagi.
b) O'simlik va jonivorlarning umumlashtirilgan kartinasi.
c) Hayot va tabiat manzaralarining konkretlashtirilgan timsoli.
d) Individual shaxs sifatida tasvirlangan tasavvur.
e) Yozuvchi yoki personaj qo'llagan ayrim iboralar, obrazli so'zlar, birikmalar.

29. Otabek, Mutal, Usta Olim, Oybodoq, Oftob oyim («O'tgan kunlar»)larning qay biri bosh obraz sanaladi?

a) Usta Olim.
b) Oftob oyim.
c) Oybodoq.
d) Mutal.
e) Otabek.

30. Otabek, Kumush, Homid, Sodiq, Oftob oyim, O'zbek oyim, Usta Olim, Mirzakarim qutidor, Xudoyor, Musulmonqul («O'tgan kunlar») obrazlrining qaysilari tarixiy shaxslar obrazidir?

a) Otabek, Kumush.
b) Homid, Sodiq.
c) Oftob oyim, O'zbek oyim.
d) Usta Olim, Mirzakarim qutidor.
e) Xudoyor, Musulmonqul.

32. Otabek, Kumush, Zaynab, Saodat, Xushro'y («O'tgan kunlar») lar adabiy turlar taqozosiga ko'ra qaysi xilga kiradi?

a) Lirik obrazlar.
b) Dramatik obrazlar.
c) Liro-epik obrazlar.
d) Liro-dramatik obrazlar.
e) Epik obrazlar.

33. Tipiklashtirish qaysi ikki jarayondan iborat?

a) Sotsial tip va adabiy tip.
b) Qonuniylik va tabiiylik.
c) Ijtimoiy kuch va individual holat.
d) Hayot haqiqati va badiiy haqiqat.
e) Umumlashtirish va individuallashtirish.

34. Satirik asarlarda tipiklashtirishning o'ziga xosligini aniqlang?

a) Obrazlar o'ta darajada bo'rttiriladi.
b) Minglab kishilarga xos fazilatlar umumlashtiriladi.
c) Obrazlar odam tasavvur qiladigan darajada bo'ladi.
d) Satiradagi tipiklashtirish ijobiy qahramonlarni umumlashtirishdek bo'ladi.
e) Obrazlar bo'rttirilib, kulgi vositasida masxaralanib tasvirlanadi.

37. San'at fandan qaysi jihati bilan farq qiladi?

a) Ob'ektiv qonunlarni ochish bilan.
b) Mantiqiy dalillarga asoslanishi bilan.
c) Tabiat hodisalarini o'rganish bilan.
d) Jamiyat qonunlarini ochish bilan.

e) Hayotni obrazli tasvirlashi bilan.

38. Adabiyotning quroli nima?

a) Tosh, bolta, iskana va sh.k.
b) Rang, soya, kompozitsiya va sh.k.
c) Musiqa, sado, ovoz va sh.k.
d) Tabiat, hayot, predmet va sh.k.
e) Til boyliklari, so'z va sh.k.

40. Anor (A.Qahhorning «Anor» hikoyasi), ro'molcha (Shekspirning «Otella»si) detalining turini aniqlang?

a) Nutqiy detal.
b) Psixologik detal.
c)Ramziy detal.
d) Peyzaj detal.
e) Predmet detal.

41. Tendensiozlik nima?

a) Asar temasining falsafiy, axloqiy qiymati.
b) Badiiy g'oyaning haqqoniyligi.
c) Tabiat va jamiyat haqidagi tasavvur.
d) Yozuvchi ijodiga xos estetik prinsiplar.
e) Asar g'oyasiga singdirilgan avtorning tarafkashligi.

42. Tipik sharoit deganda nimani tushunasiz?

a) Hayotdagi kishilarning yashash sharoitini.
b) Har qanday ijtimoiy sharoitni.
c) Sharoit – inson harakat qiladigan muhitni.
d) Tabiat va jamiyatdagi uzluksiz harakatni.
e) Asardagi obrazlarning yashash, harakat qilish sharoitlarini har tomonlama real va tipik bo'lishligini.

44. Kumush («O'tgan kunlar») portreti portretning qaysi ko'rinishga to'g'ri keladi?

a) Konkret portretga.
b) Dinamik portretga.
c) Rassomlik portretga.
d) Peyzaj portretga.
e) Statik portretga.

45. «O'zi hayajonlana oladigan shoir tomoshabinlarni hayajonlantira oladi, o'zi g'azablana oladigan kishi tomoshabinlarni ham g'azablantira oladi. Shuning uchun poeziya – iste'dodli va majnunsifat insonning qismatidir. Iste'dodli odamlar ruhan juda ta'sirchan, majnunsifatlari esa jazavaga moyil bo'ladilar» Ushbu fikrning avtorini toping?

a) A.Qodiriy.
b) Oybek.
c) A.Qahhor.
d) A.Oripov.
e) Aristotel.

50. «Adabiyot» terminining ma'nosini aniqlang?

a) Arabcha so'z, «adab» so'zining ko'plik shakli.
b) Lotincha so'z, ma'nosi kitoblar.
c) Yunoncha so'z, ma'nosi – «yozma asarlar».
d) Fransuzcha so'z, ma'nosi «harf».
e) O'zbekcha so'z, ma'nosida – «badiiy asarlar».

51. «Literatura» terminining ma'nosi nima?

a) Fransuzcha so'z, ma'nosi «adabiyot».
b) Lotincha so'z, ma'nosida – «harf».
c) Arabcha so'z, ma'nosida – «odob axloq».
d) Yunoncha so'z, ma'nosi «og'zaki adabiyot».
e) Ruscha so'z, ma'nosi – «adabiyot».

52. Adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismlarini (asosiy sohalarini) toping? a) Aruzshunoslik, tazkirachilik, ilmi adab.
b) Estetika, etika, tasavvuf.
c) Memuarshunoslik, ilmi qofiya, ilmi muammo.
d) Bibliografiya, tekstologiya, istoriografiya.
e) Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid.
53. Adabiyot nazariyasi fanining predmeti nima?
a) Turli davrlarda yaratilgan va birinchi manba hisoblangan asarlarni o'rganadi.
b) So'z san'atining mohiyati, sotsial tabiati, taraqqiyot qonunlarini o'rganadi, badiiy asarni tahlil qilishni o'rgatadi.
c) Turli xil yangi asarlarning tematik va xronologik ro'yxatini tahlil qiladi.
d) Turli oqimlar va metodlar tarixini tekshiradi.
e) O'zbek adabiyotining eng qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar tarixini o'rganadi.
54. Bibliografiya fani nimalar bilan shug'ullanadi?
a) Turli xil asarlarning tematik va xronologik ro'yxatini tuzish bilan.
b) Asarlarning turli nusxalarini o'zaro chog'ishtirib, asl nusxasini tiklash bilan.
c) Birinchi manba hisoblangan asarlar haqidagi ma'lumotlarni jamlash, mazmunini yoritish bilan.
d) Ilmi ma'oniy va ilmi aruzning tarixini o'rganishi bilan.
e) Badiiy adabiyotning mohiyatini, o'ziga xosliklarini o'rganish bilan.
55. Manbashunoslik Fani qaysi vazifalarni bajaradi?
a) Birinchi manba hisoblangan asarlar haqida ma'lumotlar to'playdi, ularning qisqacha mazmunini yoritadi.
b) Ilmi aruz va ilmi qofiyaning tarixini o'rganadi.
c) Badiiy adabiyotning mohiyati, o'ziga xosliklarini tekshirish vazifasini bajaradi. d) Asarlarning turli nusxalarini chog'ishtirib, asl nusxasini yaratadi.
e) Turli xil asarlarning tematik va xronologik ro'yxatini tuzish bilan.
59. «Adabiyot» terminining keng ma'nosini toping?
a) Badiiy asarlar.
b) Roman, povest, hikoya, novella.
c) Odob-axloqqagina oid kitoblar.
d) Poeziya, proza, dramaturgiya.
e) Ko'pchilikka mo'ljallangan kitoblar broshyuralar va shu kabilar.
60. Badiiy adabiyotning birinchi elementi nima?
a) Ritm, ohang.
b) Kompozitsiya.
c) Badiiy g'oya.
d) Syujet.
e) Nutq, til.
61. «Xarakter» terminining ma'nosini aniqlang?
a) Xususiyat, belgi.
b) Iz, nusxa.
c) Tamg'a, namuna.
d) Predmet, mazmun.
e) Dastlabki, boshlang'ich.
62. Obraz yaratishning qaysi yo'llari bor?
a) Jamlash va prototik.
b) Ijobiy va salbiy.
c) Yumoristik va satirik.
d) Xayoliy va fantastik.
e) Romantik va realistik.
63. «Prototip» atamasining ma'nosi nima?
a) Dastlabki, boshlang'ich, ilk.
b) Xususiyat, belgi.
c) Tamg'a, nusxa.

d) Predmet, mazmun.
e) Iz, namuna.

64. Sotsial tip deganda nimani tushunasiz?

a) Ma'lum ijtimoiy-siyosiy tabaqaning mohiyatini o'zida to'la ifodalagan shaxs.
b) Hayotning dolzarb muammoli tomonlarini umumlashtirish.
c) Ijtimoiy kuchning mohiyati umumlashtirgan va to'la individuallashtirgan shaxs. d) Faqatgina individual va to'la yorqin bo'rtib ko'ringan shaxs.
e) Badiiy adabiyotda xarakterni mubolag'ali qilib tasvirlash.

65. Badiiy til deganda nimani tushunasiz?

a) Ma'lum ijtimoiy kuchning muhim belgilarini umumlashtirib, individuallashtirib tasvirlash.
b) Hayotning muammoli, dolzarb mohiyatini umumlashtirish.
c) Ma'lum ijtimoiy kuchning mohiyatini o'zida ifodalangan sotsial tip.
d) Faqatgina individual xislatlari yorqin bo'rtib ko'ringan shaxs.
e) Hayotdagi umumiy, qonuniy, tabiiy narsalar.

66. Ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va shu kabi qarashlar mazmunini qanday nom bilan yuritamiz?

a) Tendensiya.
b) G'oyaviylik.
c) Dunyoqarash.
d) Talant.
e) Xalchillik.

67. Har qanday asarning ijtimoiy ahamiyati qaysi asosiy mezon bilan o'lchanadi?

a) Tendensiya bilan.
b) G'oyaviylik bilan.
c) Talant bilan.
d) Xalqchillik bilan.
e) Dunyoqarash bilan.

68. S.Ayniyning «Sudxo'rning o'limi» qissasida tipiklashtirishning qaysi usuli yetakchi?

a) Romantik tasvir usuli.
b) Yumoristik tasvir usuli.
c) Lirik tasvir usuli.
d) Sentimental tasvir usuli.
e) Hajviy pafos usuli.

69. San'atning asosi nima?

a) Obrazlilik.
b) Obraz.
c) Hayot.
d) Inson.
e) Tabiat.

70. «Gumanizm» atamasi qaysi tildan olingan, ma'nosi nima?

a) Ruscha so'z, e'zozlash.
b) Arabcha so'z, g'amxo'rlik.
c) Fransuzcha so'z, tarafkashlik.
d) Lotincha so'z, xalqchillik.
e) Lotincha so'z, insoniylik.

71. «Har qanday muhim g'oya ham asar qahramonlarining qismatiga aylanmasa quruq gap bo'lib qolaveradi». Bu haq gapning muallifi kim?

a) A.Qahhor.
b) P.Qodirov.
c) A.Qodiriy.
d) A.Oripov.
e) O'.Hoshimov.

73. Gumanistik adabiyotning uchta xosiyatini aniqlang?

a) E'zozlash, g'amxo'rlik, tarafkashlik.

b) Tarafini olish, qayg’urish, sevish.
c) Xalqchillik, go’zallik, madh etish.
d) Talantlilik, ko’p ovozlilik, intilish.
e) Insonni e’zozlash, madh etish, adolatni, hurlikni kuylash, adabiyot vositalarini xalqqa yaqinlashtirish.

74 Badiiy asarning mazmuni deganda nimani tushunasiz?

a) Yozuvchining turmush tajribasi.
b) Erk va baxt uchun kurashga chorlash.
c) Ijtimoiy turmush muammolari.
d) Badiiy asardagi til, syujet, kompozitsiya.
e) Badiiy asarda aks ettirilgan hayot parchasi.

75. Badiiy asarning shakliga qaysi komponentlar kiradi?

a) Badiiy asarning g’oyaviyligi.
b) Badiiy asarning ma’nosi.
c) Hayot haqiqatini o’zida ifodalagan mazmun.
d) Milliy kolorit, milliy joziba, o’ziga xoslik.
e) Syujet, kompozitsiya, badiiy til, tur, janr va sh.k.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик.-Т.: «Фан», 1978-1979.
2. Арасту. Поэтика. Аҳлоқи кабир-Т.: «Янги аср авлоди», 2004
3. Султонов И. Адабиёт назарияси.-Т.: «Ўқитувчи», 2002.
4. Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т.: «Ўқитувчи»,1995.
5. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., «Ўзбекистон», 2002.
7. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш.-Т.: «Халқ мероси» нашриёти, 2004.
8. Хализев В. Е. Теория литературы. Учебник.-М.: «Высшая школа», 1999.
9. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы.-М.: «Искусство», 1978.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент, «Ўзбекистон», 1993.
2. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т., «ЎАЖБНТ» маркази, 2003.
3. Шукуров Н ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш, – Т., «Ўқитувчи», 1984.
4. Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Т., Ўзадабийнашр, 1962.
5. Умуров Ҳ. Бадиий ижод мўъжизалари. – С., 1992.
6. Умуров Ҳ. Таҳлил чизгилари. – Т., "Муҳаррир", 2013.
7. Умуров Ҳ. Носиров А. "Адабиёт назарияси" курс иши мавзулари ва мустақил таълим топшириқлари. – Самарқанд, 2012.
8. Умуров Ҳ. Олий таълимда маърузани конспектлаштириш кўникмаси. – Самарқанд.: СамДУ нашри, 2013.
9. Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. – Самарқанд, 2011.
10. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М. : Искусство, 1979. -424 с.
11. Гадамер Г. Актуальности прекрасного. -М:, 1991.
12. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. «Фан» 2006.
13. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва. «Фан» 2006.

14. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. «Фан» 2006.

15. Норматов У. Устоз ибрати. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2007.

16. Олимов М. Рисолаи аруз. -Т., Ёзувчи. 2002.

17. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. «Фан», 2006.

18. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.-Т., 2004.

19. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти.-Т, Шарқ. 2004.

20. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т., Шарқ. 2004.

21. Ҳожиаҳмедов. А. Мумтоз бадиият малоҳати. -Т., Шарқ.1999.

22. Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы.-М. : 1972.

Electron ta`lim resurslari

1. www.ziyonet.uz/

2. www.lgz.ru/

3. www.adabiyot.uz/

4. www.ziyouz.com/

5. www.sheriyat.uz/

“ADABIYOT NAZARIYASI” FANIDAN
GLOSSARIY

ARXAIZM (yun. archaios – qadimgi) – eskirgan, istye’moldan chiqqan so’z (yoki grammatik shakllar). A.lardan tarixiy mavzudagi asarlarda davr koloritini byerish, qahramonlar nutqini individuallashtirish (zamonasiga mos holda) kabi maqsadlarda foydalaniladi. Mas., M.Alining “Sarbadorlar” romanidagi ilk jumla: “Hijriy 764 yil shavvol oyining 18-kuni o’ttiz chog’li tuyalar karvoni Samarqandning Kyesh darvozasiga yetib kyelganida, vaqt xuftondan oshgan edi”. Dastlabki jumlayoq o’quvchi diqqat-e’tiborini o’zga vaqtga sozlaydi, bunga jumlada qo’llangan so’zlar asos bo’ladi. O’tmish ruhi yuqtirilgan o’quvchi romanni o’qish davomida Tyemur “dastavval o’ziga xos lashkar tuzishga urindi”, “turli shaharlarga ting’chilar, qulovuzlar yubora boshladi” tarzidagi jumlalar, “Naqoralar chalindi. Navkarlar qo’liga kishan solingan, uchovining bo’yinlariga bitta jyela tashlangan... dor tagiga olib bordilar” kabi lavhalarda qo’llangan tarixiy so’z va shakllarni tabiiy qabul qiladi, ayni shu til unsurlari unda o’tmish ruhini tutib turadi. Bundan tashqari, A.lardan ba’zan uslubga tantanavorlik byerish, ba’zan esa do’stona hazil yo kinoya uchun ham foydalaniladi. Bunga G’.G’ulomning CHarxiy, Ulfat, S.Abdulla, O.Valixonov kabi do’stlariga bitgan maktublari misol bo’la oladi. Jumladan, Charxiyga yozilgan maktub:
“Do’sti muhtaram mavlono Asqarali Charxiy Xo’qandiy.
As’ada kallohu fiddorayn.
Maktubi muhabbat uslublari soati sa’dda qo’limizga tyegdi. Boshimiz avji falakdan ham oshib kyetdi. Shayxi-shuyux, allomai piri Kiromiddin hazratlarining dyebochai qalamilari haqindagi xabari sururovarlaridan bisyor mamnun bo’ldik. Tyez fursatda dastras bo’lmog’i umididamiz, albatta.
Masalai duvvumga kyelganda, fikrimcha, bu ish o’zim bormasdan, orqavorot – maktub orqali hal bo’lmog’i mushkul ko’rinur. Yaqin o’rtalarda Farg’ona tomonlarga safar ixtiyor qilsammukun, dyegan niyatim ham yo’q emas. Balki shu muddatda janoblarining iltimoslarini hal qilish uchun arbobi shahri Ho’qandi firdavsmonandga murojaat qilurman, inshoolloh.
Boqi: Assalomu alaykum.
G’afur G’ulomi Shoshiyi Qoratoshiy”.
G’.G’ulom maktubida A. va varvarizmlar qo’llash orqali eskicha uslubni tiklash (stilizasiya)ga intiladi: madrasa ko’rgan ziyolilar uslubiga xos jumla qurilishi, arabcha-forscha so’zlar, kalimalar va sintaktik qurilmalarning ishlatilgani shuni ko’rsatadi. Bular esa maktubga tantanavor ruh byerish bilan birga, shoirning do’stona hazil-mutoyibaga moyilligi, eskicha an’analarga sodiq qolgan CHarxiy domlaga kinoyasini ham ifodalaydi.

ARXEOGRAFIYA (yun. archaios – qadimgi, grapho – yozaman) – tarixiy fanlarning qadimgi yozma yodgorliklar bilan shug’ullanuvchi yordamchi sohasi. A. ko’hna qo’lyozmalarni chop etishga tayyorlashning nazariy asoslarini, amaliy tartib-qoidalari va myetodikasini ishlab chiqadi. A.ning vazifalar doirasiga qadimgi bitiklarni o’qish, yoshi, muallifi, yozilgan joyi va vaqtini aniqlash kabi vazifalar ham kiradi.

ARXIVSHUNOSLIK, adabiy arxivshunoslik (lot. archivum – hujjat saqlash joyi, fors. ????– o’rganish) – adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri, aksariyat hollarda, manbashunoslikning tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi. A. adabiyot tarixiga oid manbalarni saqlash, tartibga solish, tavsiflash kabi vazifalarni bajaradi. Adabiyot tarixiga oid manbalar saqlanadigan muassasalar (davlat arxivlaridagi turli ijodiy uyushma, adabiy nashrlar fondlari; adabiyot muzyeylari, adiblarning uy-muzyeylari) ko’payishi bilan adabiyotshunoslikda A.ning roli va ahamiyati ham ortib bordi, shu bois hozirda unga adabiyotshunoslik ilmining alohida bir yordamchi sohasi sifatida qarash ommalashmoqda.

ARXITYeKTONIKA (yun. architektonike – qurilish san’ati, mye’morlik) – adabiyotshunoslikda adabiy asarning tashqi qurilishi, uning asosiy qismlari (boblar, fasllar; parda, ko’rinish)ni bir butunga birlashtirish ma’nosida qo’llanadi; ba’zan kompozisiya tyerminiga sinonim tarzida ham ishlatiladi, lyekin bu ma’nosida tyermin ommalashgan emas. CHunki hozirda adabiy asar turli

sathlardan tashkil topishidan kyelib chiqib, kompozisiyaning turli aspyektlari (matn kompozisiyasi, syujyet kompozisiyasi va sh.k.) haqida gapiriladi, shunga ko'ra A.ga shu aspyektlardan biri sifatida qaraladi. YA'ni kompozisiya tyermini A. tushunchasini ham qamrab oladi.

ARXETIP (yun. archetypon – obrazning ilk asosi, modyel) – inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema", fikriy konstruksiya va qoliplar, motivlar va ularning turli kombinasiyalari. A. tushunchasi shvyeysariyalik ruhshunos K.YUng ta'limoti bilan bog'liq holda ommalashdi. Unga ko'ra, A.lar kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridan boshlab insoniyat xotirasida "kollyektiv ongsizlik" sifatida yashaydi va ijod jarayonida turli shakllarda o'zini namoyon etavyeradi. Ya'ni A.lar univyersal xaraktyerga ega bo'lib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin. A. konstruksiya va sxemalardan o'ziga xos "syujyet va syujyet holatlari" jamg'armasi hosil bo'ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi. K.YUngga ko'ra, A. avvalo shakl hodisasi bo'lib, muayyan davrda yashayotgan ijodkor ongida uyg'onganidagina uning hayotiy tajribasi bilan boyitiladi va konkryet mazmun kasb etadi. Mas., yer yuzidagi birinchi qotillikdan naql qiluvchi "Qobil va Hobil" qissasida hasad, ko'rolmaslik qotillikni kyeltirib chiqargan bo'lsa, xuddi shu motiv turli kombinasiyalar ko'rinishida jahon adabiyotida qayta-qayta jonlanavyeradi (Shyekspir. "Otyello"; A.Pushkin. "Mosart va Solyeri"). Shunga o'xshash, xo'jayin xotinining xizmatkorni yaqinlikka undashi motivi ("Ezop hayoti", "Yusuf qissasi" va b.) qadimgi davrlardayoq kyeng ommalashgan bo'lib, u kyeyingi davrlar adabiyotida, xususan, o'zbyek adabiyotida ham turli kombinasiyalarda namoyon bo'ladi (CHo'lpon. "Kyecha"; U.Hamdam. "Muvozanat"). Yoki "Shoh Edip"dagi insyest motivi Gi dye Mopassanning "Portda" hikoyasi, T.Qayipbyerganovning "Qoraqalpoq qissasi", O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", M.Alining "Sarbadorlar" romanlarida o'zgacharoq ko'rinishlarda akslanadi. Misolga olingan hollarning bari qadimdan mavjud bo'lgan ilk asosga – A.iga ega bo'lib, bu ilk asos konkryet davr xususiyatlari bilan bog'liq holda turlicha ko'rinishlar oladi.

ATRIBUSIYA (lot. attribution – nisbat byermoq) – matnshunoslik sohasi oldida turuvchi asosiy ilmiy muammo (vazifa)lardan biri, adabiy asarning muallifi, yozilgan vaqti yoki joyini aniqlash, evristika. Bu muammo turli manbalardan (mas., tazkiralar, tarixiy asarlar, arxiv matyeriallari, xotiralar va b.) hujjatli dalillar topish; muallifi noma'lum asarning g'oyaviy-badiiy, til va uslub xususiyatlarini shak-shubhasiz nisbat byerilayotgan ijodkor qalamiga mansub asar bilan qiyosiy o'rganish; asarning yozuvi (kotibi, xattotlik maktabi, xat va uning ommalashgan davri), kitobat qilinish xususiyatlari (qog'oz, siyoh, muqova, byezaklar va b.)ni tadqiq etish kabi yo'llar bilan hal qilinadi. Shularning barini e'tiborda tutgan holda komplyeks yondashuv asosida amalga oshirilgan A.gina ilmiy sanaladi.

AFORIZM (yun. aphorismos – ta'rif, ixcham ifoda) – muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr. A.ga byerilgan ta'riflarda turlichalik mavjud: ayrim manbalarda A. aniq muallifga ega bo'lishi shart va shu narsa uni maqollardan farqlovchi asosiy jihat dyeyilsa, boshqalarida bu shart qo'yilmaydi (q. aforistika). A.lar paydo bo'lishi jihatidan turlicha. Ayrim hollarda A. maxsus yaratiladi, bu holda uni tom ma'noda janr dyeb hisoblash mumkin (mas., A.Qahhorning mashhur "Adabiyot atomdan kuchli, lyekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kyerak emas", dyegan gapi). Zyero, bu holda ijodkorning hayotiy tajribasiga tayangan holda biron-bir masala yuzasidan umumlashma fikrini ifodalashga imkon byeruvchi shakl hodisasi haqida gap boradi. Mas., A.Muxtorning "Tundaliklar", O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"idan shu janrning ko'pgina yaxshi namunalari joy olgan. Biroq ko'p hollarda u yoki bu asardan olingan ixcham ibratli fikr ham A. sifatida ommalashadi (mas., "Sinchalak"dan: "To'kilgandan tomchilagan yomon..." yoki "CHalasavod kishi o'zidan past, nima dyesa "hikmat" dyeb turadigan odamlar bilan ulfatchilik qilishga moyilroq bo'ladi").

AFORISTIKA – adabiy ijodning bir turi, muayyan hayotiy tajribaga asoslangan ibratga molik umumlashma fikrni ixcham badiiy shaklda (antityeza, parallyelizm, qiyos, paradoks va sh.k. uslubiy vositalar yordamida) ifodalash. A. voqyelikning individual-xususiy tomonlariga ko'z yumgan holda umumiy, tipik tomonlarga e'tibor qaratadi: uning asosida tasvirlash yoki his-tuyg'ularni ifodalash maqsadi emas, muayyan hukm-xulosani bayon qilish maqsadi yotadi. Ya'ni A. obraz bilan emas, fikr bilan ish ko'radi. Ayni chog'da, u ilm emas, A.dagi fikr ilmiy tafakkurdan farq qiladi: ilmiy fikr muayyan ob'yektning atroflicha tahlili asosida olinsa, aforistik fikr muallifning shaxsiy (ma'naviy,

ruhiy, siyosiy, maishiy va h.) tajribasiga tayanadi; ilmiy fikrning to'g'riligi dalillar silsilasi bilan isbotlansa, aforistik fikr ob'yektiv haqiqatlik da'vosini qilolmaydi, chunki uning to'g'riligi isbot qilinmaydi, his etiladi. Agar A.ni adabiy ijod turi sifatida tushunilsa, uning janr ko'rinishlari dyeb xalq og'zaki ijodidagi maqol, yozma adabiyotdagi gnoma, xriya, syentyensiya, apoftyegma, maksima kabilarni ko'rsatish mumkin.

BADIIY TAHLIL (ar. ???? – tyekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estyetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspyektlarda o'rganib, o'ziga xosligini ochib byerish va qimmatini byelgilashga qaratilgan hissiy-intyellyektual faoliyat. Tahlil atamasi ilmda kyeng qo'llanuvchi analiz (yun. analysis – qismlarga ajratish) tyerminining sinonimi sifatida ishlatiladi. Har ikki atama ham butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, "uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas", dyegan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zyero, birinchidan, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham – o'qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish tushuniladi. YA'ni tadqiqotchining asarni qismlarga ajratishi maqsad emas, bir vosita – asarning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o'quvchi ongi va ruhiyatiga ta'sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo'layotgan omillarni o'rganish vositasidir. Ikkinchidan, B.t. jarayonida har vaqt talqin amali ham majud (bu o'rinda talqin "intyerpryetasiya"ning sinonimi). Kyeng ma'noda "talqin" so'zi o'zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma'lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o'zigina emas, tushuntirish hamdir) ma'nolarini anglatadi. Boshqacha aytganda, talqin badiiy asardagi "obrazlar tili"ni "mantiq tili"ga o'girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir. SHunday ekan, chinakam ilmiy bo'lishi uchun talqinning tahlilga tayanishi shart qilinadi. Zyero, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni chuqur bilmasa, asar qismlarini, ularning o'zaro aloqalarini yetarli tasavvur qilolmasa, uning talqini ilmiylikdan yiroq sub'yektivlik kasb etadi. Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obraz esa assosiativ tafakkur mahsuli ekanligi e'tiborga olinsa, talqin sub'yektsiz mavjud emasligi ham ayon. CHunki ijodkorning assosiativ fikrlashi mahsuli o'laroq yaratilgan va asarda aks etgan obrazning mazmun qirralari faqat sub'yekt ongidagina (ya'ni uning ham assosiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Bular badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin har vaqt hozirligiga yorqin dalildir. Oddiy o'quvchidan farq qilaroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilishda tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kyelgani uchun ham ilmiy sanaladi. SHu ma'noda tahlil talqinning ilmiy asosi, badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o'qish va uqish dyemakdir.

BADIIY TO'QIMA (ruschadan kalka: "xudojyestvyenniy vimisyel") – yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqyelikda ryeal asosi yoki to'liq o'xshashi mavjud bo'lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqyealar va sh.k.ni yaratishda namoyon bo'luvchi badiiy ijodning muhim komponyenti. Muhimligidan, antik davrlardan boshlab to XVII – XVIII asrlarga qadar B.t.ga ijodning birlamchi sharti, poeziya (badiiy adabiyot)ning byelgilovchi xususiyati dyeb qaralgan, unga B.t.dan mosuvo asarlar – proza qarshi qo'yilgan. Hozirda ham B.t. adabiy asar (q. byellyetristika) bilan adabiy badiiy asarni farqlovchi byelgiligicha qolmoqda. B.t.ning mohiyati va ahamiyatini tarixiy mavzudagi asarlar misolida tushunish qulay. YOzuvchi tarixiy manbalarni o'rganadi, faktlar, voqyealar, ularning ishtirokchilari haqida ma'lumotlarni yig'adi. Uning endigi vazifasi – o'rganganlarini badiiy qayta ishlash: badiiy voqyelikda faktlar jonlanishi, voqyealar yuz byerishi, shaxslar yashashi lozim. Xuddi shu narsa – badiiy tasavvurni ishga solgan holda o'tmish hayotini qayta yaratish ijod bo'lib, unda B.t.ning roli byeqiyosdir. SHunday yondashilsa, "tarixiy shaxs obrazi" bilan "to'qima obraz"ni qarshi qo'yishimizda ham kattagina shartlilik borligi ayon bo'ladi. Mas., manbalarda Abdullatifning padarkushligi qayd etilgan. Hammaga ma'lum faktni badiiy mushohada etgan O.YOqubovni fojianing ildizlari qiziqtiradi: u farzandni padarkush etgan omillarni – u voyaga yetgan muhitni, bu muhitdagi murakkab munosabatlarni, farzandning otaga mehrsiz bo'lib qolishi sabablarini, qahramoni ruhiyatidagi ziddiyatlar va sh.k.larni anglashga intiladi. "Ulug'bek xazinasi" uchun quruqqina syujyet sxemasini byergan faktlar B.t. vositasida to'ldiriladi va, oqibat, o'quvchi ko'z o'ngida jonli Abdullatif butun murakkabligi bilan namoyon

bo’ladi. Demak, garchi Abdullatifni tarixiy obraz dyeb ta’riflasak-da, uning yaratilishida ham B.t.ning salmog’i katta ekan. Xuddi shu gapni hayotdagi ryeal voqeaga, ryeal prototiplarga asoslangan zamonaviy mavzudagi asarlarga nisbatan ham, umuman, har qanday badiiy asarga nisbatan ham to’la asos bilan qo’llash mumkin. Zyero, badiiy voqyelik unsurlari uyg’un aloqadagi butunlik va unda jonli xaraktyerlar harakatlanar ekan, bu narsa faqat ijodkorning badiiy tasavvur kuchi tufayligina mumkin bo’ladi va bunda B.t. muhim butlovchi ashyo – “syemyent” vazifasini o’taydi.

BADIIYLIK – ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli o’laroq dunyoga kyelgan asarning san’atga mansubligini byelgilovchi xususiyatlar majmui. Obrazlilik B.ning birlamchi sharti sanalib, u voqyelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash dyemakdir. Obrazlilik san’atning o’zak xususiyati bo’lib, u yo’q joyda B. ham mavjud emas. B. tarixiy katyegoriya sanaladi, uning talab va myezonlari har bir davrning ma’naviy-estyetik ehtiyojlari, badiiy didi bilan bog’liq holda o’zgarib turadi. SHunga qaramay, B.ning javhari bo’lgan barqaror shartlar ham mavjud. Jumladan, B.ning muhim shartlaridan biri mazmun va shaklning uyg’un birligi, ularning o’zaro muvofiqligidir. B.ning mazkur sharti inson uchun (insoniyat uchun) ahamiyatli mazmunning go’zal shaklda ifodalanishi, badiiy mukammal asarning organik butunlikka aylanishi dyemakdir. Butunlik esa asarda bironta ham ortiqcha, tasodifiy, ahamiyatsiz unsur mavjud bo’lmasligi, undagi barcha shakl unsurlari mazmunni, estyetik ob’yektni shakllantirishga qaratilishini taqozo etadi. SHu shartga dosh byera oladigan badiiy jihatdan mukammal asarning ortig’i ham, kami ham yo’q – unga biron narsa qo’shib ham, olib ham bo’lmaydi, ikkala holda ham butunlikka putur yetadi. SHunday butunlik asosida irryeal olam – badiiy ryeallik voqye bo’ladi. Bu voqyelik ryeallikka nyechog’li monand bo’lmasin, u baribir shartlilik xususiyatini saqlab qoladiki, ayni shu shartlilik B.ning yana bir muhim talabidir. Badiiy voqyelik obrazlar vositasida yaralgan irryeal olam ekanligini, badiiy shartlilikni qabul qilgan holdagina unga estyetik ob’yekt sifatida yondashish mumkin bo’ladi. YA’ni shu tufayligina badiiy voqyelik ryeallik bilan chalkashtirilmaydi, badiiy asar matn darajasidagina qolib kyetmasdan, estyetik ob’yekt sifatida tasavvurda qayta yaraladi. Qayta yaratilishning asosi badiiy asarning o’quvchiga yo’naltirilganligidirki, bu B.ning yana bir muhim byelgisi sanaladi. Badiiy asar avvalboshdanoq muayyan o’quvchiga mo’ljallab yoziladi, unda o’sha o’quvchi egallashi va shundan turib badiiy voqyelikni jonlantirishi kyerak bo’lgan joy hozirlangan. Bu esa o’quvchini estyetik sub’yektga aylantiradi, uni estyetik ob’yektni qayta yaratishga undaydi. YA’ni o’qish – ijodiy jarayon, chunki o’quvchi yozuvchi yetkazayotgan mazmunning oddiy istye’molchisi emas, u byelgilar asosida badiiy voqyelikni qayta yaratayotgan ijodkordir. Ijodkorlik haqida esa originallik bor holdagina gapirish mumkinki, u B.ning muhim sharti hisoblanadi. Zyero, chinakam badiiy asar byetakror, original hodisadir. Unda san’atkorning ijod onlaridagi ma’naviy-ruhiy holati, shu onlarda ayon bo’lgan MA’NO akslanadi. Ijod onlaridagi ma’naviy-ruhiy holat byetakror bo’lganidyek, o’sha MA’NO ham byetakrordirki, u endi faqat o’qish jarayonida – qayta yaratish jarayonida voqye bo’ladi. Garchi MA’NO san’atkor – alohida bir shaxs hayotiy tajribasi, ma’naviy-ruhoniy izlanishlari mahsuli o’laroq voqye bo’lsa-da, ijod onlarida u ryeallikdan uzilib IDYeAL bag’rida, univyersal inson maqomida turgan. Xuddi shu hol MA’NOning univyersalligini ta’min etadiki, univyersallik B.ning yana bir byelgisidir. SHu univyersallik tufayli ham chinakam badiiy asar kim haqda yozilganidan qat’i nazar, hamma haqida, qaysi go’sha haqida yozilishidan qat’i nazar, butun olam haqida bo’ladi, bashariyatning ma’naviy mulki, qadriyatiga aylana oladi.

BALLADA (fr. ballade – raqsbop qo’shiq) – 1) o’rta asrlar fransuz adabiyotidagi qat’iy shye’riy shakl, bir xil qofiyalanish tartibidagi (ababbcbc) har biri sakkiz misradan tashkil topgan uchta band, bandning oxirgi misrasi tarjye’ sifatida takrorlanadigan, o’quvchiga murojaat qilingan yarim band (to’rt misralik – bcbc) bilan yakunlanuvchi shye’r; 2) kyeyingi davrlar Yevropa adabiyotlarida kyeng tarqalgan B. ingliz-shotland xalq shye’riyatidan kyelib chiqadi. Agar fransuz B.si qat’iy shye’riy shakl bo’lsa, ingliz B.sida shakliy talablar ancha erkin (qofiyalanish tartibi qat’iy emas, tarjye’ning bo’lishi shart qilinmaydi), u bir xil, odatda, to’rt misrali bandlardan tashkil topadi. Ingliz B.sining byelgilovchi xususiyatlari sifatida tarixiy, tarixiy-afsonaviy, ba’zan esa maishiy mavzuda yozilishi, kichik voqyeaband syujyet asosiga qurilgan epik xaraktyerdagi shye’riy asarligini ko’rsatish mumkin. Xuddi shu xususiyatlar yozma adabiyotdagi B.larga ham xosdir. Urush yillarida

yozilgan M.SHayxzodaning “Kapitan Gastyello”, H.Olimjonning “Jangchi Tursun” kabi asarlari B.ning o’zbyek adabiyotidagi yaxshi namunalari sanaladi.

BAND – shye’rning ritmik-intonasion va mazmuniy jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo’lagi. SHye’r ritmik qurilishidagi B.ning roli va ahamiyati gapning matndagi roli va ahamiyatiga o’xshash. SHuning uchun ham, aksar hollarda, band sintaktik jihatdan gapga tyeng (ko’p hollarda bandni bitta gap shakliga solish mumkin) kyeladi. B.ning nihoyasida turoq (rukn) yoki misradan kyeyingi pauzaga qaraganda yaqqol syeziladigan ritmik pauzaning mavjudligi, odatda, uning boshlanishida yuksaluvchi, oxirida esa pasayuvchi intonasiya bo’lishi; shye’rdagi har bir bandni ajratib turadigan takrorlanuvchi qofiyalanish tartibi, ba’zan esa tarjye’ yoki radif singari qo’shimcha vositalarning borligi – bularning bari B.ni ritmik-intonasion jihatdan alohida butunlikka aylantiradi. Izomyetriyaga asoslangan mumtoz shye’riyatda (nafaqat SHarq, balki G’arb shye’riyatida ham) B. shakllari qat’iy bo’lib, ular shye’riy asarning kompozision qurilishida hal qiluvchi rol o’ynagan, ko’p hollarda janrni byelgilovchi omil bo’lib xizmat qilgan. B. turlari, ko’proq, undagi misralar sonidan kyelib chiqib byelgilangan: ikkilik (masnaviy, bayt, distix), uchlik (musallas, tyersyet), to’rtlik (murabba, katryen) va h. Ayrim hollarda B. turlarini ajratishda misra sonidan boshqa byelgilar ham e’tiborga olingan. Mas., ikki misrali band turi bo’lgan bayt (ab, cb, db, eb...) bilan masnaviy (aa, bb, cc, dd...) qofiyalanish tartibiga ko’ra, elyegik distix (birinchi misrasi gyekzamyetr, ya’ni 6 stopali, ikkinchisi pyentamyetr – 5 stopali) bilan alyeksandr distixi (12 bo’g’inli, 6-bo’g’indan so’ng syezura bilan bo’lingan, 6- va 12-bo’g’ini urg’uli) vazn xususiyatlariga ko’ra farqlanadi. Jahon shye’riyatida hajm e’tibori bilan 2 tadan 16 tagacha misrani birlashtirgan B. turlari mavjud (qarang: musammat) bo’lsa-da, hajmi kichikroqlari (ayniqsa, 2, 4, 5 misrali) bandlar kyeng istifoda etilgan.

Mumtoz shye’riyatda izomyetriyaga, jumladan, shye’riy asarda B.larning bir xil (misra soni, o’lchovi, qofiyalanish tartibi) bo’lishiga qat’iy amal qilingan bo’lsa, kyeyingi davr shye’riyatida (G’arbda romantizm davridan, o’zbyek shye’riyatida XX asrdan) bu qoidadan chyekinish odatiy holga aylandi. Natijada astrofik (bandlaridagi misralar soni turlicha) shye’rlar, gyetromyetrik (o’lchovi turlicha misralardan tarkib topgan bandli) shye’rlar ham ommalashdi.

BASIT (ar. ???? – yoyiq) – aruz bahrlaridan biri, mustaf’ilun (– – v –) va foilun (– v –) asllarining takroridan hosil bo’ladi, mustaf’ilun rukni boshida ikki sabab (mus va taf) yoyilib turgani uchun shu nomni olgan. Bundan tashqari, B. bahri vaznlarining aruz va zarbida harakatlar, ya’ni qisqa unlilar yoyilgani uchun shunday nomlangan, dyegan fikrlar ham bor. B. bahri arab shye’riyatiga xos bo’lib, o’zbyek shye’riyatida qo’llanmaydi. Navoiyning “Myezon ul-avzon” asarida B. bahrining bir vazni, Boburning “Muxtasar” asarida sakkiz vazni turkiy tilda bitilgan maxsus misollar bilan kyeltirilgan. Xususan, Navoiy:

Ishqing myeni tunu kun majnunu zor aylamish,
Ko’nglumni zoru hazin, jismim nizor aylamish, –

baytini misol qilgan bo’lib, u basiti musammani solim (– – v – / –v – / – – v – / –v –) vaznida yozilgan.

BAG’ISHLOV (rus. posvyaщyeniye – bag’ishlov) – 1) asarning biron bir shaxsga bag’ishlanganini ifoda etuvchi qismi, dyebocha; myesyenatlikning paydo bo’lishi bilan bog’liq holda antik Rimda urfga kirgan, kyeyinchalik Yevropa adabiyotlarida an’anaga aylangan. B. shye’riy yoki nasriy yo’lda bitilib, asarning boshlanish qismidan joy olgan. B.da homiylik qilgan myesyenat madh etilgan, minnatdorlik izhori bilan birga, uni yanada ko’proq iydirish, o’z ijod mahsuli uchun rag’bat olish maqsadi ko’zda tutilgan. SHunga ko’ra, bunday B.larning uslubi ham tantanavor, balandparvoz bo’lgan (SHarq adabiyotida ham shunga o’xshash an’ana bo’lgan: “Qutadg’u bilig”dagi Bug’roxon madhi, Xorazmiy “Muhabbatnoma”sidagi Muhammadxojabyek madhi mohiyat e’tibori bilan B.ga yaqin turadi). Biroq kyeyinchalik B.dan ko’zda tutilgan maqsadlar doirasi va shunga mos holda uning mazmun-mundarijasi ham kyengayadi. Mas., Molyer mutaassib dindorlardan himoya izlab “Tartyuf” komyediyasini qirol Lyudovik XIV ga B. bilan boshlaydi; Voltyer “Brut” tragyediyasiga yozgan B.da o’zining ma’rifatchilik tyeatri haqidagi mulohazalarini bayon qiladi va sh.k.; 2) zamonaviy adabiyotda B. – asarning muallif hurmati, e’zozi, minnatdorligi, muhabbati va h. tuyg’ular ifodasi sifatida biron bir shaxs, uning xotirasi, muayyan bir joy, muassasa, voqyea-hodisa va sh.k.larga bag’ishlanishi, shu haqdagi qayd. Odatda, B. asar sarlavhasidan kyeyinoq qayd etib qo’yiladi. Mas., A.Oripovning “Arslon chorlagandi...” shye’riga

“E.Vohidovga”, “Qozog’iston” shye’riga “O’ljasga”, “Otyello” shye’riga “Abror Hidoyatov xotirasiga bag’ishlayman”, “Makonda lomakonimsan, endi qaydan izlagaydurman” misrasi bilan boshlanuvchi shye’riga “Onam vafotiga” tarzida, T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romaniga esa “Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zosi – ozod O’zbyekiston uchun yozdim” tarzida B. yozilgan; 3) lirik janr, biron-bir shaxs (narsa, joy va sh.k.)ga murojaat shaklida yozilib, ko’proq uni ta’riflash, unga munosabatni ifodalashga qaratilgan shye’riy asar. A.Oripovning “Kursdoshlarimga”, “Syergyey Yesyeninga”, “Dyengizga”, “Hamid Olimjon xotirasiga”, “Munojot”ni tinglab”, “Noma’lum ayol” suratiga” kabi shye’rlari B. janrining sara namunalari sifatida ko’rsatilishi mumkin.

BAHR (ar. ??? – dyengiz) – aruzda yozilgan shye’rda ruknlarning takrorlanish tartibi, konkryet shye’rdagi o’lchov asosi. Aruzda hijo, rukn, misra va bayt (arab aruzida harf, juzv, rukn, bahr, bayt) shye’rning o’lchov birliklari bo’lib, bunda bayt konkryet shye’rning ritmik jihatdan tugal birligi, boshqalari esa uning tarkibiy qismlari sanaladi. B. misra doirasida voqye bo’ladi, chunki ilk misradagi ruknlar tartibi kyeyingi misralarda aynan takrorlanadi. YA’ni aruzda 8 ta rukn (asl)ning muayyan tartibdagi takroridan B.lar hosil bo’ladi va ularning har biri o’z nomiga ega. A.Navoiy “Myezon ul-avzon”da ko’rsatishicha, aruzda 19 ta bahr mavjud, Bobur esa “Muxtasar”da 21 ta bahrni ko’rsatadi. B.larning yettitasi (mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil va vofir) bitta rukn takroridan (mas.: mafoiylun / mafoiylun... – hazaj; foilotun / foilotun... – ramal) hosil bo’ladi, birgina maf’ulotu asli o’zi mustaqil holda B. hosil qilmaydi. Bittadan olingan ikkita asl takroridan yana 8 ta B. (muzori’, hafif, mujtass, munsarih, muqtazab, tavil, madid va basit) hosil bo’ladi (mas., mafoiylun / foilotun... – muzori’; foilotun / mustaf’ilun... – hafif). Ikkita bir xil va bitta boshqa asl takroridan esa qolgan 4 ta B. (qarib, mushokil, g’arib va sari’) hosil bo’ladi (mas., foilotun / foilotun / mustaf’ilun – qarib; foilotun / foilotun / mafoiylun – mushokil). O’zbyek tili xususiyatlari bilan bog’liq holda shye’riyatimizda B.lar qo’llanishdagi faollik darajasiga ko’ra farqlanadi: agar hazaj, ramal, rajaz, muzori’, hafif, mujtass, munsarih, sari’, mutaqorib B.lari faol qo’llangan bo’lsa, mutadorik, komil tavil B.lari juda kam uchraydi; vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g’arib, ariz, amiq B.lari esa shye’riyatimizda ishlatilmagan.

BeLLeTRISTIKA (fr. belles letters – so’z san’ati, nafis so’z) – kyeng ma’noda umuman so’z san’ati, badiiy adabiyot ma’nosini byersa-da, tyermin turlicha ma’nolarda ishlatiladi. 1) nasriy yo’lda yozilgan adabiy asarlarni bildiradi; 2) so’z san’ati ma’nosidagi adabiyotga taalluqli asarlarni badiiy qimmatiga ko’ra darajalash maqsadida klassika bilan ommaviy adabiyot orasidagi hodisa ma’nosida qo’llanadi. Bu ma’noda B. badiiy jihatdan mukammal klassik asarlarga ham, badiiy nochor ommaviy adabiyot namunalariga ham qarshi qo’yiladi. SHunga ko’ra, mavjud adabiy asarlarning aksariyati (jumladan: sarguzasht, dyetyektiv, fantastika kabilar) B.ga mansub etiladi. Mutaxassislar B.ning paydo bo’lishini yozuvchilikning profyessional faoliyat turiga, kasbga aylanishi bilan bog’laydilar; 3) adabiyot tushunchasi qamrab oluvchi asarlarni tabiatiga ko’ra farqlash maqsadida ishlatiladi. Bunda adabiy asarlarni B. dyeb atab, ular adabiy-badiiy asarlarga qarshi qo’yiladi. YA’ni bu ma’noda B. badiiy obraz vositasida fikrlamaydigan adabiy asarlarni bildiradi va bir qator adabiy janrlarni qamrab oladi: ochyerk, safarnoma, essye, myemuarlar, maktublar, aforistika va b.; 4) adabiyotning yaxshi namunalariga qarshi qo’yiluvchi “yengil adabiyot” ma’nosida qo’llanadi. Bu ma’noda B. dyeyilganda, hozirgi kunda matbuotda tijoriy maqsadni ko’zlab chop etilayotgan yengil-yelpi bitiklar, ommaviy adabiyot tushuniladi.

BYeSTSYeLLYeR (ingl. best – eng yaxshi, sell – sotilmoq) – noshirlikning tijoriy tomoni bilan bog’liq holda yuzaga kyelgan tyermin, katta tirajda chop etilgan va tyez tarqalib kyetgan, tijoriy nuqtai nazardan muvaffaqiyat qozongan kitob. SHundan kyelib chiqib, B. tyermini kitobxonlar tomonidan qizg’in kutib olingan va qo’lma-qo’l bo’lib kyetgan asarlarga nisbatan ham qo’llanadi. Biroq muayyan asarning B.ga aylanishi uning badiiy mukammallik darajasini byelgilay olmaydi, chunki asar badiiyatga aloqasi bo’lmagan turli omillar (qizg’in ryeklama, ayni o’z vaqtida yozilganlik, kyeng ommaning did va talablariga moslik va b.) natijasida B.ga aylanishi mumkin. Albatta, chinakam so’z san’atiga daxldor asarlar ham B.ga aylanishi mumkin (mas., G.Markyes, P.Koelo asarlari), biroq amalda bu ko’proq ommaviy adabiyot namunalari (dyetyektiv, sarguzasht, fantastika, jangari asarlar va sh.k.)ga nasib etadi. Bu o’rinda ustalik bilan, ommaning qiziqishlari va ruhiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilgan ryeklama, turli taqdimotlar muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdyek, noshirlik ishlari tijoriy asosga qo’yilgan G’arb mamlakatlarida chop etilgan

asarlarning tiraji, sotilishi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha ryeytinglari ham muntazam e'lon qilib boriladi.

BIBLIOGRAFIYA (yun. biblion – kitob, grapho – yozmoq) – 1) kitoblar, vaqtli nashrlarda e'lon qilingan asarlar ro'yxatini tuzish, ularni tyematik yoki boshqa (fan sohalari bo'yicha, mualliflar ismi-sharifi bo'yicha va h.) jihatlarga ko'ra tasniflash, qisqacha annotasiyalar yozish kabi vazifalarni o'z oldiga qo'yuvchi ilmiy-amaliy soha; 2) adabiyotshunoslikning yordamchi sohasi. Adabiyotshunoslik B.si adabiyotshunoslik bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish uchun zarur ma'lumotlarni – badiiy asarlar, adabiyotshunoslikka oid kitoblar, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar ro'yxatlarini tuzish, muayyan tyematik yo'nalishdagi yoki xronologik asosdagi bibliografik ko'rsatkichlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bunday ko'rsatkichlar biron-bir mavzu bo'yicha izlanayotgan tadqiqotchining vaqtini tyejaydi, ilmiy faoliyati samarasini oshiradi, shu bilan birga, mavzu bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan to'liq tanishish imkonini byeradi, dyemak, ilmiy xulosalarning ob'yektiv va ahamiyatli bo'lishiga ham zamin hozirlaydi. O'zbyek adabiyotshunosligida B. sohasida ham birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'zR FA Bosh kutubxonasi xodimlari tomonidan tayyorlangan "Adabiy hayot" bibliografik ko'rsatkichi; Fitrat, A.Qodiriy, CHo'lpon, G'.G'ulom, A.Qahhor kabi ijodkorlar, M.Qo'shjonov, O.SHarafiddinov, U.Normatov, N.Karimov kabi qator olimlar faoliyatini yorituvchi bibliografik ko'rsatkichlarni bunga misol qilib kyeltirish mumkin.

BIOGRAFIK MeTOD (yun. bios – hayot, grapho – yozmoq) – adabiyotshunoslikdagi kontyekstual tahlil myetodlaridan biri. Ushbu metod XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, asoschisi sifatida fransuz olimi SH.Syent-Byov e'tirof etiladi. B.m. badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontyekstida o'rganishni nazarda tutadi. Zyero, badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslanadi, shunday ekan, uning ko'p qirralari muallif biografiyasi kontyekstida anglashiladi. Boshqacha aytganda, B.m. asarga muallif yuklagan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Mas., A.Qahhorning "Dahshat" (1960) hikoyasi o'tmishdan bahs yuritadi, biroq uni biografik kontyekstda olinsa, hikoyada adib asar yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etarkan, o'z ruhiyatida va qarashlarida ro'y byergan burilishni aks ettirganini ko'rish mumkin. B.m.ning qanchalik samarali bo'lishi ko'p jihatdan tadqiqotchi qo'l ostidagi biografik matyerialga bog'liqdir. Tadqiqotchi ixtiyoridagi biografik matyerial asar gyenyezisi (yaratilishiga turtki bo'lgan omillar, obrazlar va syujyet chiziqlarining ryeal ildizlari, unda ifodalangan g'oyalar mohiyati va sh.k.)ni o'rganish imkonini byeradi. Biografik matyerial (yozuvchi hayoti va faoliyati bilan bog'liq hujjatlar, u harakat qilgan muhit va shu muhit kishilari bilan o'zaro aloqalari haqidagi ma'lumotlar, uning yozishmalari, u haqdagi xotiralar va b.) qancha boy bo'lsa, myetodni qo'llash shuncha samarali natijalar byeradi. Albatta, biografik matyerial mutlaq to'liq bo'lmaydi, ya'ni yozuvchining hayotini kunma-kun hujjatli asosda tiklash mahol. SHuning uchun ham B.m. muallif hayotiga oid faktlarni jonlantirish, yetishmagan o'rinlarni to'ldirishni ham taqozo etadiki, bu hol unga gipotyetik unsurlarni ham olib kiradi. Mas., CHo'lponning "Qalandar ishqi" shye'ri biografik kontyekstda olib qaralsa, uning yangi-yangi mazmun qirralari ochiladi. SHye'r 1920 yilda yozilgan. CHo'lpon o'smir paytidan boshlab fyevral inqilobi yuzaga kyeltirgan sharoitda "yurtim uchun dyemokratik yo'l bilan ozodlikka erishish imkoni tug'ildi", dyegan ishonch bilan qaynoq ijtimoiy faoliyatga sho'ng'igan bo'lsa, kyeyinroq bu yo'ldagi harakatlari zoye kyetib, umidlari chilparchin bo'ldi. YA'ni shye'r CHo'lpon "asrlik tosh yanglig' bu xatarli yo'lda qotgan", umidsizlikka tushgan davrda yozilgan. SHoir kayfiyati "Karashma dyengizin ko'rdim na nozlik to'lqini bordir, Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku", "Qalandardyek yurib dunyoni kyezdim topmayin yorni, YAna kulbamga qayg'ular, alamlar birla qaytdim-ku" kabi satrlarda o'z ifodasini topadi. SHye'rdagi "Bu dunyo dyeb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku" misrasi shoir iztiroblarining cho'qqisini ifoda etadiki, uning mazmunini biografik kontyekstdan tashqarida anglash qiyin. Avvalo, o'zbyek tili uchun g'alizroq "bahosiz pul" birikmasiga e'tibor qilish kyerak. SHye'r yozilgan davr kishilariga "bahosiz pul" dyeganda, Kyeryenskiy hukumati muomalaga kiritgan va tyezda o'ta qadrsizlangan pulni nazarda tutilgani aniq bo'lgan. SHundan kyelib chiqsak, CHo'lpon bu bilan fyevral inqilobiga ishonib "u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku", dyeya iztirob chyekayotgani ma'lum bo'ladi. Iztirobning asosi shuki, tahlikali zamonda shoirning otasini o'g'lining siyosiy faolligi tashvishlantirgan, tabiiyki, u yolg'iz o'g'lining o'z yonida, xavf-xatardan yiroq bo'lishini istaydi. Biroq "karashma dyengizi"ga oshufta o'g'il otani tashvishga qo'yib,

norozilantirib bo'lsa-da, o'z bilganidan qolmaydi. YA'ni milliy ruhda tarbiya topgan CHo'lpon endi otasini norozilantirganiga o'kinadi, bu holni "u dunyoni bahosiz pulga sotmoq" dyeb biladi.
Adabiy asar tahlilida B.m. nyechog'li muhim bo'lmasin, uni mutlaqlashtirish to'g'ri emas. Bu hol adabiyotshunoslik tarixida kuzatilgan. Jumladan, XX asr boshlarida B.m.ni sof holda (ya'ni yozuvchi biografiyasini davrning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy shart-sharoitlaridan uzib) qo'llash, ijodkor qalbining suratini yaratishga intilish (fransuz olimi R.dye Gurmon, rus olimi YU.Ayxenvald) kuzatiladi. Tabiiyki, bu badiiy ijod tabiatini jo'nlashtirish bo'lib, muqarrar ravishda biryoqlamalikka olib kyeladi. Adabiy asar tahliliga komplyeks yondashish, B.m.ni boshqa myetodlar bilan aloqada qo'llash ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'lishi va yaxshiroq samara byerishini unutmaslik lozim.
VATAD (ar. ??? – qoziqcha) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritmik birlik, juzv (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kyelib chiqib V.ning ikki turi farqlanadi: V.i majmu' (yoki maqrun) va V.i mafruq. Avval kyelgan ikki mutaharrikka bir sokin harfning qo'shilishidan V.i majmu' hosil bo'ladi: "samar", "bashar", "qamar" kabi so'zlar shu vaznga mosdir. Mas., "qamar": mutaharrik (qa) + mutaharrik (ma) + sokin (r). V.i mafruqda esa ikki mutaharrik orasida bir sokin harf joylashadi: "nola", "lola", "zora" kabi so'zlar shu vaznga mosdir. Mas., "nola": mutaharrik (no) + sokin (l) + mutaharrik (a).
VYeRLIBR (fr. vers – shye'r, libre – ozod, erkin) – muayyan o'lchov asosidagi vazn va qat'iy qofiyalanish tartibiga ega bo'lmagan shye'r. V. nasrdan faqat muayyan nutqiy bo'lak (misra)larga bo'lingani bilan farqlanib, bo'linish yozuvda har bir misrani alohida satrga yozish, talaffuzda esa intonasiya (ritmik pauza va ritmik aksyentlar) hisobiga ta'kidlanadi. Yevropa xalqlari shye'riyatiga V. o'rta asrlardagi liturgik shye'riyat, diniy marosimlarda ijro etilgan qo'shiqlar orqali yaxshi tanish bo'lgan. V.ning dunyoviy adabiyotga kirib kyelishi nyemis romantizmi bilan, faollashuvi esa fransuz simvolist shoirlari ijodi bilan bog'liq. XX asrda V. jahon shye'riyatida, jumladan, o'zbyek shye'riyatida ham kyeng ommalashdi (q. sarbast).
VODYeVIL (fr. Normandiyadagi Vau de Vire dyegan joy nomidan) – dramatik janr, ko'proq maishiy mavzudagi, qiziqarli intriga asosiga qurilgan, o'ynoqi qo'shiq-kuplyetlar va sho'x raqslarni o'z ichiga olgan pyesa. Avvaliga, XVIII asrning 1-yarmida yarmarka sayillarida ijro etilgan komyediyalar tarkibidagi qo'shiq-kuplyetlar V. dyeb atalgan. XVIII asr oxirlariga kyelib V. mustaqil janr sifatida shakllangan, ko'ngilochar dramaturgik janr sifatida butun Yevropaga tarqalgan. XIX asrning 2-yarmiga kyelib V. faol istye'moldan chiqqan, unga xos xususiyatlar boshqa dramatik janrlarga, xususan, opyeryettaga singib kyetgan.
VOFIR (ar. ???? – mo'l) – aruz bahrlaridan biri, harakati, ya'ni qisqa unlilari ko'p bo'lgani uchun shunday nom byerilgan. Mafoilatun aslining (v – v v –) takroridan hosil bo'ladi. V. arab shye'riyatiga xos bahr bo'lib, o'zbyek va fors shye'riyatida qo'llanmagan. Faqat Navoiy o'zining "Myezon ul-avzon" asarida V. bahrining ikki vazniga, Bobur esa "Muxtasar"da yigirma bir vazniga to'xtalib, ularga maxsus baytlar bitganlar va misol sifatida kyeltirganlar. Xususan, "Muxtasar"da:
Kyel ey qaro ko'z, manga guzar et,
Budur sanga so'z, manga nazar et, –
bayti vofiri murabba'i solim (v – v v – \ v – v v –) vazniga misol qilib kyeltirilgan.
VOQYeABAND LIRIKA – lirik kyechinmani voqyeaning ixcham tasviri asosida ifodalovchi shye'rlar, zamonaviy shye'riyatda kyeng tarqalgan janr. V.l.da voqyeani tasvirlash maqsad emas, balki bir vosita, lirik kyechinmani ifodalash vositasidir. SHunga ko'ra, V.l.da voqyea to'laqonli tasvirlanmaydi, balki punktirlar bilan chiziladi: uning eng muhim dyetallarini olish, eng qizg'in, kulminasion nuqtalariga urg'u byerish bilan kifoyalaniladi. Tasvir ko'lami, bir tomondan, o'sha voqyea ta'sirida yuzaga kyelgan his-tuyg'uni ifodalash, ikkinchi tomondan, o'quvchining uni tasavvur qila olishi, lirik kyechinmaga turtki bo'lgan asosni his qila olishi uchun yetarli bo'lishi bilan byelgilanadi. Mas., X.Davronning "1941 yil. 22 iyun. Pyeshin" shye'ri:
Ularni qo'yishdi jar yoqasida...
Otasin qo'lini ushlagan go'dak
CHor atrofga qarab sho'x, olazarak,
So'radi: "O'q tyegsa og'rirmi, dada?"
Uning ovozini bosdi guldirak...
Bahorda jarlikni qoplar o't-o'lan,

O’tlar uzra suzib o’tar oq bulut
Va shunda giyohlar achchiq dard bilan
SHivirlar-shivirlar: “Og’rirkan, dada!”
Bu nola hyech qachon bo’lmaydi unut...

SHoir urushga munosabatini ifoda etish uchun konkryet voqyeani oladi, lyekin uni izchil tasvirlamaydi, uning eng muhim nuqtasini jonlantirish bilan chyeklanadi: ko’zlagan maqsadi uchun shuning o’zi yetarli. Bu jihati bilan shye’r rangtasvir polotnosiga monand, unda voqyeaning muayyan lahzasi qotirib qo’yilgan. Xuddi rangtasvir asarini tomosha qilayotgan kishi kabi, o’quvchi o’sha lahzagacha va undan so’ng bo’lgan holatni tasavvurda jonlantira oladi (dushmanning qo’qqisdan hujum qilishi, ota-bolaning bu paytdagi holati, ularning boshqalar bilan birga qo’lga olinishi va h.). Agar bular bari batafsil tasvirlanganida, lirik emas, balki voqyeaband epik asar yaratilgan bo’lur edi. SHu jihatdan V.l. bilan shye’riy yo’lda yozilgan epik asarni farqlash zarur. Mas., A.Oripovning “SHarq hikoyasi”, “Hangoma” shye’rlari V.l. namunasi emas, balki shye’riy yo’lda yozilgan kichik hikoyatlar, ya’ni mohiyatan epik xaraktyerdagi asarlardir.

GYeRMYeNYeVTIKA (yun. hermeneuo – tushuntirmoq, talqin qilmoq) – tushunish nazariyasi, matnni talqin qilish tamoyillari haqidagi ta’limot, gumanitar fanlarning myetodologik asosi. G.ning ildizlari qadim G’arb va SHarq madaniyatiga borib taqalsa-da, XIX asrga kyelibgina alohida fan sohasi sifatida shakllangan bo’lib, nyemis faylasuflari F.SHlyeyyermaxer va V.Diltyeylar faoliyati bilan bog’liq. Ta’limotning kyeyingi rivojida M.Xaydyeggyer, G-G.Gadamyer, P.Rikyor, M.Baxtin singari olimlarning xizmati katta bo’ldi. G.ning markazida TUSHUNISH masalasi turadi. Jumladan, F.SHlyeyyermaxer G.ni umuman yozma manbalarni “tushunish san’ati haqidagi ta’limot”, dyeb biladi. Unga ko’ra, har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsulidir. SHuning uchun G. oldida bir-biriga bog’liq ikkita vazifa turadi: birinchisi – matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzvi sifatida o’rganish (“grammatik” talqin), ikkinchisi – uning ortida turgan byetakror sub’yektni anglash (“psixologik” talqin). V.Diltyey o’zining “hayot falsafasi”da G.ga bilish nazariyasining xususiy tomoni emas, balki gumanitar fanlar (“ruh haqidagi fanlar”)ning asosi sifatida qaradi. Zyero, unga ko’ra, tushunish hayot atalmish butunlikni adyekvat ifodalashning yagona vositasi bo’lib, u tufayli hayotni idrok etish mumkin bo’ladi. Diltyeyning ta’kidlashicha, har qanday individning ijod mahsuli hayotni ob’yektivlashtirishdan boshqa narsa emas; inson o’zga shaxsda ham o’zida tushuna olgan narsani tushunadi. SHu tariqa hayot (tarixiy-ruhoniy olam) idrok etuvchi (tushunayotgan shaxs)ga nisbatan izomorfdir, monanddir.

GIMN (yun. hymnos – madhiya) – 1) qadimgi yunon adabiyotida ilohlarni ulug’lash, maqtash uchun kuylangan qo’shiq. YUnonlar Apollonni madh etish uchun pyean, Dionis madhi uchun difiramb to’qib kuylashgan. Kyeyinchalik tarixiy voqyealar, qahramonlar madh etiluvchi tantanavor qo’shiqlar ham G. dyeb yuritilgan. G.ning ilk namunalari Misr, Myesopotamiya, Hindiston xalqlari adabiyotida uchraydi. G.ga xos xususiyatlar sifatida tantanavorlik, faxr-iftixor, ruhiy ko’tarinkilikning bo’rtib turishi, marosim va tantanalarda ko’pchilik tomonidan ijro etilishi kabilarni ko’rsatish mumkin; 2) mazmunan dasturiy xaraktyerdagi shye’r asosidagi tantanavor qo’shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, muassasa, davlat va sh.k.larning atributlaridan biri, madhiyasi. Mas., O’zbyekiston Ryespublikasi Davlat Madhiyasi, “Intyernasional”, “Jahon dyemokratik yoshlari fyedyerasiyasi gimni” va h.

GIPYeRBOLA (yun. hiperbole – o’ta kattalashtirish, bo’rttirish) – tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaning u yoki bu jihatini o’ta bo’rttirish, kattalashtirish asosiga qurilgan badiiy usul, stilistik figura; ko’proq xalq og’zaki ijodi, romantizm shye’riyati, satirik asarlarga xos (q. mubolag’a).

GONGORIZM – ispan shoiri L.dye Gongora-i-Argotye (1561 – 1627) nomi bilan bog’liq holda ispan va portugal tillaridagi adabiyotlarda yuzaga kyelgan barokko doirasidagi oqim (q. barokko).

GOTIK ROMAN – XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida Yevropa va Amyerika adabiyotlarida ommalashgan tyematik jihatdan farqlanuvchi roman turi. G.r.lar g’ayrioddiy, dahshat va sirlarga to’liq voqyealarni qalamga olishi bilan xaraktyerlanadi. Mutaxassislar G.r. ma’rifatchilik romanlariga xos rasionalizmning ziddi o’laroq maydonga chiqqani, badiiy adabiyot taraqqiyotida romantizmoldi hodisasi sifatida voqye bo’lgani hamda Yevropa va Amyerika adabiyotlarida romantizmning qaror topishiga syezilarli ta’sir qilganini

ta’kidlaydilar. G.r.ning asoschilari va yirik namoyandalari sifatida ingliz adiblari X.Uolpol, A.Radklif, M.Lyuis, fransuz adibi J.Kazotlar e’tirof etiladi.

GRADASIYA (lot. gradatio – izchil kuchaymoq) – mazmunni izchil kuchaytirib borishga asoslangan stilistik figura. G.ning ikki xil ko’rinishi mavjud bo’lib, birinchisi nutqiy birliklarni ma’nosiga ko’ra byelgi-xususiyat (holat, harakat va b.)ni kuchaytirish (klimaks), ikkinchisi esa susaytirish (antiklimaks) tartibida kyetma-kyet kyeltirish orqali voqye bo’ladi. Mas., Iqbol Mirzo shye’ridan olingan quyidagi parchada ma’noning kuchaytirilgan takrori kuzatiladi:

Syevgilim,
dilsizlar dillarimizni,
toshbo’ron qilsalar,
vayron qilsalar,
tikonlar qoplasa yo’llarimizni...

Bunda ma’no “toshbo’ron – vayrona – tikonzor” tarzida kuchaytiriladi: toshbo’ron vayronalikka olib kyeladi, tikanzorga aylanish esa vayronalikning yuqori darajasi. Bu o’rinda G. lirik qahramon kyechinmalari dinamikasini ifodalaydi, tuyg’uni kuchaytirib, kyechinmani chuqurlashtirib boradi. Aksincha, E.SHukur quyidagi shye’rda xuddi shu samaraga byelgi-xususiyatni susaytirib boruvchi nutqiy birliklarni takrorlash orqali erishadi:

Jahonga sig’masak, uyga sig’masak,
Qayoqqa kyetarmiz, ey dil, qayoqqa?
Na-da gul bo’loldik, na o’t, na kyesak
Qayoqqa kyetarmiz, ey dil, qayoqqa?

GRAFOMANIYA (yun. grapho – yozmoq, mania – kasallik, dard) – iqtidori bo’lmagan holda yozishga ruju qo’ymoq. G. yozuvchilikni jo’n tushunish, unga shuhrat va boylikka erishishning oson yo’llaridan biri dyeb qarash, o’zining ijodiy imkoniyatlarini ryeal baholay olmaslik oqibatida yuzaga kyeladi. Kitob nashr etish imkoniyatlari kyengaygan hozirgi kun sharoitida G. kyeng tarqalgan hodisaga aylandi. G. ma’lum darajada kasallik sanalishi (“maniya” psixik kasallikka nisbatan ishlatiladi) mumkin, chunki unga yo’liqqan kishi o’z bitiklarini tanqidiy baholashdan ojiz bo’lib qoladi, o’zgalar fikrini qabul qilmaydi, o’zini tan olinmagan daho dyeb biladi, har qanday yo’l bilan asar yozish va chop ettirishga intiladi.

GROTYeSK (ital. grotta – yer ostidagi uy) – badiiy adabiyot va san’atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag’aga asoslangan bir turi, uslub, badiiy usul. G.da ryeallik va xayolot, go’zallik va xunuklik, fojyeaviylik va komiklik kabi bir-biriga zid jihatlar g’alati, ajabtovur bir tarzda birikib kyetadi. Badiiy shartlilikning boshqa turlaridan farqli ravishda, G. hamisha namoyishkorona oshkoraligi bilan ajralib turadi. G. asosida yaratilgan badiiy voqyelik nyechog’li g’ayritabiiy, mantiqsiz, ajabtovur bo’lmasin, uning mantiqiy asoslanishi talab qilinmaydi, zyero, unda ryeal voqyelik emas, ijodkor tasavvuridagi voqyelik aks etadi. G. tyerminining paydo bo’lish tarixi ham qiziq: shogirdlari bilan Rimdagi qazishmalarda ishtirok etgan mashhur rassom Rafael yer osti binolarida turfa byezaklar, odamlar, jonivoru o’simliklarning g’ayritabiiy suratlari solingan topilmalarga duch kyeladi. SHu topilmalardagi o’ziga xos tasvir uslubi kyeyinchalik G. tyerminiga asos bo’ldi. G. obrazlilikning juda ko’hna turi, arxaik davrlardagi turli g’ayritabiiy maxluqlar (sfinkslar, kyentavrlar, ximyeralar va b.) tasviri uning ilk namunalaridir. Biroq qadim ajdodlar uchun G. badiiy shartlilik (usul, uslub yoki obrazlilik turi) bo’lmagan, ular bu narsalarni haqiqatda mavjud dyeb bilishgan. Ko’proq mifologiya ta’sirida G.dan antik ijodkorlar asarlaridayoq badiiy usul sifatida foydalanila boshlangan, biroq uning adabiyot va san’at arsyenalidagi muhim vositalardan biriga aylanishi o’rta asrlarga kyelib amalga oshdi. Endi G. ryealistik unsurlar bilan uyg’unlashib, voqyelikni idrok qilish, unga munosabatni ifodalashning byeqiyos vositasiga aylandi. Uyg’onish davriga kyelib karnaval madaniyatiga xos G. adabiyotda ham o’z aksini topdi, xuddi karnavaldagi kabi G. kulgisi bir paytning o’zida ham inkor, ham tasdiqdir. Xuddi shu jihatlari bilan F.Rablyening “Gargantyua va Pantagryuel” asari “grotyesk ryealizmi”ning mumtoz namunasi bo’lib qoldi. G. imkoniyatlaridan J.Svift, V.Gyugo, Gofman, N.V.Gogol, Saltikov-SHchyedrin, M.Bulgakov, F.Kafka singari yirik so’z san’atkorlari unumli foydalanganlar. O’zbyek adabiyotidagi G.ning yaxshi namunalarini O.Muxtor (“Ming bir qiyofa”), X.Do’stmuhammad (“Bozor”) asarlarida ko’rish mumkin.

DADAIZM (fr. dada – yog'ochdan ishlangan o'yinchoq ot, ko'chma ma'noda bolalarga xos byetartib nutq) – Birinchi jahon urushi davri Yevropa adabiyoti va san'atidagi avangardistik oqim; Birinchi jahon urushida qatnashayotgan yurtlardan byetaraf SHvyeysariyaga kyelib, muhojirlikda yashayotgan anarxistik kayfiyatdagi ijodiy ziyolilar muhitida shakllangan, Syurixda chop etilgan "Kabarye Voltyer" (1916 – 1917) jurnali tyevaragida uyushgan. D. mohiyat e'tibori bilan urushga, jahon urushini kyeltirib chiqargan muhitga qarshi isyon edi. Ularning isyoni mavjud tartibotlarni inkor qilish, ularni ma'nisiz (absurd) dyeb hisoblashda, anarxizmni bunday sharoitda eng maqbul mavqye dyeb bilishda namoyon bo'ladi. SHulardan kyelib chiqib, D.ning san'at va adabiyotdagi isyonkorlik mavqyei byelgilangan: ular badiiy ijodda irrasionalizm tarafdori bo'lganlar, adabiy-badiiy an'analarga nisbatan nigilistik antiestyetizm mavqyeini egallaganlar. Ularning ijod amaliyotidagi isyoni adabiyotda so'z va tovushlarni ma'nosiz biriktirish, tasviriy san'atda narsalarni o'zaro mazmuniy-mantiqiy aloqasiz, tasodifiy tarzda jamlab tasvirlash kabilarda namoyon bo'ladi. D. vakillari adabiyot va san'atning ijtimoiy funksiyalarini inkor qilganlar, chinakam san'at ijtimoiylikdan xoli bo'ladi, dyeb hisoblaganlar. Adabiy-badiiy oqim sifatida D. uzoq yashamadi: o'tgan asrning 20-yillari boshidayoq barham topdi, uning qatorida bo'lgan ijodkorlarning bir qismi syurryealistlar, boshqa bir qismi esa ekspryessionistlar safini to'ldirdilar.

DYeVON (ar. ??? – yozish, ro'yxatga olish, to'plam) – SHarq mumtoz adabiyotidagi shye'riy to'plamlarning asosiy turi. D.ga shoirlarning o'zlari yoki boshqa shaxslar (kotiblar, shogirdlar, muxlislar va sh.k.) tomonidan tartib byerilgan. SHarq adabiyotda D. tartib byerish an'anasi shakllangan bo'lib, bu an'anaga qat'iy amal qilingan. D.ga kiritilgan shye'rlar, bir tomondan, janriga ko'ra, ikkinchi tomondan esa alifbo (bu talab asosan g'azallarni joylashtirishga qo'yiladi) tartibiga ko'ra joylashtiriladi. D.lar, asosan, g'azal janri bilan, ba'zan esa qasida bilan boshlanadi. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti tarkibiga kiruvchi "G'aroyib us-sig'ar" D.iga g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, masnaviy, qit'a, ruboiy tarzida tartib byerilgan bo'lsa, "Badoyye' ul-vasat" D.i g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji'band, qasida, qit'a, chiston, tuyuq tarzida tartiblangan. Ko'rinib turganidyek, shye'riy majmuaning D. sanalishi uchun uning tarkibiga mumtoz lirikaga xos barcha janrlardagi shye'rlarning kirishi shart emas, adabiyotimizda faqat g'azallardan tartiblangan D.lar ham mavjud (Navoiy. "Navodir un-nihoya"; Atoyi D.i.). G'azallar D.dan qofiyalanuvchi misralarining qaysi harf bilan tugayotganiga qarab o'rin egallaydi.

DYeKADYeNTLIK (lot. decadentia – tanazzul, tushkunlik) – XIX asr oxiri – XX asr boshlari Yevropa xalqlari badiiy va ijtimoiy tafakkurida kuzatilgan tushkunlik (tanazzul) holatlarini umumlashtirib ifodalovchi tyermin. YA'ni D. alohida bir adabiy yo'nalish yoki oqimga xos bo'lmay, umuman, shu davrda ijod qilgan san'atkorlarga, hatto, ulkan iqtidor egasi bo'lgan ayrim ryealistlarga ham u yoki bu darajada xos bo'lgan kayfiyat, ruhni anglatadi. D. kayfiyati ertangi kunga, insoniyat kyelajagiga umidsiz qarash, inson aql-zakovati, kuch-qudrati, uning oliy xilqat sifatidagi mavjudligiga ishonchsizlik, mavjud voqyelikni qabul qila olmaslik kabilarda namoyon bo'ladi. Mazkur kayfiyatning kyeng tarqalishi uning ob'yektiv tarzda, jamiyat hayotining barcha jabhalarida kuzatilgan inqiroz natijasi o'laroq yuzaga kyelganidan dalolat byeradi. D. kayfiyati ilk bor fransuz simvolistlari (P.Vyerlyen, A.Ryembo, S.Mallarmye) ijodida, kyeyinroq rus simvolistlari (D.Myeryejkovskiy, Z.Gippius, F.Sologub) faoliyatida, shuningdyek, XX asr boshida ommalashgan nyeonaturalistik proza (L.Andryeyev, M.Arsibashyev)da kyeng kuzatiladi. Dunyoqarash bilan uzviy bog'liqligi va byevosita ijodkorning voqyelikka munosabati natijasi o'laroq yuzaga kyelishi e'tiborga olinsa, D. kayfiyatining kyeyingi davr modyernistik adabiyot vakillari ijodida tyez-tyez ko'rinish byerib turishi ham tabiiy va qonuniy ekani anglashiladi. SHu bilan birga, modomiki, ijodkor dunyo bilan faol munosabatda yashar ekan, hayoti va faoliyatining muayyan bosqichida uning ongiyu qalbida shunday kayfiyat ustuvorlik qilib qolishi mumkinligini ham inkor qilib bo'lmaydi.

DYeTAL (fr. detail – tafsilot, mayda-chuyda) – badiiy dyetal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Avvalo, D. badiiy voqyelikni yaratish vositasi – ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkryetlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi. Boshqacha aytsak, D. asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha pryedmyetlilikni ko'zda tutadi), dyetallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy D. ortida ma'lum bir ryealiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portryet chizgilari va sh.k. SHuningdyek, pyersonajning imo-ishoralari

(jyest), tana holati (poza), xatti-harakati, gap-so'zlari ham D. sanaladi, ular bari birlikda konkryet inson obrazini gavdalantiradi. YA'ni badiiy D., avvalo, badiiy voqyelikni to'laqonli va konkryet his etiladigan darajada jonli tasvirlashga xizmat qiladi.

DYeTYeKTIV ADABIYOT (ingl. detective – izquvar) – sarguzasht adabiyotining bir tarmog'i, syujyeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog'liq voqyelar yotuvchi asarlarning umumiy nomi. D.a. turli janrlarga mansub asarlarni – hikoya, qissa, romanlarni o'z ichiga oladiki, bu uning tyematik jihatdan ajratilishini ko'rsatadi. SHu bois ham adabiyotshunoslikka oid ayrim ishlarda, muomala amaliyotida mavzu jihatidan D.a. ga yaqin bo'lgan harbiy razvyedka, turli maxfiy xizmatlar faoliyati haqidagi, shuningdyek, boshqa ko'plab o'tkir syujyetli, lyekin byevosita jinoyat qidiruv bilan bog'liq bo'lmagan asarlar ham D.a.ga mansub sanaladi.

DILOGIYA (yun. di – qo'shma so'zlarda "ikki", logos – so'z, hikoya, rivoyat) – kompozision jihatdan nisbiy mustaqillikka ega ikki asardan tashkil topgan asar. D. tarkibidagi ikki asarni ijodiy niyatning yaxlitligi, bir-birini davom ettiruvchi umumiy syujyet chiziqlari, umumiy pyersonajlarga egalik bir butunga aylantiradi. SHuning uchun ham, mas., CHo'lponning "Kyecha va kunduz" romani D. sifatida ryejalashtirilgan bo'lib, muallif ijodiy niyati D. butunligida amalga oshishi lozim edi. D.ning "Kunduz" nomli ikkinchi qismi yo'qolgani sababli, uning birinchi qismi – "Kyecha" tugallanmagan asar, dyegan taassurot qoldiradi. YOzuvchi M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha" romanini D.ga misol sifatida ko'rsatish mumkin.

DOSTON – 1) turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi epik janr. Xalq og'zaki ijodidagi D.lar voqyeaband syujyet asosiga qurilgan yirik hajmli asarlar bo'lib, ular baxshi (oqin, jirov, manaschi)lar tomonidan musiqa (do'mbira, qo'biz va b.) jo'rligida ijro qilingan, og'izdan-og'izga o'tib bizgacha yetib kyelgan. Bu jarayonda har bir ijrochi o'zidan nimadir qo'shgan, nimanidir tushirib qoldirgan va shu tariqa D.lar sayqallanib borgan. Xalq ijodidagi D.ning matniy qurilishi ijroga mos – unda nasriy va shye'riy parchalar almashinib turadi: rivoya asosan nasrda amalga oshirilsa, qahramonlar orasidagi eng muhim dialoglar, ularning ruhiy holatlari, ta'rifu tavsiflar, ijrochi munosabati va sh.k. ko'proq shye'riy yo'lda byeriladi; 2) mumtoz adabiyotimizdagi yirik hajmli, odatda, masnaviy shaklida va aruzning ma'lum bir vaznida yoziluvchi shye'riy asar. Mumtoz adabiyotimizdagi D.larning aksariyatini yaxlit voqyea asosidagi syujyetga qurilgan (mas., "Farhod va SHirin", "Layli va Majnun") epik asarlar tashkil qiladi. SHu bilan birga, syujyeti izchil va yaxlit bo'lmagan (mas., "Hayrat ul-abror") yoki umuman voqyeaband syujyetsiz (mas., "Hibat ul-haqoyiq") D.lar ham mavjudki, ular turli ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-ta'limiy masalalardan bahs yurituvchi liro-epik xaraktyerdagi falsafiy-ta'limiy yoki didaktik asarlardir; 3) zamonaviy adabiyotda kyeng tarqalgan yirik hajmli shye'riy asar, unga sinonim tarzida poema atamasi ham qo'llanadi. Hozirgi adabiyotda D.lar bitta umumiy nom bilan atalsa-da, janr xususiyatlariga ko'ra ular turlichadir.

JARGON (fr. jargon – byegona, tushunarsiz til) – muayyan ijtimoiy qatlam, kichik guruhga xos "shyeva", umumxalq tilidan farqlanib, asosan, shu "shyeva" vakillariga tushunarli bo'lgan unsurlardan tarkib topadi. J., asosan, lyeksik va frazyeologik birliklar hisobiga yuzaga kyeladi, shuning uchun ham u tilning lyeksik va frazyeologik sathlarida voqye bo'luvchi hodisa sifatida ta'riflanadi. Biroq amalda J. , ko'pincha, bu ikki sath chyegarasidan chiqadi, ya'ni butun boshli gap ham J. sanalishi mumkin. SHuning uchun ham tyerminning kyengroq – "shyeva" sifatida tushunilishi to'g'riroq bo'ladi. J. badiiy asarda pyersonajlar nutqini individuallashtirish, muhit koloritini byerish maqsadida, asosan, pyersonajlar nutqida qo'llanadi.

JIM QOLISH – stilistik figuralardan biri, shye'riy misralarda ifodalanayotgan fikr ifodasini atayin tugatmay qoldirish. J.q.da fikr oxirigacha ifodalanmasa-da, uning aniq anglashilib turishi shart, buning uchun esa avvalgi misralarda puxta zamin hozirlanishi lozim. Mas.:

Myen syendan kyetmoq istayman
YOmg'irdyek emas, –
YOmg'ir yana qaytib kyeladi.
Myen syendan kyetmoq istayman
SHamoldyek emas, –
SHamol yana qaytib yeladi.
Myen syendan kyetmoq istayman
Muhabbat kabi... (X.Davron)

SHye’rning dastlabki ikki satri uchinchi misra bilan, kyeyingi ikki satri oltinchi misra bilan izohlansa, so’nggi ikki satrda shoir bu yo’ldan bormaydi – jim qoladi, izohni shye’rxonning o’zi o’zicha shakllantirishi zarur bo’ladi. Bunga matnda yetarli asos bor: shye’rning birinchi va ikkinchi uch misrali bandlari sintaktik (strofik) parallyelizm usulida qurilgan bo’lib, uchinchi misralar dastlabki ikki misrani izohlaydi, ya’ni “nyega yomg’irdyek emas? – chunki u qaytib kyeladi”, “nyega shamoldyek emas? – chunki u qaytib kyeladi”. So’nggi misradagi “kabi” bilan avvalgi misralardagi “emas”ning zidligi oxirigacha ifodalanmagan fikrni “muhabbat kabi – chunki u qaytib kyelmaydi” tarzida tushunishga asos bo’ladi.

JOMI’ UL-HURUF (ar. ?????? ???? – harflarni jamlovchi, o’z ichiga qamrab oluvchi) – mumtoz adabiyotdagi shye’riy san’at, alifbodagi barcha harflarni takrorsiz qo’llagan holda bayt aytish. YA’ni J.h. asosida yozilgan baytda alifbodagi barcha harflar ishtirok etishi va ularning hyech biri ikkinchi o’rinda takrorlanmasligi talab etiladi. O’z-o’zidan ayonki, mazkur talabni uddalash g’oyat mushkul. Bir tomondan, yuzaga kyeltirish imkonining juda ham chyeklangani, ikkinchi tomondan, ko’proq shaklbozlikka moyil bo’lganidan shye’riyatda u qadar ommalashmagan.

ZULQAVOFI’ (ar. ????????? – uch va undan ortiq qofiyali) – qofiya bilan bog’liq shye’r san’atlaridan biri, bayt tarkibida uch yoki undan ortiq qofiyadosh so’zlar juftligini kyeltirish. Z. ritmni ayricha ta’kidlash orqali baytga o’ziga xos musiqiylik, xushohanglik baxsh etadi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga yaxshi misol:

Har qissada shukr sol tilimga,
Har g’ussada sabr byer ilimga.

Mazkur baytda “tilimga – ilimga” juftligi asosiy qofiya bo’lsa, “shukr – sabr” va “qissa – g’ussa” juftliklari ham o’zaro qofiyalanib kyelmoqda. Z.ni tarsye’dan farqlash kyerak (q. tarsye’). YA’ni tarsye’da misralardagi barcha so’zlar o’zaro qofiyadosh bo’ladi, Z.da esa kyeltirilgan baytdagi kabi (sol – byer) bir yoki bir nyecha qofiyadosh bo’lmagan juftliklar qolishi mumkin.

ZULQOFIYATAYN (ar. ??????????? – ikki qofiyali) – qofiya bilan bog’liq shye’r san’atlaridan biri, bayt tarkibida asosiy qofiyadan tashqari yana bitta qofiyadosh so’zlar juftligini kyeltirish, ya’ni Z. baytda qofiyadosh so’zlar juftligi ikkita bo’lishini taqozo qiladi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga misol bo’ladi:

Lola qadahini toshqa urdung,
Jola guharini boshqa urdung.

IDYeAL, estyetik idyeal (yun. idea so’zidan fr. ideal – tasavvur, tushuncha) – estyetika, jumladan, adabiyotshunoslikning muhim ilmiy katyegoriyalaridan biri, go’zallik, estyetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkryet-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami. Jamiyatda yashayotgan har bir inson ongida mukammal jamiyat, mukammal ijtimoiy munosabatlar, mukammal inson haqidagi tasavvurlar mavjud bo’lib, bularning bari I.ni tashkil qiladi va uning voqyelikka munosabatini byelgilaydi. Umuman olganda, estyetik I. ham shuning bir qirrasi, konkryet-timsoliy shaklda voqye bo’luvchi go’zallik tasavvuridir. Haqiqatda I.ning qirralari butunning qismi bo’lib, ularni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. SHuning uchun ham mutaxassislar I.ning syerqirraligini, uning mohiyati: ong sohasida – haqiqat, axloq sohasida – ezgulik, estyetika sohasida – go’zallikdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar. Albatta, bu qirralarning har biri o’zining muayyan mye’yorlariga ega bo’lib, ular davr o’tishi bilan o’zgarib, konkryetlashib boradi. Mas., tasavvuf adabiyotining I.iga ko’ra, haqiqat – Haq, Alloh; ezgulik – Haqning buyurganini qilish va u qaytarganni qilmaslik; go’zallik – shu ikkisiga muvofiqlikda, nimaiki bularga muvofiq emas, u go’zallikdan ayro tushadi. Insonning ijtimoiylashuvi bilan bog’liq holda I. ham hayotga yaqinlashadi, u ijtimoiy-siyosiy mundarija kasb etadi. Mas., jadid adabiyotining I.ga ko’ra, haqiqat – millat taraqqiysi (erkin va adolatli jamiyat, ma’rifat, munosib milliy turmush, milliy ozodlik va b.); ezgulik – millat taraqqiysiga xizmat qiluvchi amal; go’zallik – shu ikkisiga muvofiqlik. Davr bilan bog’liq o’zgargani holda, I.ni zamonga butkul bog’lab qo’yish xato bo’lur edi. Nyegaki, I. ijtimoiy xaraktyerga ega, u juda qadim zamonlardan shakllanib, to’lishib, konkryetlashib kyeladi va, ayni chog’da, u mohiyatan hamisha kyelajakda bo’lib, bu hol uni vaqt hukmidan xoli etadi. Xuddi shu narsa san’at asarining boqiyligini ta’minlovchi asosiy omildir, chunki san’at olam va odamni I. asosida aks ettiradi, I. asosida baholaydi. YA’ni ijod onlaridagi san’atkor I. olamida yashaydi, voqyelikni uning nuri bilan yoritadi. Zyero, faqat shundagina ijodkor shaxs tom ma’nodagi ma’naviy-ruhiy butunlikka ega bo’ladi. Ma’naviy-ruhiy butunlik esa shaxs intilgan

I.ning mavjudligi va uning hayotiy prinsiplari o'sha I.dan kyelib chiqishi dyemakdir. SHunga ko'ra, butunlik muayyan xususiyatlarni o'zida jam etgan insonning turg'un holati emas, balki uzluksiz va adoqsiz bir jarayondir. Nyegaki, ryeallik bilan to'qnashuv har vaqt shaxsning ma'naviy-ruhiy butunligi – mohiyati va mavjudligi orasida ziddiyatlar kyeltirib chiqaravyeradi. Mana shu ziddiyatlarni I.dan ruh olgan holda bartaraf etish orqali mavjudligini mohiyatiga muvofiqlashtirib borish, shu asno qadam-baqadam I.ga yaqinlashib, yangi-yangi ma'nolarni kashf etish va ularni o'z hayotiga, jamiyat hayotiga tatbiq etib borish – ijodning bosh shartidir. Bu jihatdan tom ma'nodagi ijodkor HAQ yo'liga kirgan so'fiyga monand: so'fiy HAQqa yaqinlashgani sari mavjudlikning mohiyatini tyeranroq idrok qilganidyek, ijodkor I.ga yaqinlashgani sari hayotning, insonning mohiyatini tyeranroq ilg'aydi. So'fiylik yo'lining ibtidosi ham, intihosi ham HAQ bo'lganidyek, ijodkor faoliyatining motivi (sabab) ham, maqsadi (natija) ham I.dir.

IDILLIYA (yun. eidyllion – kichik manzara, uncha katta bo'lmagan asar) – shakliy tuzilishga ko'ra turlicha, mazmun xususiyatlariga ko'ra tasniflanuvchi poetik janr. I. dastlab qadimgi YUnonistonda cho'pon qo'shig'i sifatida yuzaga kyelgan. Antik yunon shoiri Fyeokritning aksar asarlari I. dyeb atalgan. SHaklan turlicha bo'lgan Fyeokrit I.lari mazmun jihatidan umumiylikka ega: ularni insonning kundalik hayoti, intim tuyg'ulari, tabiatga qiziqish birlashtirib turadi, shoir e'tibori ko'proq kishilarning g'am-tashvishdan xoli, osoyishta hayotiga qaratiladi. I.da tabiatdagi uyg'unlik va go'zallik mutlaqlashtiriladi, ularga daxlsiz va o'zgarmas hodisalar sifatida qaraladi. I. janr sifatida, ayniqsa, XVII – XVIII asrlarda Yevropa, XVIII asr o'rtalarida esa rus shye'riyatida kyeng ommalashdi va rivojlandiki, bu ko'p jihatdan syentimyentalistlarning "tabiiy inson" g'oyasi bilan bog'liqdir. Ko'chma ma'noda I. tinchlik holati, ichki va tashqi uyg'unlik, osoyishtalik va xotirjamlikni ifodalaydi.

IDILLIYAVIYLIK (ruschadan kalka "idillichyeskoye") – badiiylik modusi. I. modus sifatida elyegiya, dramatizm bilan birgalikda qahramonlik, satira va tragizmdan farqlanadigan guruhni tashkil etadi. YA'ni I.da dunyo mutlaq tartibot sifatida emas, balki shaxs byevosita munosabatda bo'ladigan borliq (ya'ni konkryet inson harakatlanayotgan muhit) sifatida idrok etiladi. Idilliyaviy "myen" o'zini tashqi olam bilan birlikda his qilishi nuqtai nazaridan qahramonlikka (q.) yaqin, biroq undan farqli ravishda, I.da kishilik jamiyati, mamlakat taqdiri bilan bog'liq muammo qo'yilmaydi. Idilliyaviy "myen" o'zi byevosita munosabatda bo'layotgan muhit qadriyatlarini so'zsiz qabul qiladi va o'zligini ularga og'ishmay amal qilish, muhit bilan birlashib, uyg'unlashib kyetish orqali namoyon etadi. Idilliyaviy qahramon butun olam tartiboti oldidagi emas, o'zgalar (va ular tashiyotgan an'ana, qadriyatlar) oldidagi mas'uliyat hissi bilan yashaydi (mas., T.Murod. "YUlduzlar mangu yonadi"). SHuning uchun idilliyaviy modus qahramoni, ko'pincha, maishiy turmush doirasidagina harakatlanadi. U o'zini borliqning ajralmas qismi sifatida idrok etadi, o'zini qurshagan muhit (tabiat, maishiy turmush) stixiyasiga byeriladi. Idilliyaviy modusga xos asosiy xronotop – ajdodlar bilan avlodlarni birlashtirib turuvchi "qadrdon uy", "qadrdon go'sha". Avlodlar o'rtasidagi vorisiylik, inson hayotining avlodlarda davom etishi – idilliyaviy qahramon mavjudligining asosi, uning uchun hayotning mazmun-mohiyati shunda. Ayni shunday qarash idilliyaviy qahramonga o'limning muqarrarligidan kyeluvchi iztirob va tushkunlikni yengishga kuch byeradi, I.ni elyegiyaviylikdan farqlaydi.

IJODIY NIYAT, muallif niyati – badiiy ijod jarayonidagi ilk bosqich. I.n. san'atkorning voqyelik bilan munosabati, voqyelikni O'ZICHA (o'zining estyetik idyeali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-ma'rifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tug'ma istye'dodi quvvati asosida) qabul qilishi va idrok etishi natijasi o'laroq yuzaga kyeladi. I.n.da yaratilajak asarning asosiy chizgilari, biroz xiraroq tarzda bo'lsa-da, ko'zga tashlanib turadi, boshqacha aytsak, I.n. asarning san'atkor ongidagi xomaki eskizidir. Badiiy ijod jarayonining o'ziga xosligi shundaki, san'atkor I.n.dayoq o'quvchiga muayyan ta'sir qilishni ko'zda tutadi, ya'ni maqsad ijroga ta'sir qiladi, niyat va ijro birlashadi. Zyero, san'atkorning estyetik idyeali bilan mavjud voqyelik orasidagi nomuvofiqlik badiiy ijodga undovchi motiv bo'lsa, idyealga yaqinlashish uning maqsadidir. Dyemak, I.n. bilan uning ijrosi, ijod motivi bilan maqsadining birligi badiiy ijod jarayonini yaxlit, butun hodisaga aylantiradi. SHunga ko'ra, ijod – I.n.ni amalga oshirish, san'atkorning o'y-fikrlari, bahosi, badiiy konsyepsiyasini badiiy obrazlar tizimi vositasida moddiylashtirish jarayoni dyemakdir. Albatta, I.n. turg'un tushuncha emas, ya'ni u ijod jarayonining boshida paydo bo'lganicha qolmaydi, aksincha, byevosita ijod jarayonida sayqallanib, konkryetlashib boradi, muayyan o'zgarishlarga uchraydi.

YAna bir tomoni, I.n. turli darajada amalga oshadi va bu tabiiy ham. CHunki I.n.ning qay darajada amalga oshishi qator omillar (muallifning ijodiy tajribasi, badiiy mahorati, konkryet davr sharoiti va sh.k.) bilan bog'liqdir.

IJROVIY LIRIKA (ruschadan kalka: "rolyevaya lirika") – lirikaning sub'yektiv shakllantirilishiga ko'ra farqlanuvchi ko'rinishlaridan biri, lirik kyechinma o'zga shaxs tilidan ifoda etiluvchi shye'r. YA'ni bunda shoir go'yo o'zga shaxsga evriladi, uning "roli"ni ijro qiladi, natijada I.l. qahramoni lirik kyechinmaning yagona sub'yekti bo'lib qoladi. I.l.ning ildizlari kurtak holida xalq og'zaki ijodida (mas., kyelin tilidan, yetim tilidan, ho'kiz tilidan), mumtoz shye'riyatimizda kuzatilsa-da, uning kyeng ommalashishi XX asrga to'g'ri kyeladi. Jumladan, CHo'lponning "Myen va boshqalar" shye'ri I.l.ning yangi o'zbyek shye'riyatidagi ilk va sara namunalaridan biri sifatida ko'rsatilishi mumkin. O'tgan asrning 20 – 30-yillarida kyeng tarqalgan "Qo'shchi qo'shig'i", "Kolxozchi qiz qo'shig'i", "Suvchi qo'shig'i" tarzida yaratilgan shye'rlarning aksariyati I.l.ga mansub etilishi mumkin. SHye'rning bu ko'rinishi 60-yillardan boshlab, ayniqsa, kyeng tarqaldi: "Hamza" (A.Oripov), "Abdulla Nabiyev" (E.Vohidov). 70 – 80-yillar shye'riyatida yanada faollashgan I.l.ning asosiy qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lib qoldi: mavjudlikning mangu muammolari, millat va yurt taqdiri masalalari, jamiyatning joriy holati ularning ko'zi bilan ko'rildi va baholandi. X.Davronning "To'marisning ko'zlari" shye'riy to'plami, U.Azimning "Tushlaringizga kiradigan ko'zlar" turkumi aksar shunday shye'rlardan tarkib topgan bo'lib, ular milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.

IZDIVOJ (ar. ?????? – juftlashmoq, uylanish) – mumtoz adabiyotdagi shye'riy san'atlardan biri, bayt misrasida ikki yoki undan ortiq so'zning yonma-yon yoki bir-biriga yaqin holda ohangdosh (o'zaro qofiyadosh) bo'lib kyelishi. Manbalarda I.ni tazmini muzdavaj dyeb ham ataydilar. Mas., Nodiraning:

Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj,
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj, –

baytida "zinhor" va "izhor" so'zlarining yonma-yon kyelib o'zaro ohangdosh bo'lishi I.ni yuzaga chiqarmoqda.

ILHOM (ar. ????? – yedirmoq, ruhlantirmoq) – san'atkor ruhiyatida yuzaga kyeluvchi ijodiy-ruhiy holat, ijodiy faoliyatning yuksak zavq bilan, ko'ngilli va yengil kyechishini ta'min etuvchi ko'tarinki ishchan kayfiyat. Ijodkor kishilarda kuzatiluvchi mazkur holat odamlarga qadimdayoq ma'lum bo'lganki, uni turlicha izohlashga harakat qilganlar. Jumladan, qadimgi yunonlar I. muzalar – ayol qiyofasidagi ilohiy mavjudotlar tomonidan byeriladi dyeb hisoblaganlar, SHarqda ham I.ni g'aybdan dyeyishga moyillik kuchli bo'lgan: hozirda ham tyez-tyez tilga olinadigan "ilhom parisi" qabilidagi gaplar shuning izlaridir. Albatta, I. onlarini, uning yuzaga kyelishini mantiqiy izchillikda tushuntirib byerish qiyin. Biroq shunisi aniqqi, I. ijodiy qobiliyatga ega shaxsning ijodiy-ruhiy faoliyatidagi muayyan bir bosqich bo'lib, ushbu onlarda bunga qadar pishib-yetilib kyelgan jarayon tyezlashadi; ijodkorning umumiy ruhiy quvvati ortadi: aqliy va hissiy mushohada tyezligi oshadi, xotira maksimal jonlanadi, narsa-hodisalar orasidagi assosiativ aloqalarni ilg'ay olish qobiliyati, nigoh o'tkirligi, ta'sirchanlik kuchayadi, ijodiy tasavvur ko'lami kyengayadi. Ayni shu damlarda ijodiy jarayon ko'ngilli, oson va mahsuldor kyechadi – asar go'yo "quyulib" kyeladi. Dyemak, I.ni g'aybdan kyelgan narsa sifatidagina emas, balki san'atkor ongiyu qalbida kyechgan ijodiy-ruhiy jarayonning eng yuksak nuqtasi, tug'ma imkoniyatlari o'ta kuchaygan, bir nuqtaga yig'ilgan holda estyetik ob'yektga yo'nalgan palla sifatida ham tushunish mumkin.

IMPRESSIONIZM (fr. impression – taassurot) – XIX asrning so'nggi choragida dastlab rangtasvir san'atida paydo bo'lib, kyeyinchalik boshqa san'atlarga ham syezilarli ta'sir o'tkazgan yo'nalish. Adabiyotga tatbiqan I. tyermini kyeng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Kyeng ma'noda I.ga turli ijodiy myetodlar doirasida kuzatilgan uslub hodisasi sifatida qaraladi. Jumladan, impryessionistik uslub ryealist san'atkorlar (Gi dye Mopassan, A.P.CHyexov, I.A.Bunin va b.)ijodida ham kuzatilib, ryealistik tasvir imkoniyatlarini kyengaytirishga xizmat qilgan. I. uslubi olamni yangicha ko'rishga intilish mahsulidir, uning dastlab rangtasvirda qaror topgani ham shundan. Bu uslubda tasvirlangan narsa ryeallikdagiga monand aniq va mukammal shakl kasb etmaydi: u go'yo shtrixlar bilan chiziladi va har bir shtrix o'zida o'sha narsadan olingan oniy taassurotni aks ettiradi. SHunga qaramay, bu shtrixlar butun tarkibida bir-biri bilan uzviy aloqador, taassurotlar birligi o'sha narsa haqidagi yaxlit tasavvurni byeravyeradi. SHunga o'xshash, so'z bilan amalga oshirilgan

impryessionistik tasvirda ham oniy taassurot qayd etiladi: go'yo voqyelikdagi narsa-hodisalar ma'lum maqsaddan kyelib chiqqan holda saylab emas, taassurotlar asosida tasodifiy tarzda tasvirdan joy oladi. Natijada ryealistik tasvirga xos muhim dyetallarni maqsadli tanlash ("sahnada miltiq bo'lsa, u otilishi kyerak") va shundan kyelib chiquvchi barcha dyetallarning bir-biriga bog'liqligi tamoyili buziladi, tasvirlangan narsa tasavvurda yaxlit shakli-shamoyili bilan jonlanmaydi. Lyekin dyetallarning assosiativ aloqalari butunlikni hosil qilavyeradi, chunki tasvir bitta sub'yekt nigohi orqali byerilgan, faqat bu nigoh olamni fotoapparat ob'yektivi kabi emas, chin ma'noda "qalbdan o'tkazib" ko'radi. Bu esa tasvirga syerjilolik, ko'pma'nolilik, emosional to'yintirilganlik baxsh etadi, uning estyetik ta'sir kuchini oshiradi. SHu jihatlari tufayli impryessionistik uslub xususiyatlari ryealizm, naturalizm, nyeoromantizm, simvolizm singari turli ijodiy tamoyillarga tayangan adabiy yo'nalish va oqimlarga mansub ijodkorlar e'tiborini tortdi, uslubining tarkibiy qismiga aylandi.

Mazkur xususiyatlarni mutlaqlashtirish, ularni uslub hodisasi emas, dunyoni yangicha ko'rish va idrok etish dyeb bilish oqibatida XX asr bo'sag'asiga kyelib I. alohida yo'nalish, ijodiy myetod sifatida shakllandi. Bu myetod inson ongining oniy holatlarida hosil bo'luvchi, faqat his etilishi mumkin bo'lgan tutqich byermas taassurotlarnigina haqiqiy dyeb bildi. SHunga ko'ra, u sirli ishoralarga asoslangan obrazlar yaratadi, ularning yordamida inson ongining chuqur puchmoqlariga nazar solmoqchi bo'ladi. Ayni shu jihatlari bilan u "ong oqimi" adabiyotiga asos yaratdi. Alohida adabiy yo'nalish (ijodiy myetod) sifatidagi I. XX asr o'rtalariga kyelib barham topdi.

IMPROVIZASIYA (lot. improvisus – kutilmagan, birdan) – badiiy ijodning alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda asar byevosita ijro jarayonida yaratiladi. I. ko'proq ijro bilan bog'liq san'at turlari (musiqa, raqs, tyeatr san'ati)da, shuningdyek, shye'riyatda kuzatiladi. I.ning ildizlari folklordan suv ichadi. Xalq baxshilari (aedlar, bardlar, qo'bizchilar, oqinlar, oshiqlar va b.) folklor namunalarini ijro qilish jarayonida I. yo'li bilan ularga yangiliklar qo'shib borishgan, shu yo'l bilan yangi asarlar yaratishgan. Jumladan, tyermalarni ijro qilish, aytishuvlarda I.ning roli va ulushi syezilarli bo'lgan. I. folklordan yozma adabiyotga, xususan, shye'riyatga ko'chgan. O'tmishda muntazam o'tkazib turilgan nafis majlislardagi shye'rxonlikning ijro bilan bog'liqligi bunga asos bo'lgan. SHye'riyatdagi I.ning o'ziga xosligi avvaldan muayyan mavzu byelgilab qo'yilishi, ya'ni ma'lum shart asosida voqye bo'lishidadir (q. badiha, ekspromt).

INVEKTIVA (lot. invehor – tashlanmoq, hujum qilmoq) – biron shaxs, ijtimoiy guruh yoki hodisani kyeskin tanqid qilish, fosh etish, qoralashga qaratilgan nutq. Janrlarni mazmun jihatidan tasniflagan holda ba'zan I.ni alohida lirik janr dyeb ko'rsatish hollari ham uchraydi. Biroq bu unchalik to'g'ri emas. CHunki I. turli adabiy shakllar, turli janrlarda namoyon bo'ladi. Mas., antik Rimdagi ayblov nutqlari (Sisyeron. "Filippikalar"), ayrim epigrammalar, pamflyetlar, xatlar I. namunasi sanalishi mumkin. XX asr o'zbyek shye'riyatida I. ruhida ko'plab shye'rlar yaratilgan. Jumladan, CHo'lponning "Ulug' Britaniyaning bu kungi hukumatiga", "Qo'zg'olish", G'afur G'ulomning "SHaraf qo'lyozmasi" kabi shye'rlari I.ga misol bo'la oladi.

INSSYeNIROVKA (lot. in – ga, scaena – sahna) – aslida sahnaga mo'ljallab yozilmagan asarlarni (ko'proq, epik asarlarni) sahnalashtirish uchun qayta ishlash. I. sahnalashtirilishi mo'ljallangan asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini (asosiy mazmuni, syujyeti, uslubi va sh.k) qayta yaratishni taqozo etadi. Bu esa, originalga nyechog'li bog'langan bo'lmasin, I. qiluvchidan ma'lum darajadagi ijodiylikni ham talab etishi shubhasiz, chunki asarni sahnaga moslashtirish undan nimanidir olish, nimalarnidir qo'shishni taqozo etadi. YA'ni I. qilingan asar originalning asosiy mazmuni, muhim syujyet chiziqlarini saqlasa ham, unga tyeng bo'lmaydi, mohiyatan u tamom boshqa asardir. Xuddi shu hol ko'plab ijodkorlar, talabchan o'quvchilarning I.ga nisbatan salbiy munosabatini kyeltirib chiqaradi. Radio va tyelyevidyeniyening rivojlanishi bilan bog'liq holda I.ning radioinssyenirovka, tyelyeinssyenirovka kabi ko'rinishlari paydo bo'ldi.

INTERMYeDIYA (lot. intermedius – o'rtada joylashgan, ichidagi) – 1) o'rta asrlar tyeatrlarida o'ynalayotgan asosiy spyektaklning parda oralaridagi tanaffus payti ijro etilgan maishiy mavzudagi kichik hajviy sahna ko'rinishi; 2) estrada san'ati va tyelyevidyeniyening rivojlanishi bilan bog'liq holda faollashgan komik xaraktyerdagi kichik dramaturgik janr, ba'zan miniatyura nomi bilan ham yuritiladi. O'zbyek adabiyotida S.Ahmad, Alp Jamol kabi ijodkorlarning "Tyelyevizion miniatyuralar tyeatri" uchun yozilgan I.lari xalqimiz orasida shuhrat topgan. SHuningdyek, hozirgi vaqtda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarda (ko'riklar, quvnoqlar va zukkolar bahsi va h.) ijro

etilayotgan maishiy mavzulardagi sahna ko'rinishlarini ham I. sanash mumkin. Ushbu sahna ko'rinishlarini havaskorlarning (ko'pincha, kollyektiv tarzda) o'zlari yozishi e'tiborga olinsa, ularni zamonaviy folklor namunasi dyeyish mumkin.

INTERPRETASIYA (lot. interpretation – tushuntirmoq) – talqin; adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsyepsiyasini anglash, tushunish. Kyeng ma'noda I. o'zga tomonidan aytilgan gap, yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini bir butun sifatida tushunish va tushuntirib byerish ma'nosini bildiradi. Badiiy I. turli ko'rinishlarda, jumladan, badiiy mazmunni, ya'ni asardagi "obrazlar tili"ni mantiqiy tushunchalar tiliga (tanqid, adabiyotshunoslik), lirik-publisistik (essyechilik) yoki boshqa bir "badiiy til" tizimiga (rassomlik, kino, tyeatr va b.) o'girish orqali amalga oshadi. I. adabiyotshunos faoliyatida yetakchi o'rin tutadigan birlamchi amal, chunki adabiy asar haqida fikr bildirish va baholash uchun, avvalo, uni bir butun sifatida tushunish talab qilinadi. SHuning uchun ham I. badiiy tahlil jarayonida har vaqt hozir bo'lgan muhim va byelgilovchi amal hisoblanadi (q. badiiy tahlil).

INTERTEKSTUALLIK (lot. inter – aro, textum – to'qima, mato, matn) – fanga fransuz filologi YU.Kristyeva kiritgan tyermin. Unga ko'ra, har qanday matn avval mavjud bo'lgan matnlarni transformasiya qilgan holda o'ziga singdirgan sitatalar majmuidir. Mutaxassislar I. konsyepsiyasi rus olimi M.Baxtin qarashlarini rivojlantirish, boshqacha aytganda, qayta idrok etish asosida vujudga kyelganini ta'kidlaydilar. M.Baxtin adabiyotning mavjudlik qonuniyatlari haqida to'xtalib, har qanday asar o'zida ijodkor voqyeligini aks ettirgani holda, o'zidan avvalgi va o'ziga zamondosh adabiyot bilan muntazam dialogik aloqada bo'ladi, ya'ni adabiyotning mavjudligi intyersub'yektiv xaraktyerga ega dyeb biladi. M.Baxtin ta'limotining formal tomoniga urg'u byergan YU.Kristyeva esa dialogni matnlar doirasi bilan chyeklab, intyersub'yektivlik o'rniga intyertyekstuallikni oldingi planga chiqaradi. I. tushunchasi strukturalizm va poststrukturalizm yo'nalishidagi adabiyotshunoslikda juda tyez ommalashdi. Jumladan, fransuz adabiyotshunosi R.Bart ham I.ni qo'llab quvvatlaydi, har qanday matn "qo'shtirnoqsiz sitata" dyeb biladi. YA'ni unga ko'ra, har qanday matn mohiyatan intyertyekst bo'lib, unda avvalgi va joriy madaniyatga oid matnlar u yoki bu darajada tanib olish mumkin bo'lgan alfozda mavjuddir. Albatta, adabiy asar o'zidan oldingi va joriy zamondosh adabiyot bilan dialogik aloqada ekan, unda boshqa matnlarning izlari syezilishi (q. ryeminissyensiya) tabiiy. Biroq postrukturalistlar bu holni mutlaqlashtiradilar, uni badiiy asar tabiatini byelgilovchi qonuniyat maqomiga ko'taradilar. Avvalo, ular matnni g'oyat kyeng tushunishadi: adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson – bularning bari matn, bari matn tarzida o'qilishi va uqilishi mumkin. SHundan kyelib chiqib, insoniyat madaniyati to'laligicha bitta intyertyekst sifatida tushunildiki, u yangi yaratilayotgan har qanday matnga asos (podtyekst) bo'lib xizmat qiladi. Dyemak, yangi yaratilayotgan matn sub'yekti madaniyatning ulkan intyertyekstini tashkil qilayotgan sanoqsiz matnlarga singib kyetadi, yo'qoladi. SHu tariqa matn muallifi intyertyekstual o'yin proyeksiya qilinadigan bo'shliq dyeb tushuniladi, matnga esa individning maqsadli faoliyati emas, ongsiz tarzda amalga oshuvchi "intyertyekstual o'yin" mahsuli sifatida qaraladi. Bu esa badiiy ijodda individuallikni inkor etib, tabiiy ravishda, "sub'yekt o'limi" (Fuko), "avtor o'limi" (R.Bart) konsyepsiyalariga bog'lanadi.

INTIM LIRIKA (lot. Intimus so'zidan fr. intime – ichki, o'ta shaxsiy) – lirikaning tyematik jihatdan tasniflash asosida ajratiluvchi bir turi, lirik qahramonning ishqiy kyechinmalari tasvirlangan lirik asarlar. Muhabbat qadimdanoq shye'riyatning diqqat markazida turgan va hanuz intyensiv ishlanib kyelayotgan "mangu mavzu"laridan biri sanaladi. Ijtimoiy-siyosiy lirika har jihatdan rag'batlantirilgan sho'ro davrida I.l.ga myensimasdan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lmagan hodisa sifatida past nazar bilan qaralgan. Holbuki, ijtimoiy hodisa bo'lmish insonning qalbi muhabbat tufayli tozaradi, muhabbat uni ma'nan yuksaltiradi: muhabbat ko'targan yuksaklikdan turib toza qalb bilan boqqanda, olamning go'zalligi ham, hikmatlari ham yaqqol ko'rinadi; yorga muhabbat bilangina limmo-lim to'lgandyek ko'ringan qalb olamni to'lasicha qamrashga qodir. SHu bois jahon adabiyoti I.l.ning go'zal va byetakror namunalarini byera olganki, ular insoniyatning byebaho ma'naviy mulkiga aylangan. Jumladan, Hofiz va Navoiy, Pyetrarka va SHyekspir, Pushkin va A.Blok, CHo'lpon va Mirtyemir kabi ko'plab shoirlar yaratgan I.l. namunalari hanuz syevib o'qiladi, yuksak qadrlanadi, zyero, ular muhabbatning o'zi kabi boqiydir.

KATASTROFA (yun. katastrophe – burilish, to'ntarish) – tragyediya yoki drama qahramoni hayotida kyeskin burilish yuz byeruvchi holat, tashqi harakat dinamikasiga asoslangan syujyetlarda

pyeripyetiya o'tkir namoyon bo'luvchi nuqta, aksar hollarda yechim bilan ham mos tushadi. Mas., M.SHayxzodaning "Mirzo Ulug'byek" tragyediyasida Ulug'byekning taxtdan kyechishi va oxirgi farmonni byerishi yoki Uyg'unning "Imon" dramasidagi haqiqat oshkor bo'lgan sahnani K.ga misol qilib ko'rsatish mumkin. K. tyermini antik davrlarda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda qo'llanishi jihatidan passiv hisoblanadi.
ob'yekt-adryesat uchligidagi adryesatning ahamiyati yanada ortadi.
KIRITMA HIKOYA – voqyeaband syujyetli asar tarkibiga kiritilgan mustaqil hikoya. K.h., odatda, asar syujyeti bilan byevosita bog'lanmaydi, o'zining mustaqil syujyetiga ega bo'lib, asar butunligiga mazmuniy jihatdan bog'lanadi va badiiy konsyepsiyani ifodalashga xizmat qiladiki, shu jihatlari bilan u mohiyatan gap tarkibidagi kiritma konstruksiyalarga o'xshashdir. Mas., "O'tgan kunlar"dagi usta Olim hikoyasi roman asosiy syujyetiga byevosita bog'liq emas: u bosh qahramon bilan tasodifan uchrashib qolgan kishining hikoyasi sifatida byeriladi. Lyekin ayni shu hikoya asarda bir qator badiiy-estyetik funksiyalarni bajaradi: Otabyek bilan usta Olimni qalban yaqinlashtiradi, ularning qiyomatlik do'st bo'lib qolishini asoslaydi; Otabyek shu do'stlik tufayli dushmanini taniydi, g'animlari ryejasidan voqif bo'ladi – ya'ni K.h. bilvosita syujyetning kyeyingi rivojini asoslaydi; adibga ikki tipdagi odam (yangicha fikrlaydigan Otabyek va eskicha fikrlaydigan usta Olim)ni qiyoslash va shu asosda o'zining badiiy falsafasini yanada yorqin ifodalash imkonini byeradi. YOzuvchining olam, odam va zamon konsyepsiyasi – badiiy falsafasini shakllantirish va ifodalashda K.h. nyechog'li muhim unsur ekani "Asrga tatigulik kun" (CH.Aytmatov) romani misolida yaqqol ko'rinadi. Romanga kiritilgan "Nayman ona hikoyasi" adibga asar yozilgan davrda o'ta dolzarblashgan manqurtlik fojiasi, CHingizxon hayotidan naql etuvchi "Sario'zakdagi qatl" hikoyasi chyeklanmagan mustabid tuzum mohiyati va u insoniyatga kyeltirishi mumkin bo'lgan fojialar, Raymali og'a haqidagi hikoya esa shaxs erki va uning daxlsizligi masalalarini badiiy mushohada etish imkonini byeradi. Asar to'qimasiga singdirib yuborilgan mazkur K.h.lar asosiy syujyet voqyealari bilan yaxlit mazmuniy butunlikni tashkil qiladi va ayni shu butunlik adibning olam, odam va zamon haqidagi badiiy konsyepsiyasini ifodalaydi. K.h.lar hajmi, janr xususiyatlariga ko'ra turlicha (kiritma epizod, rivoyat, afsona, latifa, hikoya, qissa) bo'lishi, ularning asar strukturasiga kiritilishi turlicha usullar (pyersonaj hikoyasi, birovning qo'lyozmasi va b.) bilan asoslanishi yoki asosiy syujyetga parallyel tarzda byerib borilishi (mas., U.Hamdam. "Isyon va itoat") mumkin.
KLASSIKA (lot. classicus – namunali, mumtoz) – eng yaxshi, namunali, mumtoz dyeya e'tirof etilganlik. YA'ni, aslida, K. tyermini o'zida baho munosabatini ifodalaydi. SHunga qaramay, K. so'zining muomala amaliyoti va adabiyotshunoslikdagi qo'llanishida turlichalik mavjud. Jumladan, u konkryet asar ("Xamsa", "O'tgan kunlar", "Anor" va h.), muayyan bir ijodkor (A.Navoiy, A.Qodiriy, A.Qahhor) yoki butun bir davrga (O'zbyek klassik adabiyoti) nisbatan ham qo'llanavyeradi. Mazkur holatlarning birinchisida baho munosabati to'liq saqlanadi, chunki bu o'rinda har jihatdan namunali bo'lgan mukammal badiiy asar nazarda tutiladi. Ikkinchi holda ham baho munosabati ustuvor, shuning uchun tyerminni o'ylabroq ishlatgan ma'qul: o'z ijodi bilan badiiy tafakkurni syezilarli olg'a siljita olgan ijodkorlarga nisbatangina klassik dyeyish to'g'ri bo'ladi. Uchinchi holda esa baho munosabati o'rnini davr ma'nosi egallaydi, ya'ni o'zbyek klassik adabiyoti dyegani "eng yaxshi, namunali" dyegani emas, balki X – XI asrlardan boshlab XX asr boshlarigacha bo'lgan o'zbyek adabiyoti dyemakdir.
KLASSISIZM (lot. classicus – namunali, mumtoz) – XVII asrdan XIX asr boshlariga qadar Yevropa san'atida kuzatilgan estyetik hodisa, shu davr adabiy jarayonida yetakchi mavqye tutgan adabiy yo'nalish. Mutaxassislar K.ning paydo bo'lishini 1515 yil – italyan yozuvchisi Trissinoning «Sofonisba» tragyediyasi yaratilishidan boshlab byelgilashadi. Trissino bu asarini antik tragyediya namunalariga tayangan holda, syujyet voqyealarini antik Rim tarixchisi Tit Liviy asarlaridan olib, Arastu "Poetika"sida qo'yilgan talablarga rioya qilgan holda yaratgan edi. Xuddi shu narsa, antik adabiyotni etalon dyeb bilish, undagi obrazlar va poetik shakllardan foydalanib va antik davrda ishlab chiqilgan qoidalarga amal qilgan holda ijod qilish talabi K.ning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. K.ning nazariy asoslari Uyg'onish davrining oxirlarida, xususan, L.Kastyelvyetro, YU.S.Skaligyerlarning poetikaga oid risolalarida paydo bo'la boshlagan edi.
Fransiyada K. adabiy yo'nalish sifatida to'la qaror topib, adabiy jarayonda yetakchi mavqye egallagan bo'lib, fransuz K.i Yevropadagi boshqa xalqlar adabiyotlariga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Fransiyada K. madaniyatining gullab-yashnashiga asos bo'lgan qator omillar mavjud edi. Avvalo, mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoitda K. davlat va millat manfaatlariga to'la mos edi. XVII asrga kyelib markazlashgan davlat tashkil qilish harakati nihoyasiga yetgan, tom ma'nodagi absolyut monarxiya o'rnatilib, Fransiya Yevropadagi eng qudratli mamlakatga aylangan edi. Mazkur sharoitda K. hukumat tan olgan rasmiy va chin ma'noda yetakchi badiiy myetod bo'lib qoldi. Qirol hukumati klassisist adiblarga maosh tayin qiladi, ularni qo'llab-quvvatlaydi; hukumatning til va adabiyot sohasidagi siyosati Fransuz akadyemiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Hukumatning bu masalaga jiddiy e'tibor byerishi byejiz emas. K. adabiyoti fransuz davlatchiligining mustahkamlanishi, fransuzlarning yagona millat sifatida birlashishiga xizmat qilishi lozim ediki, u ushbu missiyani sharaf bilan uddaladi, fransuz jamiyati va milliy madaniyati tarixidagi juda muhim bosqich bo'lib qoldi.

KOLLIZIYA (lot. collisio – to'qnashuv) – badiiy asarda tasvirlangan voqyea asosida yotuvchi pyersonajlar orasidagi to'qnashuvlar, ziddiyatlar. Ilmga Gyegyel tomonidan kiritilgan K. tyermini adabiyotshunoslikda ba'zan konfliktning sinonimi sifatida qo'llanadi. SHunga qaramay, ularni syezilarli farq bilan qo'llash amaliyoti ham mavjud. Jumladan, ziddiyatlarni o'tkirlik jihatidan darajalagan holda K.ni o'tkir ziddiyat ma'nosida tushunish; ko'lam jihatidan darajalagan holda tarixan global xaraktyerdagi to'qnashuvlarni K. dyeb atash; shuningdyek, K.ni konfliktga nisbatan torroq ko'lamda qo'llab, konfliktning bir ko'rinishi, asosan, epik asarlar voqyea rivojidagi bir holat – situasiyadagi (q.) pyersonajlar ziddiyati sifatida ham tushuniladi. Kyeyingi davr adabiyotshunosligida K.ni so'nggi ma'noda, ya'ni tasvir pryedmyeti sifatidagi ziddiyat (konflikt) emas, uning tarkibiy qismi – ichki strukturaning elyemyenti sifatida tushunish kyengroq ommalashmoqda.

KOMEDIYA (yun. komos – quvnoq marosim, ode – qo'shiq) – dramatik turning uchta asosiy janridan biri, antik davrdayoq janr sifatida shakllangan. K. dramatik turning komiklikka asoslangan janri bo'lib, unda xaraktyerlar, holat va voqyealar kulgili tarzda, komiklikka yo'g'rilgan holda taqdim etiladi. Antik zamonlardan to klassisizm davriga qadar K.da tragyediyaning ziddi ko'rilgan (tragyediya fojiali yakun topadi – K. baxtli; tragyediya favqulodda kuchli shaxslar – K. da quyi tabaqa kishilari; tragyediya tarixiy voqyeaga asoslanadi – K.da to'qima va h.), adabiyotshunoslikka oid risolalarda tragyediyaga yuksak, K.ga esa tuban janr sifatida qaralgan. Mazkur hol XVIII asrgacha, ma'rifatchilik adabiyotida oraliq janr sifatida drama paydo bo'lgunga qadar davom etgan. Kyeyingi ikki asr davomida K. muttasil rivojlandi, turfa janr xususiyatlarini kasb etib, imkoniyatlari kyengaydi.

K.ning asosida yotuvchi ijobiy kuch – kulgi, u jamiyat hayotida, kishilar fye'l-atvorida mavjud kamchiliklar, idyealga nomuvofiq jihatlarga qaratilgan bo'ladi. K.ning markazida komik xaraktyerlar turadi. Odatda, komik xaraktyer dyeganda, o'zida idyealga tamoman zid illatlarni jamlovchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi pyersonajlar nazarda tutiladi. Bu o'rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik pyersonaj o'zining mavjud holatini idrok etmaydi, o'ziga ryeal baho byerishga ojiz. Aksincha, u o'zini bor holiga nisbatan tamoman tyeskari baholashga moyil: g'irt tyentak bo'lgani holda o'zini aqlli sanaydi, ma'nan tuban bo'lgani holda o'zini pokdomon biladi – o'zini o'zgalarga shunday sifatlarda taqdim etishga chiranadi. Mas., Uyg'unning "Parvona"sidagi O'tkuriy ma'nan tuban, axloqan buzuq, oddiy mahmadanayu firibgar bo'lgani holda o'zini aqlli, so'zamol, uddaburon, yashashni biladigan va h. fazilatlar egasi dyeb hisoblaydi, shunday ko'rinishga urinadi. Xuddi shu narsa – xaraktyerning mohiyati bilan mavjudligi orasidagi nomutanosiblik komiklikni, xaraktyer komikligini yuzaga chiqaradi. K. holat komikligi asosiga ham quriladi. Mas., S.Ahmadning "Kyelinlar qo'zg'oloni", "Kuyov" asarlarida holat komikligi ustuvor mavqyega ega. Aslida, bu xil farqlashda shartlilik bor, chunki K.da xaraktyer komikligi bilan holat komikligi uyg'unlashib kyeladi, ular bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini namoyon etadi.

K. satirik yoki yumoristik ruhda bo'lishi mumkin, har ikki holda ham u g'oyaviy-hissiy inkor qiladi: satirik ruhdagi komyediya qalamga olingan xaraktyer yoki holatni to'la inkor qilsa, yumoristik ruhdagi komyediya xaraktyer yoki holatdagi ayrim jihatlarni qisman inkor qiladi. Mas., A.Qahhorning "Tobutdan tovush", "Og'riq tishlar" K.lari satirik ruhdagi asarlar sanalsa, E.Vohidovning "Oltin dyevor" asarida yumoristik ruh ustuvorlik qiladi. K.dagi kulgini jo'n tushunmaslik lozim, chunki chinakam komiklik ijtimoiy ahamiyatga molik kulgini taqozo etadi, bunday kulgi kishini o'ylatadi, kuldirib kuydiradi, yig'latadi. SHu ma'noda, har qanday kulgili

sahna asarini K. sanash xato bo'lur edi. CHinakam komizm bilan yo'g'rilgan dramatik turning bu janrini ko'proq tashqi sahna effyektlari orqali kuldirishga qaratilgan fars, quvnoq kulgi qo'zg'atuvchi vodyevil yoki xalq sayillarida ijro etiluvchi qiziqchi-masxaraboz tomoshalaridan farqlash kyerak.

KOMPARATIVIZM (lot. comparatives – qiyos, qiyosiy) – 1) kyeng va ko'pchilik tomonidan istifoda etiladigan ma'noda qiyosiy adabiyotshunoslik (q.), adabiyot tarixining milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi o'zaro mushtarak va farqli tomonlar, milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari va ta'siri masalalarini o'rganuvchi bo'limi; 2) tor ma'noda qiyosiy adabiyotshunoslikning shakllanish davridagi bir bosqich, adabiy faktlardagi tashqi o'xshashliklarni (tarixiy shart-sharoit, adabiy an'ana, ijodkor dunyoqarashi, uslubi kabi kontyekstlar bilan bog'lamagan holda) qiyoslash bilan chyeklanilgan davr.

KO'RINISH – dramatik asarning eng kichik tarkibiy qismi. Odatda, pardalar K.larga bo'linib, ular shu sahna epizodidagi ishtirokchilar tarkibi bilan byelgilanadi; K.lar bir-biridan pyersonajlardan birining sahnadan kyetishi yoki boshqa pyersonajning kyelib qo'shilishi bilan ajratiladi. Antik Rim adabiyotidayoq dramatik asar matnida K.lar alohida ajratilib, raqamlab ko'rsatilgan. Dramaturgiyada uzoq vaqt hukm surgan bu an'anadan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan chyekinila boshlangan. Hozirda ham dramatik asarda parda ichidagi K.lar farqlanib turadi, lyekin matnda buni doim ham ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatish shart qilinmaydi.

KO'CHIM, trop – so'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi, muayyan badiiy-estyetik maqsadni ko'zlagan holda voqye bo'luvchi syemantik sathdagi normadan og'ish. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar trop dyegan umumiy nom bilan ham yuritiladi. Ma'no ko'chishining asosiga tayangan holda, K.ning myetafora, myetonimiya, sinyekdoxa, kinoya, pyerifraza, allyegoriya (majoz), ramz (simvol) kabi bir qator ko'rinishlari ajratiladi. Aytish kyerakki, K.ning turlari adabiyotshunoslikka oid manbalarda turlicha ko'rsatiladi. Jumladan, ba'zan K.lar sirasiga epityet, oksimoron, litota, mubolag'a kabilarni ham qo'shish hollariga duch kyelish mumkin. Albatta, bunday qilishga asos byera oladigan ayrim misollar borligi, umuman, bu vositalarda ham K.ga yaqin xususiyatlar kuzatilishi bor gap. Lyekin K. dyeganda, badiiy matnda muayyan bir asosga (narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlik, aloqadorlik, vazifadoshlik va h. jihatidan mushtaraklikka) tayangan holda so'z(ba'zan birikma)ning o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanishini tushunish kyerakki, shunda chalkashliklar o'z-o'zidan barham topadi. Badiiy asarda qo'llaniluvchi K.lar o'zlarining ishlatilish ko'lami, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirdorlik darajasi kabi jihatlariga ko'ra bir-biridan jiddiy farqlanadi: a) ularning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Mas., "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko'nikib kyetganmizki, hozirda ularga K. sifatida qaramaymiz ham. Badiiy asar matnida mazkur K.lar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estyetik maqsad bilan syemantik sathda og'ishga yo'l qo'ygan, dyeya olmaymiz, zyero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan va matnda estyetik funksiya bajarmaydi. Dyemak, ularni badiiyat hodisasi sifatida tushunib bo'lmaydi; b) asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kyelayotgan K.lar ham ko'p uchraydi. Mas., "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarv qomat", "qoshi kamon", "nargis ko'z" va hokazo. Bu xil K. lar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq, ulardan farqli o'laroq, matnda estyetik funksiya ham bajaradi: tasviriylikni, ifodaviylikni kuchaytiradi. SHunga qaramay, ularning qabul qilinishida ko'nikib qolganlik oqibatida hosil bo'lgan "avtomatizm" kuzatiladiki, bu ularning estyetik ta'sir kuchini susaytiradi; v) badiiy-estyetik funksiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assosiativ fikrlashi mahsuli o'laroq dunyoga kyelgan K.lar alohida o'rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko'chimlari" dyeb atashimiz mumkin. SHu xildagi K.largina yozuvchining muayyan badiiy-estyetik maqsadni ko'zlab yo'l qo'ygan syemantik sathdagi og'ishi natijasidirki, badiiy til mahorati xususida gap borganda, avvalo, shu xil K.larni e'tiborga olish lozim.

LAKONIZM (yun. lakonismos – lakonikacha) – fikrni ixcham shaklda, lo'nda va aniq ifodalash. Bu xususiyat antik YUnonistonning Lakoniya viloyati hududida joylashgan Spartada yuksak qadrlangan, spartaliklar oz so'z bilan ko'p ma'no ifodalashga intilishgan, shu bilan bog'liq holda "lakonikacha nutq", "lakonizm" tushunchalari ommalashgan. L. aforistika, maqol va matallar uchun muhim, aytish mumkinki, byelgilovchi xususiyat sanaladi. SHuningdyek, L. tyermini ayrim

ijodkorlar uslubiga xos xususiyat ma'nosida ham ishlatiladi. Mas., ba'zan A.Qahhor uslubi haqida gap borganda, undagi o'ziga xos jumla qurilishi, siqiqlikni nazarda tutib, L. tyermini qo'llanadi.
mintaqa, viloyat va h.)ga xos turmush tarzi, urf-odatlar, shyeva, pyeyzaj va sh.k.larni qayta yaratish. M.k. tasvirning haqqoniy bo'lishiga xizmat qilishi bilan birga, ma'rifiy jihati bilan ham ahamiyatli, chunki u muayyan hududda yashovchi kishilar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini yaratadi.
MELODRAMA (yun. melos – qo'shiq, drama – harakat) – 1) dramaturgiya janrlaridan biri. M.ning xaraktyerli xususiyatlari sifatida o'tkir intriga asosiga qurilgan syujyetga egalik, bir qadar bo'rttirilgan emosionallikka yo'g'rilganlik, ezgulik bilan yovuzlikning kyeskin va qabariq tarzda zidlantirilishi, axloqiy-tarbiyaviy yo'naltirilganlik kabilar ko'rsatiladi. M. dramaturgiya va tyeatr janri sifatida XVIII asr oxirida Fransiyada shakllangan, gullab-yashnagan davri esa XIX asrning ikkinchi choragiga to'g'ri kyeladi; 2) musiqali dramatik asar, unda pyersonajlarning monolog va dialoglari musiqa jo'rligida ijro etiladi; 3) hozirgi adabiyotshunoslikda va, ko'proq, so'zlashuv amaliyotida M.ga xos (intrigaga boy syujyet, yaxshilik bilan yomonlik kyeskin kontrastda tasvirlanuvchi, oshkora kuchaytirilgan emosionallik va b.) xususiyatlarga ega, lyekin badiiy jihatdan bo'sh, ommaviy kitobxon yoki tomoshabin saviyasiga mo'ljallab yozilgan asarlarga salbiy bahoni ifodalaydi. Tyerminning salbiy ma'noda qo'llanishi "ommaviy san'at" bilan bog'liq bo'lib, uning M.ga xos yuqoridagicha xususiyatlardan o'quvchi (tomoshabin)ni o'ziga oson jalb etuvchi vosita sifatida o'rinli-o'rinsiz foydalanish natijasida badiiy nochor asarlar paydo bo'ladi, o'z holicha yaxshigina badiiy usul va vositalar siyqalashadi.
MYeMUAR (fr. memories – xotiralar, esdaliklar) – muallifning o'tmishda o'zi byevosita ishtirok etgan yoki shohidi bo'lgan voqyealar haqidagi xotiralari bayon qilinuvchi adabiy asar. M. asarlar o'zining bayon yo'sini, voqyealarning syujyetli tarzda byerilmasligi, vaqt tartibiga rioya qilinishi, faktografiklik xususiyatlari bilan kundaliklarga, matyerialning haqqoniyligi va to'qimaning yo'qligi jihatidan hujjatli-tarixiy ochyerk, ilmiy biografiyalarga yaqin turadi.
MISTIFIKASIYA, adabiy mistifikasiya (yun. mystes – sirga oshno, facio – qilaman) – 1) asarning muallif tomonidan atayin boshqa bir shaxs (yo haqiqatda mavjud yo to'qima)ga tyegishli, o'zga shaxs tomonidan yozilgan qilib ko'rsatilishi. Muallifning yashirin qolishga intilishi jihatidan adabiy M. anonim (imzosiz e'lon qilingan yoki tarqalgan asar) va taxallus qo'llash (ya'ni yashirin qolish maqsadida asarni taxallus bilan e'lon qilish)ga yaqin. Ulardan farqli tomoni shuki, adabiy M.da asar nisbat byerilayotgan muallifning uslubi, ruhiyati, dunyoqarashi va sh.k. individual jihatlarni yaratish orqali ryeal muallifdan tamom o'zga muallif obrazi vujudga kyeltiriladi. Mas., kyeyingi yillar o'zbyek matbuotida e'lon qilingan Usta Gulmat g'azallari buning yorqin namunasi bo'lib, ularda haqiqiy muallif A.Obidjondan tamom o'zga muallif obrazi – lirik qahramon bo'y ko'rsatadi. Usta Gulmat g'azallaridan bir turkumini "SHarq yulduzi"da e'lon qilarkan, haqiqiy muallif unga muxtasar so'z boshini ilova qiladi. Unda, jumladan: "Ahli shuaroga ma'lum bo'lg'aykim, Gulmat SHoshiyning so'nggi g'azallarini tiklash ishlari nihoyasiga yetdi. G'azallarning bu qismi 1916 va 1917 yilning boshlariga to'g'ri kyeladi", – dyeyiladi. Tabiiyki, haqiqiy muallif turkumda nisbat byerilgan muallifga xos uslubni ham, g'azallar nisbat byerilayotgan davrga xos mazmun va ruhni ham tiklaydi, hyech joyda o'z nomini kyeltirmaydi; 2) hikoyani asoslash (motivirovka) maqsadida qo'llanuvchi badiiy usul, epik asarlarda voqyealarning tasodifan yozuvchi qo'liga tushib qolgan birovning xati, kundalik daftari, qo'lyozmasi va sh.k. yo'sinlarda bayon qilish. Biroq mazkur usul sifatidagi M.ning dastlabki ma'nodagi M.dan farqi shuki, birinchidan, bunday asarlarda muallif yashirin qolish maqsadini ko'zlamaydi, ikkinchidan, ularda muallif obrazi u yoki bu tarzda (mas., kundalik, xat, qo'lyozma va sh.k.larni topib olgan va shunchaki e'lon qilayotgan shaxs sifatida) hamisha aks etadi. Asar to'lasicha shu usul asosiga qurilishi ham, M. yo'sinidagi bayon rivoyaning bir qismini tashkil qilishi ham mumkin (mas., O.YOqubov. "Ko'hna dunyo" – Juzjoniy kundaliklari; O.Muxtor. "Ming bir qiyofa" – Abdulla Hakimning mashq daftari).
MIF (yun. mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lgan, voqyelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkryet obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlar. M. rivoyaviy asarlar (olam va odam haqidagi hikoyalar) bo'lsa-da, ularni tom ma'noda so'z san'ati hodisasi dyeb bo'lmaydi. M.lar qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli, ular M. vositasida olam sir-sinoatlari (olamning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shamol esishi va momaguldurak sababi va h.)ni bilishga intilganlar, M.larda ularning olam haqidagi bilimlari o'z ifodasini topgan. M.larda yaratilgan obrazlar (ma'budlar, turli maxluqlar va h.) ular

uchun ijodiy tasavvur mahsuli emas, aksincha, asl haqiqatdir. Dyeylik, qadimgi yunonlar chaqmoq chaqishini Zyevsning, dyengizdagi dahshatli dovullarni Posyeydonning g'azablangani bilan izohlaganlar, inson taqdiridagi turfa evrilishlarda ilohlarning aralashuvini ko'rganlar. Kyeyincha, mifologiyadan ijtimoiy ongning din, fan, san'at, adabiyot, siyosat kabi sohalari ajralib chiqqanidan so'ng, M.lar ularning tarkibiga singib kyetadi. Buni adabiyot misolida ko'radigan bo'lsak, qadimgi M.lar antik adabiyotda o'zining ikkinchi umrini yashay boshlaganiga amin bo'lish mumkin. Zyero antik adabiyotdagi ko'plab asarlarga mifologik syujyetlar asos bo'lgani, ularda mifologik unsurlardan kyeng foydalanilgani buning yorqin dalilidir.

MOTIVIROVKA (fr. motiver – asoslash, dalillash) – adabiy asarda tasvirlanayotgan voqyea-hodisalar, pyersonajlarning xatti-harakatlari, his-tuyg'u va gap-so'zlarini badiiy asoslash. Adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlarida M.ning zarurati bo'lmagan, unda muayyan hodisalar, qahramonlar taqdiridagi burilishlar, konkryet hayotiy holat va sh.k.lar ilohiy, g'ayritabiiy kuchlar aralashuvi bilan izohlangan. Ryealistik tyendyensiyalarning kuchayib borishi bilan adabiyotda M.ning ahamiyati ham ortib borgan. Dunyoni badiiy idrok etish va tushuntirishga intilgan ryealistik adabiyotda M. hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: ryealistik asardagi har bir voqyea, pyersonajlar xatti-harakati, his-tuyg'u yoki gap-so'zlari badiiy asoslanadi, ya'ni o'zining ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy-psixologik va sh.k. omillariga ega bo'ladi va shu bois ularni mantiqan izohlash mumkin. Mas., CHo'lpon "Qor qo'ynida lola" hikoyasida Samandar akaning Eshon sovchilariga "Bir qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik..." dyeya javob byerishini puxta dalillashga intiladi. Buning uchun avval muallif xaraktyeristikasida "ot chiqarg'on savdogar" Samandar akaning singani va eshonga qo'l byerib, "so'fi bo'lib qolg'on"i, ya'ni pyersonaj hayotidagi burilish, omadsizlik unga kuchli ruhiy ta'sir qilgani aytiladi. Kyeyin "eshonnikida katta va qizg'in zikr bo'lgan"i, nazr-niyoz byerish marosimida Samandar aka o'zi tushib qolgan ahvoldan nyechog'li ezilgani, shu asno so'fining "Ha, boy aka, nazrdan darak bormi?" dyeya tagdor mazaxlashidan og'ringan nafs to'lg'onishlari, alamli o'ylari tasvirlanadi. Nihoyat, uyiga qaytib, eshondan sovchilar kyelganini eshitadi va "Bir qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik..." dyegan qarorini byeradi. Mazkur qaror qator omillar asosida yetilgan, yozuvchi ularni ochib byeradi, ya'ni sabab-natija aloqalari asosida badiiy asoslaydi va shu tufayli o'quvchi pyersonaj ayni sharoitda xuddi shunday qarorga kyelishiga ishonadi. Bundan ko'rinadiki, M. asar butunligida amalga oshadi, buni his qilish uchun esa asardagi hyech bir unsurni e'tibordan chyetda qoldirmaslik talab etiladi. Zyero, ryealistik asarda qator kompozision unsurlar, usul va vositalar (dyetallar, muallif xaraktyeristikasi, pyersonajning oldingi tarixi, ryetrospyeksiya va sh.k.) o'zining byevosita funksiyasi bilan bir qatorda, badiiy dalillashga ham xizmat qilavyeradi. Kyeyingi davr adabiyotida, xususan, modyernistik yo'nalishdagi asarlarda M. o'zining mavqyeini yo'qotgan. Ularda g'ayrioddiy (q. syurryealizm), sabab-natija tarzidagi ichki aloqaga ega bo'lmagan voqyea va holatlar (mas., absurd adabiyoti), pyersonajlarning doim ham mantiqan izohlab bo'lmaydigan kutilmagan xatti-harakatlari, tabiiy kyechayotgan tizginsiz o'y-hislari (q. ong oqimi)ni tasvirlash odatiy hol hisoblanadi.

MUALLIF (ar. ???? – tuzuvchi, tartib byeruvchi) – adabiy asarni yaratgan odam, avtor tyerminiga sinonim sifatida ishlatiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda biografik M. bilan badiiy matnda namoyon bo'luvchi M. (q. muallif obrazi) farqlanadi. Biografik M. – ryeal hayotda mavjud bo'lgan, muayyan asarning yaratuvchisi, unga nisbatan mualliflik huquqiga ega bo'la oladigan shaxs. Hozirgi vaqtda biografik M. faoliyati bilan bog'liq ravishda mualliflik huquqi, mualliflik shartnomasi, muallif qo'lyozmasi, mualliflashtirilgan matn, muallif tarjimasi kabi qator tushunchalar amaliyotda faol ishlatiladi. Holbuki, M. tushunchasi so'z san'atining ilk bosqichlarida – xalq og'zaki ijodida bo'lmagan; adabiyot taraqqiyoti davomida, badiiy tafakkur rivojida alohida ijodkor shaxs roli, uning ijodiy tajribalari nyechog'li muhim ekanligi anglanib borilishi barobaridadada M. tushunchasi ham qaror topib, tobora katta ahamiyat kasb etib borgan.

MUALLIF OBRAZI – badiiy asar matnida anglashilib turuvchi muallif shaxsi. Muallif shaxsi asar badiiy voqyeligiga singib kyetadi, chunki badiiy voqyelik ijodkor tomonidan ko'rilgan va idyeal asosida ijodiy qayta yaratilgan voqyelikdir. M.o.ning namoyon bo'lishi konkryet asarning turga mansubligi, janr xususiyatlari bilan bog'liq. Mas., dramatik asarda M.o. yo'qdyek, lyekin unda tasvirlanayotgan voqyeani tanlagan, uni u yoki bu tarzda tasvirlagan muallifning qarashi, nuqtai nazari, badiiy konsyepsiyasi baribir anglashilib turavyeradi. Lirik asarlarda esa his-tuyg'ular ko'proq "myen" tilidan ifoda etilgani uchun lirik sub'yektni shoir dyeb bilishga moyilmiz. Holbuki,

garchi kyechinmalar “myen” tilidan byerilayotan bo’lsa ham, lirik sub’yekt hammavaqt shoirning o’zi bo’lmaydi. YOki ijroviy lirika namunalarida shoir rolini ijro etayotgan shaxsga evriladi, uning tilidan “myen” shaklida gapiradi (mas., A.Oripov. “Hamza”). SHunga o’xshash, rivoya “myen” tilidan olib borilgan epik asarlardagi roviy-muallif ham biografik muallifga tyeng emas. Boshqacha aytsak, asardagi M.o.ga biografik muallifning ko’p jihatlari singgani holda, ular orasida ma’lum darajadagi prototip – badiiy obraz munosabati mavjud. Zyero, badiiy asarda biografik muallif idyeal olamida yashagan ijod onlaridagi byetakror ma’naviy-ruhiy holat, uning shu vaqt mobaynida tasavvurdagi o’quvchisi bilan muloqoti aks etgandir. SHunga ko’ra, ryeal muallif biografiyasi asarni tushunish uchun to’g’ridan-to’g’ri “kalit” emas, balki o’sha byetakror ma’naviy-ruhiy holatni his etishimiz uchun asosdir. Ikkinchi tomondan, M.o. asardagi badiiy voqyelikni yaxlitlashtiruvchi kompozision asos sifatida ham muhim: o’quvchi badiiy voqyelikni muallif orqali “ko’radi”, “eshitadi”, “his qiladi”. Nihoyat, M.o. badiiy konsyepsiya nuqtai nazaridan ham muhim: muallifning tasvir pryedmyetiga g’oyaviy-hissiy munosabati asarning o’quvchi tomonidan muayyan yo’nalishda tushunilishini boshqaradi. Bular bari M.o. adabiyotshunoslikdagi muhim ilmiy katyegoriyalardan biri ekanini ko’rsatadi. SHunga qaramay, XX asr o’rtalaridan boshlab G’arb adabiyotshunosligida “muallif o’limi” konsyepsiyasi paydo bo’ldi. Unga ko’ra, badiiy ijodda sub’yektivlik izlari yo’qoladi va sub’yektdan mosuvo bo’lgan matngina qoladi. Mazkur konsyepsiyaga qo’shilish shu jihatdan qiyinki, adabiy asar – nutq hodisasi, nutq esa sub’yektdan mosuvo bo’lolmaydi.

MUALLIF CHEKINISHLARI, avtor chyekinishlari – epik asarlarning matniy unsurlaridan biri, syujyet voqyealari bayoni (rivoya)ni to’xtatib, muallifning o’quvchiga byevosita murojaat qilishi yoki falsafiy, publisistik, lirik, adabiy-tanqidiy va sh.k. masalalarda mushohadaga byerilishi. An’anaviy tarzda qo’llanuvchi lirik chyekinish (q.) tyermini mazkur tushunchaning bir qisminigina qamrab oladi. YA’ni lirik chyekinishlar ham mohiyatan M.ch.ning bir ko’rinishidir. Mas., “O’tgan kunlar”da muallifning “Myen – yozg’uvchi...” dyeya roman voqyealarini bobosidan ko’p bor eshitgani va kundosh mojarolarini zyerikarli bo’lgani sabab tashlab kyetmoqchiligini aytishi, “Navo kuyi” bobida romanda tasvirlangan tarixiy davr (“Xalqimiz ta’biricha, bu zamonlar musulmonobod bo’lsa-da, biroq bu tantanalik ta’birni buzib qo’yaturg’an ishlar ham yo’q emas edi”) haqidagi mulohazalar; “Myehrobdan chayon”da Ra’noga ta’rif byerish asnosi ism bilan jism muvofiqligiga to’xtalib, o’z yoshligidan bir (Lola ismli qiz bilan bog’liq) voqyeaning muxtasar hikoya qilinishi – bularning bari M.ch.dir. M.ch.ning badiiy-estyetik funksiyalari turlicha bo’lishi mumkin. Jumladan, M.ch.ning bir turi bo’lmish lirik chyekinishlarning birlamchi funksiyasi tasvir pryedmyetiga munosabatni ifodalash, shuning uchun ham ularda hissiy bo’yoqdorlik, emosionallik kuchli bo’lib, bu narsa nutq qurilishida ham o’z aksini topadi.

SILLABO-TONIK SHE’R TIZIMI (yun. syllabe – bo’g’in, tonos – urg’u) – shye’r misralarida urg’uli va urg’usiz bo’g’inlarning bir tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslangan shye’r tizimi, XX asrga qadar ushbu shye’r tizimi “sillabo-myetrik” dyeb nomlangan. Rus shye’riyatida V.Tryediakovskiy va M.Lomonosovlar o’tkazgan islohotdan so’ng mazkur shye’r tizimi yetakchilik qila boshlagan. Rus sillabo-tonik shye’r tizimida byeshta stopa (rukn) bo’lib, ular: xoryey, yamb, daktil, anapyest va amfibraxiy tarzida antik shye’r tizimidan o’zlashtirilgan tyerminlar bilan yuritiladi. SHu stopalarning tartibli takrori ritmni hosil qiladi, konkryet shye’r o’lchovi esa uch stopali yamb, to’rt stopali yamb qabilida nomlanadi.

SIMVOLIZM (yun. simbolon, fr. simbolisme – byelgi, nishon) – Yevropada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kuzatilgan madaniy-ma’naviy inqiroz sharoitida, pozitivistik yondashuv (q. naturalizm) va tobora urchib borayotgan omma adabiyoti (byellyetristika) namunalari obro’sizlantirgan ryealistik tasvir prinsiplariga qarshi o’laroq, vujudga kyelgan adabiy oqim. S.ning adabiy-estyetik asoslari XIX asrning 60 – 70-yillarida P.Vyerlyen, A.Ryembo, S.Mallarmye kabi fransuz shoirlari ijodi bilan qo’yilgan. Mutaxassislar S.ga romantizm vorisi sifatida qaraydilar, shu bois ham uning falsafiy asoslarini A.SHopyengauer, E.Gartman va, qisman, F.Nisshye ta’limotida ko’radilar. Simvolistlar konkryet-hissiy idrok doirasidan tashqarida turuvchi g’oyalar, “o’zi-o’zidagi narsa”larni badiiy aks ettirishga intiladilar. Ularga ko’ra, simvol kundalik maishat domidan qutulish va dunyoning idyeal mohiyatini anglash uchun obrazdan ko’ra samaraliroq vositadir. Ular shoir qalban mutlaq haqiqatga yaqin turadi, shu bois u olamni simvollar orqali intuitiv tarzda idrok eta oladi, dyeb hisoblaydilar.

SONYeT (ital. sonetto, provanscha sonet – qo'shiq so'zidan) – qat'iy shye'r shakllaridan biri, shakl xususiyatlariga ko'ra tasnif etiluvchi lirik janr. S. o'n to'rt misradan tarkib topib, ikkita katryen va ikkita tyersyetni o'z ichiga oladi. S.ning kanonik shakli ikki ko'rinishda bo'lib, "italyancha" variantida katryenlari abab abab, tyersyetlari esa cdc dcd (yoki cde cde); "fransuzcha" variantida katryenlari abba abba, tyersyetlari ccd eed (yoki ccd ede) tarzida qofiyalanadi. SHye'riyat tarixida S.ning kanonik talablardan chyekinish hollari ham uchraydi. Jumladan, "ingliz" S.ida uchta katryen va bitta distixdan tashkil topib, katryenlari abab cdcd efef tarzidagi kyesishgan, distix esa gg tarzida juft qofiyalanadi. SHuningdyek, S.ga bundan boshqa ham turli o'zgarishlar (qofiyalanishiga: boshdan oxirigacha juft va toq misralari ababab... tarzidagi sxema; kompozisiyasiga: avval ikki tyersyet, kyeyin ikki katryen; o'lchoviga: katryenlardagi to'rtinchi misra boshqa o'lchovda va b.) kiritib, turfa variantlari tajriba qilib ko'rilgan. Biroq S.ning kanonik shakllari baribir o'z mavqyeini daxlsiz saqlab qolgan, hozirda ham S. dyeganda shular nazarda tutiladi.

TRADISIYA (lot. traditio – byerib yubormoq, o'tkazmoq) – qarang: adabiy an'analar

TRILOGIYA (yun. tri – qo'shma so'zlar tarkibida uch va logos – so'z, hikoya, rivoyat) – syujyet-kompozision qurilishi jihatidan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan uchta asarning umumiy pyersonajlarga egaligi, syujyet chiziqlarining davomiyligi, muallif niyatining yagonaligi va shulardan kyelib chiquvchi yaxlit konsyepsiya tufayli butunlikka birikuvidan tashkil topgan asar. Antik adabiyotda uchta tragyediyadan tarkib topuvchi turkumlar T. dyeb yuritilgan. Jahon adabiyoti tarixida daramatik asarlarni birlashtiruvchi T.lar ham, epik asarlarni birlashtiruvchi T.lar ham ko'plab yaratilgan. Jumladan, P.Bomarshye ijodida komyediyalardan ("Syevilyalik sartarosh", "Figaroning uylanishi", "Aybdor ona"), L.N.Tolstoy myerosida avtobiografik qissalardan ("Bolalik", "O'smirlik", "YOshlik") tarkib topgan T.lar mavjud. T.ning o'zbyek adabiyotidagi namunasi sifatida S.Ahmadning "Ufq" ("Qirq byesh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida") asarini ko'rsatish mumkin.

TROP (yun. tropos – ko'chim) – qarang: ko'chim

TUGUN (ruschadan kalka: "zavyazka") – epik va daramatik asarlardagi voqyeaband syujyetning muhim unsuri, voqyealarning boshlanishiga turtki bo'lgan voqyea, asar konflikti qo'yilgan joy. T. syujyetning zaruriy elyemyenti sanaladi, ya'ni u syujyetda har vaqt hozirdir. Faqat ayrim hollarda, xususan, ba'zi xronikali syujyetlarda, shuningdyek, "ichki harakat" dinamikasi asosidagi syujyetlarda u yetarlicha bo'rtib ko'rinmasligi mumkin. T., odatda, asarning boshlanishida, ekspozisiyadan (agar u bo'lsa) kyeyinoq byeriladi. Muayyan badiiy-estyetik maqsadni ko'zda tutgan holda, T.ning o'rni o'zgartirilishi ham mumkin. Mas., "O'tgan kunlar" romanida Otabyek bilan Kumushning daf'atan uchrashib qolishi – birinchi bo'lim T.i, biroq bu voqyea shu bo'lim nihoyasida bayon qilinadi. YAna bir jihati, "O'tgan kunlar"ning uchala bo'limi ham o'z T.ga ega: birinchi bo'limdagi syujyet yechimi – Otabyek bilan Kumushning to'yi ikkinchi bo'lim voqyealariga turtki byergan T. bo'lsa, ikkinchi bo'limdagi syujyet yechimi – Otabyekning o'chini olgach Toshkyentga kyetib qolishi uchinchi bo'lim voqyealariga turtki byeruvchi T.dir. O'zgacharoq hol "Kyecha va kunduz"da ham kuzatiladi: Akbaralining Zyebiga sovchi qo'yishi bitta T. bo'lsa, Miryoqubning Maryamga ishqi tushgani ikkinchi T.ni tashkil qiladi. Dyemak, yirik hajmli asarlar syujyetida bir emas, bir nyechta T. bo'lishi, asarning nisbiy tugallikka ega qismlari yoki har bir mustaqil syujyet liniyasi o'z T.iga ega bo'lishi mumkin ekan.

FYeLYeTON (fr. feuilleton – varaq, sahifa) – badiiy-publisistik janr, dolzarb mavzuda yozilgan tanqidiy ruhdagi, ko'pincha hajviy-satirik yo'nalishdagi asar. F. atamasi publisistikaning ijtimoiy-siyosiy tanqid ruhidagi alohida janrini anglata boshlashi XIX asr oxirlariga to'g'ri kyeladi. Unga qadar F. so'zi boshqa ma'noda ishlatilgan. "Jurnal dye dyeba" nomli Parij gazyetasi 1800 yil 28 yanvar soniga qo'shimcha varaq ilova qiladi, kyeyincha bu gazyetaning "Fyelyeton" nomli doimiy rubrikasi bo'lib qoladi. SHu nomli rubrika Yevropa matbuotida tyez ommalashib, bu rubrika ostida nosiyosiy, norasmiy matyeriallar: e'lonlar, moda yangiliklari, tyeatr taqrizlari, hikoya va hatto romanlar e'lon qilinadi. Jadid matbuotida ham shu nomda rubrika tashkil etilgan bo'lib, mas., CHo'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalari "Sadoi Turkiston"ning F. rubrikasi ostida chop etilgan. Bu hol adabiyotshunosligimizda CHo'lpon ushbu hikoyalari janrini F. tarzida byelgilagan, dyegan yanglish qarashning paydo bo'lishiga olib kyelgan. XX asrning 20 – 30-yillaridan boshlab o'zbyek matbuotida kunning dolzarb muammolariga bag'ishlangan F.lar

kyeng o’rin egallaydi, jumladan, A.Qodiriy, G’.G’ulom, A.Qahhor, S.Ahmad singari mashhur adiblarimizning qator asarlari o’zbyek F.chiligi rivojiga salmoqli hissa bo’lib qo’shilgan.

FOSILA (ar. ????? – namat; ajratuvchi, oraliq) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo’luvchi ritmik birlik, juzv (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kyelib chiqib, F.ning ikki turi farqlanadi: F.i sug’ro (kichik F.) va F.i kubro (katta F.). Kyetma-kyet kyelgan uchta mutaharrikka bitta sokin harfning qo’shilishidan F.i sug’ro hosil bo’ladi: “kyelaman”, “kapalak”, “xapalak” kabi so’zlar shu vaznga mos. Mas., “kapalak”: mutaharrik (ka) + mutaharrik (pa) + mutaharrik (la) + sokin (k). F.i kubro esa kyetma-kyet kyelgan to’rtta mutaharrikka bitta sokin harf qo’shilishidan hosil bo’ladi: “chidamadim”, “yashamadim”, “qaramading” kabi so’z shakllari shu vaznga mos. Mas., “qaramading”: mutaharrik (qa) + mutaharrik (ra) + mutaharrik (ma) + mutaharrik (di) + sokin (ng). Qayd etish kyerakki, aruzshunoslikka oid ayrim manbalarda F. alohida juzv sifatida e’tirof etilmaydi. Jumladan, Bobur bu masalada Nasriddin Tusiyning fikrini quvvatlab, F.i kubro bitta sababi saqiyl va bitta vatadi majmu’ qo’shilishidan, F.i sug’ro esa bitta sababi saqiyl va bitta sababi hafif qo’shilishidan hosil bo’ladi, dyeb hisoblaydi.

FUTURIZM (lot. futurum – kyelajak) – XX asr boshlarida maydonga kyelgan avangardistik oqim, san’atning dyeyarli barcha turlarida kuzatilgan, ayniqsa, tasviriy san’at va haykaltaroshlikda ta’siri kuchli bo’lgan, badiiy adabiyotda ham syezilarli iz qoldirgan. F.ning o’z vatani Italiyada, shuningdyek, Rossiyada kyengroq ommalashdi. F.ning adabiy-estyetik va g’oyaviy qarashlari F.Marinyettining “Futurizm manifyesti” (1909) asarida o’z ifodasini topgan. F. adabiy-madaniy an’analar bilan aloqani to’la uzish, yangi zamon (kyelajak)ning yangi adabiyot va san’atini yaratish da’vosi bilan maydonga chiqdi. Qisqacha aytilsa, F. namoyandalari jamiyatdagi taraqqiyot tyendyensiyalaridan kyelib chiqqan holda, uning ertasini, ertangi inson va insoniy munosabatlarni o’zlaricha tasavvur qiladilar va shunga mos adabiyotni yaratish da’vosi bilan maydonga chiqdilar.

FOSILA (ar. ????? – namat; ajratuvchi, oraliq) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo’luvchi ritmik birlik, juzv (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kyelib chiqib, F.ning ikki turi farqlanadi: F.i sug’ro (kichik F.) va F.i kubro (katta F.). Kyetma-kyet kyelgan uchta mutaharrikka bitta sokin harfning qo’shilishidan F.i sug’ro hosil bo’ladi: “kyelaman”, “kapalak”, “xapalak” kabi so’zlar shu vaznga mos. Mas., “kapalak”: mutaharrik (ka) + mutaharrik (pa) + mutaharrik (la) + sokin (k). F.i kubro esa kyetma-kyet kyelgan to’rtta mutaharrikka bitta sokin harf qo’shilishidan hosil bo’ladi: “chidamadim”, “yashamadim”, “qaramading” kabi so’z shakllari shu vaznga mos. Mas., “qaramading”: mutaharrik (qa) + mutaharrik (ra) + mutaharrik (ma) + mutaharrik (di) + sokin (ng). Qayd etish kyerakki, aruzshunoslikka oid ayrim manbalarda F. alohida juzv sifatida e’tirof etilmaydi. Jumladan, Bobur bu masalada Nasriddin Tusiyning fikrini quvvatlab, F.i kubro bitta sababi saqiyl va bitta vatadi majmu’ qo’shilishidan, F.i sug’ro esa bitta sababi saqiyl va bitta sababi hafif qo’shilishidan hosil bo’ladi, dyeb hisoblaydi.

FUTURIZM (lot. futurum – kyelajak) – XX asr boshlarida maydonga kyelgan avangardistik oqim, san’atning dyeyarli barcha turlarida kuzatilgan, ayniqsa, tasviriy san’at va haykaltaroshlikda ta’siri kuchli bo’lgan, badiiy adabiyotda ham syezilarli iz qoldirgan. F.ning o’z vatani Italiyada, shuningdyek, Rossiyada kyengroq ommalashdi. F.ning adabiy-estyetik va g’oyaviy qarashlari F.Marinyettining “Futurizm manifyesti” (1909) asarida o’z ifodasini topgan. F. adabiy-madaniy an’analar bilan aloqani to’la uzish, yangi zamon (kyelajak)ning yangi adabiyot va san’atini yaratish da’vosi bilan maydonga chiqdi. Qisqacha aytilsa, F. namoyandalari jamiyatdagi taraqqiyot tyendyensiyalaridan kyelib chiqqan holda, uning ertasini, ertangi inson va insoniy munosabatlarni o’zlaricha tasavvur qiladilar va shunga mos adabiyotni yaratish da’vosi bilan maydonga chiqdilar.

MUNDARIJA

1. Fan annotasiyasi **3**

2. Mualliflar haqida ma'lumot **3**

3. Normativ hujjatlar **4**
3.1. Davlat ta`lim standarti **5**
3.2. O`quv reja **15**
3.3. Ishchi o`quv reja **16**
3.4. O`quv dasturi **17**
3.5. Ishchi o`quv dasturi **23**
3.6. Kalendar-tematik reja **31**

4. Ta`lim texnologiyasi **40**
4.1. Mashg`ulotlarning pedagogik texnologiyasi **41**
4.2. Mashg`ulotlarning texnologik xaritasi **100**

5. Nazorat materiallari **197**
5.2. O.N. va Ya.N. uchun testlar **198**
5.3. Yozma ish va og`zaki nazorat savollari (variantlar) **205**
211
6. O`quv materiallari
6.1. Ma`ruzalar matni **216**
217
7. Amaliyot va seminar mashg`ulotlarining ishlanmalari, ularni o`tkazish bo`yicha uslubiy tavsiyalar
278
8. Tarqatma materiallar (referat mavzulari, adabiyotlar ro`yxati, baholash mezonlari, xorijiy manbalar)
298
9. Mustaqil ish mavzulari va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar
366
10. Kurs ishi mavzulari va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar
376
12. Glossariy
403
14. Ishchi o`quv rejada ko`rsatilgan darsliklar, o`quv qo`llanmalar
417
15. Uslubiy qo`llanmalar, uslubiy ko`rsatmalar
433
16. Elektron darsliklar va boshqa elektron o`quv materiallar
438

441

442